

63.2.82/073
K-27

G.A. KASIMOVA
A.A. BOTIROV
D.A. SHOLDAROV



JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI



282/0/8083
22

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**G.A. KASIMOVA
A.A. BOTIROV
D.A. SHOLDAROV**

**JAMG'ARIB BORILADIGAN
PENSIYA TA'MINOTI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lif vazirligi tomonidan darslik sifatida
tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019**

UO‘K: 364.35(075.8)

KBK: 65.272(0)ya73

Taqrizchilar: *i.f.d., prof. A.S. Jo‘rayev;*
i.f.d., prof. A.A. Omonov;
i.f.d., prof. M.I. Alimardonov

K 27 Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Darslik.
G.A. Kasimova, A.A. Botirov, D.A. Sholdarov; –T.: “Iqtisod-Moliya”,
2019. – 468 b.

Darslikda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilgan. Respublikamizda davlat pensiya tizimida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining o‘rni va ahamiyati, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlarining mazmuni ochib berilgan.

Mazkur darslikda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining zarurligi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti faoliyatining huquqiy asoslari, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari berilgan. Shuningdek, Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarishdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilgan. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining iqtisodiy mazmuni va asosiy vazifalari, Xalq bankida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mablag‘lari nazoratining amalga oshirilishi, xorijiy mamlakatlardagi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda ijtimoiy islohotlarning hozirgi sharoitida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini takomillashtirish to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

“Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti” nomli darslik Toshkent moliya institutining “Pensiya ishi” kafedrasida 5231300 –“Pensiya ishi” magistratura mutaxassisligi uchun “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti” fani bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi va ishchi o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlandi.

UO‘K: 364.35(075.8)

KBK: 65.272(0)ya73

ISBN 978-9943-13-862-9

**© G.A. Kasimova, A.A. Botirov,
D.A. Sholdarov, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019**

KIRISH

Hukumatimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik ulkan o'zgarishlar amalgalashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «..Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat»¹.

O'zbekiston Respublikasida «yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi»²: yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash»dan iborat.

«Oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-teknika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha oliy ta'lim tizimini 2017–2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi».³

¹Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi». 2016-yil.

²O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni. 2016-yil. 16-sentabr. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. 5-modda.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3151-sonli qarori. 2017-yil. 27-iyul.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jarayoni, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etish asosida yanada takomillashtiriladi. «Yangi avlod o‘quv adabiyotini yaratish va ularni oliy ta’lim muassalarining ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlari muntazam yangilab boriladi»⁴. Buning uchun xorijiy adabiyotlar asosida davlat tilida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini yaratish, ilmiy maqolalar va tezislar yozish, ilmiy izlanishlar olib borish, mazkur soha xodimlari uchun maxsus adabiyotlar nashr ettirish lozim.

Pensiya ta’motining ikki tomonlama xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, avvalo, pensiya daromadning minimal darajasini kafolatlasa, boshqa tomondan, ma’lum belgilangan sug‘urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o‘rnini bosadi, ya’ni yo‘qotilgan daromad yoki uning ko‘p qismining o‘rnini to‘ldiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, “.....pensiylar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas”⁵.

Pensiya ta’moti milliy g‘oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o‘n yillikda ko‘p mamlakatlar o‘zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan isloh qilish zarurati bilan to‘qnash keldilar. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda avlodlar birdamligi va jamg‘arish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda.

Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va tizim birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli bo‘lib, uni korxona yoki bir tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas. Birdamlik

⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2909-sonli qarori. 2017-yil. 20-aprel.

⁵O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2014-yil. 39-modda.

tizimining muhim jihat shundaki, u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar o'rtasida kambag'allikni jiddiy kamaytiradi. Avlodlar birdamligi tamoyili asosida shakllantirilgan O'zbekiston Respublikasining pensiya tizimi ham oxirgi yillar davomida qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi, bu o'zgarishlar birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotini bozor sharoitlariga moslashtirish va bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq bo'ldi. Juhon amaliyoti asosida davlat pensiya tizimining moliyaviy resurslari davlatning mustaqil – byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga biriktirildi, pensiya ta'minotida sug'urtaviy tamoyillar mustahkamlanib bordi.

Butunlay yangicha bo'lgan jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi shakllantirildi. Mustaqillik yillarda mamlakatimiz pensiya tizimining tashkiliy va qonuniy-huquqiy asoslari ham shakllandi va takomillashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Keksalarini e'zozlash yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi 2302-sonli qarori bo'yicha Davlat byudjetidan ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimiga ajratiladigan moliyaviy mablag'lar miqdori yanada oshirildi. «Keksalarimizga ko'rsatilayotgan maxsus yordamlar, ularning moddiy, ijtimoiy, maishiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarimiz bilan birga ular yashayotgan xonadonlar, mahallalar, qishloq va shaharlarimizni obod va farovon qilish borasidagi faoliyatimiz va ularning amaliy samarasini hech shubhasiz, eksalarimizning hayotini yanada mazmunli va fayzli qilishga qaratildi»⁶.

O'zbekiston Respublikasida kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, ijtimoiy-madaniy sohalarni yanada rivojlantirish, pensiyalar yordamida mamlakatimiz aholisi daromadlarini ko'paytirish, aholi turmush darajasini ko'tarish va aholini manzilli ijtimoiy himoyalash masalalari har doim Hukumatimiz e'tibori markazida bo'ldi. «Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. ...Chunki xalqimiz ertaga

⁶Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2015-yil. 5-dekabr.

emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishni istaydi»⁷.

Bugungi kunda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda Prezident qarori bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo‘nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog‘liq yo‘nalish va tarmoqlarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta‘minlash, uni yangi bosqichga ko‘tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, ijtimoiy ta‘minot va pensiya sohasi rivojining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Pensiya tizimining institutsiional mohiyatidan kelib chiqqan holda, bosh masala - fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish, pensionerlar moddiy ta‘minotining barqaror mexanizmini nazorat qilish vazifasi to‘liq hal etilishi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoyalash shakllari haqida gap borganda, pensiya ta‘minoti davlat ijtimoiy siyosatida muhim o‘rin tutganligi hammaga ma’lum. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida pensiya ta‘minotining ijtimoiy funksiyasi yanada takomillashtiriladi, amaldagi pensiya miqdori fuqarolarning yashash sharoitlarini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda 2018-yil jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo‘lib, iqtisodiyotimizning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash yo‘lida, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo‘ldi. Bugun yurtimizda har tomonlama mustahkam huquqiy asosga ega bo‘lgan ishonchli pensiya ta‘minoti tizimi shakllandи va amalda o‘zini oqladi.

O‘zbekiston Respublikasida “ijtimoiy ta‘minot, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan, onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini

⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr.uz/.../zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyev.

mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro‘yogha chiqarish, ularning hayotda munosib o‘ringa ega bo‘lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi”⁸. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017-yil 2-fevraldaggi PQ-2753-sonli qarori bilan pensiyalar va nafaqlar to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish, naqd pul shaklida pensiyalar va nafaqlarini yetkazib berish va o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar to‘liq va muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagи «Pensiyalar va nafaqlar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2826-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki, Pensiya jamg‘armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqlar, kompensatsiyalar va boshqa to‘lovlarni naqd shaklda to‘lashni «O‘zbekiston pochtasi» AJdan O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki bo‘linmalariga mart-iyul oylari mobaynida bosqichma-bosqich o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida 2017-yil 1-iyuldan pensiyalar va nafaqlarini to‘lash faqat Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqil harakatlanish hamda pensiyalar va nafaqlarini maxsus kassalardan olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslarga pensiyalar va nafaqlar Xalq banki tomonidan bevosita ular yashaydigan joyga yetkazib beriladi.

O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining joriy qilinishi aholining turmush darajasini oshirishda ijobiy burilish yasaydi. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan mamlakatning moliyaviy resurslari sifatida samarali boshqarish va mazkur sohada moliyaviy nazoratni ta’minalash davlat pensiya ta’mintoni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyishi. 2017-yil. 28-fevral.

«Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti» darsligida fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlanirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Aholining ijtimoiy ta’mnotida fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining o‘rni, unga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar, jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanish masalalari yoritilgan. Darslikning mundarijasи kirish qismi, uch bo‘lim, to‘qqizta bob, qirq beshta paragraf, glossاري, adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

Birinchi bo‘limda «Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotining mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdagi roli, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari ko‘rsatilgan.

Darslikning ikkinchi bo‘limida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti faoliyatining mazmuni, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotini boshqarish tartibi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti mablag‘larini shakllantirish manbalari ko‘rsatilgan. Uchinchi bo‘limda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti mablag‘laridan foydalanish mexanizmi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotida moliyaviy nazorat ishlari, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotini takomillashtirish istiqbollarli ko‘rsatilgan.

Darslik respublikamizda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan maxsus adabiyotlar, darsliklar, monografiyalar, matbuotda e’lon qilingan maqolalardan foydalangan holda tayyorlandi. Shuningdek, Internet tarmog‘i orqali olingen ma’lumotlar bilan ham boyitildi. Daslikning har bir bobi yakunida qisqacha xulosalar, talabaning bilimini mustahkamlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanirish maqsadida o‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar va topshiriqlar, test variantlari berildi.

Mazkur darslik bo‘yicha barcha taklif-tavsiyalarni Toshkent moliya institutining Ilmiy-uslubiy Kengashiga yuborishingizni so‘raymiz. Bu kelgusida mazkur darslikni sifat jihatidan yangilangan holda qayta nashr etilishiga va o‘quvchi e’tiboriga taqdim etilishiga yordam beradi, degan umiddamiz.

BIRINCHI BO‘LIM

I BOB. JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Keyingi yillardagi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim o‘zgarishlar, oqilona ijtimoiy siyosatning olib borilishi, keksa yoshdagi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga ko‘rsatilayotgan alohida e’tibor berilishi ijtimoiy siyosat masalalari birinchi darajali ustuvorlik berilayotganligidan dalolat beradi. O‘tgan davr mobaynida aholining real daromadlari, o‘rtacha oylik ish haqi, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va stipendiyalarining oshirib borilishi ham buning yaqqol dalilidir.

Yurtimizda «2015-yilni yurtimizda Keksalarni e’zozlash yili, deb e’lon qilgan edik. Bizning bunday qarorga kelishimizdan asosiy maqsad – bugungi farovon hayotga erishishda munosib hissa qo‘shgan keksa avlod vakillarining izzat-hurmatini joyiga qo‘yish, muhtaram faxriylarimizning ruhini, ko‘nglini ko‘tarish, ular uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish yo‘lida olib borayotgan ishlarimizning samarasini oshirishdan iborat»⁹. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning alohida ahamiyatga egaligi faqat iqtisodiy vaziyatlarga emas, balki o‘zbek oilasiga madad berish, xalqning qadriyatlariga asoslangan holda keksalarga moddiy yordam berish

⁹Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2015-yil. 5-dekabr.

ehtiyoji bilan bog'liq. Respublikamizda bozor munosabatlari rivojlangani sari iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalişlariga bir qator tuzatishlar kiritildi. Eng katta e'tibor haqiqatan ham muhtoj oilalarga yordam berishga qaratildi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida kam ta'minlanganlar, yolg'iz qariyalar, pensionerlar va nogironlarning ehtiyojlari va talablariga alohida e'tibor berildi.

O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashda muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ikkita majburiy pensiya tizimi amal qilmoqda¹⁰:

- asosiy — «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan davlat pensiya ta'minoti tizimi;
- qo'shimcha — 2005-yil 1-yanvardan joriy etilgan majburiy, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zлari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi. Bunda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi davlat pensiya tizimining muqobil shakli emas, balki uni to'ldirishini alohida ta'kidlash kerak. Ikki holatda ham davlat keksaygan shaxslarga minimal pensiya tayinlaydi yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti masalalari «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuniga asosan tartibga solinadi. Respublikamizda 2005-yildan joriy etilgan mazkur tizim amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda, ish beruvchilarining pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosida pensionerlarga amaldagi pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish,

¹⁰ Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya". 2013. 395-b.

keksalik chog‘ida fuqaroning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida joriy qilindi.


O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «Barchamizni oq yuvib, oq taragan, ona yurtimizning og‘ir yukini, uning quvonch va tashvishini umr bo‘yi yelkasida ko‘tarib kelgan mo‘tabar bobolarimiz va momolarimizni, ota-onalarimizni rozi qilish, ularning duosini olish – dunyodagi eng ulug‘, eng savobli ish. ...2015-yilga «Keksalarni e’zozlash yili» deb nom berib, uni mana shunday pok niyat va harakatlar bilan boshlayotganimiz 2015-yilning tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va to‘kinlik yili bo‘lishiga, uning yanada mazmunli o‘tishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi»¹¹.

Farovonlik – aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ehtiyojlari qondirilganligi darajasidir. YaIM ning o‘sish sur’atlari qanchalik yuqori bo‘lsa, aholi farovonligi shunchalik tez ortadi. Farovonlik mazkur jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligi bilan uzziy bog‘liq. Moddiy farovonlik ko‘rsatkichlari sifatida ko‘pincha mulk va pul jamg‘armalari miqdoridan ham foydalaniladi. Chunki joriy daromadlar hamisha ham real iste’mol darajasini aks ettirmaydi.

Aholining jamg‘armalari daromadlar va joriy xarajatlar o‘rtasidagi farqdan iborat. Jamg‘armalar pul yoki natura shaklida bo‘lishi mumkin. Pul jamg‘armalari yoki aholi qo‘lida bo‘lgan pullarning yoxud ularning moliyaviy muassasalardagi omonatlari yoki qimmatli qog‘ozlar (zayomlar, aksiyalar, obligatsiyalar) shaklida bo‘lishi mumkin. Natura shaklidagi jamg‘armalar aholiga tegishli bo‘lgan yer, asosiy kapital (turar-joy, transport) va moddiy zaxiralar sifatida o‘z ifodasini topadi. “Farovonlik kishilar is’temol etadigan ne’matlarning miqdori va sifatini, hayot kechirishning umumiy shart-sharoitining qandayligini bildiradi. Farovonlik ko‘rsatkichini faqat

¹¹Karimov I. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014-yil. 5-dekabr.

iste'mol hajmi bilan cheklab bo'lmaydi, chunki bunda jamg'arishni ham hisobga olish kerak. Jamg'arish esa kelajakdag'i farovonlikni belgilaydi, shu sababdan buni bilvosita ko'rsatkich sifatida qarash mumkin. Jamg'armaning ko'pchiligi topilgan pulning joriy iste'moldan ortib qolganini bildirganidan uni ham farovonlikka xizmat qiladi, deb aytish mumkin»¹².



1.1-rasm. Farovonlik unsurlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, eng asosiy ustuvor vazifa – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini amalga oshirish, «Inson

¹²O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq. 2006. 433-b.

manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oljanob g‘oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishdan iborat. Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo‘lishi kerak.

Turli jamiyatlar, millat va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatlar turlicha bo‘lsa-da, hamma yerda “turmushning yuksak darajasi” deganda, qarashlar o‘xhash bo‘ladi. U oilaning farovonligi, salomatlik, uzoq umr ko‘rish, moddiy farovonlik, ma’lumotning yuqori sifat darajasi, nafaqat salmoqli daromadga ega bo‘lish, balki mehnatdan ma’naviy qoniqish, jamoatchilik orasida obro‘ orttirish, xavfsizlik, madaniy hordiq kabi tushunchalarни qamrab oladi. Insonlar shaxs va fuqaro sifatida o‘z dunyoqarashini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishni, jamiyat hayotida faol ishtirok etishni, o‘z huquq va erkinliklarining hurmat qilinishini, fikrlari e’tiborga olinishini har doim istaydilar.

Inson taraqqiyoti faqatgina ijtimoiy siyosat sohasi bilan cheklanadi, deb o‘ylash xato bo‘ladi. Iqtisodiy taraqqiyotga erishmasdan, mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirmsandan turib odamlarning ehtiyojlarini qondirish va imkoniyatlarini kengaytirishga erishib bo‘lmaydi. Inson taraqqiyoti holatini faqat ta’lim va sog‘liqi saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash ko‘rsatkichlari kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar jamg‘arish va investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste’mol, savdo va texnologiyalar kabi ko‘rsatkichlarsiz inson taraqqiyoti haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Jamiyatning rivojlanishi odamlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun resurslardan oqilona foydalanish darajasiga qarab baholanadi. Shu sababli inson taraqqiyotining bosh komponentlaridan bittasi farovonlik hisoblanadi.

Jamg‘arish – joriy davrdagi qayta ishlashning moddiy asosini kengaytirish orqali aholi iste’molini amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Jamg‘arma deyilganda davlat, aholi va korxona joriy

daromadlarini ularning ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida to'planib borishi tushuniladi. Jamg'arishning asosiy funksiyasi – takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadiga erishishga ko'maklashishdir.

“Jamg'arib boriladigan pensiya” kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarini shakllantirish, keksalik chog‘ida foydalanish shakl va usullari yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti — fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta'minlashdir.

Aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi g‘oyat muhim masala bo‘lib, jamg‘armaning daromadlari va xarajatlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qator masalalarni hal qilishni talab etadi, xususan:

huquqiy jihatdan – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asosini yaratish va takomillashtirish;

tashkiliy jihatdan – O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki tizimi tarkibida fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatini tashkil etish;

uslubiy jihatdan – jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob-kitob yuritish va hisobotlar tayyorlash;

texnik va texnologik jihatdan – jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini moliyalashtirish, fuqarolar uchun davlat interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha katta hajmdagi axborotni to‘plash va qayta ishlashga imkon beradigan samarali faoliyat qiluvchi integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimni yaratish va joriy qilish;

kadrlar ta'minoti jihatidan – O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki tizimi xodimlari hamda yuridik shaxslar, jumladan, korxona va muassasalar, byudjet tashkilotlarining xodimlarini va buxgalterlarini jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining uslubiy

asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qayta o‘qitish va malakasini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida «xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda, oliv ma’lumotli mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliv ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmuni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtiriladi»¹³.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti fanini o‘qitishdan *maqsad* – magistrantlarga mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida davlat pensiya ta’mnoti tizimining ahamiyatini ko‘rsatish, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimi haqida nazariy bilimlar berish, pensiya ta’mnotining samarali faoliyatini ta’minalash bo‘yicha asosiy ko‘nikmalar hosil qilish, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotining ishlash mexanizmini o‘rganish, pensiya tizimini nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur fan o‘z predmetini o‘rganish uchun quyidagi *vazifalarni* qo‘yadi:

- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o‘rganish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimi amal qilish asoslarini o‘rganish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotini boshqarishning tashkiliy asoslarini o‘rganish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotida mablag‘larni shakllantirish manbalarini o‘rganish;

¹³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarkmoqlarining ishtirokini yanada kengatirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3151-sonli qarori. 2017-yil. 27-iyul.

- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida mablag‘lardan foydalanish va xarajatlar tarkibini o‘rganish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida moliyaviy nazoratni amalga oshirish va tashkil etish asoslarini o‘rganish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mablag‘larini tartibga solish usullari, shakllari va vositalarini o‘rganish;
- xorijiy mamlakatlardagi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va respublikamizda ularning ilg‘or tajribalaridan foydalanish.

1.2. Davlat pensiya tizimini isloq qilishda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining o‘rni va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog‘liq masalalar bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘lib qoladi»¹⁴. Mamlakatimizda byudjet siyosatini amalga oshirish, byudjetdan tashqari fondlarni boshqarish, davlat maqsadli jamg‘armalarning daromad bazasini kengaytirish masalalari aholi farovonligini ta’minlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratiladi. Pensiya ta’minotida ko‘zlangan muhim chora-tadbirlar davlat maqsadli jamg‘armalari, byudjetdan tashqari fondlar, sug‘urta tizimi va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy va samarali pensiya tizimlaridan biri jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar barcha sohalarni, jumladan, pensiya ta’minotini ham qamrab oldi. Chunki barcha islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat. Mazkur vazifalarning ijobjiy hal etilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining rivojlanishiga ham bog‘liq.

¹⁴O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi.

Mamlakat rivojlanishining har bir bosqichida ijtimoiy himoya tizimi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklari bilan bog'liq bo'ldi. 90-yillar boshlarida aholining aksariyat qismining daromadlari darajasining keskin tushib ketish holatiga to'qnash kelganda ijtimoiy siyosat aholining turli tabaqalari turmush darajasining yomonlashuvi oqibatlarini minimallashtirish vazifalarini hal etishni o'z faoliyatining muhim yo'naliishi sifatida belgiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan aholi farovonligini oshirishning asosiy yo'naliishi belgilab berildi. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lif, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishning ta'minlanishi, aholining real daromadlarining oshirilishi buning yorqin isbotidir.

Mamlakatda aholi daromadlarining pasayishi, kam ta'minlanganlik darajasining o'sishi, aholi tarkibida qariyalar sonining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan o'tish jarayonlari sodir bo'ldi. Ushbu sharoitda aholini muhim ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash, ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlamiga tushib qolgan insonlarni himoya qilish, ijtimoiy kafolatlarni berish davlat uchun muhim bo'ldi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi ushbu funksiyalarni o'z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlar va milliy davlatchilik shakllanishining murakkab davrida ijtimoiy himoya tizimi tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishga va bir vaqtning o'zida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni qabul qilinganidan keyin o'tgan davr mobaynida jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar hamda pensiya ta'minotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar

ushbu tizimni isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda. Pensiya ta'minoti sohasida islohotlar o'tkazish eng avvalo, bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazasini talab qiladi.

Respublikamizda ishlab chiqilgan «o'zbek modeli»ning besh tamoyilidan biri – kuchli ijtimoiy himoyalashdir. Mazkur tamoyilda aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariiga o'tish bilan bir qatorda, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi qayd etilgan. O'tgan yillar davomida mazkur tamoyil asosida ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, ta'sirchan tizimi yaratildi. O'zbekistonda fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti sohasida yagona tizim yaratilgani mazkur soha faoliyatini yanada takomillashtirishga, ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirishga keng yo'l ochdi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilmoqda.

Hozirgi zamon pensiya ta'minoti tizimi natijalari quyidagilardan iborat:

–birinchidan, demografik va makroiqtisodiy omillarning bevosita ta'sirida pensiya ta'minoti tizimi isloh etiladi, shu munosabat bilan ularga ma'lum muddatlarda tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi;

–ikkinchidan, nodavlat pensiya ta'minoti davlat tomonidan tartibga solinadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida pensiya ta'minotining davlat va xususiy tizimlari bir-birini o'zaro to'ldiruvchilar hisoblanadi. Ushbu jarayon taraqqiyotning ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun bozor mexanizmi bilan taqsimlashning davlat mexanizmi uyg'unlashgan holda qo'llanishini taqozo etadi;

–uchinchidan, pensiya ta'minoti umumiylidkan xususiylikka qarab rivojlanib bormoqda, ushbu holat pensiya ta'minoti ishtiroychilarida qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar shakllanishiga olib keladi;

—to‘rtinchidan, pensiya tizimini isloq qilish zarurligining globallashuvi islohotlar strategiyasining umumiyligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining aholini ijtimoy himoya qilish sohasidagi davlat siyosati aholining mehnatga qobiliyatsiz tabaqalarini, obyektiv sabablarga ko‘ra mehnat faoliyati yuritmaydigan fuqarolarni, belgilangan miqdordan kam daromad oladigan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashga oid tadbirlarning yaxlit, kompleks tizimini ko‘zda tutadi. Bu esa eng muhim ehtiyojlarni qondirishda ijtimoiy ta’minotning pensiya ta’minati yo‘nalishi bilan bog‘liq.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag‘allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish vaqtida ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minlash;
- mazkur daromad bilan kelajakda pensionerlarni turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Jahonda umr ko‘rish davomiyligi muttasil ortib bormoqda. Agar XIX asr oxirida Yevropadagi ko‘pgina mamlakatlarda umr ko‘rishning o‘rtacha davomiyligi 40 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, XXI asr ikkinchi o‘n yilligi boshida esa o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 80 yoshdan ziyod bo‘lgan davlatlar soni tobora ko‘paymoqda. Aholining qarishi pensiya tizimining taqsimlovchi yoki jamg‘arib boriladigan modellaridan qat’iy nazar ish bilan band fuqarolarga pensiya bosimini kuchaytiradi. Natijada pensiya islohotlarini amalga oshirish, ya’ni pensiyaga chiqish yoshini uzaytirish yoki shaxsiy ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mintoni rag‘batlantirish talab qilinadi.

Hozirgi davrda jahonning rivojlangan davlatlarida uch darajali pensiya ta’minati tizimi qo‘llanilmoqda:

—birinchi daraja – ijtimoiy pensiya. Ushbu darajada pensiyaning eng kam miqdori davlatning ijtimoiy taqsimlash pensiya tizimi orqali kafolatlanadi. Ijtimoiy pensiya miqdoriga pensionerning ish haqi

darajasi, ish staji va boshqa ko'rsatkichlarining ta'siri bo'lmaydi yoki juda kam bo'ladi;

– ikkinchi daraja – pensionerlar hayotiy ehtiyojlarini qondirish modeli. Mazkur darajada xodimlarning faol mehnat faoliyati orqali pensiya yoshiga yetgandan so'ng hayotiy ehtiyojlarini to'la qondiradigan miqdorda mablag' jamg'arishi rag'batlanтирilади. Bu model ham davlat tomonidan yoki uning nazoratida tashkil etiladigan taqsimlovchi pensiya tizimi orqali amal qiladi;

– uchinchi daraja – ixtiyoriy qo'shimcha shaxsiy pensiya ta'minoti. Ushbu model sug'urta kompaniyalar, banklar, xususiy pensiya jamg'armalari ishtirokini nazarda tutadi.

1.1-jadval

Pensiya tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

№	Omillar	Omillar xususiyati
1.	Ijtimoiy -psixologik	Rivojlanishning o'ziga xos tarixiy ahamiyati, etnik yoki milliy mentalitet, an'analar, udumlar va qadriyatlar
2.	Ijtimoiy -iqtisodiy	Jamiyatning ijtimoiy strukturasi, fu-qarolarning iqtisodiy farovonligi, davlatning iqtisodiy faoliyati va boshqalar
3.	Ijtimoiy siyosat	Iqtisodiyotda davlatning roli

Pensiya ta'minoti tizimida keng ko'lamli chuqur islohotlarni amalga oshirishga Jahon bankining 1994-yilda e'lon qilingan «Qarish – jahon inqirozidan ogohlantirish»¹⁵ ma'ruzasi sabab bo'ldi. Ushbu ma'ruza pensionerlar umr ko'rish davomiyligi ortishining tarkib topgan tendensiyasi hisobga olingan holda ko'pchilik davlatlar mutlaq mablag'larni avlodlar o'rtaida qayta taqsimlash (*Pay-As-You-Go*) tamoyili asosiga qurilgan pensiya tizimi defitsitiga ro'para keladi, degan ogohlantirish ovoza qilindi.

¹⁵ Averting the Old Age Crisis. World Bank. // <http://www.rensions.wb.pdf>.

Keyingi yillar davomida Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta'minot (*ISSA*) ekspertlari pensiya ta'minoti tizimida jamg'arish va qayta taqsimlash unsurlari nisbati xususida qizg'in bahslar olib borildi. Bu ikki modelning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud ekanligi sababli xalqaro ekspertlar tomonidan bugungi kunda ushbu masala bo'yicha yangi tavsiyat-takliflar tayyorlanmoqda, har bir mamlakatning o'z xususiyatlari va iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, pensiya ta'minotining u yoki bu tizimini mustaqil tanlashi zarurligi haqidagi umumiy fikrga kelindi.

1.2-jadval

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining rivojlanishi

Pensiya ta'minotining turi	Davr	Mamlakatlar	Jarayon
Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi	1851	Malayziya	Barcha ishchi qatlamini qamrab oluvchi jamg'arma kassasi joriy qilingan
	1880	Chili	Majburiy jamg'ariluvchi pensiya tizimi joriy qilingan
	1885	Shveytsariya	
	1986	Buyuk Britaniya	
	1990	Daniya	
	1993	Kolumbiya	
	1994	Argentina	
	1997	Meksika	
	1998	Vengriya	
	1999	Polsha	
	2000	Gonkong	
	2005	O'zbekiston	

Hozirgi davrda rivojlangan davlatlardagi pensiya ta'minoti tizimi uchun fuqarolarning pensiyaga chiqqanidan so'ng mamlakat iqtisodiy faol aholisining ishlab topayotgan daromadini o'zining soydasiga qayta taqsimlash emas, balki faol mehnat faoliyati davomida ishlab topgan mablag'lari hisobiga tirikchilik o'tkazishi xosdir. Har qanday mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va kishilarning keksalikda turmush darajasining pasayib ketishini oldini olishda pensiya tizimi muhim o'rinn egallaydi.

Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiyadolatni ta’minlash, ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta’minotini ko‘paytirish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Fuqarolar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlanadi. Shaxsiy pensiya badallarini ajratishning majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud. Mamlakatimizda davlat pensiya jamg‘armalarini boshqarishning me’yoriy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida pensiya ta’mnidagi iqtisodiy islohotlarning ko‘lamni yanada chuqurlashadi.

O‘zbekiston Respublikasida pensiya islohotlarini olib borishda xorijiy tajribalarni har tomonlama chuqur o‘rganish, Pensiya jamg‘armasi daromadlarini barqarorlashtirish va xarajatlarini optimallashtirish, jahon mamlakatlarida aholining ijtimoiy himoyasiga xizmat qiladigan, keksaygan paytida fuqarolarga munosib turmush sharoitini ta’minlaydigan, shu bilan birga bozor sharoitlariga mos bo‘lgan, fuqarolarning o‘z farovonligini ta’minlashdagi mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladigan mukammal pensiya ta’mnoti tizimini shakllantirish lozim. Sohaning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash masalalari bugungi kunda pensiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalar qatorida bo‘lishi lozim.

1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liqligi

Hozirgi kunda OTMdA ta’lim sifati va natijadorligini oshirish bilan kelgusida mehnat bozori rivojlanishini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlashning istiqbollari yo‘nalishlari belgilanadi. Fanlardan dars jarayonida foydalaniladigan o‘quv materiallarini tegishli

tarmoq(soha)ning muayyan korxonalarning istiqbolli vazifalari va muammolari asosida yangilash hamda boyitib borish, o‘quv jarayoni shakllarini tubdan yangilash, nafaqat nazariy bilimlar berish, balki uni amaliyotda yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlar bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirish choralar ko‘riladi.

Nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham, metodologik hamda tashkiliy jihatdan ham shaxsiy jamg‘ariladigan pensiya ta’minotini tushuntirish hamda mazkur tizimning amal qilishi ancha murakkabdir. Ana shu jihatlar “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti” fanining ham murakkabligini belgilab beradi. Fan sifatida mavjud bo‘lishi uning boshqa maxsus fanlar bilan nazariy jihatdan bog‘liqlikda bo‘lishini talab etadi. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi ishtirokchilari: fuqarolar, ish beruvchilar, soliq organlari, byudjet tashkilotlari, banklar va nazorat organlari faoliyatining mantiqan uzviylikda bo‘lishini va bog‘liqligini belgilab beradi.

Shu bilan birga «Byudjet tizimi», «Davlat maqsadli va byudjet-dan tashqari jamgarmalar», «Davlat pensiya ta’minoti», «Pensiya jamg‘armasi faoliyati», «Pensiya ta’minoti nazorati», «Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimi» kabi qator maxsus fanlar «Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti» fanini o‘zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.4. Davlat pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta’minot yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rildi. Ayniqsa, pensiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy ta’minot tizimida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Bu iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda ma’muriy-buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, “o‘zbek modeli” nomini olgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur modelning prinsiplari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta’minlash;
- davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya’ni islohotlar tashabbuskorib bo‘lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi;
- qonun ustuvorligini ta’minlash;
- kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;
- islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish.

Mamlakatda bu ilmiy asoslangan, puxta ishlab chiqilgan va sobitqadamlik bilan izchil amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ishlab chiqarish ommaviy ravishda pasayib ketishi, ichki va tashqi davlat qarzi haddan tashqari ortishi, aholining turmush darajasi keskin kamayishiga yo‘l qo‘yilmadi.

«O‘zbekistonda pensiyalarning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlari esa 23–28 foizdan iborat. Respublikamizda qabul qilingan byudjet loyihasida qayd etilganidek, joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko‘rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, 2018-yilgi byudjet siyosati konsepsiyasida asosiy e’tibor byudjet xarakatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo‘llab-quvvatlashga va byudjet tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar va ijtimoiy to‘lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning boshidanoq aholini ijtimoiy himoyalashning o‘zbek modeli boshqa xorij modellarini takrorlamagan holda jahondagi rivojlangan mamlakatlarning boy va ilg‘or modellarining tajribasidan ijodiy foydalanishni birlashtirgan model ishlab chiqildi. Mamlakat ustuvorliklari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z milliy modelining qo‘llanilishi o‘tish davrida zarur bo‘lgan egiluvchanlikni ta’minlash

imkonini berdi. Natijalar uzoq kutilmadi, ijtimoiy siyosatning o'zbek modeli samarali ekanligini amaliyat ko'rsatdi. Aholining ayrim qatlamlarining qashshoqlanishiga va turmush darajasining pasayishiiga yo'l qo'yilmadi, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ijtimoiy himoyalandi, fuqarolar uchun bepul sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati saqlanib qolindi.

Insonga munosib turmush sharoitining yaratib berilishi ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadidir. Byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari orqali yo'naltirilgan mablag'lar fuqarolar uchun faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Davlat pensiya ta'minoti siyosatining ustuvor yo'nalishlari aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan.

Pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligi – o'zgaruvchan muhit va ichki transformatsiyalanish sharoitida ma'kum bir vaziyat, muddatda pensiya ta'minoti tizimi moliyaviy resurslarining ijobiy holatidir.

Yevropa davlatlarida pensiya islohotlari jarayonida shartli jamg'arma hisobraqamlari yuzaga keldi. U demografik omilning – aholi umr uzayishining va muddatidan oldin pensiyaga chiqishining pensiya nisbatan ta'sirini kamaytirish imkonini berdi. Muvaffaqiyatli pensiya ta'minoti islohotlari Buyuk Britaniyada ham amalga oshirildi. Ushbu mamlakat o'zining pensiya tizimlarining sezilarli qismini jamg'arish tamoyillari asosida qayta tashkil qildi. Buyuk Britaniyada ikki pog'onali pensiya tizimi shakllantirildi. Birinchi pog'ona – pensionerga minimal daromad olishni ta'minlaydigan, umumiyligi soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladigan majburiy davlat sug'urta ta'mnotinidir. Ikkinci pog'ona – ishlovchining ish haqiga bog'liq bo'lgan pensiya ta'minoti. Ikkinci pog'onadagi davlat jamg'aradigan tizimi yoki xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishni har bir ishlovchi xodimning o'zi tanlaydi.

«Rivojlangan mamlakatlar hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar (Vengriya, Polsha, Qozog'iston, Latviya, Xorvatiya) ham universal taqsimot pensiya sxemalarini isloh qilmoqda, lekin rivojlangan malakatlardan farqli holda, bu islohotlar

iqtisodiy beqarorlik, moliya infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, yashirin iqtisodiyot avj olgan, sug'urta to'lovlarini yig'ish darajasi pasaygan, aholi daromadlarining pastligi ko'p hollarda iqtisodiy taraqqiyotning real darajasiga mos kelmaydigan ko'pdan ko'p pensiya imtiyozlari saqlanib qolgan sharoitlarda amalga oshirilmoqda¹⁶. Umuman olganda, milliy pensiya tizimlari doirasida islohot choralarini va yo'llarini tanlash demografik, madaniy va siyosiy omillar bilan bog'liq (masalan, mamlakatda shakllangan pensiya tizimining tabiatи, demografik vaziyat xususiyatlari, qadriyatlar, siyosiy qarashlar).

Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishning xorijiy tajribalarini o'rganish va respublikamizda uni hayotga tafbiq etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Har bir mamlakat o'zining demografik holati va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, pensiya tizimi islohotlari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi. O'zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirishning muayyan muddatli rejalaridan kelib chiqib pensiya islohotlari amalga oshiriladi. Hozirgi davrda davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish, pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash dunyodagi barcha mamlakatlar oldida turgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy masaladan hisoblanadi.

Respublikamizda bozor munosabatlari rivojlangani sari iqtisodiy islohotlar chuqurlashgan sharoitda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlariga tuzatishlar kiritildi. Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish va modernizatsiya qilish, pensiya tizimida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan islohotlar bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, mustahkam va ishonchli himoya vositasi bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya islohotlarini olib borishda xorijiy tajribalarni har tomonlama o'rganish, jahon mamlakatlarida aholining ijtimoiy himoyasiga xizmat qiladigan, keksaygan paytida fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini ta'minlaydigan, shu bilan birga bozor sharoitlariga mos bo'lgan, fuqarolarning o'z farovonligini

¹⁶Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. T.: 2010.- № 4. 25-b.

ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladigan mukammal pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va uning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash bugungi kunda pensiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalar qatorida bo'lishi lozim.

O'zbekiston pensiya tizimi 3,3 mln dan ortiq fuqarolarni o'z ichiga olib, mamlakat aholisining taxminan 10 foizini qamrab oladi. Bunda yoshga doir pensiya oluvchilar – 2 502,6 ming nafar, nogironlik pensiyasini oluvchilar – 360,3 ming nafar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar – 168,5 ming nafar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar – 294,1 ming nafarni tashkil etadi¹⁷.

Fuqarolarning ijtimoiy sug'urtalash tizimidagi uzluksiz ishtirotkini rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, pensionerlarning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnatga haq to'lash jamg'armasiga fiskal yukning mo'tadilligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, barqaror pensiya tizimiga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan fuqarolarning «Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish bo'yicha Konsepsiya» loyihasi ishlab chiqildi. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Konsepsiysi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Jahon bankining pensiya ta'minoti sohasidagi loyihalari hamda Koreya Respublikasining davlat xizmatchilari Milliy Pensiya Servis va Koreya Respublikasining Milliy Pensiya Servisi tavsiyalariga asoslandi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo'yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko'ra 2018–2025-yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln kishiga) oshishi kutilmoqda, bu esa o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi xarajatlarning mutanosib ravishda oshishiga olib keladi. Shunday qilib, 2016-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar sonining ortib borishi (yillik o'rtacha o'sish – 16 ming nafar fuqaro) kuzatildi va 2025-yilga borib 300 ming nafarga

¹⁷"Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiysi" loyihasi. <http://pfru.uz/uz>

ortishi kutilmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning asosiy o'sishi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan 50–60-yillarda tug'ilgan fuqarolarning umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog'liq.

Mamlakat aholisining qarib borishi ko'rsatkichi shuni ko'rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining soni o'sish tendensiyasiga ega (2010-yildagi aholining umumiy soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018-yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra 2019-yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9,0 foizdan ortib va 2025-yilga borib 11,0 foizga yetadi (2011-yildagi 6,2 foizga nisbatan). Amaldagi pensiya ta'minoti tizimi hozirgi zamон talablariga to'liq javob bera olmaydi, fuqarolarni keksaygan yoshda, mehnat qobiliyatini yo'qtoganda va boquvchisini yo'qtoganda ijtimoiy himoyasi uchun maksimal darajadagi maqbul shart-sharoitlarni ta'minlay olmaydi. Imtiyozli pensiya ta'minotining, bugungi kunda dunyo amaliyotida deyarli qo'llanilmaydigan alohida toifadagi shaxslarning pensiyalariga asossiz ustama va qo'shimchalarning keng amaliyoti yuzaga kelgan. Xususan, fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzlucksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lishi kerak. Buning natijasida mehnatga layoqatli aholining 100,0 foizi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinishi kerak. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi yaqin keljakda kutilayotgan nomutanosiblik, o'z navbatida, pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishga to'sqinlik qilishi aniq.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'imaydi, bu islohotlarni respublikamizda boshqa islohotlar bilan, aholi daromadlarini oshirish, investitsiya, inflyatsiya, bandlik sohasidagi masalalarni hal qilish, soliq, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirishda davlat maqsadli jamg'armalaridan moliyalashtirish saqlanib qolinadi. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha yangiliklarni amalga oshirishda milliy urf-odatlar, qadriyatlar, qariyalarga yordam e'tiborga olinadi. Kelgusida ijtimoiy islohotlarning pensiya sohasidagi ko'rinishi - jamg'arib boriladigan pensiya

ta'minotida pensiya yoshidagi qariyalarning daromadlarini kafolatlashning samarali mexanizmiga tayaniadi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasining aholini ijtimoy himoya qilish sohasidagi davlat siyosati aholining mehnatga qobiliyatsiz tabaqa-larini, obyektiv sabablarga ko'ra mehnat faoliyati yuritmaydigan fuqarolarni, belgilangan miqdordan kam daromad oladigan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga oid tadbirlarning yaxlit, kompleks tizimini ko'zda tutadi. Bu esa eng muhim ehtiyojlarni qondirishda ijtimoiy ta'minotning pensiya ta'minoti yo'nalishi bilan bog'liq. Yurtimizda 2015-yilni «Keksalarni e'zozlash yili», deb e'lon qilinishidan asosiy maqsad – bugungi farovon hayotga erishishda munosib hissa qo'shgan keksa avlod vakillarining izzat-hurmatini joyiga qo'yish, muhtaram faxriyalarimizning ruhini, ko'nglini ko'tarish, ular uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish yo'lida olib borayotgan ishlarimizning samarasini oshirishdan iborat.

Farovonlik – aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ehtiyojlari qondirilganligining darajasidir. YaIM ning o'sish sur'atlari qanchalik yuqori bo'lsa, aholi farovonligi shunchalik tez ortadi. Farovonlik mazkur jamiyatda amalga oshiralayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Moddiy farovonlik ko'rsatkichlari sifatida ko'pincha mulk va pul jamg'armalari miqdoridan ham foydalilanadi. Chunki joriy daromadlar hamisha ham real iste'mol darajasini aks ettirmaydi. Aholining jamg'armalari daromadlar va joriy xarajatlar o'rtasidagi farqdan iborat. Jamg'armalar pul yoki natura shaklida bo'lishi mumkin. Pul jamg'armalari yoki aholi qo'lida bo'lgan pullarning yoxud ularning moliyaviy muassasalaridagi omonatlari yoki qimmatli qog'ozlar (zayomlar, aksiyalar, obligatsiyalar) shaklida bo'lishi mumkin.

Farovonlik kishilar is'temol etadigan ne'matlarning miqdori va sifatini, hayot kechirishning umumiy shart-sharoitining qandayligini bildiradi. Farovonlik ko'rsatkichini faqat iste'mol hajmi bilan cheklab

bo‘lmaydi, chunki bunda jamg‘arishni ham hisobga olish kerak. Jamg‘arish esa kelajakdagi farovonlikni belgilaydi, shu sababdan buni bilvosita ko‘rsatkich sifatida qarash mumkin. Jamg‘armaning ko‘pchiligi topilgan pulning joriy iste’moldan ortib qolganini bildirgaligi uchun ham farovonlikka xizmat qiladi.

Mamlakatimizda byudjet siyosatini amalga oshirish, byudjetdan tashqari fondlarni boshqarish, davlat maqsadli jamg‘armalarning daromad bazasini kengaytirish masalalari aholi farovonligini ta’minlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Pensiya ta’minotida ko‘zlangan muhim tadbirlar davlat maqsadli jamg‘armalari, byudjetdan tashqari fondlar, sug‘urta tizimi va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasi orqali amalga oshiriladi.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag‘allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish vaqtida ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minlash;
- mazkur daromad bilan kelajakda pensionerlarning turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingandan keyin o‘tgan davr mobaynida jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar hamda pensiya ta’minotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar ushbu tizimni isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda. Pensiya ta’minoti sohasida islohotlar o‘tkazish eng avvalo, bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazasini talab qiladi.

O‘zbekistonda amal qilayotgan pensiya ta’minotining har ikkala tizimi pensionerlarning turmush farovonligini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Mamlakatlar pensiya tizimlari holatini baholashda avvalo, pensiya fondlarining daromadlari va xarajatlari bazasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko‘ra davlat pensiya ta’minoti majburiy ijtimoiy sug‘urta badallari hisobidan aholining

ijtimoiy muhtoj aholi qatlamlariga pullik to‘lovlar vositasida ko‘rsatiladigan yordamni ifodalaydi. Mazkur yordam ularning jamiyat tomonidan qabul qilingan o‘rtta darajadagi turmush farovonligi darajasini kafolatlashi talab etiladi. Respublikamizda ishlab chiqilgan «o‘zbek modeli»ning besh tamoyilidan biri – kuchli ijtimoiy himoyalashdir. Mazkur tamoyilda aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi qayd etilgan. O‘tgan yillar davomida mazkur tamoyil asosida ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, ta’sirchan tizimi yaratildi. O‘zbekistonda fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti sohasida yagona tizim yaratilgani mazkur soha faoliyatini yanada takomillashtirishga, ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirishga keng yo‘l ochdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan chuqr o‘rganilmoqda.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo‘lmaydi, bu islohotlarni respublikamizda boshqa islohotlar bilan, ya’ni aholi daromadlarini oshirish, investitsiya, inflyatsiya, bandlik sohasidagi masalalarni hal qilish, soliq, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo‘yicha yangiliklarni amalga oshirishda milliy urf-odatlar, qariyalarga yordam e’tiborga olinadi, pensiya tizimini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan moliyalashtirish saqlanib qolinadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalq forovonligi; ijtimoiy siyosat; aholini ijtimoy himoyalash tizimi; aholi turmush darjasasi; davlat pensiya tizimi; ijtimoiy ta’minot; jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti; soliqlar; majburiy badallar; pensionerlar; nogironlar; iqtisodiy faol aholi; ish beruvchilar; yuridik shaxs; jismoniy shaxs; pensiya ta’minoti islohotlari.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirishda qanday pensiya islohotlari amalga oshirildi?
2. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti, deganda nimani tushunasiz?
3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanini o‘qitishning maqsadi va predmeti nimalardan iborat?
4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanining asosiy vazifalarini aytib bering.
5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini qanday izohlaysiz?
6. Xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan uch darajali pensiya ta’minoti tizimini tushuntiring.
7. Davlat pensiya ta’minotida amalga oshirilayotgan islohotlarda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tutgan o‘rni va vazifalarini tushuntiring.
8. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanining zarurligi va rivojlanish shart-sharoitlarini qanday izohlash mumkin?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida pensiya ta’minotining ahamiyatini tahlil ma’lumotlari bilan izohlangan xulosa tayyorlang.
2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi hamda Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti fanining maqsadi va vazifalari aks ettirilgan klaster tayyorlang va izoh yozing.

Test savollari

1. Shaxslarga pensiya yoshiga to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi nima deb ataladi?
 - A. Pensiya.
 - B. Yordam puli.

- C. Transfert.
D. Nafaqa.
- 2. Pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishga Jahon bankining ... e'lon qilingan «Qarish - jahon inqirozidan ogohlantirish» ma'ruzasi sabab bo'ldi.**
- A. 1994-yilda.
B. 1991-yilda.
C. 1890-yilda.
D. 2000-yilda.
- 3. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalarini ko'rsating:**
- A. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.
B. Davlat byudjeti.
C. Davlat byudjeti, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.
D. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi.
- 4. O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi .. amaliyotga kiritildi:**
- A. 2005-yil 1-yanvardan.
B. 2010-yil 31-dekabrdan.
C. 2016-yil 10-yanvardan.
D. 2015-yil 1-martdan.
- 5. Mamlakatda farovonlik unsurlari:**
- A. Ta'lim, salomatlik.
B. Ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimi.
C. Mehnat sharoiti, ish bilan bandlik.
D. Barchasi to'g'ri.
- 6. fani "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti" fanini o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.**
- A. Davlat pensiya ta'minoti.

- B. Davlat byudjeti.
- C. G'aznachilik.
- D. Moliya.

7. Pensiya tizimi oldida qanday muhim maqsadlar turadi?

- A. Fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash.
- B. Mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish vaqtida ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan kafolatlangan daromadni ta'minlash.
- C. Mazkur daromad bilan kelajakda pensionerlarning turmush darajasining pasayishidan himoyalash.
- D. Barchasi to'g'ri.

8. Shaxsiy pensiya ta'minotiishtirokini nazarda tutadi.

- A. Sug'urta kompaniyalari.
- B. Banklar.
- C. Xususiy pensiya jamg'armalari.
- D. Barchasi to'g'ri.

9. O'zbekiston Respublikasida pensiyalarning o'rtacha miqdori o'rtacha ish haqiga nisbatan ...tashkil etdi.

- A. 41,0 foiz.
- B. 37,5 foiz.
- C. 23,0 foiz.
- D. 25,0 foiz.

10. O'zbekiston Respublikasi hududida 2018-yildan fuqarolarning ish haqidan jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha badallar ... qabul qilingan.

- A. 2 foiz.
- B. 1 foiz.
- C. 8 foiz.
- D. 5 foiz.

II BOB. JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTINING MOHIYATI, AHAMIYATI VA AHOLINI IJTIMOIY QO’LLAB-QUVVATLASHDAGI ROLI

2.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotinining mohiyati va mazmuni

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiyat rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish, aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash kabi vazifalar bajariladi.

Mamlakatda davlat pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” (qayta taqsimlash) tamoyiliga asoslangan bo‘lib, pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli davlat maqsadli jamg‘armalariga, shuningdek, jamg‘ariladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag‘lar qo‘yishini inkor etmaydi. Pensiya yoshiga yetganda, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat‘i nazar tayinlanadi.

Pensiya ta’mnoti sohasida amalga oshirilgan chuqr islohotlar, ularning zamonaviy ko‘rinishlarining amaliyotga joriy etilishi respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash masalalarining to‘g‘ri tashkil etilganligidan dalolat beradi. Jahon pensiya tizimini isloh etish tajribasining chuqr tahlili va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish Konsepsiysi aralash pensiya tizimini shakllantirishdan iborat, degan xulosa chiqarish mumkin.

O‘zbekistonda “avlodlar birdamligi” tamoyili asosidagi taqsimot-tortiluvchan pensiya tizimi bilan birga bosqichma-bosqich jamg‘ariladigan pensiya tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq

ravishda izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Buning natijasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar bo‘yicha ish beruvchilar, tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Iqtisodiyot bo‘yicha 1998-yilgi Nobel mukofoti laureati Amartiya Sen¹⁸ning nazariy ishlanmalarini inson salohiyatini rivojlanish muammosiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. U tomonidan 1989-yilda “Rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish sifatida” asari e’lon qilindi. Bu asarda “imkoniyat nuqtayi nazaridan” yondashish deb nomlangan usuldan foydalanildi.

A. Sen rivojlanish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi nuqtayi nazaridan emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida tahlil etdi. Uning nuqtayi nazariga ko‘ra jamiyatda aholi turmush darajasini daromadlarning o‘rtacha darajasiga qarab emas, balki odamlarning o‘zлari munosib, deb hisoblagan hayot kechirishlari uchun mavjud imkoniyatlari bo‘yicha baholash lozim.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim shartlaridan biri - har bir shaxsning o‘z manfaatlarni birinchi navbatda himoya qilishi, o‘z imkoniyatlarini ifodalashi kerak.

Davlat fuqarolar o‘z turmush darajalarini oshirishlari uchun ularga tegishli qonunlar tizimi orqali zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishi va fuqarolarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro nisbat o‘zgarib borgan sari bu ikki omil albatta, ijtimoiy ta’minot va pensiya tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

“Hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun” konsepsiyasining izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonda insonni

¹⁸ Amartiya Kumar Sen (Amartya Kumar Sen, 1933-yilda tug‘ilgan) – hindistonlik iqtisodchi, “farovonlik iqtisodiy nazariyasiga hissasi uchun” 1998-yilgi Nobel mukofoti laureati. Asosiy asarlari: “Kambag‘allik va ochlik” (“Poverty and Famines”, 1981), “Tengsizlik muammosiga qaytish” (“Inequality Reexamined”, 1992), “Rivojlanish erkinlik sifatida” (“Development as Freedom”, 1999).

rivojlantirish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minladi. Insonni rivojlantirish konsepsiysi – ijtimoiy taraqqiyotga yangicha istiqbolli yondashuv bo'lib, uning markaziga insonning hayoti tanlov imkoniyatlarini kengaytirish qo'yilgan".¹⁹

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000-yil sentabrda Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi e'lon qilindi. 189 mamlakat tomonidan qabul qilingan ushbu Deklaratsiyada davlatlar o'z zimmasiga qashshoqlikka barham berish uchun yangi global sheriklikni yo'liga qo'yish majburiyatini oldilar, shuningdek, 2015-yilga borib erishilishi kerak bo'lgan boshqa maqsadlar ham belgilandi va *Mingyillik rivojlanish maqsadlari* nomini oldi. «...Mamlakatimiz 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida *Mingyillik rivojlanish maqsadlariga* erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi»²⁰. O'zbekistonda *Mingyillik rivojlanish maqsadlariga* erishish hamda YuNDAF 2010–2015-yillar dasturi bo'yicha turmush darajasini oshirish yuzasidan quyidagilar ko'zda tutilgan:

–aholining kam ta'minlangan qatlamlari turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy himoya choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqaruvning markaziy va mahalliy organlari salohiyatini mustahkamlash;

–aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ishga joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

–biznes yuritish sohasida mikromoliyalashtirish xizmatlaridan hamda maslahat-axborot xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish;

–aholining muhim ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

¹⁹Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 363 b.

²⁰O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

Ijtimoiy muhofazaning “iqtisodiyot inson uchun” tarzida bo‘lishi lozim bo‘lgan zamonaviy iqtisodiyotga o‘tish uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat’iy nazar pensiya ta’minoti tizimidan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda “ertangi kunga ishonch” bo‘lishiga erishish mumkin.

A.Smit iqtisodiyotga “*iqtisodiy odam*” atamasini ham kiritgan. Uning fikriga ko‘ra “*iqtisodiy odam*” o‘z shaxsiy manfaati va maqsadini ko‘zlab, turmushini yaxshilashga intiladi. Shu bois, “*iqtisodiy odam*” o‘z manfaatini ko‘zlagan holda jamiyat manfaati uchun ham mehnat qiladi²¹. Respublikamizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalar (risklar) dan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi.

Jahon tajribasi guvohlik beradiki, keksalarni moddiy ta’minalashga imkon yaratuvchi kuchli moliyaviy mexanizmini yaratish lozim. Pensiya tizimi majburiyatlarining juda kengayib ketganligi bilan bir qatorda taqsimot tamoyillariga asoslangan pensiya tizimi ishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Chexiyada pensiya bilan ta’minalashni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari - zararli va og‘ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug‘urta qilingan badallariga qo‘srimcha ixtiyoriy badallarni kiritish, to‘langan badallar va olingan pensiyalar o‘rtasida aloqani kuchaytirish, ko‘p rejali ijtimoiy sug‘urta tizimini rivojlantirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015–2020-yillarda 65 yoshgacha oshirish, individual pensiya rejalarini imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

«Belgilangan to‘lovli pensiya rejasida ish beruvchi xodimga uning ish haqi va ishlagan yillari asosida pensiya to‘lovlaring

²¹ Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, New York, Random House. 1937. –R..330-335.

belgilangan darajasini kafolatlaydi. Ish beruvchining belgilangan to‘lovlar bo‘yicha rejalarни moliyalashtirishi uchun ish beruvchilar tomonidan pensiya badallarini talab etadi, xususiy tarmoqda bunday rejalar ishchilar tomonidan badallarini talab etmasada, o‘z navbatida davlat tarmog‘ida ishchidan o‘z hissasini qo‘sishni talab etadi. Bu ish beruvchining kafolatlangan to‘lovlarni to‘lash uchun yetarli moliyaviy resurslarni topish mas’uliyatidir. Badallar aniq dasturida, ishchi mehnat haqidan belgilangan foizni yoki individual tartibda qisman yoki to‘liq hajmda kelishilgan ish beruvchining ajratmasi asosida mehnat haqi fondidan majburiy ajratma ajratadi».²²

Pensiya daromadi noaniqligi belgilangan badalli pensiya fondlari a’zosi uchun eng muhim masala bo‘lsada, uning moliyalashtirishni boshqarish, moliyalashtirish bilimi va tartibi hamda diversifikatsiyasi bilan bog‘liq potensial kamchiliklari ham mavjud²³:

Individual mablag‘ kiritish hisobi o‘zining kichik o‘lchami tufayli katta belgilangan to‘lovli pensiya fondlaridan ko‘ra yuqoriroq boshqaruv xarajatlarini keltirib chiqaradi, lekin u foyda olib kelishi mumkin. Avval ham aytib o‘tilganidek, boshqaruv to‘lovidagi kichik farq vaqt o‘tishi bilan aktivlar foizi sifatida to‘plangan aktivlar narxidagi katta farqlarga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatli uzoq muddatli mablag‘ kiritish - mablag‘ kiritish haqidagi bilim va tartibni talab qiladi. Mablag‘ kiritish haqidagi bilim uzoq muddatli aktivlarni taqsimlash strategiyasini ishlab chiqish uchun talab etiladi²⁴.

Mablag‘ kiritish tartibi mablag‘ kirituvchi moliya bozoridagi ko‘tarilishlar va tushib ketishlar orqali uzoq muddatli mablag‘ kiritish strategiyasini ushlab turish uchun talab etiladi. Unda yetarlicha bilim yoki tartib yoki ikkalasi ham bo‘lmasa, bu uning moliyalashtirish maqsadlariga erisha olmasligi ehtimolini oshiradi. Hattoki, agar belgilangan badalli pensiya fondlari a’zosi bilim va tartibga ega

²²Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications. 2008. –P.208.

²³Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications. 2008. –P.190.

²⁴Barton Waring M, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011.-P.28.

bo‘lsa ham uning mablag‘ kiritish portfoliosi katta davlat pensiya dasturlari kabi turlicha bo‘lmaydi, chunki bir qancha mablag‘ kiritish variantlari yakka tartibdagi mablag‘ kirituvchilar uchun mavjud emas, yakka tartibdagi hisobraqamining nisbatan kichik o‘lchami tufayli shunday bo‘ladi. Masalan, faqat yirik davlat pensiya fondlari alternativ moliyalashtirish instrumentlarini sotib olishi mumkin, bevosita moliyalashtirish fondi, xedj fondlar va ko‘chmas mulk obyektlarini bevosita moliyalashtirish shular jumlasidan. Bunday mablag‘ kiritish instrumentlarining aksiyalar va obligatsiyalar kabi an’anaviy mablag‘ kiritish variantlari bilan past darajada o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lishga moyilligi tufayli ushbu aktivlarning kam ajratilishi butun protfolio uchun kelajakda diversifikatsiyani ta’minlay oladi.

Ijtimoiy institut – o‘zini takror hosil qilish va rivojlantirishni ta’minlash maqsadida jamoaviy faoliyatda ishtirok etayotgan odamlarning barqaror uyushmasidir. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – ijtimoiy ta’minot tizimining xalqimizga xos noyob tizimidir. Pensiya jamg‘armasi institutining joriy qilinishi aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini moliyalashtirishda va pensiya ta’minotida ijobiy burilish yasadi.


Pensiya jamg‘armasidagi fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg‘arma badallari ularni davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi, muayyan jamg‘arma tashkil etgan aholi toifalariga to‘lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo‘ljallangan mustaqil pul jamg‘armalari sifatida ta’riflash imkonini beradi.

Pensiya tizimining obyektlari – davlat va nodavlat pensiya ta’minati idoralari, pensiya jamg‘armalari, pochta bo‘limlari, bank muassasalari va boshqalar.

Pensiya tizimining subyektlari – davlat, ish beruvchilar va pensionerlar (nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar), ish bilan band faol aholi, pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarni amalga oshiradigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar. Mazkur subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarda eng asosiysi - aholining moddiy ne’matlar

yaratayotgan qismi bilan jamiyatning mehnatga layoqatli bo‘limgan a’zolari o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni mutanosiblashtirishdir.

Mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimi huquqini mustahkamlash, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilashdagi mas’uliyatini kuchaytirish, pensiya oluvchilarga davlat pensiya to‘lovlariga qo‘srimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, shuningdek, keksalik chog‘ida fuqarolarning o‘z farovonligi uchun imkoniyatlarini va shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida islohotlar olib borildi, natijada 2005-yildan boshlab respublikamizda “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi” amaliyotga joriy qilindi. Nodavlat pensiya jamg‘armalarining zarurati ikki sabab bilan asoslanadi²⁵.



2.1-rasm. Davlat pensiya tizimi subyektlari

Birinchidan – bozor munosabatlari va demokratiya fuqarolarga ko‘proq erkinlik va davlat tasarrufidan mustaqil bo‘lish imkonini berish bilan bir qatorda ularga farovon turmush tarzi va ijtimoiy jihatdan ta’minlanish borasida katta mas’uliyat yuklaydi. Har bir fuqaro mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan taqdirda o‘zini ijtimoiy himoya qilish masalalariga jiddiy yondashishi lozim.

Ikkinchidan – har bir davlatning qanchalik rivojlangan va iqtisodiy salohiyatidan qat’iy nazar molivaviy imkoniyatlarining chegarasi mavjud. Davlat fuqarolarni mehnat qobiliyatini

²⁵ Kasimova G.A. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari. Monografiya. «Iqtisod-Moliya». – T.: 2008. – 89-b.

yo‘qotgunlariga qadar bo‘lgan ijtimoiy himoyalanganlik darajasini o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat tasarrufida bo‘limgan pensiya ta’minoti tizimini tashkil etishning obyektiv zarurati mavjud, deb o‘ylaymiz.


O‘zbekistonda jahon yutuqlaridan va xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, pensiya ta’minotining yangi tizimi paydo bo‘ldi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti - fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlashdir.

Aksariyat xorijiy davlatlarda turli pensiya ta’minoti tizimlari uchraydi.

1. Taqsimlash turidagi pensiya tizimi. Mazkur modelning mohiyati pensiya to‘lovleri uchun joriy xarajatlar joriy tushumlar hisobiga amalga oshirilishidan iborat. *PAYG* (*Pay-as-you-go*) so‘zining lug‘aviy tarjimasi – “Ishlayotgan ekansan to‘lab qo‘y”. Pensiya ta’minotida - *PAYG*, ya’ni aholi katta avlod vakillarining pensiya ta’minotini mamlakatning iqtisodiy faol aholisi ta’minlaydi, degan ma’noni beradi. Taqsimlash tizimidagi pensiya modelida pensionerlarga pensiya to‘lash uchun mablag‘lar uch manbadan shakllantirildi: ish bilan band xodimlar to‘lovleri: ish haqi fondidan majburiy to‘lovlar; davlat dotatsiyalari va davlat subvensiyalari. Taqsimlash pensiya tizimining uchta asosiy kamchiligi mavjud: pensiya xarajatlariga demografik ko‘rsatkichlarning ta’siri; pensiyaning o‘rtacha ish haqiga bog‘liqligi; mablag‘ to‘planishi koeffitsiyenti.

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi. Mazkur model joriy va kelajakdagi pensiya to‘lovlarini amalga oshirish uchun maxsus mablag‘ zaxirasini yaratishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Pensiya ta’minoti mohiyati jihatidan uzoq muddatli investitsiya jarayonidan iborat bo‘lib, dastavval to‘lanadigan badallar hisobiga pensiya kapitali shakllantiriladi. U iqtisodiyotga investitsiya qilinadi, shuning hisobiga pensiya kapitali ko‘paytiriladi.

Pensiya to‘lovlari ana shu jamg‘arilgan pensiya kapitali hisobidan amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir shaxs pensiyasi bevosita uning mehnat faoliyati davomida pensiya jamg‘armasiga to‘lagan badallari hamda bu badallar hisobiga shakllantirilgan kapitalning iqtisodiyotga investitsiya sifatida kiritilishi natijasida olingan foydaga bog‘liq.



2.2-rasm. Pensiya ta'minoti tizimlarining tasnifi²⁶

Ko‘rinib turibdiki, ushbu modelning asosiy g‘oyasi fuqaroning faol mehnat faoliyati davomida kelgusida oladigan o‘z pensiyasi uchun mablag‘ jamg‘arishdir. Davlat fuqarolarga yoshga doir pensiya eng kam miqdorini to‘lash kafolatini oladi. Har bir xodim esa ish beruvchi mablag‘lari hisobidan jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya sug‘urtasida ishtirok etadi. Mazkur model tarafдорлари jamg‘arilgan badallari qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilishdan olinadigan foya inflyatsiya darajasi va ish haqi o‘sishi sur’atlaridan yuqori ekanligini, shu tufayli pensiya jamg‘armalari pensionerga munosib pensiya to‘lashga qodir ekanliklarini asos qilib keltirishdi.

²⁶ Kasimova G.A., Sholdarov D.A. Pensiya ta'minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. Toshkent.: 2017. – 33-b.

2.1-jadval

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining tavsifi

Nº	Mezon	Afzalligi	Kamchiligi
1.	Demografik omil	Har kim o‘zi uchun pensiyani jamg‘arganligi tufayli demografik omil ta’sir etmaydi	-
2.	Davlat va xususiy komponentlarning mutanosibligi	To‘liq davlat tomonidan (Singapurda), to‘liq xususiy sektor tomonidan (Chili), shuningdek, «aralash» amalga oshirilishi mumkin	-
3.	Milliy iqtisodiyotga bog‘liqligi	Ushbu model mablag‘lari iqtisodiyot uchun uzoq muddatli investitsiya hisoblanadi	Umumiqtisodiy inqiroz sharoitida tizimda katta yo‘qtishlar bo‘lishi mumkin
4.	Davlat byudjeti bilan o‘zaro bog‘liq ligi	Davlat byudjeti barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi	Barcha mamlakatlarda davlat tomonidan kafolatlanmaganligi
5.	Aholining xabardorligi darajasi	-	Aholi mazkur tizimning moliyaviy ahvoldidan doimiy xabardor bo‘lishi darkor
6.	Pensiya miqdori	-	-
7.	Pensiya miqdorida farq	Jamg‘armaga ko‘p badal to‘lagan fuqarolar yuqori pensiya olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar	-

Jamg‘ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta’minalash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to‘lovleri ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo‘lgan ish haqidan, balki mehnat faoliyati mobaynida to‘langan badallari miqdoriga hisoblangan foizni ifoda etadi. Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida jamg‘arma badallari nisbatan

yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qo‘llanishi mayjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo‘naltiriladi.

2.2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotinining davlat pensiya ta’mnotinidagi ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «....Yurtimizda o‘tgan yillar davomida... pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o‘sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig‘idir»²⁷. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan, besh tamoyilga asoslangan va amaliyatga izchil joriy etilgan milliy taraqqiyot modeli mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy himoyadir, chunki O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda ilmiy jihatdan asoslangan pensiya tizimini yaratish va takomillashtirishning zarur sharti jahon yutuqlaridan va xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy pensiya ta’mnotinining yangi tizimi paydo bo‘ldi.

Mazkur tizimning mamlakatimizda qo‘llanilishi jarayonida quyidagilarga amal qilish ko‘zda tutilgan:

- jamg‘arib boriladigan pensiyaning umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalanish huquqining ta’minlanishi;

- jamg‘arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarining birligi teng huquqliligi shaxsning ijtimoiy ta’mnotinga

²⁷Karimov I. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konsstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014-yil. 5-dekabr.

bo‘lgan ehtiyoji ta’minlanadi va uning keksalik chog‘ida yaxshi yashashi uchun ta’sir ko‘rsatishi;

– turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o‘zida amal qilishidagi mustaqilligi va o‘zini-o‘zi idora qilish sharoitida majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya bo‘yicha to‘lovlar darajasi va tizim barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokining majburiyligi;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga uning jamg‘argan badallari to‘lashidagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil bo‘lgan mablag‘dan turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar ko‘rsatishi ta’minlanishi;

– aholining tegishli ijtimoiy toifalarini qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakatning barcha aholisining u yoki bu pensiya ta’minoti turidan manfaatdorligi;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi barcha shaxslarning xarajatlarini moliyalashtirish bo‘yicha majburiyat va natijada ega bo‘lingan huquq va kafolatlar nuqtayi nazaridan tengligini ta’minlanishi.

Davlat pensiyasiga chiqqanlarni qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlash, fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuni kuchga kirdi. Bu esa jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining yangi shakli sifatida jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Byudjetdan tashqari shakllantirilgan pensiya jamg‘armalari tabiatiga ko‘ra ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, bu jamg‘armalar jamiyatdagи mehnatga layoqatsiz bo‘lgan a’zolarning moddiy holatini yaxshilash vazifasini hal qilish maqsadini ko‘zlaydigan muhim ijtimoiy institut, deb hisoblanadi, ular yordamida kishilar keksalik davrida davlat tomonidan kafolatlangan eng kam miqdordan yuqoriroq daromad olish imkonini qo‘lga kiritadilar. Fuqarolar o‘z pensiya badallarini mustaqil tartibga solish

yoki bu vazifalarni kasaba uyushmalari orqali o‘z ish beruvchilarining zimmasiga o‘tkazish imkoniga ega. Ikkinchidan, bu jamg‘armalar mamlakatning iqtisodiy tizimida muayyan vazifani bajaradigan o‘ziga xos moliyaviy institutlardir. Bunday institutlar fuqarolarning jamg‘arilgan pullarini uzoq muddatli investitsiyalash maqsadida jamlash bilan shug‘ullanadilar.

2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimining rivojlanishi

Yil	Jarayon
1991	Milliy Pensiya tizimi faoliyat yurita boshladi
1993	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etildi
1994	O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuni amalga kiritildi
1996	Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi
1997	Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashdi
2000	Pensiya jamg‘armasiga davlat maqsadli jamg‘armasi maqomi berildi
2004	Pensiya jamg‘armasi Moliya vazirligining idoraviy tashkiloti etib belgilandi
2005	Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tashkil etildi
2009	Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining barcha pensiya tayinlovchi va TMEX birliklari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tarkibiga o‘tkazildi
2010	Pensiya jamg‘armasi Pensiya jamg‘armasi Moliya vazirligi tarkibiga kiritildi
2018	Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida majburiy badallar miqdori 1,0 foizdan 2,0 foizga oshirildi
2018	«Davlat pensiya ta’minoti tizimni isloh qilish konsepsiyası» loyihasi ishlab chiqildi

Ijtimoiy pensiya tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichdayoq, pensiya oluvchi shaxslarning o‘zlari badal to‘lay boshladilar. Ishlovchilarga to‘lanadigan pensiya ularga beriladigan

yordam emas, balki ularning huquqlarini ro'yogga chiqarish shaklidir. Jamg'arib borilgan badallar esa nafaqa oluvchining moddiy ahvolini yaxshilash uchun olingan mablag'dir. Fuqarolardan olinadigan majburiy badallar ularni kelajaklari uchun jamg'arma yig'ishga rag'batlantirdi. Ijtimoiy pensiya tarkibida individual jamg'armalar salmog'i asosiy o'rinni egallay boshladi. Shuningdek, badallarni to'lash ushbu tizimda qatnashayotgan shaxslarga ijtimoiy pensiya dasturini boshqarishda ishtirok etish huquqini berdi.

Germaniyada taqsimot pensiya tizimi 1891-yilda joriy qilingan bo'lib, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Yevropa mamlakatlarida, MDH davlatlarida qo'llanilmoqda. Germanianing pensiya tizimidagi taqsimot-tortiluvchi modeli sxemasiga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisobidan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy byudjet daromadlari hisobidan qoplanadi. Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan. Bir avlod ichida esa, daromadlar aholining alohida ijtimoiy guruhlari o'rtasida tabaqlandi. Germaniyada to'lov intizomini rag'batlantiruvchi ball tizimi taqsimot modelini to'ldiradi. Fuqarolar uchun pensiya tizimini tashkil etishda jahonga mashhur Germaniya va Chili modellari andoza sifatida tanlandi. Pensiya ta'minotining ikki bazaviy modeli taqsimot-tortiluvchi va kapitallahsgan modellaridir.

Mashhur venger iqtisodchisi Ya.Kornai taqsimot va kapitallahsgan pensiya tizimi o'rtasidagi farqlar mohiyatini asoslab berdi, ular o'rtasidagi farq qisman moliyalashtirish texnikasida namoyon bo'ladi.

Taqsimot modeli pensionerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholining iqtisodiy faol qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallahsgan modeli taqsimot-tortiluvchi modelidan farqli ravishda insonning o'z mehnati va kelgusi pensiya mablag'lari jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'lanadi²⁸.

²⁸Kasimova G., Karimova Z. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009, -72-b.

2.3-jadval

Rivojlangan davlatlarda ish haqi va undan ushlanmalarining amaldagi tartibi yuzasidan hisob-kitoblar (o'rtacha)¹ (2017-yil 1-noyabr holatiga)

Tyr	Muomilalar mazmuni	Summasi (AQSh dollar)
1.	Hisoblangan ish haqi summasi	3000,0
2.	Ish haqidan daromad solig'i	228,0
3.	Boshqa soliqlar, ushlanmalar	12,0
	Jami soliqlar summasi	240,0
4.	Tibbiy sug'urta	246,0
	Pensiya sug'urtasi	283,0
	Ishsizlik sug'urtasi	45,0
	Boshqa sug'urta to'lovlari	38,0
6.	Jami sug'urta summasi	612,0
7.	Qo'lga olinadigan ish haqi summasi	2148,0
8.	Ish haqidan ushlanmalarning salmog'i, foizda	28,4
9.	Ish haqining qo'lga olinadigan qismi salmog'i, foizda	71,6

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal ko'rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari manbasining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zarur hollarda ish haqi miqdorini joriy ish haqi va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Chunki, respublikamizda aholi bandligi va farovonligini oshirish masalasi uning ish haqi, pensiya va boshqa daromadlarini oshirish, buning oxir-oqibatda respublikamiz mintaqalari, shahar va tumanlarimizdagagi eng muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish demakdir.

¹Raximov M., Qalandarova N. Ish haqi, mehnat unumdarligi va to'lovlar salmog'ining qiyosiy tahlili (O'zbekiston va dunyo mamlakatlari misolida). // Moliya. 2017. №4, -83-b.

O‘zbekistonda 2017-yilda ushlanmalarning jami ish haqi summasidagi daromad solig‘ining ulushi o‘rtacha 5–11 foizi, majburiy sug‘urta badallarining jami ish haqidagi salmog‘i esa aniq 8 foizidir. Jami ushlanmalar miqdori ish haqiga nisbatan 20,0 foizni, ish haqining xodimning qo‘liga tegadigan qismi mos ravishda 80,0 foizni tashkil etadi.

2.4-jadval

O‘zbekiston amaliyotida ish haqi va undan ushlanmalarning amaldagi tartibi yuzasidan hisob-kitoblar¹

(2017-yil 1-noyabr holatiga)

T\rl	Muomalalar mazmuni	EKIHning 1 baravaridan oshmaganda, 149775 so‘m	EKIHning 5 baravarigacha 748875 so‘m	EKIHning 10 baravaridan oshmaganda, 1497750 so‘m	EKIHning 10 baravaridan ortiq miqdorda 1497750 so‘m
1.	Hisoblangan ish haqi summasi	130000	630000	920000	1610000
2.	Ish haqidan soliq ushlanmalar Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i	-	31214	66321	183456
3.	Boshqa soliq, ushlnmalar ShJBPJ 1 %	-	4802	7702	146002
4.	Jami soliqlar summasi		31214	60321	183456
5.	Majburiy sug‘urta badali	10400	50400	73600	128800
6.	Jami sug‘urta badali	10400	50400	73600	128800
7.	Qo‘lga olinadigan ish haqi summasi	119600	543584	772377	1283141
8.	Ish haqidan ushlanmalarning salmog‘i, foizda	8	14	16	20
9.	Ish haqining qo‘lga olinadigan qismi, foizda	92	86	84	80

¹Raximov M., Qalandarova N. Ish haqi, mehnat unumдорлиги ва то‘ловлар salmog‘ining qiyosiy tahlili (O‘zbekiston va dunyo mamlakatlari misolida). \\\ Moliya. 2017. №4. –83-b.

Iqtisodchilardan A.Xaitov A.M.Ziyadullayevning “O‘zbekiston-da pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish bosqichlari, pensiya ta’minotining nazariy jihatlari, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining huquqiy-me’yoriy asoslari berilgan. Mualliflar jahon amaliyotida keng e’tirof etilgan G.Esping-Andersen tafsifi bo‘yicha davlatning ijtimoiy himoyalash tizimining uch asosiy: liberal, konservativ, sotsial-demokratik modellarini bir-biridan farqlaydilar. «Ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta’minot»ni inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta’minlovchi mehnat sharoiti, sog‘liq va tabiat muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, pensiya kabi kafolatlarni qamrab olinganligi ko‘rsatilgan. Mualliflar tomonidan xorijiy davlatlarda uch komponentli pensiya ta’minoti tizimi ham ko‘rsatilgan:

1. Qayta taqsimlash elementlarini o‘z ichiga oladigan va qariyalar daromadlarini muayyan darajada saqlashni ta’minlash maqsadini ko‘zlaydigan birdamlilik xususiyatidagi davlat pensiya tizimi.
2. Badallarni kapitallashtirish va ixtiyorilikni uyg‘unlashtirishga asoslangan tizim.
3. Jamg‘arish tamoyiliga qurilgan pensiya tizimi.

2.3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga o‘tishning zarurligi

XX asrning 90-yillari boshida Juhon banki tashabbusi bilan aholining qarishi va pensiya ta’minoti muammolari global kompleks tadqiq etildi. «Aholi qarishi inqirozning oldini olish: qariyalarni muhofaza qilish siyosati va iqtisodiy o‘sishga yordam» deb atalgan yakunlovchi ma’ruzada jahonda amalda bo‘lgan pensiya tizimlari va ularning rivojlanish istiqbollari aniq mezonlar nuqtayi nazaridan baholandi. Taraqqiy etgan davlatlarda XX asrning 90-yillarida pensiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e’tibor amaldagi taqsimlanuvchi pensiya

ta'minotini takomillashtirishga, majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich joriy etishga qaratildi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarda taqsimlanuvchi va jamg'ariladigan pensiya tizimlariga asoslangan ko'p pog'onali tizim amal qiladi. Qator mamlakatlarda taqsimlanuvchi pensiya tizimi takomillashtirildi, unga shartli-jamg'ariladigan hisobvaraqlar kiritildi. Shu yo'l bilan individ tomonidan o'tkazilgan pensiya badali va to'lanadigan pensiya miqdori o'rta sidagi uzviy aloqadorlik ta'minlandi.

Pensiya islohotlariga konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi va bu sohada ayrim mamlakatlardagi amaliy ishlar umumlashtirildi. Mazkur ma'ruzada berilgan xulosaga ko'ra pensiya yoshidagi shaxslarning moliyaviy ta'minoti manfaatlarini va iqtisodiy o'sishni oqilona ta'minlash uchun uch ko'rinishdag'i pensiya tizimi paralell rivojlanishi lozim:

- davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlovchi tizim, bu tizim jami ishlovchilarning majburiy qatnashuvini nazarda tutadi va keksalarning qashshoqlashuviga yo'l qo'yilmaydi;
- xususiy boshqaruvsda bo'lgan majburiy jamg'arib boriladigan tizim;
- ixtiyoriy jamg'arib boriladigan tizim.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda nodavlat jamg'arma tizimlariga e'tibor katta va ularni asta-sekin pensiya sug'urtasi tizimiga kiritib borish nazarda tutilgan. «Masalan, Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlariga ko'ra 1998-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda pensiya to'lovlariada taqsimot tizimi hissasi 84 %dan 64 % ga tushadi, ayni paytda jamg'arma tizim hissasi 12 % dan 29 % ga ko'tariladi, xususiy ixtiyoriy pensiya sug'urta hissasi uch marta ortadi, 1,5 % dan 4,5 % ga yetadi»²⁹.

Aholining keksayishi – aholi umumiyl sonida katta yoshdagilar ulushining ortishi bo'lib, bu jarayon uzoq davom etadigan demografik o'zgarishlar aholining takror hosil qilinishidagi tug'ilish


²⁹Мировой опыт реформирования пенсионных систем. Концептуальные подходы и практические действия. – М.: Епиком. 1999. 16–17-с.

VII o‘lim, qisman migartsiya jarayonidagi siljishlar, ular nisbatining natijasi hisoblanadi. Keksayish darajasi va uning xususiyatlarini o‘rganish uzoq yillardan beri tadqiq qilinayotgan jarayon bo‘lib, gerontologlar tasnifga ko‘ra 60-74 yoshdagilar qariyalar, 75-84 yoshdagilar keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalar, uzoq umr ko‘rvuchilardir.

O‘zbekiston jahonda aholisi soni barqaror sur’atlarda o‘sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining yosh tarkibida yoshlар katta salmoqqa ega bo‘lishiga qaramasdan keksalarning salmog‘i barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi tobora yaxshilanib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Ushbu holatlar ijtimoiy sug‘urta masalalariga nisbatan jiddiy e’tibor berishni taqozo etadi, pensiya tizimiga oid masalalar alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. O‘tgan davr mobaynida yurtimizda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi ham sezilarli ravishda ortganini mamnuniyat bilan qayd etish lozim. Bu boradagi umumiy ko‘rsatkich 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilda 73,4 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o‘rtasidagi o‘rtacha umr ko‘rish 66 yoshdan 71 yoshgacha, ayollar o‘rtasida esa 70 yoshdan 75,8 yoshga uzayganini odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o‘rinli bo‘ladi.

“Aholining keksayishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Birinchidan, keksalar ulushining ortishi aholining iqtisodiy faoliigini pasaytiradi. Odamning yoshi qancha katta bo‘lsa, mahsuldarligi shunchalik past bo‘ladi. Ikkinchidan, aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlар ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasbmalaka va tarmoq tarkibining o‘zgarishi jarayoni va binobarin iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi. Uchinchidan, hali ishslashni istaydigan “yosh qariyalar”ni ish bilan ta’minalash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki pensiya yoshiga yetmaganlarga

ham ish o'rirlari yetishmaydi. To'rtinchidan, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi. Beshinchidan, pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi. Zero, pensionerlar ulushining ko'payishi bilan bir yo'la pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga qobiliyatli aholi salmog'i qisqaradi"³⁰.



2.3-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya oluvchi fuqarolarning tarkibiy tuzilish (2018-yil 1-iyul holatiga³¹)

O'zbekistonda quyidagi omillar ta'sirida pensiya tizimini isloh etish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

1. Hisob-kitoblar ko'rsatishicha, mamlakatimizda aholining yosh tarkibida pensiya yoshidagilar ulushi 2010-yilda 7,3%³² teng bo'lgan holda ushbu ko'rsatkich Rossiya, Ukraina, Belarusda 25%,

³⁰Inson taraqqiyoti. Darslik. / i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. –224-b.

³¹"Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiysi" loyihasi. pfru.uz

³²O'zbekiston Almanaxi 2011: statistik to'plam. – T., 2011. 19-b.

Qozog‘istonda 15% ni tashkil etdi.³³ Demograflar fikricha aholi qarish jarayoni 20-30 yildan keyinroq sodir bo‘lishi kutilmoqda. Demak, kutilayotgan davrga qadar pensiya xarajatlarining mamlakat YalMiga nisbatan bosim kuchayishini kutish maqsadga muvofiq emas. Bu esa iqtisodiyot barqaror sur’atlarda rivojlanib borayotgan sharoitda pensiya ta’minoti tizimini qayta taqsimlash salohiyatidan darak beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, mustaqillik yillarida jumladan, 2005-yildan boshlab mamlakat aholisi tabiiy o‘sishi orta borgan sari qoplash koeffitsiyenti 37,0 foizdan 41,0 foizga qadar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Mustaqillik yillarida jumladan, 2005-yildan boshlab mamlakat aholisi tabiiy o‘sishi orta borgan sari qoplash koeffitsiyenti 3,7 dan 4,1 baravarga qadar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Qator taraqqiy etgan mamlakatlar jamg‘ariladigan pensiya tizimi va korporativ pensiya fondlariga qo‘sishimcha to‘lovlarni joriy etish hisobida ishlovchilarining mehnat daromadlarini qoplash koeffitsiyenti miqdorini keskin oshirdilar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich 65,0 %ni tashkil etib, pensiyaga chiqqanidan so‘ng yuqori darajada daromad olib yashash imkonini ta’milanmoqda.

2. Bozor munosabatlarining rivojlanishi jarayonida aholi daromadlarining o‘rtacha oilaga yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi miqdorlarida qat’iy tabaqlanish kuzatilmoqda. Buning natijasida aholi tarkibida barqaror va nisbatan katta daromadlarga ega bo‘lgan aholi qatlami tarkib topmoqda. Aholining yuqori daromadga ega qatlami uncha ko‘p bo‘limgan holda miqdor jihatdan o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Aholining ushbu qatlami uchun uy xo‘jaligi xarajatlari tarkibida jamg‘armalarining o‘sib borish tendensiyasi xos. Ushbu holat ularning jamg‘ariladigan pensiya jamg‘armalariga o‘z mablag‘larini yo‘naltirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamizda “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga va “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi

³³ 20 – лет содружеству независимых государств // Вопросы статистики. 1/2012. –С. 9.

O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli qarorida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish bo‘yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlarni bajarish yuzasidan hududiy seminarlar o‘tkazildi. Har qaysi viloyatda vujudga kelgan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda mazkur tadbirlarni amalga oshiruvchi tuzilmalar tarmoqlari xodimlari soni belgilandi.

O‘zbekiston Teleradio kompaniyasi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ommaviy axborot vositalarida mavzuli eshittirishlar va maqolalar turkumlari tashkil etish, mutaxassislarini jalb etgan holda ma’ruzalar va uchrashuvlar uyuştirish yo‘li bilan jamg‘arib boriladigan qo‘srimcha pensiya tizimining mexanizmi faoliyati va afzalliklarini aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

2.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi

Milliy daromadni qayta taqsimlash davlat qo‘lidagi eng asosiy manba va vositadir. Shvetsiya, Germaniya, Kanada, Avstriya va boshqa bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholini ijtimoiy himoya qilish va ularni ijtimoiy kafolatlashning kuchli ta’sirchan mexanizmi bo‘lgandagina iqtisodiyotini modernizatsiyalash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiyotning o‘sishiga erishish mumkin.Yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanimiz iqtisodchilaridan A.V.Voxabovning fikricha “Davlat is’temoli O‘zbekistonda faqat ishlab chiqarishni investitsiyalash bilan emas, balki ijtimoiy sohani moliyaviy ta’minalash bilan ham bog‘liq. Ijtimoiy soha uchun zarur resurslarni davlat qo‘lida jamlash va ularni

adolatli taqsimlashi muhim. Shu sababli Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari pul jamg‘armasida ijtimoiy soha xarajatlarining hissasi katta”³⁴. Pensiya ta’minoti tizimi o‘zining vazifalaridan kelib chiqqan holda to‘rtta funksiyani bajaradi:

1. Makroiqtisodiy funksiyasi – milliy iqtisodiyot va jamiyatda ijtimoiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.
2. Siyosiy funksiyasi – aholi qatlamlari orasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash.
3. Iqtisodiy funksiyasi – ishlayotganlar va mehnatga layoqatsizlar, yosh va keksa avlodlar, ko‘p va kam daromadli aholi qatlamlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish.
4. Ijtimoiy funksiyasi – yaratilgan YaIM va MDni ijtimoiy adolat tamoyili asosida fuqarolarga taqsimlash.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «Biz tanlagen va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar haqqoniy va samarali ekani biz qurayotgan yangi demokratik tizimda, iqtisodiyotimiz rivojlanishining barqaror, barchani hayratda qoldirayotgan sur’atlarida, xalqimizning hayot darajasi va sifati ortib borayotganida o‘zining amaliy tasdig‘ini topmoqda»³⁵.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilashning samarasini oshirish uchun quyidagi muhim vazifalar hal qilinmoqda:

- mamlakatda YaIM va MD ni oshirish;
- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish;
- insonning kuch va qobiliyatni to‘la-to‘kis faollashuvini ta’minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;

³⁴ Voxabov A. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. Monografiya. –T.: «Moliya». 2002. –143-b.

³⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2014-yil. 5-dekabr.

- aholi daromadlarida va turmush darajasida asossiz farqlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- aholi eng muhtoj qatlaming davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish;
- davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, fuqarolarning mablag‘larini jamg‘armalarga keng jalg‘ etish.

Pensiya ta’mnoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo‘lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

2.5-jadval

Dunyo mamlakatlarida pensiya sug‘urtasi tizimi va uning mamlakat YaIM dagi ulushi³⁶

Mamlakat-lar	Pensiya sug‘urtasi tizimi tarkibi (%)			Pensiya sug‘urtasi tizimining mamlakat yalpi ichki maxsulotdagi ulushi (%)		
	Davlat pensiya sug‘urtasi tizimi	Xususiy pensiya sug‘urtasi tizimi	Jami	Davlat pensiya sug‘urtasi tizimi	Xususiy pensiya sug‘urtasi tizimi	Jami
AQSh	68	32	100	6,9	3,3	10,2
Buyuk Britaniya	58	42	100	6,3	4,6	10,9
Germaniya	80	20	100	10,6	2,6	13,2
Italiya	86	14	100	9,5	1,5	11,0
Fransiya	91	9	100	10,0	1,0	11,0
Gollandiya	84	16	100	8,2	1,6	9,8
Avstraliya	63	37	100	4,0	2,3	6,3
O‘zbekiston	100	-	100	8,5	-	8,5

³⁶ Abdullayev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta’mnoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta’mnoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014-yil. 21-noyabr. 16-b.

Mashhur shotland iqtisodchisi Adam Smit «Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari haqida tadqiqot» asarida moliyaning davlat va jamiyat hayotidagi yuksak ahamiyatini ko'rsatib bergan. Jamiyatni idora qilishda davlat muhim o'rın tutgan bugungi kunda moliya va moliyaviy munosabatlar tarixiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biriga aylandi. «Amerikalik iqtisodchilar G. Koun, M. Klyudo fikrlariga ko'ra davlat soliqlaridan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyatda milliy daromadni kambag'allar foydasiga qayta taqsimlash imkoniyatiga ega. Nemis olimlari A. Vagner, M. Veberx, G. Shmollerlarning fikriga ko'ra mamlakat milliy boyligini va YaIM niadolatli taqsimlashda davlat moliyasidan foydalanish mumkin. Shu fikrlarga qo'shilgan ingliz olimi D.S.Mill mamlakatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish maqsadida davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini taqsimlash sohasida o'zgartirishlar kiritish kerakligini tasdiqladi»³⁷.

Bizning respublikamizda ijtimoiy siyosatning daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash sohasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib boriladi:

–ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalarning minimal miqdorini belgilash;

–inflyatsiya o'sishi sababli aholi daromadlarini indeksatsiyalash;

–daromadlarni kam ta'minlangan fuqarolar foydasiga taqsimlash.

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi taqsimot munosabatlarining mahsuli bo'lib, katta ijtimoiy yukni ko'taradi. Uning mablag'lari firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot subyektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Professor A.Vahobovning fikricha davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Bu xarajatlarni qoplash uchun mablag'lar maxsus jamg'armalarda to'planadi va maxsus maqsadlarga qaratiladi. O'zbekiston aholisining jami daromadlari ortadi. Shuningdek, ish

³⁷Kasimova G.A.Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati. «Moliya». Monografiya. –T.: 2004. –B.15.

haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning miqdori ham sezilarli darajada ko‘payadi”¹.

Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta’minotini ko‘paytirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir, degan xulosani keltirish mumkin.

Muayyan pensiya ta’minoti tizimini isloh etish modelini tanlashda YaIMning ishlab chiqarish hajmi va jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM miqdori, Davlat byudjeti daromadlari hajmi, inflyatsiya va ish haqi darajasi, mamlakat fuqarolarining turmush darajasi, kapital bozori (qimmatli qog‘ozlar bozori), kredit tizimi holati kabi omillar e’tiborga olinadi. XXI asr boshlariga kelib pensiya tizimidagi islohotlar jahonning aksariyat mamlakatlarini qamrab oldi. Pensiya tizimida olib borilgan islohotlar yo‘nalishlarini umumlashtirgan holda ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimini takomillashtirish va modernizatsiyalash.

2. Jamg‘arib boriluvchi pensiya tizimiga o‘tish.

3. Taqsimot va jamg‘arma tizimlarini o‘zida mujassamlashtirgan aralash pensiya tizimiga o‘tish.

XX asrning 80–90-yillaridan boshlab jahon mamlakatlarida amalga oshirilayotgan pensiya tizimlari islohotlarining ko‘rsatishicha jamg‘ariladigan pensiya tizimi o‘z barqarorligi va samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Jamg‘ariladigan pensiya tizimining afzalligi va samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

–investitsiya hajmlarining ortishi va iqtisodiy o‘sish asosini ta’minlovchi milliy jamg‘armalarning ortib borishi;

–demografik omillar va makroiqtisodiy indikatorlarning barqaror sur’atlarga egaligi;

¹Voxabov A. Bozor munosabatlariiga o‘tish bosqichida ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. Monografiya. -T.: «Moliya». 2002. -B.32.

-pensiya to'lovlardagi tabaqalanishni ijtimoiy adolat pritsiplariga mosligi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tish mamlakatda nodavlat pensiya muassalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Hozirda bir qator mamlakatlar pensiya tizimi faoliyatini to'lalagicha nodavlat sektoriga o'tkazish tashhubbusi bilan chiqmoqdalar. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirda nodavlat pensiya tizimiga bo'lgan ishonch aholi tomonidan yildan yilga ortib bormoqda. Nodavlat pensiya tizimini shakllantirish mamlakatda investitsion aktivligini oshirish, qimmatli qog'ozlar bozori va moliya-kredit bozoridagi faollikni yanada kuchaytirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Oqilona iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda murakkab o'tish davrida ham YaIM hajmi keskin ravishda pasayib ketishiga yo'l qo'yilmadi. 1996-yildan e'tiboran esa mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi. Bu muvaffaqiyatlarga erishishda keng ko'lamli bozor islohotlarini joriy etish, qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalar barpo etish, biznes va xususiy tadbirdorlikni jadal sur'atlarda rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyotida 2004-yildan boshlab qulay tadbirdorlik muhitini yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi natijasida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining baholash missiyasi bayonotida jumladan, bunday deyiladi: "O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rди. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 %ni

tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichidan yuqoridir.

«Dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyot yillarida iqtisodiyot qariyb 6 barobar, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar 9 barobardan ziyod o‘sdi. Keyingi 11 yilda, jumladan, 2015-joriy yilda YalMning o‘sish sur’atlari barqaror ravishda 8 foizdan yuqori bo‘lib keldi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mutanosibligi, davlat byudjeti va to‘lov balansining barqaror ravishda profitsit bilan bajarilishi, eksport va oltin-valyuta zaxiralarining o‘sishi ta’milnmoqda»³⁸.

«Chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari hajmi liberalizatsiya davriga nisbatan 1,5 barobar oshib, o‘rtacha 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga davlatimizning oltin-valyuta zaxiralari yil davomida 1,1 milliard dollarga ko‘paydi»³⁹.

«Mamlakatimizning 2016-yilga belgilab olingen marra va maqsadlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olishda jahon miqyosidagi hali-beri davom etayotgan global inqiroz bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan jiddiy muammolarni hisobga olmasligimiz mumkin emas, albatta. Ana shu muammolar tufayli bugungi kunda dunyo bozorlarida talabning keskin kamayib, noaniqlik saqlanib qolayotgani, shafqatsiz raqobatning tobora kuchayib borayotgani, ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi jahondagi ko‘pchilik davlatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. 2016-yilda YalMning o‘sish sur’atlari 7,8 foizdan iborat bo‘lishini ta’minalash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo‘jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko‘rsatish hajmini 17,4 foizga ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda. Inflyatsiya darajasini 5,5–6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining

³⁸Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruza. // Xalq so‘zi. 2015-yil. 5-dekabr.

³⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr. uza.uz.

real daromadlarini 9,5 foizga, o‘rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda 15 foizga oshirish ko‘zda tutilmoqda»⁴⁰.

«Eng muhim, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma’qul ish uslubi tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi. Ayni shu asosda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari 5,5 foizni tashkil etdi, ekspert hajmi qariyb 15,0 foizga ko‘paydi. Tashqi savdo uylanmasining ijobjiy saldosi 854 million dollarga yetdi»⁴¹.

Rivojlangan mamlakatlardagi YAIM o‘sish sur’atlaridagi beqarorlik hali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirlari davom etayotganini ko‘rsatadi. Jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiy o‘sish sur’atlarining beqarorligi iqtisodiy siyosatda uyg‘unlikka erishmaslikka zamin yaratadi. Byudjet taqchilligining o‘zgarishi ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag‘lari hisobidan iqtisodiyotning ma’lum sektorlarini moliyaviy ta’minlab turishga, umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab qolishga majbur bo‘ladi.

Mamlakatda bozor munosabatlarini takomillashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi moliyaviy muassasalarda, umuman xo‘jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli mablag‘larga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida muomalaga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taklif etishda sug‘urta kompaniyalari, investitsiya va pensiya fondlari kabi bankdan tashqari moliya institutlarining o‘rni beqiyosligini ko‘rish mumkin. Xalqaro amaliyotda uzoq muddatli pullarni iqtisodiyotga taklif etishda nodavlat pensiya fondlari ham muhim moliyaviy bo‘g‘inlardan hisoblanadi. Chunki nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy aktivlari jismoniy shaxslarning ajratmalari hisobiga shakllantiriladi

⁴⁰ 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr. uza.uz.

va ular pensiyaga chiqqunga qadar taraflarning kelishuviga asosan pensiya jamg‘armasi ixtiyorida bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori yuqori darajada rivojlangan yetakchi davlatlar nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy resurslari mamlakat YaIMda ulushi yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan taraqqiy etgan davlatlarda nodavlat pensiya jamg‘armalari yuqori darajada rivojlangan. Mazkur jamg‘armalar dastlab, AQSh, Kanada hamda Buyuk Britaniyada shakllangan bo‘lsa, XX asrning oxiriga kelib boshqa davlatlarda tarqaldi. Nodavlat pensiya jamg‘armalari moliyaviy resurslari ham muddati jihatidan uzun moliyaviy resurs hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, muddati jihatidan “uzun” bo‘lgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda nodavlat pensiya jamg‘armalarining o‘rnini nechog‘lik yuqori ekanligining guvoh bo‘lamiz. Jamg‘arma mablag‘larini mamlakatimiz YaIM ga nisbatan ulushi kichik darajada qolmoqda. Bu esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida uzoq muddatli moliyaviy resurslar salmog‘ining yetarli darajada shakllanmaganligiga sabab bo‘lmoqda.

2.6-jadval

Jahondagi eng yirik pensiya jamg‘armalarining aktivlari⁴²

mlrd AQSh dollari hisobida

Nº	Mamlakat	Pensiya jamg‘armasi	Aktivlari
1.	Yaponiya	Govenment Pension Investment Fund	935,5
2.	Norvegiya	Govenment Pension Fund of Norway	391,0
3.	Gollandiya	Stichting Pensioenfonds ABP	31,3
4.	Kanada	Caisse de depot et placement du Quebec	258,0
5.	AQSh	California Public Employees Retirement System	218,2
6.	Gollandiya	Stichting Pensioenfonds Zorg en Weizijn	123,0
7.	Kanada	CPP Investment Board	122,7
8.	Kanada	Ontario Teachers Pension Plan	109,0
9.	Irlandiya	National Pension Reserve Fund	30,0

⁴² Abdurahmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya». 2013. – 413-b.

Masalan, 2006-yilda jamg‘arma moliyaviy resurslari hajmi YaIM dug‘i ulushi 0,14 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2011-yilga kelib 0,17 foizga o‘sgan. Bir vaqtning o‘zida xorijiy davlatlar-dan, jumladan, bank-moliya tizimi rivojlangan yetakchi mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy aktivlari mamlakat YaIM ga nisbatan yuqori salmoqni tashkil etgan. Bozor munosabatlari yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotga uzoq muddatli moliyaviy resurslar salmog‘ining yuqori bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.


Mamlakatimida nodavlat pensiya jamg‘armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida bu boradagi iqtisodiy islohotlarning ko‘lami yanada chuqurlashdi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimiz bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir turtki vazifasini bajaradi. O‘zbekistonda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘lari ham muddatiga ko‘ra “uzun” moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanib, uni to‘lash bilan bir vaqtda jamg‘arma hisobiga tegishli summa o‘tkaziladi. Hozirda jamg‘armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarisiz salmoqqa ega, shu jihatidan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg‘armalari bilan shug‘ullanuvchi moliyaviy tashkilotlar faoliyatini tashkil etish lozim.

2.5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining moliya tizimi bo‘g‘inlari bilan o‘zaro munosabatlari

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «...Iqtisodiyot sohasida asosiy e’tiborni institutsional o‘zgarishlarga, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirishga, rivojlangan bozor infratuzilmasini yaratishga, raqobat muhitini shakllantirishga qaratmog‘imiz darkor»⁴³, deb ta’kidladilar. Moliya

⁴³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 1438-soni qarori. 2010-yil. 26-noyabr.

tizimi – davlat va korxonalar pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq shakl va usullarining yig‘indisidir. Moliya – milliy daromad (MD) ni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir”⁴⁴.



2.5-rasm. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti tuzilmasi⁴⁵

Jamiyatda yaratilgan YaIMni va uning asosiy qismi bo‘lgan milliy daromad xo‘jalik sub’etlari o‘rtasida moliya vositasida taqsimlanadi, ya’ni pul fondlariga aylantiriladi. Birlamchi taqsimot ishlab

⁴⁴Jumayev N. Burxonov U. Moliyaning dolzARB muammolari . Monografiya. Yangi asr avlodи. – T.: 2003. – 266-b.

⁴⁵O'zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni. 2013-yil. 26-dekabr. 46-modda. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibi.

chiqarishning o‘zida amalga oshadi. Bunday taqsimot natijasida birlamchi daromad yuzaga keladi: foyda, ish haqi fondi, ijtimoiy tug‘urta uchun ajratmalar, amortizatsiya va boshqalar tashkil topadi. Ikkilamchi taqsimot, ya’ni qayta taqsimlashda bir marta taqsimlangan mahsulot qiymati moliya vositasida, masalan, soliqlar, yig‘imlar, majburiy ajratmalar va har xil to‘lovlar yordamida qayta taqsimlanadi. Qayta taqsimlashda byudjet molianing asosiy bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi. Mohiyati jihatidan Davlat byudjeti – davlat boshqaruvining muhim vositasi bo‘lib, uning yordamida davlat takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Markazlashgan investitsiyalar yo‘naltiradi, insonga bo‘ysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta’sirini bartaraf etadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarining xususiyatlari tomoni shundaki, ular oldindan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi va faqat shu yo‘nalishlarda foydalilanadi. Moliyaviy resurslar davlat miqyosida va korxona darajasida yetarli darajada mavjudligi jamiyatning yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy qiyinchiliklar va inqirozlardan xalos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Moliya tizimida O‘zbekiston iqtisodiyotini xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlariga moslashtirish, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash va milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni rag‘batlantirish alohida o‘rin egallaydi. Moliya yordamida davlat jamiyatning kam ta’minalangan va yordamga muhtoj bo‘lgan qatlamlarining ijtimoiy jihatdan himoyalashni ta’minalaydi. «...Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko‘rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi»⁴⁶.

Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, muddati jihatidan “uzun” bo‘lgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda nodavlat pensiya jamg‘armalarining o‘rni nechog‘lik yuqori ekanligini guvoh

⁴⁶Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Tashkent. O‘zbekiston. 2010. – 30-b.

bo‘ldik. Jamg‘arma mablag‘larini mamlakatimiz Yalm ga nisbatan ulushi kichik darajada qolmoqda. Bu esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida uzoq muddatli moliyaviy resurslar salmog‘ining yetarli darajada shakllanmaganligiga sabab bo‘lmoqda.



2.6-rasm. Byudjetdan tashqari fondlarning guruhlanishi⁴⁷

Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo‘lishi bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funksiyalarini amalga oshirishda, ularni moliyaviy resurslar bilan ham ta'minlab turish orqali ishtirok etadi. Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri – davlat maqsadli pul jamg‘armalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Davlat maqsadli jamg‘armalari - ijtimoiy ehtiyojlarni

⁴⁷ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T: “VNESHINVESTPROM”. 2013. – 140-b.

moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchun davlat va aholi tomonidan jalb qilinadigan, tezkor va mustaqillik asosida kompleks rivishda sarflanadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir.

Zamonaviy moliya tizimi barpo Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq etish boshlangan. Bu mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgartirishlar sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida davlat moliyasining asosiy vazifalarini ham belgilab berdi. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati – YaIMning hamda milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va korxonalar ixtiyorida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi, shuningdek, kengaytirilgan ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatda aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarini moliyalashtirishda namoyon bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning kengayishi jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nodavlat maqsadli jamg'armalarning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Byudjetdan tashqari fondlarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha guruqlash mumkin⁴⁸. Byudjetdan tashqari fondlarning dastlabki tuzilishiga ko'ra: maqsadli fondlarni tashkil qilish uchun davlat byudjetidan maxsus ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan; fondlarning o'z mablag'lari hisobidan (masalan, fuqarolarning badallari, korxonalarning to'lovlari, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari). Shakllantirish usuliga ko'ra: maxsus o'rnatilgan soliqlar va majburiy ajratmalar hisobiga; davlat byudjetidan ajratmalar hisobiga; maxsus yoki ixtiyoriy zayomlar chiqarish yo'li bilan; qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va joylashtirish orqali. Amal qilish muddatiga ko'ra: doimiy va uzoq muddat amal qiluvchi fondlar (pensiya fondlari, ijtimoiy sug'urta fondlari, bu fondlar bajaradigan vazifalar nisbatan doimiy xarakterga ega bo'ladi); vaqtinchalik (ma'lum bir muddatga) tashkil etilgan fondlar, ular

⁴⁸ Po'latov D., Nurmuxamedova B. G'aznachilik. Darslik. – T.: Sano-standart. 2014. – 223-b.

jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy yoki ekologik vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladi.

Har bir davlatda pensiya tizimini joriy etish mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bevosita bog'liq. Pensiya ta'minoti tizimining asosiy ishtirokchilari davlat va xususiy pensiya jamg'armalari hisoblanadi. Ular bir tomonidan, ish beruvchilar va xodimlarning to'lovlari shaklidagi badallarini jamlasalar, ikkinchi tomonidan, jamg'arma mablag'larini fuqarolarga taqsimlaydilar. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan ijjobiy o'zgarishlar va tendensiyalar fuqarolarimiz turmush sharoitini yanada yaxshilash, inson manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ishlarimiz miqyosini uzuksiz ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan pensiya qonunchiligini takomillashtirish, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimidagi keng ko'lamli tadbirdan ko'zlangan maqsad ham zamon talablarini hisobga olish hamda o'zgarib borayotgan bozor sharoitiga moslashishdan iborat.

2.6. Aholini ijtimoiy-qo'llab-quvvatlashda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «..Bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz – boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirish – is'temol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihibarini amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir»⁴⁹.

Vatanimiz iqtisodchilaridan Q.X.Abdurahmonovning «Mehnat iqtisodiyoti» darsligida aholini ijtimoiy himoyalash zaruriyati, ijtimoiy himoya tizimining chora-tadbirlari ko'rsatilgan. Pensiya

⁴⁹ Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruba. // Norma maslahatchi, 2010-yil. 16-noyabr.

tizimining asosiy vazifasi fuqarolar ehtiyojini hamda ularning keksalik chog‘ida himoyalanishga bo‘lgan talabini qondirishdir, degan xulosa chiqarilgan. Ish haqi – bu yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shaklidir. Ish haqi jamiyatning ko‘pchilik a’zolari uchun asosiy tirikchilik manbayiga aylanishi bilan ijtimoiy himoyasizlikning alohida turi, ya’ni ish haqidan maxrum bo‘lish tufayli moddiy ta’minlanmaganlik xavf-xatari (risk) vujudga kelishi ko‘rsatilgan.

Xorijiy davlatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, aholini ijtimoiy himoya tizimining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Darslikda jahon tajribasini tahlil qilish bilan aholining ijtimoiy himoyalash modellari alohida ko‘rsatilgan⁵⁰.

Jahon tajribalariga ko‘ra aholini ijtimoiy himoyalash modellari alohida xususiyatga ega.


1. Zarur mehnat layoqatiga, ish joyiga, daromadlar manbayiga ega bo‘limganligi tufayli o‘zini moddiy ta’minlashga qodir bo‘limgan shaxslarga davlatning ijtimoiy yordam berish.

2. Harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va soliq organlari xizmatchilar, davlat xizmatchilari, fuqarolarning boshqa bir qator toifalarining muhim davlat funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq o‘ziga xos mehnat faoliyatini hisobga olgan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta’minlash.

3. Qonun bo‘yicha majburiy ijtimoiy sug‘urtalash, iqtisodiy jihatdan faol aholining mehnat qilish qobiliyatini (kasallik, baxtsiz xodisa, keksalik tufayli) yoki ish joyini yo‘qotishi natijasida daromaddan, ish haqidan mahrum bo‘lish xatarlaridan ijtimoiy himoyalash.

4. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari yoki uzoq muddatli tarmoq yoki jamoa bitimlari asosida tashkil etiladigan kompaniyalar doirasida yollanma ishchilarni ixtiyoriy ravishda qo‘sishimcha ijtimoiy sug‘urtalash va xususiy jamg‘armalar tashkil etish.

⁵⁰ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Mehnat. 2013. – 41-b.



2.7-rasm. Aholi turmush darajasining indikatorlari

Aholi turmush darajasining ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishini hisobga olish ko'rsatkichlariga esa ishlab chiqarishda ish vaqt yo'qotilishi (bir xodimga o'rta hisobda), xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko'proq muddatga shikastlanganlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, shikastlanishi o'lim bilan tugaganlar soni), sport-sog'lomlashdirish, madaniy-istirohat bog'lari, pensiyalar, nafaqalar, o'rtacha va eng kam ish haqi miqdori, ishsizlar soni, atrof-muhit, jinoyatchilik holati, aholining pul daromadlari jamg'arilishi, uy xo'jaligi xarajatlari kiradi.

Aholining turmush darajasi insonning yuqorida qayd qilingan asosiy ehtiyojlarining qondirilishi indikatorlar asosida aniqlanadi.

«Turmush sifatini oshirish aholining aksariyat qismi manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan davlatning strategik maqsadidir. YaIMning o'sishi esa bu strategik maqsadga erishish vositasidan boshqa narsa emas»⁵¹. Nazariy ma'lumotlarga ko'ra turmush darajasini belgilashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti konsepsiysi, shved va fransuz modellari farqlanadi. Ijtimoiy yo'nal-

⁵¹Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 102-b.

tirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiat rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi.

2.7-jadval

Aholi turmush darajasini aniqlash ko'rsatkichlari

Nº	BMT konsepsiysi	Shved modeli	Fransuz modeli
1.	Inson huquqlari	Iqtisodiy imkoniyatlar	Daromadlarning jamg'armalarga taqsimlanishi va ulardan foydalanish
2.	Sihat-salomatlik	Ijtimoiy imkoniyatlar	Turmush darajasining ijtimoiy jihatlari
3.	Oziq-ovqat iste'moli	Siyosiy imkoniyatlar	Faoliyat ko'rsatish sharoitlari
4.	Ta'lim	Sog'lijni saqlash va tibbiy yordamidan foydalanish	Aholi soni va tarkibi
5.	Ish bilan bandlik va mehnat sharoiti	Bo'sh vaqt va uni o'tkazish	Mehnat resurslari va mehnat sharoiti
6.	Ijtimoiy himoya va pensiya ta'minoti	Iste'mol	
7.	Uy-joy sharoiti	Maktab ta'limi	
8.	Kiyim-kechak	Mehnat va mehnat sharoiti	
9.	Dam olish va bo'sh vaqt	Uy-joy	

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov “..O'zbekiston tarixiy mezonlarga ko'ra qisqa muddat 15–20 yil davomida bizning bosh maqsadimiz – dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish va mamlakatimiz aholisi uchun munosib hayot sharoiti va sifatini yaratish yo'lida g'oyat ulkan qadam qo'ydi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Va bu bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz”⁵² deb ta'kidladilar.

⁵² Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti // Xalq so'zi. 2012-yil. 20-fevral.

Yurtimizdag'i hozirgi o'zgarishlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda. Valyuta siyosatini liberallashtirish sharoitlarida respublika aholisining daromadlari va turmush darajasini yanada muttasil oshirib borish, fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 5245-sonli farmoniga muvofiq, 1-dekabrdan byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori 15,0%ga oshirildi. Unga ko'ra eng kam ish haqi - oyiga 172 240 so'm (149775 so'm); yoshga doir pensiyalar - oyiga 336880 so'm (292940 so'm); bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa - oyiga 336 880 so'm (292940) so'm, zarur ish stajiga ega bo'limgan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 206 720 so'm (179755 so'm) miqdorida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldandagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 5469-sonli farmoniga muvofiq 15-iyuldan byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori 1.07%ga oshirildi. Unga ko'ra eng kam ish haqi - oyiga 184300 so'm; yoshga doir pensiyalar - oyiga 360460 so'm; bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa - oyiga 360460 so'm so'm, zarur ish stajiga ega bo'limgan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 221190 so'm miqdorida belgilandi.

O'zbekistonda insonni rivojlantirish milliy maqsadlariga erishishda davlat maqsadli dasturlarining ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ma'lumki, respublikada 1997-yildan boshlab har bir yil muayyan, juda muhim va yirik ijtimoiy muammoni hal etishga bag'ishlanadi.

Mazkur ijtimoiy masalalarni hal etish uchun keng ko‘lamli davlat maqsadli dasturlari ishlab chiqiladi. Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga mamlakatning barcha aholisi, har bir korxona, tashkilot, muassasa va fuqaro safarbar etiladi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta‘kid-laganlaridek, «Birinchi navbatda yolg‘iz qariyalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishning davlat dasturi qabul qilingani va bu yo‘nalishda 5-6 yilga mo‘ljallab rejalashtirilgan ishlarimiz ayniqsa e‘tiborga sazovor, deb hisoblayman»⁵³.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishning ko‘p kanalli tizimi shakllangan bo‘lib, ularni moliyalashtirish manbalariga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjeti;
- byudjetdan tashqari fondlar;
- davlat maqsadli jamg‘armalari;
- korxonalar, xo‘jalik subyektlari, fuqarolarning jamg‘arma mablag‘lari;
- aholining yaxshi ta‘minlangan qatlamlari tomonidan qilinadigan xayr-ehsonlar shaklidagi mablag‘lar;
- xorijiy tashkilotlar, xayriya fondlari.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish mamlakatlarda ijtimoiy muammolarni hal qilish va keksa kishilarni himoyalashda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash talabi kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo‘llashni talab etadi. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Pensiya ta‘minoti deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog‘liq, fuqarolar mehnat

⁵³Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruza. // Xalq so‘zi. 2015-yil. 5-dekabr.

qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadi.

2.8-jadval

O'zbekiston Respublikasining yillik ijtimoiy ustuvorlari

Yillar	O'zbekiston Respublikasining yillik ijtimoiy ustuvorlari
1997	Inson manfaatlari yili
1998	Oila yili
1999	Ayollar yili
2000	Sog'lom avlod yili
2001	Onalar va bolalar yili
2002	Qariyalarni qadrash yili
2003	Mahalla yili
2004	Mehr va muruvvat yili
2005	Sihat-salomatlilik yili
2006	Homiyalar va shifokorlar yili
2007	Ijtimoiy himoya yili
2008	Yoshlar yili
2009	Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili
2010	Barkamol avlod yili
2011	Kichik biznes va tadbirdorlar yili
2012	Mustahkam oila yili
2013	Obod turmush yili
2014	Sog'lom bola yili
2015	Keksalarni e'zozlash yili
2016	Sog'lom ona va bola yili
2017	Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili
2018	Faol tadbirdorlik, innovatsion va g'oyalar va texnologiya-larni qo'llab-quvvatlash yili
2019	Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoiti O'zbekistonda davlat va nodavlat pensiya ta'minoti tizimi amal qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanishi va demografik holatining o'ziga xosligi pensiya ta'minoti

borasidagi Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mavjud tizimlar tajribasidan to‘liq foydalanish imkoniyatini bermaydi. Ammo pensiya ta’minotining xorijiy tajribalarini tahlil qilish, uning ayrim tajribalaridan milliy amaliyotda foydalanish mumkinligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilishning istiqbolli jihatlaridan biri fuqarolarni ixtiyoriy pensiya jamg‘armalarini davlat tomonidan rag‘batlantirish (Buyuk Britaniya va Germaniya mavjud tizimga o‘xshash) bo‘lib, pensiya ta’minotining qo‘s Shimcha manbasi hisoblanadi. Sug‘urta badallari stavkasini oshirish (Germaniya va Shvetsiya tajribasi) va yagona ijtimoiy soliqdan voz kechish pensiya jamg‘armasi byudjetini shakllantirish tamoyillarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Xomashyo sektoridan soliqlarni kirib kelishi asosida maxsus zaxirani tashkil etish orqali pensiya tizimini moliyalashtirish (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Shvetsiya tajribasi) pensiya ta’minoti tizimida muhim ahamiyatga ega va mehnat pensiyalarining jamg‘arib boriladigan qismining shakllanishiga yordam beradi. Pensiya sug‘urtasi vositalari hisobiga moliyaviy aktivlarni olish yo‘li bilan pensiya ajratmalarini investitsiyalash (Buyuk Britaniya va Shvetsiya tajribasi) ularni qadrsizlanish xavfini kamaytirish usullaridan biri hisoblanadi. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini moliyalashtirishda davlat mablag‘larini samarali taqsimlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin inqiroz sharoitida bu maqsaddagi xarajatlarni rejalashtirishda davlat dasturlarining ko‘lamini, daromadlar va xarajatlar nisbatini ham hisobga olish lozim. Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik ta’milansa, ijtimoiy himoyani moliyaviy mustahkamlash muammolari ham jidiy tus olmaydi.

Mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimi huquqini mustahkamlash, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilashdagi mas’uliyatini kuchaytirish, pensiya oluvchilarga davlat pensiya to‘lovlariga qo‘s Shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, shuningdek, keksalik chog‘ida fuqarolarning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish

maqsadida islohotlar olib borildi. Natijada respublikamizda fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi amaliyotga joriy qilindi.

Qisqacha xulosalar

O‘zbekistonda “Hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun” konsepsiyasining izchil amalga oshirilishi insonni rivojlantirish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishishini ta’minladi. Insonni rivojlantirish konsepsiyasi – ijtimoiy taraqqiyotga yangicha istiqbolli yondashuv bo‘lib, uning markaziga insonning hayoti tanlov imkoniyatlarini kengaytirish qo‘yilgan.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim shartlaridan biri - har bir shaxsning o‘z manfaatlarini birinchi navbatda himoya qilishi, fuqaro o‘z imkoniyatini ifodalashi kerak. Davlat fuqarolar o‘z turmush darajalarini oshirishlari uchun ularga tegishli qonunlar tizimi orqali zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishi va fuqarolarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro nisbat o‘zgarib borgan sari bu ikki omil albatta, ijtimoiy ta’minot va pensiya tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Pensiya ta’minoti tizimi o‘zining vazifalaridan kelib chiqqan holda to‘rtta funksiyani bajaradi:

1. Makroiqtisodiy funksiyasi – milliy iqtisodiyot va jamiyatda ijtimoiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.
2. Siyosiy funksiyasi – aholi qatlamlari orasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash.
3. Iqtisodiy funksiyasi – ishlayotganlar va mehnatga layoqatsizlar, yosh va keksa avlodlar, ko‘p va kam daromadli aholi qatlamlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish.
4. Ijtimoiy funksiyasi – yaratilgan YaIMni ijtimoiy adolat tamoyili asosida fuqarolarga taqsimlash.

Pensiya jamg‘armalaridagi fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg‘arma badallari ularni

davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi, muayyan jamg‘arma tashkil etgan aholi toifalariga to‘lovlarini amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo‘ljallangan mustaqil pul jamg‘armalari sifatida ta‘riflash imkonini beradi.

Mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimi huquqini mustahkamlash, ish beruvchilarining pensiya yoshiga yetgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilashdagi mas’uliyatini kuchaytirish, pensiya oluvchilariga davlat pensiya to‘lovlariga qo‘srimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, shuningdek, keksalik chog‘ida fuqarolarning o‘z farovonligi uchun imkoniyatlarini va shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida islohotlar olib borildi, natijada 2005-yildan boshlab respublikamizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi. Ikki holatda ham davlat keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko‘rsatadi.

Har bir davlatda pensiya tizimini joriy etish mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bevosita bog‘liq. Pensiya ta’minoti tizimining asosiy ishtirokchilari davlat, fuqarolar va xususiy pensiya jamg‘armalari hisoblanadi. Ular bir tomondan, ish beruvchilar va xodimlarning to‘lovlarini shaklidagi badallarini jamlasalar, ikkinchi tomonidan, jamg‘arma mablag‘larini fuqarolarga taqsimlaydilar.

Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri – davlat maqsadli pul jamg‘armalaridan samarali soydalanish hisoblanadi. Davlat maqsadli jamg‘armalari - ijtimoiy ehtiyojlarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minalash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan, tezkor va mustaqillik asosida kompleks rivishda sarflanadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va soydalanish shaklidir.

Ijtimoiy pensiya tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichidayoq, pensiya oluvchi shaxslarning o‘zлari badal to‘lay boshladilar. Ishlovchilariga to‘lanadigan pensiya ularga beriladigan yordam emas, balki ularning huquqlarini ro‘yobga chiqarish shaklidir. Jamg‘arib borilgan badallar esa pensiya oluvchining moddiy ahvolini yaxshilash uchun olingan mablag‘dir. Fuqarolardan olinadigan majburiy badallar

ularni kelajaklari uchun jamg‘arma yig‘ishga rag‘batlantiradi. Ijtimoiy pensiya tarkibida individual jamg‘armalar salmog‘i asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, badallarni to‘lash ushbu tizimda qatnashayotgan shaxslarga ijtimoiy pensiya dasturini boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublikamiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega. Jamg‘ariladigan pensiya jamg‘armalari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta’minalash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to‘lovlarini ishlovlarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo‘lgan ish haqining ma’lum qismidan, boshqacha qilib aytganda, mehnat faoliyati mobaynida to‘langan badallari miqdoriga hisoblangan foizni ifoda etadi. Bir martalik qayta taqsimallashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida jamg‘arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qo‘llanishi mayjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo‘naltiriladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Yalpi ichki mahsulot; moliya tizimi; davlat moliyasi; jamlanma byudjet; milliy daromad; aholini ijtimoiy himoyalash; aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; davlat ijtimoiy dasturlari; davlat pensiya ta’minoti; jamg‘arma; jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi; shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i; pensiya ta’minoti subyektlari; ish beruvchilar; yuridik shaxslar; jismoniy shaxslar.

Takrorlash uchun savollar

1. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining iqtisodiy mazmuni nimalardan iborat?

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining zarurligini qanday izohlaysiz?

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining moliya tizimi bo‘g‘inlari bilan o‘zaro munosabatlarini qanday izohlash mumkin?

4. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining tutgan o‘rni nimalardan iborat?

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini tushuntirib bering.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Ijtimoiy ta’minot tizimida fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining o‘rnini ko‘rsatadigan ishlanma tayyorlang.

2. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlarini chizmada ko‘rsating.

3. “O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining ahamiyati” mavzusida esse yozing.

Test savollari

1. Davlat pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ... deb ataladi.

- A. Taqsimot-tortiluvchan pensiya tizimi.
- B. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi.
- C. Kapitallashgan pensiya tizimi.
- D. Korporativ pensiya tizimi.

2. Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishning ko‘p kanalli tizimi:

- A. Davlat byudjeti mablag‘lari.
- B. Korxonalar, fuqarolar mablag‘lari.
- C. Byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari.

D. Barchasi to‘g‘ri.

3. O‘zbekiston Respublikasi hududida 2017-yil 1-dekabrdan qabul qilingan eng kam yoshga doir pensiya:

- A. 254730 so‘m.
- B. 130240 so‘m.
- C. 254730 so‘m.
- D. 172 240 so‘m.

4. O‘zbekiston Respublikasida 2015-yilda ... deb e’lon kilindi:

- A. Keksalarni e’zozlash yili.
- B. Sog‘lom ona va bola yili.
- C. Yoshlar yili.
- D. Inson manfaatlari yili.

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi e’lon qilindi.

- A. 2000-yil sentabrda
- B. 2016-yil yanvarda.
- C. 2005-yil yanvarda
- D. 1991-yil martda.

6. Germaniyada taqsimot pensiya tizimi ... joriy qilingan.

- A. 1891-yilda.
- B. 1981-yilda.
- C. 1787-yilda.
- D. 1980-yilda.

7. Ijtimoiy ehtiyojlar:

- A. Mehnat sharoiti.
- B. Ijtimoiy-maishiy muhit.
- C. Pensiya ta’minoti.
- D. Barchasi to‘g‘ri.

8. YalMni ijtimoiy adolat tamoyili asosida fuqarolarga taqsimlash – pensiya ta'minoti tizimining ...

- A. Ijtimoiy funksiyasi.
- B. Siyosiy funksiyasi.
- C. Iqtisodiy funksiyasi.
- D. Makroiqtisodiy funksiyasi.

9. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi:

- A. Investitsiyalar miqdorining o'sishiga olib keladi.
- B. Investitsiyalar miqdorining kamayishiga olib keladi.
- C. Investitsiyalarga ta'sir qiladi.
- D. Investitsiyalarga ta'sir qilmaydi.

10. Chilida jamg'ariladigan pensiya tizimi ... joriy qilingan.

- A. 1891-yilda.
- B. 1981-yilda.
- C. 1787-yilda.
- D. 1980-yilda.

III BOB. JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTI FAOLIYATINING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI

3.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotinining qonuniy asoslari

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – pensiya ta’minoti huquqi bilan mustahkam bog‘liq. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zлari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi”⁵⁴.

“Pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me’yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qtoganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovidir”⁵⁵. Pensiyyaga oid hujjatlar yig‘ma jildi turadigan joy – pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga asosan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larining saqlanishi va to‘lanishi Davlat tomonidan kafolatlanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to‘plangan mablag‘larga daromad hisoblash foizi inflyatsiya darajasida yuqori bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pensioner-larning farovonligini qo‘sishmcha ravishda oshirish uchun shart-

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish kiritish haqida»gi qonuni. 2012-yil. 5-yanvar.

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrda “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-sonli qarori.

Jahuroitlar yaratish maqsadida 2004-yil 21-dekabrda “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan 2005-yil 1-yunnvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimiga qo‘srimcha ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i zimmasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning bir foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilandi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga hisobga qo‘yishning va badallar to‘lashning majburiy-ixtiyoriyligi, ya’ni muayyan hollarda majburiy ravishda hisobga qo‘yish va badallar to‘lab borishning shartligi va boshqa hollarda yoki ayrim shaxslarning tizimda hisobga qo‘yilishi va to‘lovlarни amalga oshirib borishning ixтиoriy ekanligidir. Masalan, barcha yuridik shaxslar o‘z xodimlarini hisobga qo‘yishlari va to‘lovlarни o‘tkazishlari majburiyligi, yuridik shaxs bo‘limgan yўnka tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari a’zolari va boshqalarga bu boradagi ixтиoriylik belgilandi. Mablag‘larning Xalq banki muassasalarida jamg‘arib borilishi, ularga inflyatsiya darajasidan kam bo‘limgan foizlik daromadlar hisoblanishi va to‘lovlar ham kelgusida ushbu bank orqali to‘lanishining davlat o‘z zimmasiga oladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mutlaqo individuallashgan va har bir to‘lovchi uchun alohida maxsus hisobvaraq ochildi. Respublika bo‘yicha yagona elektron ma’lumotlar bazasi yaratildi, ishlovchi fuqarolar yashash yoki ish joyini o‘zgartirishi tizimda hisobga turishga ta’sir qilmaydi.

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi tomonidan fuqarolarni ishga joylashtirish ishlari bilan birgalikda mehnat bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirish faoliyati, ishsiz fuqarolarni turli

kasblarga tayyorlash, pul to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish, mehnat yarmarkalarini uyushtirish, mehnat bozoridagi talab va taklifni tadqiq qilish, bu bozordagi talabning o‘sishiga ko‘maklashish, hukumatning mehnat shartnomalaridagi ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirish ishlari bajarilmoqda.

Aholi bandligini ta’minalash va ish o‘rinlarini tashkil etish muammolarini izchil hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band aholi soni 2,5 %ga o‘sdi va deyarli 11,9 mln kishiga yetdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi bandlar ulushi 79,4 %ni, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 %ni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o‘sish sur’atlari qurilishda (105,2 %), uy-joy-kommunal xo‘jaligida va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishda (105,1 %), savdo va umumiyl ovqatlanishda (105,0 %), transport va aloqada (104,4 %) qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga davlat buyurtmalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o‘rta maxsusus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minalash, kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini amalga oshirish belgilandi. 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashtirish sohasida belgilangan tartibda pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqini berish, agar bunday xizmatlar fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu faoliyat turi bo‘yicha belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida xizmat ko‘rsatishga ruxsat beriladi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida ish tashkil qilishning ilg‘or shakllarini joriy etish, bunda barcha davlat

xizmatlarini to‘liq hajmda funksional tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish (reinjiniring qilish), ishga tanlov asosida qabul qilish, «yagona darcha» tamoyilida davlat xizmatlari ko‘rsatish, mehnat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobvaraq ochish, mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tay‘batlantiruvchi uslublarini qo‘llagan holda samaradorlikning mosiy ko‘rsatkichlari asosida xodimlar mehnatining sifati va samaradorligini baholash nazarda tutiladi.

«Mehnat organlari tomonidan aholiga va ish beruvchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish va ulardan foydalanish qulayligini ta‘minlash, birinchi marta mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kam ta‘minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish va ularni oilaviy tadbirkorlikka va hunarmandchilikka jalb etish hamda o‘zini-o‘zi band qilishning turli shakllarini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy choralarни ko‘rish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklatildi»⁵⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bandlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, shu jumladan, davlat va xususiy biznes o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda mehnat bozori infiltruzilmasini rivojlantirish, ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo‘naltirildi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini iqtisodiyot tarmoqlarga investitsiya qilinishi va shu hisobdan tizimga yig‘ilayotgan mablag‘lari hamda fuqarolarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi summalarining inflyatsiya darajasidan yuqori

⁵⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4760-sonli farmoni. 2016-yil. 17-dekabr.

miqdorlarda va uzlusiz ko‘payib borishiga erishiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun badallar har bir xodim tomonidan oylik maoshidan to‘lansada, ammo ushbu to‘lov uning daromadlariga (daromadning kamayishiga) salbiy ta‘sir qilmaydi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun to‘lanadigan badalning xodimdan ushlab qolinadigan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i hisobidan (soliqni kamaytirilishi hisobiga) amalgalashiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun to‘plangan mablag‘larni shaxsiy hisobvaraq egalari tomonidan keng asoslarda sodda va hech qanday cheklovlarsiz tasarruf qilish mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun xodimlardan undiriladigan badal mikdorining dastlab kam darajada (oylik ish haqining bir foizi mikdorida, 2018-yil yanvardan ikki foiz miqdorida) belgilanishi va kelgusida uning miqdorini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xodimlarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga har oylik badallar to‘lash 2005-yilning yanvar oyi uchun hisoblangan ish haqi (daromad)dan boshlanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida qatnashadigan fuqarolar tomonidan shaxsiy pensiya hisobvaraqlariga badallar miqdori va to‘lash muddatları mustaqil ravishda belgilandi.

Xalq banki tomonidan “Fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida”gi nizom; “Fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom; “Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘ to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom; “Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amaldagi qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiquvchi o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritildi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli qaroriga muvofiqlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagি PF-4725-sonli farmonini bajarish yuzasidan 2015-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 250-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish quyidagi ijobiylar natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi:

- pensionerlar moddiy ta’minotining yaxshilanishi;
- aholining investitsion faolligini oshishi;
- pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini oshishi.

Jahon tajribasidan kelib chiqgan holda O‘zbekiston pensiya tizimining samaradorligini oshirish uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. O‘zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich isloh etish va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasini tashkil etish, rivojlantirishning davlat dasturi ishlab chiqiladi. Shuninhdek, O‘zbekiston pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshiruvchi tadbirlarni amalga oshirish zarur. Pensiya yoshini oshirish hamda erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshlarini ko‘rib chiqish lozim. O‘zbekistonda pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Mamlakatimizda o‘rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqidagi ulushini oshirishga, ya’ni qoplash koeffitsiyentini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini qonuniy asoslarini shakllantirish;

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining nazorat qiluvchi maxsus davlat tashkilotini belgilash va uning funsiyalarini aniqlash;

–pensiya jamg‘armalarini asosida amalga oshirilgan investitsiyalarni kam xavf-xatar darajasiga ega bo‘lishi uchun qimmatli qog‘ozlar ro‘yxatini va investitsion portfelda ularning ulushini aniq belgilab qo‘yish kerak.

Shaxsiy pensiya jamg‘armalarini shakllantirish, ularning faoliyat ko‘rsatish tartibini, davlat va jamiyat oldidagi javobgarligini, ushbu jamg‘armalarning ishtirokchilar bilan munosabatlarini aniqlashtirilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqish zaruriyati pensiya tizimida tezda hal etilishi dolzarb muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda shaxsiy jamg‘ariladigan pensiya ta’minotiga oid qonunchilikni bir xil qo‘llash, bir xil tushunish sohasida qiyinchiliklar mavjudligi, me’yoriy hujjatlarning murakkablik darajasi yuqorilagini e’tiborga olish kerak.

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – pensiya ta’minotining huquqiy asosi sifatida

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov “... insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’nnaviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanoniga” qiyoslardilar. “..Jamiyat a’zolarining o‘z salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur”,⁵⁷, deb alohida uqtirdilar.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson huquqlari yangi sifat xususiyatlarga ega bo‘lib borgan, bu huquqlar jamiyatning tobora ko‘proq a’zolari uchun kafolatlangan.

⁵⁷ Karimov I. Yuksak ma’nnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’nnaviyat. 2008. 67-68-b.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida quyidagilar qayd qilingan: “Har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan, klyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta’milish huquqiga ega”⁵⁸.

“B.Spinosa, Sh.Monteske, T.Jefferson, I.Kant asarlарida inson huquqlarining yangi oqilona nazariyasi o‘z ifodasini topdi. Shaxsning huquq va erkinliklari yangi konsepsiyasini, shaxs bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarda huquq ustuvorligini ta’minlashga asoslangan mazkur nazariya yangi dunyoqarashni shakllantirishga katta hissa qo‘shdi”⁵⁹.

Xalqlarning asosiy boyligi – insonni rivojlantirish jarayoni ko‘p jihatdan uning ijtimoiy imkoniyatlari va ne’matlарini belgilaydigan, turmush kechirishni ta’minlaydigan, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladigan inson huquq va erkinliklariga bog‘liq. Shuning uchun inson huquqlari masalasi hamisha o‘tkir muammo bo‘lib kelgan, bu huquqlarga ega bo‘lish, ular doirasini kengaytirish lozim. Inson erkinligining ilk falsafiy-huquqiy konsepsiysi Epikur⁶⁰ asarlарida o‘z ifodasini topgan.

Ko‘hna yunon mutafakkirining fikricha inson erkinligi o‘z turmush tarzini oqilona tanlash uchun mas’uliyatdir.

Xalqlarning haqiqiy boyligi – odamlar. Rivojlanishning asosiy maqsadi odamlarga uzoq, sog‘lom va ijodkorona turmush kechirish imkoniyatlarini beradigan shart-sharoitni yaratishdir. Ko‘hna

⁵⁸ Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. 35-b.

⁵⁹ Жарков Б.Н. Права человека в современном мире: проблемы и решения. - М.: Знание., 2002. – С32.

⁶⁰Epikur – ko‘hna yunon faylasufi, epikurizm va “faylasuflar bog‘i”ning asoschisi.

davrلardayoq Aristotel pirovard maqsad – odamlarning “ajoyib turmush tarzi”ni ta’minlashdan iborat, deb ta’kidladi⁶¹.

O’zbekiston Respublikasida “ijtimoiy ta’midot, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan, onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash, sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish, ularning hayotda munosib o’ringa ega bo’lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi”⁶².

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarini to’lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora- tadbirlar to’g’risida” 2017-yil 2-fevraldagи PQ-2753-sonli qarori bilan pensiyalar va nafaqalar to’lash tizimini tubdan takomillashtirish, naqd pul shaklida pensiyalar va nafaqalarni yetkazib berish va o’z vaqtida to’lash bo’yicha barcha kompleks chora-tadbirlar to’liq va muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagи «Pensiyalar va nafaqalar to’lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2826-sonli qarori asosida O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki, Pensiya jamg’armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to’lovlarni naqd shaklda to’lashni «O’zbekiston pochtasi» AJdan O’zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki bo’linmalariga mart-iyul oylari mobaynida bosqichma-bosqich o’tkazildi. O’zbekiston Respublikasining barcha hududlarida 2017-yil 1-iyuldan pensiyalar va nafaqalarni to’lash faqat Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqil harakatlanish hamda pensiyalar va nafaqalarni maxsus kassalardan olish imkoniyatiga ega

⁶¹ Человеческое развитие: новое измерение социально-экономического прогресса. - М. 2000. –С. 23.

⁶² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-fevraldagи “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoyishi. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2017-y. 8-son. 119-modda.

bo‘limgan shaxslarga pensiyalar va nafaqalar Xalq banki tomonidan bevosita ular yashaydigan joyga yetkazib beriladi”⁶³.

Mamlakatimizda Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari prinsipi jihatidan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qoidalariiga muvofiqdir. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi⁶⁴ asosida ochiq fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Jumladan:

- barcha fuqarolik jamiyati institutlarining demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning o‘z salohiyatlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish;

- “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga” strategik dasturiy maqsadni izchillik bilan amalga oshirish;

- aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining jadal institutsional shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy himoya tizimiga qo‘yilgan vazifa kafolatlangan daromadlarni ta’minlash yo‘li bilan aholining kam ta’minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. O‘zbekistonning o‘rtacha darajadagi daromadli davlatlar guruhiga kirish strategik maqsadiga erishish mamlakat oldiga iqtisodiyot va jamiyatni transformatsiya qilish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘yadi. Bu transformatsion jarayonlarni amalga oshirish aholining turmush farovonligiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi, har bir insonni ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish va tanlash imkoniyatini yaratadi. Natijada ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifati va parametrlariga bo‘lgan talab o‘zgaradi.

⁶³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2826-sonli qarori. 2017-yil. 13-mart.

⁶⁴Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. // Xalq so‘zi. 2010-yil. 13-noyabr.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik uchun nafaqlarning to‘lovlari bo‘yicha qonunchilik tizimini muvofiqlashtirish va migrantlarning bu boradagi huquqlarini himoyalash bo‘yicha tashabbusi 1962-yilda 18-sonli xalqaro Konvensianing qabul qilinishiga olib keldi. Konvensiya ijtimoiy himoyaning teng huquqlilik prinsiplarini belgilab berish bilan birga bu boradigi xalqaro huquq normalarini ham tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Konvensiyaga ko‘ra pensiya to‘lovlari yoshga doir (qarilik), boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik bo‘yicha to‘lanishi belgilangan. Keyinchalik 1982-yilda qabul qilingan 157-sonli xalqaro Konvensiya mavjud turli xil munozarali holatlarni bartaraf etish imkonini berdi.

Har bir mamlakatdagi pensiya ta’minoti qonuniy, tashkiliy, moliyaviy va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Lekin ularni birlashtirib turuvchi jihat sifatida pensiya ta’minotining “uch pog‘onali” tizimga asoslanishini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Pensiya ta’minoti tizimiga davlat, nodavlat yoki xususiy (ishlab chiqarish, korporativ) pensiya fondlari va sug‘urta institutlari kiradi. Bu shakldagi tizim qator rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bo‘lib mutazam takomillashtirib borilmoqda. Odatda, davlatning pensiya ta’minoti tizimi butun mamlakat aholisini yoki uning alohida qatlamlarini qamrab oladi. Nodavlat pensiya fondlari (NPF) notijorat tashkilotlari hisoblanadi. Ularning faoliyat sohasi cheklangan miqdordagi qatnashuvchilar bilan bog‘liq. Ko‘pincha ushbu rolni banklar, yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat kollektivlari, kasaba uyushmalari bajaradilar. Uchinchi element sifatida esa individual yoki fuqarolar guruhlarining pensiya ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi xususiy investitsiya fondlari (XIF)ni, sug‘urta tashkilotlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “...O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” asarida “chinakam demokratizm qonunlarning qay darajada ustunligi bilan, huquq va erkinliklarning qanchalik keng berilganligi, ijtimoiy

kafolatlarni yaratish bilan belgilanadi”⁶⁵, deb ko’rsatib berdilar. Fuqarolarning ijtimoiy ta’minotga bo’lgan huquqlari asosiy qonunimiz bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta’minalashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar majmuyi “kafolat” tushunchasini beradi. Iqtisodiy kafolatlarga: adolatli iste’mol savatini davlat tomonidan rasmiy ravishda mustahkamlash, minimal oylik ish haqi miqdorini belgilash, davlat tomonidan aholini kam ta’minalangan qatlamini, voyaga yetmaganlar, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, barcha mulk shakllari tengligini hamda fuqarolarni mulk huquqlarining ta’minalash va boshqalar kiradi.

Sodda qilib aytganda, iste’mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to‘plamidir. Barcha fuqarolar ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar haqini to‘lashi, zarur dori-darmonalarni xarid qilishi lozim. Bularning barchasi mahsulotlar savatchasini shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

Uning ma’lumotlaridan, o’z navbatida, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor (iste’mol savatchasining qiymat bahosini) belgilash uchun foydalaniladi. Quyidagi jadvalda MDHning ayrim mamlakatlaridagi tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor sharh e’lon qilingan kunda ushbu mamlakatlar valyutalarining rasmiy kursi bo‘yicha AQSh dollarini ekvivalentida ko’rsatilgan.

Rossiyada 1997-yildagi «Rossiya Federatsiyasidagi tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor to‘g‘risida» va 2012-yildagi «Umuman Rossiya Federatsiyasi bo‘yicha iste’mol savatchasi to‘g‘risida»gi qonunlar amal qiladi. Rossiya Federatsiyasida iste’mol savatchasi har 5 yilda belgilanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari uning yarmini (50%), nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar esa – har biri chorak qismini (25% + 25%) tashkil etadi.

⁶⁵Karimov I. O’zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: «O’zbekiston». 1998. 379-b.

3.1-jadval

MDHning ayrim mamlakatlaridagi aholini yashashi uchun zarur bo‘lgan eng kam mablag‘lar miqdori⁶⁶

Davlat	Aholining yashashi uchun zarur bo‘lgan eng kam mablag‘lar miqdori
Qozog‘iston Respublikasi	24459 tenge (\$ 75,44)
Rossiya Federatsiyasi	aholi jon boshiga – 10328 rubl (\$ 178)
	mehnatga layoqatlari aholi uchun – 11160 rubl (\$ 192,35)
	pensionerlar uchun – 8496 rubl (\$ 146,43)
	bolalar uchun – 10181 rubl (\$ 175,48)
Belarus Respublikasi	mehnatga layoqatlari aholi uchun – 420 belorus rubli 60 tiyin (\$ 211,16)
	pensionerlar uchun – 331, 82 b.r. (\$ 166,59)
	to‘rt kishilik oila uchun – 328, 45 b.r. (\$ 164,9)
	uch kishilik yosh oila uchun – 356, 1 b.r. (\$ 178,78)
Qirg‘iziston Respublikasi	butun aholi uchun – 4 864,42 qirg‘iz so‘mi (\$ 71,09)
	mehnatga layoqatlari aholi uchun – 5 440,04 so‘m (\$ 79,5)
	pensiya yoshidagi aholi uchun – 4355,8 so‘m (\$ 63,65)

Ushbu mamlakat iste’mol savatchasi to‘plami hamda tovarlar va xizmatlar iste’moli normalarining aniq raqamlari bilan havola orqali tanishish mumkin. Qozog‘istonda oziq-ovqat savatchasi ilmiy asoslangan oziq-ovqat mahsulotlari iste’molining fiziologik normalari bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarga xarajatlarning qat’iy belgilangan ulushi minimal iste’mol savatchasi qiymatining 45% miqdorida belgilanadi. Ya’ni qozog‘istonliklarning iste’mol savatchasidagi oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 55%ni tashkil etadi.

Respublikamizda «tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor» va «iste’mol savatchasi» tushunchalarini 2018-yilning 1-iyuligacha huquqiy jihatdan tartibga solish rejalashtirilmoqda. Bu 2018-yilgi Davlat dasturida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli farmoni bilan tasdiqlangan) mamlakat

⁶⁶ https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlari/istemol_savatchasi_va_tirikchilik_uchun_zarur_eng_kam_miqdor_tuzish_chogida_nimalar_hisobga_olinadi

aholisi daromadlarining zarur darajasini aniqlash uchun nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mas’ul ijrochilar etib tayinlandi.

Odatda, iste’mol savatchasi aholining uchta asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Ya’ni aholining turli qatlamlari tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda muayyan davrda iste’mol savatchasidagi barcha ne’matlarni iste’mol qilish normalarini aniqlash zarur. Masalan, oddiy fuqaro normal hayot kechirishi uchun har kuni iste’mol qilishi kerak bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari to‘plami va miqdorini hisoblash zarur, yoki barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha mablag‘ zarurligini bilish kerak. Bunda odatda, iste’mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixotir, sog‘lom yashashi mumkin bo‘lgan tovarlar: tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, delikates (tansiq) mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari kiritilmaydi.

Fuqarolarning ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqlari Konstitutsiya bilan kafolatlanib, bu masala uning 39-moddasida aks ettirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2-moddasida ta’kidlanganidek, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini turli qatlamlari davlatning yordamiga u yoki bu holatda ehtiyoj sezadi. Davlat miqyosida demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlarini himoyalash, rivojlangan mamlakatlarda aholining moddiy farovonligini oshirish bo‘yicha olib borayotgan siyosati davlatning asosiy kundalik siyosatiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida «Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiyadolat va

qonuiylik prinsiplari asosida amalga oshiradi»¹ deb ko‘rsatib o‘tilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aholini himoyalash bilan birga aholini daromadini oshirish imkoniyatlarini yaratib berayotganligi muhimdir.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi huquqiy asosini shakllantirish “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘s Shimchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi PQ-110-sonli “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo‘s Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalgaga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (29.08.2005-y. N 76), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (29.08.2005-y. N 2005-47) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving 29.08.2005-y. N 267-V «Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo‘sish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori tasdiqlandi. Mazkur qaror 2005-yil 6-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 6-oktabrda ro‘yxatga olindi (№1515), 2005-yil 16-oktabr dan kuchga kirdi. Ish beruvchilar, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalgaga oshirayotgan fuqarolar uchun jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashish majburiy hisoblandi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent. 2014-yil. 4-b.

Pensiya ta'minoti bilan bog'liq qonunchilik tizimini isloh qilish, uni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish zarurati bir qator obyektiv omillar bilan belgilanadi. Davlatimizning bosh maqsadi ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya va pensiya tizimiga oid qonunchilikni zamon o'zgarishlariga moslashtirish, ularni xalqaro standart va qoidalarga yanada muvofiq bo'lishiga erishish, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy ta'minot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini to'la kafolatlash va amalga oshirilishi uchun aniq huquqiy sharoit yaratishdan iborat.

3.3. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi va vazifalari, ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati

Hukumatimiz tomonidan istiqlol yillarda aziz otaxonlar hamda muhtarama onaxonlarning keksalikda farovon yashashi uchun g‘amxo'rlik ko'rsatish maqsadida say'-harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Pensiya ta'minoti sohasidagi qonunchilik tizimi isloh etilar ekan, fuqarolarni pensiyalar bilan ta'minlanishida ularning jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan shaxsiy hissasini hisobga olish, mehnat stoji miqdori va sifati, mehnat sharoitlarining zararli va noqulayligi to'liq hisobga olinishi, shu bilan birga texnika va texnologiyalarda yuz bergen tub o'zgarishlar tufayli zararsiz hamda mehnat sharoitlari qulay va xavfsiz bo'lib qolgan joylarda mehnat qilayotgan shaxslarning eski norma va qoidalarga ko'ra asossiz pensiya imtiyozlari olishlariga yo'l qo'yilmasligi zarur bo'lib, bu ijtimoiy adolatni ta'minlash, tadbirkorlar huquqlarini himoyalashning muhim shartlaridan sanaladi.

Istiqlol yillardagi amalga oshirilgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2005-yil 1-yanvardan boshlab jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi amaliyotga tadbiq etildi. 2004-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasining “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti to‘g‘risida”gi 702-II-sonli qonuni, 2004-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning

jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 595-sonli qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 2-dekabrdagi 16-sessiyasida tasdiqlangan ushbu qonunning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasining jamg‘ariladigan pensiya ta’minotiga o‘tish yo‘lidagi dastlabki qadam hisoblanadi.

Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunning maqsadi - fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublikamiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti (JBPT) fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘-lardan davlat pensiyasiga qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlashdir. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga ikki xil a’zo bo‘lish mumkin: majburiy va ixtiyoriy.

Ish beruvchining asosiy huquqlari: korxonani boshqarish va o‘z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish; qonun hujjatlariga muvofiq yakka tartibdagи mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish. “Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo‘yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda taraflar kelishushi, shuningdek, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ

hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish huqiqidagi kelishuvdir⁶⁷.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomasining shakli O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shartnomani hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo‘lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi. Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko‘rsatiladi. Mehnat shartnomasi xodim va ishliga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustahkamlanib, imzolangan muddati qayd etib qo‘yiladi. Mansabdor shaxsning imzosi imzoning haqiqiy va vakolatli ekanligini ta’kidlash tariqasida korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiy hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etadilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda qatnashayotgan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish ish beruvchi tomonidan ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq bankining filialida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida

⁶⁷O‘zbekiston Respublikasining Mexnat Kodeksi. 72-modda. Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari.

amalga oshiriladi. O‘zbekistonda 2005-yil 1-yanvardan daromad solig‘i to‘lanishi bilan bir paytning o‘zida umumiylis oblangan oylik maoshining 1 foizi soliqqa o‘tkazilgan daromad solig‘idan tegishlicha ajratib olinib, jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimiga o‘tkazib kelinmoqda. «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma‘lumotlar o‘zgargan taqdirda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i tartib raqami o‘zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochish talab etilmaydi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati nusxasini, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari tartib raqami, har bir xodimning hisoblab chiqarilgan ish haqi summasi, boshqa daromadlari va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi ko‘rsatilgan xodimlar reyestrini ish beruvchi o‘zi turgan joydagi Xalq banki filialiga har oyda taqdim etishi shart. Xalq banki to‘lov hujjati va reyestr asosida mablag‘larni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to‘lovlari oluvchi sifatida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega. Fuqaro O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo‘lsa, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar bir yo‘la to‘la hajmda to‘lanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi qonun hujjatlarida belgilangan shaklda beradigan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma bunday to‘lovlarini olish uchun asos bo‘ladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomani berish so‘ralgan arizani fuqarolar ish

beruvchi orqali, fuqarolar esa bevosita yashash joylaridagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan hishqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga beradilar.Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnomada jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari boshlanadigan sana ko'rsatiladi.

3.4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to'lash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy- me'yoriy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004-yil 21-dekabridagi 595-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi, “Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risida”gi Nizom, “Fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom, “Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag' to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom va “Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi to'g'risida”gi Nizom tasdiqlandi.

Kanada pensiya dasturi (the Canada Pension Plan -CPP) Kanada milliy pensiya tizimini o'zida mujassamlashtirgan dastur hisoblanadi, ushbu dastur kanadaliklarning keksalikdagi va ularning ijtimoiy hayotidagi ayrim muammoli vaziyatlarda tegishli daromadga ega bo'lishini kafolatlaydi. Shu bilan bir qatorda Kanada pensiya dasturi jamg'ariladigan komponentlarga ega bo'lib bu turdag'i pensiya dasturlari faqatgina mamlakat fuqarolari uchun mo'ljalangan. Bu turdag'i jamg'armalarga yo'naltirilgan pensiya va boshqa turdag'i

sug‘urta mablag‘lari mamlakatda amal qilayotgan qonunchilikka ko‘ra soliqdan ozod etilgan.

1996-yilda Kanada milliy pensiya tizimida pensiya fondlarining moliyaviy holatlarini yaxshilash va ularni takomillashtirishga qaratilgan islohot dasturlari amalga oshirildi. Natijada 1997-yilda Kanada pensiya dasturi investitsion kengashi (the Canada Pension Plan Investment Board -CPPIB) tashkil etildi¹. CPPIB ning tashkil etilishi Kanada pensiya fondlari aktivlaridan investitsion dasturlarni moliyalashtirish orqali ularning daromadlari bazasini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratdi. Kanda pensiya fondi tomonidan 2015-yilning mart oyida berilgan bayonotga ko‘ra so‘nggi yillarda Kanada pensiya fondlarining investitsion faoliyatidan olgan sof daromadi yiliga qariyb 130 mlrd dollarni tashkil etadi¹.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini ko‘paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag‘lardan foydalanish mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruving qo‘shma qarorlari bilan «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq mablag‘larni investitsiya va kredit resurslari sifatida moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi:

–JBPT mablag‘lari quyidagi obyektlarga joylashtirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlariga; ipoteka obligatsiyalariga;


–amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o‘tgan korporativ qimmatli qog‘ozlarga;

–banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga;

¹ Canada (1997). Information on the history, mandate, and performance of the CPPIB is available at <http://www.srrib.som/en/home.html>

¹ Manba: CPPIB. 2015. –B.123.

-qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27 - bandi talablariga javob beradigan boshqa obyektlarga.



3. I-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini obyektlarga joylashtirish⁶⁸

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 110-sonli qarorida jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining afzalliklari to'g'risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ushbu tizim barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma - bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish belgilab berildi.

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktabrdagi 88-son va 282-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo‘yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

–muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida JBPT mablag‘larini joylashtirish obyektlarini belgilash:

–JBPT mablag‘larining har bir joylashtirish obyektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash:

–JBPT mablag‘larini joylashtirish obyektlarini risklar bo‘yicha guruhlarga ajratish:

–JBPT mablag‘larini joylashtirish va investitsiya qilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining qo‘shma qaroriga asosan “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalq bankining JBPT mablag‘larini joylashtirish bo‘yicha majburiyatları, Xalq bankida JBPT mablag‘larini hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, JBPT mablag‘larini joylashtirish, JBPT mablag‘larini joylashtirish obyektlariga qo‘yiladigan talablar, JBPT mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan mablag‘larini taqsimlash qoidalari o‘z ifodasini topgan.

Mazkur Nizomga asosan Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari va mablag‘larni joylashtirish tushunchalari quyidagicha izohlab berilgan. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari – Xalq bankdagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamlanadigan mablag‘lar yig‘indisidir. Mablag‘larni joylashtirish – Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan

investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishda foydalanishdir.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibi quyidagilardan iborat. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari shaklida o‘tkazilgan mablag‘lar Xalq banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisobraqamida hisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 - «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag‘lar» balans hisobraqamida jamlanib boriladi.

Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan JBPT mablag‘larining umumiy summasiga hamda kalender yil davomida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining mo‘ljallangan hajmidan kelib chiqqan holda joylashtirish uchun yo‘naltiriladigan bo‘sish mablag‘lar hajmi belgilanadi. Xalq banki filiallarida maxsus hisobvaraklardagi JBPT mablag‘lari qoldig‘i jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan to‘lovlar summasidan kam bo‘imasligi lozim. JBPT mablag‘larini joylashtirish Muvofiqlash-tiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalq banki tomonidan amalga oshiraladi. JBPT mablag‘larini obyektlari bo‘yicha joylashtirish kvotalarini har chorakda Muvofiqlashiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsion yo‘nalishida foydalanishda mavjud bo‘lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo‘yicha lozim bo‘lgan kasbiy tajribaga egaligi;

- aktivlarning minimal miqdori, tarkibi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi;

- kredit tashkilotining yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt xususiy kapitalining minimal miqdori;

- korporativ qimmatli qog‘ozlar emitentlarining rentabelliligi, moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashiruvchi Kengash tomonidan belgilangan boshqa talablar.

Nizomda nazarda tutilganidek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadigan boshqa obyektlarga joylashtirishda ularning moliyaviy hisobtlarning ishonchliligi to‘g‘risidagi tasdiqlangan auditorlik xulosasi, soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisoboti, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish to‘g‘risidagi ariza berishdan oldingi uch yil uchun foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotni hamda JBPT mablag‘larini joylashtirish masalasini batafsil ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktabrdagi 88-son va 282-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom bo‘yicha jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromadlarini taqsimlash amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromad Xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so‘ng, har yili yil yakunida fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, ulardagi mavjud bo‘lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o‘tkaziladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromad, Xalq banki marjasи miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan Muvofiglashtiruvchi Kengash tavsiyasiga asosan dastlab – avans qismi yil boshida 1-fevralgacha, uzil kesil – dekabrning oxirgi 10 kunligida belgilanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan marjani Xalq banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalq banki tomonidan belgilanadi.

3.5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti qonunchiligidagi so‘nggi o‘zgarishlar va rivojlanish istiqbollari

Iqtisodiyot taraqqiyoti darajasiga qarab ijtimoiy hayot yo‘nalishi shakllanadi va uning rivojlanishi bilan yuksala boradi. Ijtimoiy vaziyat barqarorlashadi, jamiyat a’zolarining kelajakka ishonchi

ortadi va faolligi tobora kuchayadi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi esa jamiyat a'zolarining nafaqat bugungi, balki ertangi va kelajakdag'i farovonligini belgilab beradi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida hayotimizda yuz berayotgan dinamik o'zgarishlar, oldimizdag'i muammolarning hal etilishi va ularning o'rniiga yangilarini ilgari surilayotganligi ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarini, shu jumladan, pensiya ta'minoti masalalariga ham yangicha yondashuv ishlab chiqilishini qat'iy talab qilmoqda. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish pensiya ta'minotida muhim o'rin egalaydi.

O'zbekistonda jahon tajribasidan ijodiy foydalangan holda pensiya tizimi isloh etilmoqda. Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshirilgan pensiya islohotlarining ijobiy natijalaridan biri bu pensiya qiymatining o'sib borishi sharoitida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijobiy saldosini ta'minlanayotganligidir. Mamlakatimizda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasini tashkil etishni talab qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va amal qilishi bo'yicha turlicha iqtisodiy qarashlar mavjud. Davlat pensiya ta'minoti tizimining mavjudligi ishlovchining o'zini mustaqil ta'minlash to'g'risida qayg'urishini cheklaydi, mehnat faoliyatini to'xtatgandan keyin pul daromadlari olishga ishonch ularni mehnat sifatini oshirishga manfaatdorligini kamaytiradi. Ishlovchining o'zini mustaqil ta'minlashga ehtiyoji va doimiy intilishi uni mehnat unumdarligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu dalilning boshqa jihatni investitsion jarayonlarni takomillashtirish maqsadlaridan kelib chiqadi. Kelajakda mustaqil moddiy ta'minlanish to'g'risida qayg'u'rish ishlovchini o'zining mehnat faoliyati jarayonida o'z hohishiga ko'ra jamg'armalar shakllantirishga majbur etadi. Ularning banklariagi jamg'aruvchi mablag'lari investitsiya sifatida foydalanilishi va mehnat unumdarligining ortishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada belgilangan muddatda pensionerlarning daromadlari harakatga keladi va ushbu mablag'lar iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil iqtisodiy islohotlarning zamirida eng avvalo inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish yotadi. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimining amaliyotga joriy qilinishi bu boradagi tadbirlarning yaqqol ifodasidir. Jamg'arib boriladigan pensiya iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatlari jihatidir. Ishlovchi fuqaroning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib berilayotgan har oylik pensiya majburiy badallari ushbu xodimning daromadiga qonunda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning daromad solig'idan chegirib qolinadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga o'tishning bir qator afzalliklari mavjud. Eng avvalo, bu tizimining ijtimoiy himoya vositasi sifatidagi o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, bu tizim orqali mamlakatdagi investitsion faollilikni oshirish imkoniyatlari mavjud. Ayni vaqtda, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lar Xalq bankida individual hisobraqamlarda jamg'ariladi. Mazkur jamg'armalar bankning muhim investitsion imkoniyatlarini oshirishning moliyaviy manbalaridan biriga aylanmoqda.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining quyidagi ustunliklari mavjud: birinchidan bu ijtimoiy himoya masalalarini ijobjiy hal etish, mamlakat aholisining pensiya yoshidagi qatlamlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga imkon bersa, ikkinchidan esa katta miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatini, ya'ni banklarning investitsion faolligini oshirishni ta'minlab beradi. Shu o'rinda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ixtiyoriy ko'rinishlarini ham mamlakatimizda joriy etish imkoniyatlari mavjud. Bu tajriba xalqaro ko'lamma keng miqyosda joriy etilib, o'zini oqlab kelmoqda. O'zbekistonda, ayni paytda ixtiyoriy pensiya jamg'arma-

larini tashkil etish bo'yicha qonunchilik normalarini takomillashtirish va bu tizimni rivojlantirish lozim.

3.2-jadval

Dunyo mamlakatlari bo'yicha pensiya tizimida qoplash koeffitsiyentining o'zgarishi⁶⁹

Mamlakatlar	Davlat taq-simlanuvchi pensiya tizimi	Majburiy jamg'arib boriladigan tizim	Ixtiyoriy jamg'arib boriladigan tizim	Jami
Belgiya	41,0	-	15,1	56,1
Kanada	39,2	-	33,9	73,1
Chili	4,8	37,2	-	42,0
Chexiya	43,5	-	39,2	82,7
Germaniya	42,0	-	16,0	58,0
Irlandiya	36,7	-	43,0	79,7
Yangi Zelandiya	40,6	-	14,1	54,7
Norvegiya	45,7	6,8	11,3	63,8
Shvetsiya	33,9	21,7	-	55,6
Shvetsariya	32,0	23,1	-	55,1
Buyuk Britaniya	35,6	-	34,5	70,1
AQSh	38,3	-	37,8	76,1
Rossiya	33,0	2,0	-	35,0
Saudiya	100,0	-	-	100,0
Arabistoni				
JAR	-	-	54,5	54,5
Yevropa Ittifoqi	47,0	-	10,6	57,6
EXTT	40,6	-	27,3	67,9

Albatta, bu tizimga belgilanadigan talablar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari sifatida yirik sanoat kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari, tijorat banklari, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy muassasalar maydonga chiqishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlardagi pensiya ta'minoti qonunchiligi bir necha o'n yillar

⁶⁹OECD Pensions at a Glance 2013: OECD and G20 Indicators // OECD Publishing. 2013. – P. 364.

davomida xalqaro kelishuvlar va aholini ijtimoiy himoyalashni tartibga solishning asosiy predmeti bo‘lib kelmoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyoti ko‘rsatishicha, sug‘urta mezoni sifatida ishlovchiga qarilikda aholi turmush darajasini saqlash imkonini beradigan yo‘qotilgan ish haqini qoplash darajasi qabul qilingan. Shu maqsadda pensiya ta’midotida u yoki bu ko‘rinishdagi, iqtisodiy va ijtimoiy mazmunini yoritadigan qoplash koeffitsiyenti qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo‘ladi.

«Pensiya tizimining funksional samaradorligi, ijtimoiy zararlarni qoplash darajasini aks ettirib, qoplash koeffitsiyenti, to‘lovlar darajasi va pensiyalarning qonun hujjalarda belgilangan me’yorlarga mos kelishi hamda ijtimoiy me’yorlar darajasiga mosligi kabi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi»⁷⁰.

Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda – taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan – aralash pensiya tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to‘lanayotgan pensiya darajasi nuqtayi nazaridan samarali hisoblanadi⁷¹. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra qoplash koeffitsiyentining minimal miqdori yo‘qotilgan ish haqining 40,0-41,0% ga teng bo‘lishi kerak. Har bir pensionerga 5-6 ishlovchi to‘g‘ri kelishi va to‘lovlar pensiya tizimidagi «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan bo‘lishi kerak. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra pensionerlar va band aholi sonining nisbati 1:10 nisbatdan kam bo‘ligan darajada bo‘lsa, taqsimlovchi pensiya tizimi samarali bo‘lishi mumkin⁷². Taraqqiy etgan mamlakatlar jamg‘ariladigan pensiya tizimi va korporativ pensiya fondlariga qo‘srimcha

⁷⁰Majidov N., Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. [http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/45269--pnsiya-tizimini-tartibga-solishning-xorij-tajribasi-](http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/45269--pnsiya-tizimini-tartibga-solishning-xorij-tajribasi)

⁷¹Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.

⁷²Пенсионная реформа: от слов к делу. // Ваш банк. Экономист. 2000. №12.

to‘lovlarni joriy etish hisobidan ishlovchilarni pensiya davridagi mehnat daromadlarining qoplash koeffitsiyenti miqdorini keskin oshirdilar.

Berilgan jadvalda turli mamlakatlar uchun pensiya tizimi doirasida hisoblangan qoplash koeffitsiyenti keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkich milliy pensiya ta’minoti tarkibida taqsimlanuvchi davlat, majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya komponentlarining roli va ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritish imkonini beradi. Tahlillar ko‘rsatishicha, jahon amaliyotida jamg‘ariladigan komponentlar bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan taqsimlanuvchi pensiya ta’minoti tizimi yetakchi mavqega ega bo‘lmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash taqsimlanuvchi va jamg‘arib boriladigan pensiya elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan aralash pensiya tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Amaldagi pensiya ta’minoti modeliga taalluqqli moliyaviy potensialning tushishi sharoitida soni o‘sib borayotgan pensionerlar uchun munosib turmush sifatini ta’minlash zarurati (sarflangan ish haqining 40% yoki undan yuqori hajmini pensiya ta’minoti ko‘rinishida qoplash koeffitsiyenti yoki sarf qilingan oylik haqini pensiya sifatida qaytarish koeffitsiyentidir⁷³. XMT mezoniga asosan berilgan ko‘rsatkich 40% past bo‘lmasligi kerak. Pensiya ta’minoti sohasida qoplash koeffitsiyenti uzoq muddatli istiqboldagi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyoning aksariyat mamlakatlarida pensiya ta’minotining moliyaviy asosini taqsimlanuvchi davlat pensiya tizimi tashkil etadi. Shu bilan birga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari pensiyalarni moliyalashtirishda sezilarli ahamiyat kasb etishi mumkin. Umuman, IHTT mamlakatlari bo‘yicha jamg‘arib boriladigan komponentlar qoplash koeffitsiyentini 25 punkt qo‘shsa, ushbu ko‘rsatkich Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo‘yicha 10 punktga teng.

⁷³O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tiziminining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta’minlash. Development Focus/ Social reforms. 2014. №9. <http://www.cer.uz>

3.6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotidagi o‘ziga xos muammolar va ushbu tizim taraqqiyoti masalalari

O‘zbekistonda “inson huquq va erkinliklari, fuqarolik prinsiplarini shakllantirish va rivojlanirish taraqqiyot va erkinlik sari yo‘l ochdi”⁷⁴. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish jihatidan yuqori o‘rtalarni qatoriga kirish strategik vazifasini qo‘yilishi O‘zbekiston oldida iqtisodiyot va jamiyat transformatsiyasi bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Transformatsion jarayonlar sharoitida ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, aholini turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash uchun ijtimoiy siyosat nimalarga qaratilgan bo‘lishi kerak? Bu savolga javob berish uchun mamlakatning uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlari va vazifalarini aniqlash kerak.

Ijtimoiy himoya faqat ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar bilan chegaralanib qolmasligi zarur. Uning uchun rivojlanishning yangi bosqichida mehnat bozori va bandlik siyosatini, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini isloh etish choralarini qamrab olgan holda mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirishga qaratilgan ta’sirchan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi kerak. Ish bilan samarali bandlik muammosini hal etish mehnat bozorlaridagi nomutonosiblikni ham tartibga solishga xizmat qiladi. Tahlillar mehnat bozorlarida yuqori malakali xodimlarga doimiy talab mavjud bo‘lgani holda malakasiz ishchi kuchi taklifi ortiqchaligidan dalolat bermoqda. O‘zbekistonda mehnat resurslari muttasil ortib borayotganligi hisobga olingan holda yangi ish o‘rnlari yaratishning o‘ziga xos tizimi yaratilgan. Xususan, iqtisodiyotning real sektori yuqori malakali muhandislar, menejerlar, fermer xo‘jaliklari uchun mutaxassislarga ehtiyoj katta ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ta’lim muassasalarida mutaxassislar

⁷⁴Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. 66-b.

tayyorlash tarkibiga aniqlik kiritish hamda ularni tayyorlash sifatini yunda oshirish nihoyatda muhimdir. Har yili mamlakat kollej va litseylarini 500 ming nafardan ko'proq yoshlar tugallaydi. Ularni kintolatli ish bilan ta'minlash maqsadida bitiruvchilarning korxonalar bilan ishlab chiqarish amaliyotini o'tash va undan so'ng ishga qabul qilish bo'yicha hamkorlik shartnomalar tuzilishi yo'lga qo'yilmoqda. Mamlakat hukumati tomonidan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hamda bu ta'lim muassasalari bitiruvchilar mehnatidan umarali foydalanish bo'yicha dastur ham ishlab chiqilgan, uning asosida mintaqaviy hamda har bir tuman va shaharda hududiy disturlar tayyorlangan va amalga oshirilmoqda.

Mazkur dasturlar quyidagilarga yo'naltirilgan:

–oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar mehnatidan iloji boricha to'laroq foydalanish, shuningdek, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini jalg etgan holda qo'shimcha ish joylari yaratish;

–mahalliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda har bir mintaqadagi mehnat bozorida ishchi kuchiga amaldagi talab va taklifni aniqlash;

–ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashni tezkor nazorat qilish mexanizmini yaratish;

–mutaxassislar tayyorlashni ish beruvchilar talablari asosida yo'lga qo'yish maqsadida ish beruvchilar bilan kasb ta'limi muassasalarining o'zaro innovatsion hamkorlik qilishini ta'minlash.

Yangi bosqichda mamlakat rivojlanishining asosiy vazifasi 2030-yilgacha yuqori o'rta daromadli mamlakatlar darajasiga va ular qatoriga kirishga erishishdir. Bu darajaga erishish uchun birinchidan, iqtisodiyotning barqaror yillik o'sish sur'ati 8% dan kam bo'lmasligi zarur. Bu yuqori barqaror o'sish sur'atlarini saqlab turish uchun iqtisodiyot tuzilmaviy transformatsiyasini amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi. Qayta ishlaydigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish. Qayta ishlaydigan sanoat tarmoqlari murakkab yuqori

darajadagi texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarilishi hamda bandlikni o'sishiga imkon beradi.

«Iqtisodiy tadqiqotlar Markazi (ITM) hisob-kitoblariga ko'ra qayta ishlash sanoatiing YalMdagi ulushi 2010-yildagi 9% dan 2030-yilda 22 % ga o'sishga erishishi kerak»⁷⁵. Agrar sektorning roli o'zgarishi kerak (bozor iqtisodiyotiga o'tishning oldingi bosqichlarida qishloq xo'jaligining vazifasi bandlikni ta'minlash va katta salmoqli aholini minimal kafolatlangan daromad manbasiga ega bo'lishni ta'minlashdan iborat bo'lgan). Kelajakda daromadlarning barqaror o'sishiga erishish bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tarkibini diversifikatsiyalashni rag'batlantirish, ish bilan bandlikni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xizmat ko'rsatish sohasining YalM dagi ulushini 2010-yilda 42,5 % dan 2030-yilda 55% ga o'sishiga va samarali bandlikka olib keladi. Iqtisodiyotning transformatsiyasi qo'yilgan vazifalar va tanlangan yo'llar bilan bir qatorda jamiyat ham transformatsiyalashishi kerak. Umumiy aholi soni 2030-yiliga 37 mln kishiga etadi, pirovard vazifa aholi tarkibida o'rta sinf ulushini 60 %ga yetkazishni ta'minlash, shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi farqni qisqartirishni ta'minlashdan iborat.

Yuqorida qayd etilganlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatning uzoq muddatli davrga mo'ljallangan vazifasi o'tish davridagi vazifalardan keskin farqlanadi. Mamlakatda bandlik dasturlariga ko'ra yangi ish joylarini tashkil etish orqali rasmiy bandlik darajasi ortadi. Aholi daromadlari ham izchillik bilan o'sib boradi, jumladan, iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqi darajasi hozirgi darajaga nisbatan o'sadi. Ijtimoiy siyosatning yangi modeli kafolatlangan daromadlarni berish yo'li bilan himoya funksiyalarini samarali bajarishdan tashqari jamiyatning barcha a'zolari uchun adolatli raqobat imkoniyatlarini yaratish, aholining barcha tabaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatga faol jalb etish, ularning qarashlarini, turmush darajasini transformatsiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

⁷⁵ Мухамедханова К. Социальная защита. Экономическое обозрение. №1. 2014. С.30.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablari O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shukllarni qo'llashni talab etadi. Jahan tajribasining ko'rsatishicha pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali toydalanish mamlakatlarda ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'alliqdan himoyalashda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti muhim o'rinnegallaydi.

Respublikamizdag'i pensiya to'lovlar «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan. Pensiyalar ishlayotganlarning sug'urta badallari hisobiga to'lab boriladi. Shuning uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar soni o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishi kerak. Lekin respublikadagi demografik holat va ishsizlar sonining orlib borishi natijasida kelajakda bu muvozanat keskin salbiy tomonga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, 1992-yilda 1 pensionerga 3,7 ishlovchi, 2001 yilda 3,4 ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil etmoqda⁷⁶. Oxirgi yillarda mehnatda band bo'lganlar sonining oshishiga erishilishida xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilishi asosiy omil bo'lmoqda. Lekin, tadbirkorlarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'layotgan minimal miqdordagi mablag'lari keyinchalik jamg'arma uchun yetarli bo'lmaydi. Shu bilan birga yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

«Aholini pensiya bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud tizimi aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yetarlicha yordam ko'rsatish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratdi. Pensiya tizimini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlar, jumladan, pensiya ta'minoti darajasini aniqlovchi bog'liqlik koeffitsiyenti (pensionerlar sonining ishlovchilar soniga nisbati) va qoplash koeffitsiyenti (o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbati) bo'yicha O'zbekistondagi bu

⁷⁶Vahabov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. -T.: Sharq. 2003. 32-b.

holat iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan ko'plab davlatlar bilan taqqoslaganda ancha qulay. 2006-yil 1- yarim yilligida bog'liqlik koeffitsiyenti 0,32 ga va qoplash koeffitsiyenti 0,31 ga teng bo'ldi. O'zbekistonda bitta pensionerga 3 tadan ortiqroq ishlovchi to'g'ri keladi, o'rtacha pensiya miqdori esa o'rtacha ish haqining 31,0 foizdan ko'prog'iga teng bo'ldi»⁷⁷.

Pensiya ta'minotining ijobiylarini aniqlovchi ko'rsatkichlar (bog'liqlik koeffitsiyenti, qoplash koeffitsiyent va boshqalar)ni yaxshilash uchun aksariyat xorijiy mamlakatlarda taqsimlash va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti birgalikda amal qiladi. Taqsimlash turidagi pensiya tizimining mohiyati shundan iboratki, pensiya to'lovlari uchun joriy xarajatlar joriy tushumlar hisobiga amalga oshirilishidan iborat. Pensiya ta'minotini «avlodlar birdamligi» tizimi deb atashadi, ya'ni bu aholi tarkibidagi katta avlod vakillarining pensiya ta'minotini mamlakatdagi iqtisodiy faol aholi ta'minlaydi, degan ma'noni beradi. Taqsimlash tizimidagi pensiya modelida pensionerlarga pensiya to'lash uchun mablag'lar asosan uch manbadan shakllantiriladi: ish bilan band ishchi-xodimlarning sug'urta badallari; ish haqi fondidan majburiy to'lovlari; davlat dotatsiyalari va subvensiyalari. Taqsimlash pensiya tizimining asosiy kamchiliklari ham mavjud: pensiya xarajatlariga demografik ko'rsatkichlarning ta'siri; pensiyaning o'rtacha ish haqiga bog'liqligi va boshqalar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida joriy va kelajakdagi pensiya to'lovlarini amalga oshirish uchun maxsus mablag' zaxirasini yaratishni talab etiladi. Mazkur tizim mohiyati jihatidan uzoq muddatli investitsiya jarayonidan iborat bo'lib, dastavval to'lanadigan badallar hisobiga pensiya kapitali shakllantiriladi. Bu mablag'lar iqtisodiyotga investitsiya qilinadi, shuning hisobiga pensiya kapitali ko'paytiriladi. Pensiya to'lovlari ana shu jamg'arilgan pensiya kapitali hisobidan amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir shaxs pensiyasi bevosita uning mehnat faoliyati davomida pensiya jamg'armasiga to'lagan badallari hamda

⁷⁷Aholi daromadlari va xarajatlari www.uzbearingpoint.com/files/1/a2006_2_9.pdf

bu badallar hisobiga shakllantirilgan kapitalning iqtisodiyotga inovatsiya sifatida kiritilishi natijasida olingan foydaga bog'liq.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, pensiya ta'minotini moliyalashtirish usullari taqsimlovchi va jamg'ariladigan pensiya tizimi bo'yicha farqlanadi. Xorijiy mamlakatlarda jamiyatdagi vujudga kelgan psixologik omillar ham taqsimlanuvchi pensiya tizimining samarali faoliyat yuritishga to'sqinlik qila boshladi. XX asrning oxirida yuqori daromadli aholi pensiya ta'minotidagi tenglashtirish prinsipiiga nisbatan o'zlarining noroziligini bildirib, har kimga nisbatan alohida yondashuvni talab qildilar. Bu asosiy muammolar pensiya tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqardi, uning yechimi sifatida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tomonidan 1994-yilda jamg'ariladigan pensiya modeli ishlab chiqildi. XX asr oxirida jahonda beshta mamlakat (Boliviya, Chili, Salvador, Meksika, Qozog'iston) jamg'ariladigan tizimga to'liq o'tdi.

Pensiya ta'minotini modernizatsiyalash rivojlanayotgan mamlakatlarning dolzarb va hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi etuk ijtimoiy sug'urta tizimiga ega mamlakatlar bilan birgalikda zamonaviy va samarali milliy ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish yo'lidan borayotgan mamlakatlardagi pensiya tizimini takomillashtirish muammosini kuchaytirib yubordi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunga kelib tushayotgan pensiya badallarini hisobga olishga o'tish, pensiyalarni butun mehnat faoliyati davridagi o'rtacha ish haqidan hisoblashga o'tishning qonunchilik asoslarini joriy etish bo'yicha ayrim muammolar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasida ham pensiya yoshini yaqin 20 yil mobaynida bosqichma-bosqich oshirib borish taxmin qilinmoqda, chunki mamlakatimizda 2010-yildan boshlab demografik holat to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqlashicha aholining qarish jarayoni boshlangan. Agar shu yo'sinda davom etsa, 2020-yilga borib 7,80 foizni, 2030-yilda borib 11,6 foizni, 2050-yilda esa 19,40 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Respublikamizda hozirgi kunda uch

milliondan ortiq pensiya oluvchi aholi mavjud bo‘lib, umumiy aholiga nisbatan taxminan 9,8 foizga teng. Hozirgi davrda pensiya oluvchilarga to‘lov qobiliyatini yo‘qotib qo‘ymaydigan bo‘lsakda, yaqin o‘ttiz yil ichida aholini keksayish darajasi oshib borishi kutilmoqda. Bunday holat esa pensiya oluvchilarga nisbatan Pensiya jamg‘armasining to‘lov qobiliyatini va mablag‘ yetishmaslik holatiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda muhim chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari aholi turmush farovonligini oshirishda yanada ijobji o‘zgarishlarni ta‘minlashga, byudjet sohasi xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar miqdorini izchil oshirib borish kabi ijtimoiy sohadagi tadbirlarni moliyalashtirish bilan birga mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omili sifatida chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirishga yo‘naltirilmoxda. Aholi farovonligini oshirish strategiyasining konseptual asosini insonni rivojlantirish siyosati bilan mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini integratsiyalash zaruratining asoslanganligi tashkil etadi. Barqaror jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘nalishi zaruriy holatdir. Bu inson manfaati, uning himoyasi, uning turmush darajasi, ijtimoiy muammosidan kelib chiqib, jamiyatda bozor munosabatlari yuzaga keltiradigan salbiy oqibatlarga befarq bo‘la olmaydi.

Pensiya tiziminining institutsional mohiyatidan kelib chiqqan holda eng muhim masalani barcha mehnat pensionerlari moddiy ta‘minotining barqaror mexanizmini yaratish vazifasini to‘liq hal etilmaganligi ushbu muammoni alohida o‘rganish zarur ekanligidan dalolat beradi.

Har bir davlat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida o‘z ijtimoiy rivojlanishining ustuvor maqsadlarini belgilaydi. Ushbu strategik maqsad – aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan. Rivojlanishning shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ayrim mamlakatlar birinchi navbatdagi vazifalar qatorida ishsizlikni kamaytirish, boshqalari – kambag‘allika barham berish, uchinchilari – inson salohiyatini rivojlantirish va hokazolar belgilanadi.


Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoya - davlatimiz tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim va ustuvor yo‘nalish-

Inridan bo‘lganligi sababli uning huquqiy asoslari ham ushbu ustuvorlikka to‘la mos bo‘lishi, mamlakatimizda yuz berayotgan burcha ijobiy o‘zgarishlar va erishayotgan yutuqlarimizni o‘zida aks ettirishi, eng muhimi, inson, uning huquq va manfaatlari eng oliv qadriyat ekani haqidagi g‘oyalarimizga asoslangan bo‘lishi lozim. Shunga ko‘ra pensiya ta’mnoti sohasidagi qonunchilikning takomillashtirilishi va rivojlantirilishi xalqimizning tarixiy milliy qadriyatlari, insonparvarlik xislatlari bilan birga jahoning demokratik davlatlari, rivojlangan mamlakatlar qonunchilik amaliyoti, ilg‘or xalqaro huquqiy tajriba va tamoyillar e’tiborga olinishi lozim.

O‘zbekistonda pensiya ta’mnoti tizimida amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan islohotlar konsepsiyaga muvofiq ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimi barobarida nodavlat pensiya ta’mnotinining boshqa shakllari ham tashkil etilishi va rivojlantirilishi zarur.

3.7. Davlat tomonidan ish bilan bandlikni tartibga solish asosida jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini ko‘paytirish

Davlat pensiya ta’mnoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda hayotga izchil joriy etilayotgan hamda alohida tayyorgarlik talab qiladigan zamонавиъ axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko‘nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalari mos kelishini ta’minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitni yaratishdan iborat. Pensiya yoshiga yetgan xodimlar mehnat qilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishga, shuningdek, mehnatga oid munosabatlarni boshqarishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.



3.2-rasm. Davlat tomonidan ish bilan bandlikni tartibga solish

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «..Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo‘lgan mo‘tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor»⁷⁸.

Davlatning aholini ish bilan ta’minlashga qaratilgan siyosati faol va nofaol bo‘lishi mumkin. Faol siyosat mehnat taklifi hamda mehnatga talabni har taraflama rag‘batlantirish, ish bilan bandlik dasturlarini ishlab chiqish, ularni izchil amalga oshirish va boshqa tadbirlarni mujassamlashtiradi.

Nofaol siyosat ishsizlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanadi. Davlat tartibga solish maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ish bilan bandlikka ta’sir ko‘rsatishning turli usul va vositalarini tanlaydi.

Umumjahon uchrashuvi qarorlariga muvofiq ish bilan to‘la bandlik va tirikchilik uchun barqaror mablag‘lar masalalari bo‘yicha Ishchi guruhi tashkil etildi.

Ishchi guruhi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan Xalqaro Mehnat Tashkiloti tashabbusi bilan 1999-yilda Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlari mehnat bozorlaridagi asosiy tendensiyalar aks etgan Jamlanma ma’ruza tayyorlandi.

Bu hujjatda barqaror va to‘la ish bilan bandlikka erishish uchun iqtisodiy siyosat quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan:

- iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik darajasini muntazam nazorat qilib borish va boshqarish;
- institutsional (tarkibiy) monitoring olib borish va unga muvofiq mehnat bozoriga taalluqli choralar ko‘rish;

⁷⁸Karimov I. “2015-yil iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2015-yil. 18-yanvar.

–inson kapitalini rivojlantirish va takror hosil qilishni kengaytirishni har taraflama rag‘batlantirish;

–kambag‘allik darajasini pasaytirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatishga qaratilgan manzilli dasturlarni amalgalash oshirish⁷⁹.

Mazkur Jamlanma ma’ruzada hozirgi davrdagi ish bilan bandlik siyosati tegishli mavjud muammolarni hal etishga kompleks yondashishni nazarda tutishi lozimligi ham qayd qilingan.

Ish bilan bandlikni tartibga solishning yana bir vositasi davlat dasturlaridir. Davlat iqtisodiy dasturlari ish bilan bandligini tartibga solish qator muammolarni hal etishda yetarli darajada samaralidir. Davlat daromadlari ham ish bilan bandlikni tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlar qanchalik ko‘p bo‘lsa davlat ish bilan bandlikka yo‘naltirilgan dasturlarga hamda iqtisodiyotning davlat sektoriga shuncha ko‘p mablag‘ ajratib, ish joylari sonini ko‘paytirish imkoniga ega bo‘ladi.

Yangi ish o‘rnлari investitsiya dasturlari, mahalliy lashtirish dasturlari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash tarmoq dasturlari, vaqtincha ishlamayotgan korxonalarini, shu jumladan, tijorat banklari balansiga berilgan korxonalarini tiklash, kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasanachilikni, birinchi navbatda, sanoat korxonalarini bilan mehnat shartnomasi bo‘yicha kooperatsiyalashishga asoslangan kasanachilikni hamda hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, fermer va dehqon xo‘jaliklarini, ayniqsa, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikka, shuningdek, mevabsabzavot va boshqa turdagи qishloq xo‘jaligi mahsulotlarimi qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirishni kengaytirish hisobiga yaratilmoqda.

Chet mamlakatlarda ishsizlarning ish qidirishlarini faollashtirish maqsadida ishsizlik bo‘yicha nafaqalar to‘lashni qat’iy tartibga solish chorralari ko‘rildi, masalan, nafaqa to‘lash muddatining o‘rtacha

⁷⁹ Сводный доклад. Обзор основных тенденций на рынках труда Центральной и Восточной Европы и СНГ после 1990 г.: характеристика основных проблем. – М.: Бюро. МОТ, 2000.

davomiyligi 1,5 yil qilib belgilandi. G'arb mamlakatlari hukumatlari, shuningdek, nafaqalar eng yuqori darajasini qisqartirish (Daniya, Avstriya, Germaniya) yoki uni to'la hajmda to'lash muddatlarini qisqartirish (Fransiya) choralarini ham ko'rdilar.

Iqtisodiyotni tartibga solishning jahon tajribasi ish bilan bandlik sohasida faol siyosat olib borishning tarkibiy qismi bo'lgan quyidagi usosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

–ishdan bo'shayotgan va ishsizlar uchun ish o'rirlari yaratish, saqlash va ish o'rirlarini o'zgartirish;

–ishsizlarni kasbga o'qitish va iloji boricha tezroq ijtimoiy adaptatsiyalashni ta'minlash;

–ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ularni investitsiya dasturlarini amalga oshirish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash;

–oshkora va yashirin ishsizlik darajasini kamaytirish omili sifatida kichik biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;

–jamoatchilik ishlarini, ish bilan vaqtinchalik tashkil etish;

–ish bilan bandlik darajasini xodimlar ish haqiga kompensatsiya to'lovlari hisobiga saqlash;

–korxona tugatilishi munosabati bilan ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatish oqibatlarini bartaraf etish.

Bugungi kunda mamlakatda aholining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlargacha o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa, tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiyalashga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rirlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljalangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo, ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni


belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.

«2015-yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiy optimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobjiy ta'sirini berdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergen imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam ayni haqiqatni aytgan bo'lamani»⁸⁰.

Davlat qurilishi dasturi va O'zbekistonni iqtisodiy isloh qilishning butun o'zagini «O'zbek modeli»ga xos besh asosiy tamoyil tashkil etgan bo'lib, unda aholining turmush darajasini hisobga olgan holda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish lozimligi qayd etilgan.


Har qanday jamiyatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'lig'i, ishsizlik darajasi) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YalMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan xalq farovonligini, barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish qilib belgilanadi, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning farovonligi uchun amalga oshiriladi.

⁸⁰I.Karimov. Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza.



3.3-rasm. O‘zbekistonda yangi ish joylarini yaratish tizimi

Bugungi kunda respublikamizda viloyat hokimlariga mahalliy infrastrukturani rivojlantirish, investitsiyalar olib kirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha yurtboshimiz tomonidan maxsus topshiriqlar berildi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikda qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har qanday davlat iqtisodiy-ijtimoiy siyosat olib borishda aholining xarid qobiliyatini oshirish maqsadida aholi real daromadlarini bosqichmasbosqich oshirib borish chorasini ko‘radi. O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarda soliq siyosati oldiga qo‘yilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri aholi daromadlarini muntazam ravishda oshirib borish hisoblanadi.



3.4-rasm. Ish haqi tarzidagi daromadlarga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining pasaytirilishi⁸¹

O‘zbekistonda boshqa majburiy to‘lovlар tarkibiga kiradigan yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondiga nisbatan qo‘llaniladi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromad manbayi hisoblanadi. Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 1996-yilda 40,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, so‘nggi 2010-2018-yillarda bu to‘loving bazaviy stavkasi 25,0 foizni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida yagona ijtimoiy to‘lov mikrofirma, kichik korxona va fermer xo‘jaliklari uchun 2015-yildan 15,0 foiz miqdorida amal qilib kelmoqda. Bu esa, kichik biznes subyektlarining ish haqi tarzidagi daromadlariga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov yukining qariyb uch barobarga kamayishini ta‘minladi. Mikrofirma, kichik korxona va fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining bunday keskin pasaytirilishi ularning ish haqiga doir soliq yukini maqsadli

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida"gi tegishli Qarorlari.

kamaytirish va mehnatga haq to‘lash miqdorini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to‘ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Mamlakat aholisi turmush tarzi va ularning daromadlari ortishida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni tobora ortib bormoqda. Jumladan, kichik biznesda band bo‘lganlar soni 2000-yilda 4,3 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 10,2 mln kishini tashkil etgan. 2015-yilga kelib o‘sish qariyib 2,4 martaga ko‘paygan. Albatta, bunday tendensiya aholi turmush tarzi va farovonligining yaxshilanishida munosib xizmat qilgan.

O‘zbekistonda 2018-yil – «Faol tadbirkorlik, innovatsion va g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash» yilida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning faoliyatiga qulay sharoitlar yaratish maqsadidagi chora-tadbirlar yil davomida keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, ...tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy huquq va erkinliklarini sezilarli darajada kengaytirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Shu o‘rinda, hukumatimizning tadbirkorlik “...faoliyatiga davlat organlari tomonidan noqonuniy aralashuv va turli to‘siqlar qo‘yish holatlariga yo‘l qo‘ylmaslik hisobidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar kuchaytiriladi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2000-2015-yillar oraliq‘ida iqtisodiyotda band bo‘lganlar umumiyligi nisbatida ham o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Shunga mos ravishda kichik korxona va mikrofirmalarda bandlar sonida ham o‘sish kuzatilgan, ya’ni 2000-yilda 0,6 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib 2,4 mln kishiga etgan.

Kichik biznes va xususiy tadbikorlikda bandlar soni bilan kichik korxonalar va mikrofirmalarda bandlar sonini taqqoslaydigan bo‘lsak, bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni bilan kichik korxona va mikrofirmalarda bandlar soni mutanosib ravishda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi o‘sish tamoyiliga ega bo‘lib, bu o‘sish asosan qishloq xo‘jaligida kuzatildi.

3.3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida bandlik darajasi⁸²

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Y ill a r							
		2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Kichik biznes-da bandlar soni	mln kishi	4,3	6,7	8,6	8,9	9,3	9,5	9,9	10,2
Iqtisodiyotda band bo‘lganlar umumiy band- larga nisbatan	%	42,6	65,5	74,3	74,8	75,7	76,0	77,2	78,1
kichik korxona va mikrofirma- larda bandlar soni	mln kishi	0,6	1,4	2,0	2,3	2,4	2,3	2,3	2,4

Iqtisodiyotda davlat ishtirokining rivojlanayotgan mamlakatlar qatori rivojlangan mamlakatlarga ham xos bo‘lgan yana bir yo‘nalishi – bu kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Garchi har bir mamlakatda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos ma‘lum maqsad va vazifalari bo‘lsa-da, ko‘p hollarda hukumatlar tomonidan juda o‘xhash yondashuv va vositalardan foydalaniładi. «Kichik va o‘rta biznesga bo‘lgan e’tibor, ularga taqdim etilayotgan imtiyozlar hamda qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari ko‘p jihatdan ijtimoiy nuqtayi-nazarlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes

⁸²Тенденции социально-экономического развития Узбекистана Информационно-аналитический бюллетень за январь-июн 2015 года. Т.: Center for Economic Research. 2015 год. –С.27.

YalIM yaratish (50-60%) va bandlikni ta'minlashda (70% gacha) muhim ahamiyat kasb etadi»⁸³. Shuning uchun ham, hukumat siyosati va dasturlarining muhim tashkil etuvchi qismi bu kichik korxona va mikrokorxonalarini, jumladan, uzoq va yaxshi rivojlanmagan hududlardagi kichik korxona va mikrokorxonalarini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Qator mamlakatlar tadbirkorlik faoliyatiga yoshlar hamda ayollarni jalg qilishga qaratilgan maxsus tashabbuslarni amalga oshirmoqdalar va bu esa bevosita ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik manfaatlariga mos tushadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloq qilish va diversifikatsiyalash, fhol investitsiya siyosati yuritish hisobiga iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlan-tirishni rag'batlantirish asosida har yili minglab yangi ish o'rnlari yaratilmoqda. Bu o'z navbatida o'ta dolzarb muammo hisoblangan aholi bandligini ta'minlash imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2017-yil yakunlari hisoboti va 2018-yilgi eng muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish to'g'risidagi vazirlik Hay'atining kengaytirilgan majlis yig'ilishida vazirlik faoliyatining 2017-yilning yakunlari va 2018-yilda mo'ljallangan birinchi chorak vazifalari, 2018-yilda amalga oshiriladigan ishlar «Yo'l xaritasi»ni tasdiqlash masalasi va boshqa masalalar muhokama etildi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab oldi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy sharoiti og'ir ayollarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash va boshqa masalalar muhokama qilingan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay'ati a'zolari tomonidan bajarilgan topshiriqlarga tanqidiy e'tibor berish va qo'yilgan vazifalarni va topshiriqlarni o'z muddatida belgilangan tartibda bajarish belgilandi.

Hududiy bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan 2017-yilda aholi bandligini ta'minlash yo'lida 229,9 ming nafar fuqaro

⁸³ Mamatov B.S., Xamrayeva F.Sh. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash masalalari. Monografiya. Iqtisod-moliya. T.: 2017. 21-b.

ishga joylashtirildi va 27,1 ming kishi jamoat ishlariga jalg etildi. Shu bilan birga 6,6 ming kishi kasbga o‘qitildi va qayta tayyorlandi. Ish izlayotgan kishilar uchun 2017-yilda 1218ta bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi tashkil etilib, ularda 59,3 mingga yaqin ish beruvchi vakillari va 204,9 ming ish izlayotgan fuqaro ishtirok etdi. Yarmarkalar natijasiga ko‘ra 52,2 ming shaxs ishga yo‘llanma oldi. 133 mingdan ziyod faol ish izlayotganlarga mehnat, bandlik va huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar berildi. «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining

oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz»⁸⁴.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ishga joylashganligini monitoring qilish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan “college.mehnat.uz” axborot tizimi ma‘lumotlariga ko‘ra 2016-2017 o‘quv yili bitiruvchilarining 332,8 ming (73,4%) nafarining bandligi ta’mindandi. Bundan tashqari 2018-yilda og‘ir turmush sharoitida yashayotgan ayollar, ayniqsa yosh xotin-qizlar bandligini ta’minalash bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, 9936 nafer xotin-qiz bandligini ta’minalash choralarini ko‘rildi. Sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko‘rsatish obyektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish hisobidan 2017-yilda 336 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. Jamoat ishlari jamg‘armasiga 2017-yil uchun 84 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2018-yil uchun shu yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish va aholi daromadlarining o‘sishiga hissa qo‘sish maqsadida 714 milliard so‘m ajratildi.

⁸⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017-yil.19-sentabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-yilda aholi bandligiga ko‘maklashish Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3506-sonli qarori 2018-yil 3-fevralda tashdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xizmati to‘g‘risida»gi, «Aholi bandligiga ko‘maklashish nodavlat tishkilotlari to‘g‘risida»gi va «Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida» qonun loyihalari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, «Davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy tu‘minotini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi, «Yuqori malakali kudrlarni chet elga ketib qolishining oldini olish, ularni davlat xizmatiga, iqtisodiyot tarmoqlariga keng jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi va O‘zbekiston Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet elda tashkillashtirilgan tarzda ishga joylashtirish tizimi va mehnat organlari tarkibini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qaror loyihalari yaratiladi.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy himoya tizimiga qo‘ylgan vazifa kafolatlangan daromadlarni ta‘minlash yo‘li bilan aholining kam ta‘minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish muvaffaqiyatlama amalga oshirildi. O‘zbekistonning o‘rtacha darajadagi daromadli davlatlar guruhiга kirish kabi strategik maqsadiga erishish mamlakat oldiga iqtisodiyot va jamiyatni transformatsiya qilish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ydi. Bu transformatsion jarayonlarni amalga oshirish aholining turmush farovonligiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi, har bir insonni ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish va tanlash imkoniyatini yaratadi. Natijada ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifati va parametrlariga bo‘lgan talab o‘zgaradi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini iqtisodiyot tarmoqlarga investitsiya qilinishi va shu hisobdan tizimga yig‘ilayotgan mablag‘larning hamda fuqarolarning shaxsisi hisobvaraqlaridagi summalarining inflyatsiya darajasidan yuqori

miqdorlarda va uzlusiz ko‘payib borishiga erishiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun badallar har bir xodim tomonidan oylik maoshidan to‘lansada, ammo ushbu to‘lov uning daromadlariga (daromadning kamayishiga) salbiy ta‘sir qilmaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti uchun to‘lanadigan badalning xodimdan ushlab qolinadigan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i hisobidan (soliqni kamaytirilishi hisobiga) amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida qatnashadigan fuqarolar tomonidan shaxsiy pensiya hisobvaraqlariga badallar miqdori va to‘lash muddatlari mustaqil ravishda belgilandi. Fuqarolarning shaxsiy hisobvaraqlariga har oylik badallar to‘lash 2005-yilning yanvar oyi uchun hisoblangan ish haqi (daromad)dan boshlandi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimiga hisobga qo‘yishning va badallar to‘lashning majburiy-ixtiyoriliği, ya’ni muayyan hollarda majburiy ravishda hisobga qo‘yish va badallar to‘lab borishning shartligi va boshqa hollarda yoki ayrim shaxslarning tizimda hisobga qo‘yilishi va to‘lovlarni amalga oshirib borishning ixtiyoriy ekanligi (barcha yuridik shaxslar o‘z xodimlarini hisobga qo‘yishlari va to‘lovlarni o‘tkazishlari majburiyligi, yuridik shaxs bo‘lmanan yakka tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari a’zolari va boshqalarga bu boradagi ixtiyorilik) belgilandi. Mablag‘larning Xalq banki muassasalarida jamg‘arib borilishi, ularga inflyatsiya darajasidan kam bo‘lmanan foizlik daromadlar hisoblanishi va to‘lovlardan ham kelgusida ushbu bank orqali to‘lanishi davlat o‘z zimmasiga oladi.

«Rasmiy statistika ma‘lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda inflyatsiya 2016-yilda 5,7%ni tashkil etgan. 2017-yilda inflyatsiyani 5,7-6,7% atrofida ushlab turish rejallashtirilgan. O‘zbekistonda 2017-yil yakunlariga ko‘ra inflyatsiya darajasi 11-12% atrofida bo‘lishi kutildi. Markaziy bank 2017-yil 28-iyun oyidan qayta moliyalashtirish stavkasini 9%dan 14%ga oshirishga qaror qilgan.

Mavsumiy tebranishlar natijasida inflyatsiya sur'atining o'sishi hamda iqtisodiyotga kredit berish hajmining o'tgan yilga nisbatan tez o'sishi shunday qarorga kelinishiga sabab bo'lgan»⁸⁵.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining mutlaqo individuallashganligi va har bir to'lovchi uchun alohida maxsus hisobvaraqlar ochildi. Respublika bo'yicha yagona elektron ma'lumotlar bazasi yaratildi, ishlovchi fuqarolar yashash yoki ish joyini o'zgartirishi tizimda hisobga turishga ta'sir qilmaydi. Shaxsiy pensiya jamg'armalarini shakllantirish, ularning faoliyat ko'rsatish tartibini, davlat va jamiyat oldidagi javobgarligini, ushbu jamg'armalarning ishtirokchilar bilan munosabatlarini aniqlashtirilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqish zaruriyatni pensiya tizimida tezda hal etilishi dolzarb muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda jahon tajribasidan ijodiy foydalangan holda pensiya tizimi isloh etilmoqda. Pensiya ta'minoti bilan bog'liq qonunchilik tizimini isloh qilish, uni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish zarurati yuqoridagi va boshqa bir qator obyektiv omillar bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshirilgan pensiya islohotlarining ijobiy natijalaridan biri bu pensiya qiymatining o'sib borishi sharoitida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijobiy saldosini ta'minlanayotganligidir. Mamlakatimizda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasini tashkil etishni talab qiladi. Juhon tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston pensiya tizimida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Masalan, yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaligi a'zolarini jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida ixtiyoriy qatnashish tadbirlarini kuchaytirish yaxshi natijalar beradi.

Tayanch so'z va iboralar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; ijtimoiy ta'minot; pensiya ta'minoti; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti; bandlik siyosati, mehnat bozori; ish haqi; aholi daromadlari; ishsizlik darajasi; aholi turmush darajasi; mehnat shartnomalari.

⁸⁵<http://m.cbu.uz/uzc/ монетарная-политика/доклад-о-монетарной-политике/>

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida pensiya ta’minotining huquqiy asosi qanday yoritilganligini tushuntiring.
2. O‘zbekistondagi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining qonuniy asoslarini tushuntirib bering.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy ta’minot tizimida “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining tutgan o‘rnini izohlang.
5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti rivojlanishidagi bugungi kunning dolzarb muammolari nimalardan iborat?
6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti qonunchiligidagi rivojlanish istiqbollarini qanday izohlash mumkin?
7. Davlat tomonidan ish bilan bandlikni tartibga solish chora-tadbirlari jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. O‘zbekistonda davlatning aholini ish bilan ta’minlashni tartibga solish usullari qanday tasniflanadi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining ahamiyati” mavzusida chizma tayyorlang va izoh yozing.
2. «Davlat bandlik siyosati va jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti taraqqiyoti» mavzusida 1000 so‘zlik esse yozing.

Test savollari

1. Fuqarolarning ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ... aks ettirildi.
A. 39-moddasida.

- B. 43- moddasida.
- C. 100- moddasida.
- D. 35- moddasida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov ... nomli asarda “Jamiyat a’zolarining o‘z salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur”, deb uqtirdilar.

- A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch.
- B. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralarini.
- C. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.
- D. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

3. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi:

- A. fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish.
- B. jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti bo‘yicha fuqarolar huquqlarini himoya qilish.
- C. jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish.
- D. jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti bo‘yicha qonuniy asosni mustahkamlash.

4. Pensionerlarni farovonligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli qarori qachon qabul qilindi.

- A. 2004-yil 21-dekabrda.
- B. 2016-yil 22-dekabrda.

C. 2013-yil 13-dekabrdan.

D. 2014-yil 4-dekabrdan.

**5. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni olish huquqi
to‘g‘risidagi ...jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlar
boshlanadigan sana ko‘rsatiladi.**

A. Guvohnomada.

B. Talabnomada.

C. Xabarnomada.

D. So‘rovnomada.

**6. Davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok
etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya
hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘larining ...**

A. saqlanishi va to‘lanishini kafolatlaydi.

B. saqlanishi va ko‘payib borishini ta’minlaydi.

C. moliyalashtirilishini ta’minlaydi.

D. saqlanishini kafolatlaydi.

**7. Yakka tadbirkorlar jamg‘arib boriladigan pensiya
tizimida qanday ishtirok etadilar –**

A. Ixtiyorilik asosida.

B. Majburiylik asosida.

C. Ixtiyoriy-majburiylik asosida.

D. Umuman ishtirok etmaydilar.

**8. Fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni olish
huquqi to‘g‘risidagi guvohnomani berish uchun ni Pensiya
jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga beradilar.**

A. Ariza.

B. Murojaat.

C. Reyestr.

D. Xabarnoma.

9. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar:

A. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari.

B. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi chet el fuqarolari.

C. O‘zbekiston Respublikasi hududida fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

D. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi chet el fuqarolari.

10. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari ... hisobvara qda yig‘iladi.

A. Markaziy bankdagi.

B. Xalq bankidagi.

C. Asaka bankidagi.

D. Kapital bankdagi.

11. Mehnat shartnomalari tuzish, ish vaqt, ish vaqtidan qo‘sishimcha vaqt ish davomiyligini tartibga solish, aholining nochor qismi uchun kafolatli ish joylari sonini kvatalash, jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armalariga majburiy to‘lovlarni joriy etish – davlat tomonidan aholini ish bilan ta’minlash jarayonining

A. Ma’muriy-qonunchilik usuli.

B. Iqtisoliy usuli.

C. Tashkiliy usuli.

D. Qonunchilik usuli.

IV BOB JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTINING FAOLIYAT MEXANIZMI

4.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – davlat pensiya ta'minotining tarkibiy qismi sifatida

Aholini ijtimoiy himoyalashni bir vaqtning o'zida amal qiladigan va bir-birini to'ldiruvchi quyidagi to'rtta tizimga ajratish mumkin: davlat ijtimoiy ta'minoti, davlat ijtimoiy sug'urtasi, jamoa ijtimoiy sug'urtasi va shaxsiy sug'urta.

Davlat ijtimoiy ta'minoti – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini keksayganda, kasallik ro'y berganda, mehnatga layoqatini qisman yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, bolali oilalarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatishning davlat tizimidir. BMT tavsiyasiga muvofiq ijtimoiy ta'minot bir necha omillarni: salomatlik, demografiya sharoiti, oziq-ovqat, kiyim-kechak, iste'mol va jamg'arish fondlari; mehnat qilish sharoiti, ish bilan bandlik, mehnatni tashkil etish; ta'lim olish, savodxonlik, uyjoy, obodonlashtirish, pensiya ta'minoti, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ta'minot quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshiriladi: davlat ijtimoiy sug'urtasi va byudjet mablag'lari. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davrida ijtimoiy ta'minotning jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslar faoliyati bilan bog'liq shakllari rivojlandi.

Har qanday ijtimoiy ta'minot ijtimoiy kafolatlar asosiga quriladi, kafolatlar ham muayyan tizimdan iborat. Ijtimoiy kafolatlarni bajarishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

–ish kuchi bozorini uning talab va taklif o'rtasida vujudga keladigan ziddiyatlarni yumshatish orqali tartibga solish;

mehnatga qobiliyatli barcha jamiyat a'zolarining ish bilan band bo'lishiga ko'maklashish;

mehnatga qobiliyatli barcha aholi qatlamlariga tayanishi;
keksalarning moddiy ta'minotiga e'tiborni qaratish.

Aholini ijtimoiy himoyalashning "Iqtisodiyot inson uchun" tarzida bo'lishi lozim bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tish uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat alohiyatidan uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'iy nazar pensiya ta'minoti tizimidan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson alohiyatidan samarali foydalanish, aholi daromadlarini ko'paytirish humda fuqarolarda "ertangi kunga ishonch" bo'lishiga erishish mumkin.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiyadolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiyatning rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi.

Amaliyotchi olimlardan A.Xaitov A.M.Ziyadullayevning "O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi" nomli o'quv qo'llanmasida «ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta'minot»ni inson faoliyatining qulay shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiat muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni qamrab olinganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ko'plab xorijiy mamlakatlarda va sobiq sovet ittifoqi davlatlarida pensiya ta'minoti tizimi faoliyati ko'rsatilgan.

Rossiya iqtisodchilari V.V.Karchevskiy, L.D.Androsova, L.P.Okuneva, E.E.Smirnovanining «Целевые бюджетные и внебюджетные фонды» o'quv qo'llanmasida davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar faoliyati berilgan. Mazkur o'quv qo'llanmaning uchinchi bob Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondiga bag'ishlangan. Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondining faoliyati, huquqiy asoslari, manbalar bo'yicha daromadlarni shakllantirish tartibi, pensiyalar va nafaqlar

ko‘rinishida xarajatlarini amalga oshirish, fuqarolarga davlat pensiyasini tayinlash, hisoblash va to‘lash tartibi berilgan. Rossiya Federatsiyasida nodavlat pensiya jamg‘armalarining tashkil etilishi va rivojlanishi 1998-yil 7-mayda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining “Nodavlat pensiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi 75-sonli qaror qabul qilinishi bilan bog‘liqligi, shaxsiy jamg‘arib boriladigan jamg‘armaga majburiy va ixtiyoriy badallarning yig‘ilishi, jamg‘arma daftarchalarining ochilishi, daftarchalarning yo‘qolgan holatida yangi daftarchalar (dublikat)ni berish tartibi, shaxsiy jamg‘armadan fuqarolarga pensiya to‘lovlarini to‘lash jarayonlari ko‘rsatilgan.

Jahon banki tomonidan turli mamlakatlar uchun ko‘p darajali pensiya tizimiga o‘tish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Xususan, davlat taqsimot dasturlariga ega bo‘lgan va keng aholi qatlamlari qamrab olinadigan mamlakatlar, shuningdek, demografik muammolari mavjud bo‘lgan mamlakatlar uchun bиринчи qadam – davlat pensiyalari islohotlarini o‘tkazish bo‘lishi kerak. Buning uchun pensiyaga chiqish yoshini oshirish, imtiyozli pensiya tayinlash shartlarini qat’iylashtirish, kechroq pensiyaga chiqishni rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratish, pensiya belgilash me’yorlarini o‘zgartirish va boshqa chora-tadbirlar o‘tkazilishi lozim. Ikkinci qadam – ikkinchi majburiy jamg‘arib boriladigan darajani yaratishni nazarda tutadi, uni: birinchidan, davlat darajasi miqyosini asta-sekin cheklab, badallarni ikkinchidan majburiy darajaga qayta taqsimlash yoki davlat pensiyalarini tanlanadi. Bunday bosqichma-bosqich o‘tish Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (OESR) mamlakatlarida amalga oshirila boshlandi⁸⁶. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish mamlakatlarida, Jahon banki tavsiyalari Vengriya, Latviya va Qozog‘istonda ko‘proq e’tiborga olingan. Ikkinchidan, eski tizim doirasida to‘lanmay yig‘ilib qolgan qarzlarni e’tirof etish va ularni to‘lash majburiyatini olish va ayni paytda tamomila yangi tizimni (Chili, Lotin Amerikasi mamlakatlari shu yo‘lni tanaladi)- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini yaratishdan iborat. Ko‘pchilik

⁸⁶ Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent. 2010.- № 4. 23-b.

rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi bilan birga davlat tasarrufida bo'limgan nodavlat xususiy pensiya ta'minoti tizimi amal qiladi⁸⁷. Bozor munosabatlari ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimiga o'z ta'sirini kuchaytirib boradi. O'zbekiston Respublikasida ham davlat tasarrufida bo'limgan pensiya ta'minoti tizimini tashkil etishning obyektiv zarurati paydo bo'lmoqda. Davlat tasarrufida bo'limgan xususiy pensiya ta'minoti tizimini yaratish ishlari olib borilmoqda.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda taqsimlash va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mavjud. Taqsimlash turidagi pensiya tizimining mohiyati shundan iboratki, pensiya to'lovlari uchun joriy xarajatlar joriy tushumlar hisobiga amalga oshirilishidan iborat.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida joriy va kelajakdag'i pensiya to'lovlarini amalga oshirish uchun maxsus mablag' zaxirasini yaratish talab etiladi.

Davlat pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdag'i asosiy iqtisodiy funksiyasi – mehnatga layoqatlari va mehnatga layoqati bo'limgan toifadagi fuqarolar o'rtasidagi Yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash, muntazam daromad manbayiga ega va daromadga ega bo'limganlar, katta daromadga va past daromadga ega shaxslar o'rtasida hamda yoshiga doir pensiyaga ketayotgan mutaxassislar va endi mehnat jarayoniga kirib kelayotgan yosh ishchilar o'rtasida, keksa avlod va yosh avlod o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy qaramaqarshi ziddiyatlarni bartaraf etish, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, pensiya ta'minotini moliyalashtirish usullari taqsimlovchi va jamg'ariladigan pensiya tizimi bo'yicha farqlanadi. Xorijiy mamlakatlarda jamiyatdagi vujudga kelgan psixologik omillar ham taqsimlanuvchi pensiya tizimining samarali faoliyat yuritishga to'sqinlik qila boshladi. XX asrning oxirida yuqori daromadli aholi pensiya ta'mnotinidagi

⁸⁷ Barton Waring, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover. 2011. 978-1-118-10636-5. – P.19. 23.

tenglashtirish prinsipiga nisbatan o‘zlarining noroziligini bildirib, har kimga nisbatan alohida yondashuvni talab qildilar⁸⁸. Bu asosiy muammolar pensiya tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqardi, uning yechimi sifatida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tomonidan 1994-yilda jamg‘ariladigan pensiya modeli ishlab chiqildi. XX asr oxirida jahonda beshta mamlakat (Boliviya, Chili, Salvador, Meksika, Qozog‘iston) jamg‘ariladigan tizimga to‘liq o‘tdi. «O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy barqarorligi, o‘rtacha pensiyalarning miqdori, ijtimoiy sug‘urta badallari stavkasi, Pensiya jamg‘armasining to‘lovga layoqatlilik darajasi, pensiya tizimida qoplash koeffitsiyentini oshirish, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi jozibadorligini oshirish muammolari tizimda ijtimoiy islohotlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi»⁸⁹.

4.2. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining siyosati, taktikasi va strategiyasi

Har bir davlat iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida ijtimoiy rivojlanishining ustuvor maqsadlarini belgilaydi. Ushbu strategik maqsad – aholi turmush farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan. Rivojlanishning shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ayrim mamlakatlarda birinchi navbatdagi vazifalar qatorida ishsizlikni kamaytirish, boshqalari – kambag‘allika barham berish, uchinchilari – aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish bilan belgilanadi. Mazkur maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha bo‘lishi mumkinligiga qaramasdan, eng asosiysi – aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishdir. Mazkur strategiya ijtimoiy muammolar – ish bilan bandlikni oshirish, kam ta’minlanganlik

⁸⁸ Dan McGill, Kyle N. Brown, John J. Haley, Sylvester Schieber, Mark J. Warshawsky. Fundamentals of Private Pensions 9th Edition. Pension Research Council. Oxford University Press. UK, 2010. –P.97.

⁸⁹ Kasimova G.A., Sholdarov D.A. Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. Toshkent.: 2017. 25-b.

darajasini kamaytirish va fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini yax-shilash va pensiya ta'minoti tizimi mexanizmlarini yaratishga qaratiladi.

«Strategiya bu – yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtida hayotga izchil joriy etilmoqda. Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam deb bilamiz. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat»⁹⁰.

Ijtimoiy siyosat – davlat tomonidan ijtimoiy rivojlantirish va ijtimoiy ta'minot sohalarida davlat dasturlari asosida amalga oshiriladigan siyosatdir. Ijtimoiy siyosat tadbirlari nafaqat ijtimoiy guruhlar, balki barcha jamiyat a’zolari turmush darajasi va turmush sifatini oshirishga qaratilgan majmua hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat davlatning barcha sohalariga taalluqli bo‘lib, mamlakatda ijtimoiy o’sish strategiyasini belgilovchi siyosat hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- insonga munosib turmush kechirish va rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- jamiatning asosi hisoblangan oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalik to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

- iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonarli himoya qilish;

- aholini samarali ijtimoiy muhofaza qilish, inson salomatligini mustahkamlash, bilimini oshirish, fuqarolarni uy-joy bilan ta'minlash

⁹⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017-yil. 19-sentabr.

choralarini ko‘rish, madaniyat va sportni rivojlantirish, demografik vaziyatni yaxshilash va pensiya ta’minotini takomillashtirish.

Adam Smit insonni butun jamiyatning asosi deb hisoblagan holda insonning xatti-harakatlari va shaxsiy manfaatga intilishi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan. Bozor munosabatlari – tabiiy tartibdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir inson o‘zining shaxsiy manfaatlarini o‘ylab ish ko‘radi. Bu shaxsiy manfaatlar yig‘indisi esa jamiyat manfaatini tashkil etadi. A.Smitning fikricha⁹¹, ana shunday tartib ham alohida shaxsning, ham umuman jamiyatning boyligi, farovonligi va rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston modeliga asos bo‘lib xizmat qilgan mashhur besh tamoyildan biri - aholini ijtimoiy muhofaza qilishga va kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga qaratilgan mazkur tamoyil mamlakatimiz ichki siyosiy barqarorligi strategiyasi uchun o‘ta muhim shartlardan biridir. Insonni rivojlantirish maqsadlarida insoniy tanlash imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifa bo‘lsa ham, birgina uning o‘zi yetarli emas. Bundan tashqari, ijtimoiy adolat, barqarorlik va inson huquqlarini hurmat qilish kabi tamoyillarga amal qilish ham nihoyatda muhimdir⁹². Inson huquqlari iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni, shuningdek, fuqarolik va siyosiy erkinliklarni qamrab oladi. Insonni rivojlantirishda ham mazkur muammolar ko‘zda tutilgan. Inson huquqlarini amalga oshirish asosiy ko‘rsatkichlarni va ilg‘or maqsadlarni belgilash, monitoring strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Insonni rivojlantirish shu tarzda – maqsadlar, ustuvorliklarga doimiy e’tibor orqali inson huquqlarini amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘sadi. Insonni rivojlantirish ijobiy natijalarni muntazam ko‘paytirib borishga bog‘liq. Mazkur sohadagi muvaffaqiyatlar barqaror bo‘lishi uchun har bir shaxs, jamiyat guruhlari va xalqlar

⁹¹ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Ександр, 2007. С.17.

⁹²Qosimov F. M. Tashkilot va tashkiliy boshqarish nazariyası. O‘quv qo‘llanma. –Т.: 2015. 72-б. «Tamoyil» atamasining ma’nosи izohli lug‘atlarda, rus va ingliz tillarida «prinsip» deb atalsa, o‘zbek tilida nazariya, ta’limot, boshqarishning asosiy qonun-qoidasini anglatadi.

munosib turmush kechirishlariga zarur shart-sharoitlar yaratish uchun shayx-harakatlarni muttasil kuchaytirib borish talab qilinadi.

«Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-niyshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat vaadolatli jamiyat barpo etishdan iborat»⁹³. Ilmiy uchibiyotlar tahlili xorijiy mamlakatlar ilmiy doiralarida pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish, optimal pensiya tizimi modelini tanlash borasida ilmiy tortishuvlar davom etayotganligini ko‘rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy asosini ustun darajada taqsimlanuvchi komponentlar tashkil etishi «zarur»⁹⁴ deb hisoblashsa, boshqalari jumg‘ariladigan komponentlar tarafidori hisoblanadilar»⁹⁵.

Mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra «2030-yilgacha rivojlangan mamlakatlarda ishlovchi aholiga to‘g‘ri keluvchi pensiya ujratmalari miqdori taxminan ikki barobarga ortadi»⁹⁶. Ko‘pgina davlatlarda ishlovchi aholiga pensiya to‘lovlarining ortishi pensiya fondlari byudjetining kamomadini keltirib chiqardi, uning miqdori hozirgi pensionerlarga pensiya to‘lovlarini ta’minlay olmay qoldi. «Ushbu muammoni bitta pensionerga to‘g‘ri keluvchi ishlovchi fuqarolar sonining nisbati (bog‘liqlik koeffitsiyenti) dinamikasi usosida tahlil qilish mumkin. Masalan, XX asrning 50-yillarida rivojlangan davlatlarda ushbu koeffitsiyent bir pensionerga 3,5 nafar ishlovchini tashkil etgan bo‘lsa, 90-yillarga kelib 2,5 tani tashkil qildi»⁹⁷.

⁹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017-yil.19-sentabr.

⁹⁴ Дисней Р. Публичные пенсионные реформы в Европе: полисиес, проспесц и анд евалуатион // The World Economy. 2003. Vol 26, № 10. P. 1425–1445.

⁹⁵ Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.

⁹⁶ Гайдар Е.Т. История пенсий. Становление и кризис системы социальной защиты в современном мире. Статья вторая. // Независимая газета. 2004. 13 июля. -С. 10.

⁹⁷ Борисенко Н.Ю. Мировой опыт проведения пенсионных реформ. // Финанси и кредит. 2004. № 18. -S. 54.

«Shu bilan birga Pensiya jamg‘armasi daromadi sezilarli hajmda norasmiy bandlik sababidan pasayib ketadi. Daromad o‘sishiga qaramay, band aholining faqatgina 38% qismi pensiya badalini to‘lamoqdalar.

Bunga sabab pensiya hajmining to‘langan pensiya badali hajmiga bog‘liq emasligidir. Shuning uchun, qay yo‘l bilan taqsimlanmasin, ishchi ham, ish beruvchi ham oylik ish haqining rasmiy qismini minimallashtirishga harakat qiladilar. 2017-yilga borib Pensiya jamg‘armasida xarajatlar byudjet tanqisligiga olib keladi. 2020-yilga borib esa bu ko‘rsatkich YalMning 3%ini tashkil etadi»⁹⁸.

Jahon bankingin prognozlariga ko‘ra O‘zbekiston aholisi 2050-yilga borib 39 mln kishiga yetishi kutilmoqda. Mamlakatdagi o‘rtacha umr davomiyligi ko‘rsatkichi 68 yildan 72 yilga oshadi va 65 yoshdan katta bo‘lgan iqtisodiy faol aholi ulushi 4,4 foizdan 13,4 foizga yetishi mumkin. 4.1-jadvalda O‘zbekistonda demografik ko‘rsatkichlar prognozi keltirilgan.

Bu kabi trend doirasida pensiya ta’minoti tizimlarining uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy bardavomligini takomillashtirish uch darajali model yaratish orqali tavsiya qilinadi. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi⁹⁹:

- 1) davlat tomonidan kafolatlangan eng kam pensiya miqdori (oylik ish haqidan qat’iy nazar barcha fuqarolar oladi);
- 2) majburiy jamg‘arma sxemasi (markazlashtirilgan yoki xususiy boshqaruв ostida). Pensiya to‘lovi miqdori pensionerlarning individual hisobraqamlarida jamg‘arib borgan mablag‘lari hamda turli xil aktivlarga qilgan investitsiya natijasida olingan daromadlarga bog‘liq;
- 3) moliyaviy institatlarda ixtiyoriy ravishdagi jamg‘arma tizimi.

⁹⁸ O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tiziminining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalgacha shirilishini ta’minlash. Development Focus/ Social reforms. 2014. №9. <http://www.cer.uz>

⁹⁹ O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tiziminining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalgacha shirilishini ta’minlash. Development Focus/ Social reforms. 2014. №9. http://www.cer.uz/upload/iblock/b41/bwmnvfycrmvrtubhpx_uz.pdf

4.1-jadval

**O‘zbekistonda demografik ko‘rsatkichlar
prognozi (2010-2050)¹⁰⁰**

Ko‘rsatkich- lar	YILLAR							
	2015	2020	2025	2030	2035	2040	2045	2050
Aholi soni. (mln kishi)	30,2	32,4	34,3	35,8	36,9	37,9	38,7	39,4
Fug‘ilish koeffitsiyenti (nyolga to‘g‘ri keladigan bola soni)	2,2	2,1	2,0	1,9	1,9	1,8	1,8	1,8
Umr duvomiyligi (mumumiy)	68,5	69,0	69,6	70,1	70,7	71,2	71,7	72,2
Umr duvomiyligi (erkaklar)	65,2	65,7	66,1	66,6	67,1	67,6	68,0	68,5
Umr duvomiyligi (nyollar)	71,9	72,6	73,2	73,8	74,4	75,0	75,5	76,1
65 yosh va undan katta yoshdagisi aholi soni. (foiz)	4,4	5,1	6,6	8,2	9,4	10,5	11,7	13,4

Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zbekistonda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va pensiyalarning qoplash koeffitsiyenti miqdorini oshirish lozim. O‘zbekistonda ko‘p darajali kombinatsiyalashgan pensiya tizimini shakllantirish zarur.

Pensiya ta’minoti sohasida amalgalashuvchilarni islohotlar, ularning zamonaliviy ko‘rinishlarining amaliyotga joriy etilishi respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash masalalarining to‘g‘ri

¹⁰⁰World Bank Population Estimates and Projections (2014).

tashkil etilganligidan dalolat beradi. Jahon pensiya tizimini isloh etish tajribasining chuqur ilmiy tahlili va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish konsepsiysi aralash pensiya tizimini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, Bugun zamon o‘zgarmoqda, odamlarning talabi oshib bormoqda. Kelgusida nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha uzoq muddatli moliyaviy barqaror pensiya tizimi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun mamlakat pensiya jamg‘armasi byudjeti defitsitining sabablarini aniqlash va defitsitini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish lozim. Respublikamizda mo‘ljallanayotgan aralash pensiya tizimida dastlabki bosqichlarda avlodlar birdamligi tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi va ushbu tizim keljakda bosqichma-bosqich o‘z o‘rnini jamg‘ariladigan pensiya tizimiga bo‘shatib berishi zarur.

Iqtisodchi С.Г.Ерошченковning «Переход к накопительной пенсионной реформе: мировой опыт и возможности применения его в России» nomli monografiyasida davlat pensiya ta’minoti tizimida islohotlarni amalga oshirish strategiyasi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Monografiya uch bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda ijtimoiy ta’minot, davlat pensiya ta’minoti, Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondining shakllantirish tarixi, moliyaviy faoliyati, fondning daromadlari va xarajatlarini boshqarish jarayonlari ko‘rsatilgan. Pensiya ta’minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishga e’tibor qaratilgan. Ikkinchi bobda pensiya ta’minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi va xorijiy davlatlarda xususiy pensiya tizimi o‘rganilgan. Uchinchi bobda pensiya ta’minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni takomillashtirish yo’llari

vu jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish masalalari ko‘rilgan. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining yaratilishi mazkur mamlakatning davlat pensiya ta’minoti mexanizmiga, ijtimoiy siyosatiga, bandlik masalasini hal etilishiga ta’sir etishi va demografik holati bilan bog‘liqligi tadqiq qilingan.

Jamg‘ariladigan pensiya tizimiga o‘tishni moliyalashtirish uchun turli mamlakatlarda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Taqsimlanuvchi pensiya tizimini qisman saqlab qolish. Chunki to‘plangan ajratmalarни mavjud pensionerlarga to‘lash lozim. Polsha, Vengriya, Shvetsiya, Urugvay va Rossiyada ushbu usuldan foydalanildi.

2. Mehnatga haq to‘lash fondidan qilinadigan ajratmalar miqdorini oshirish usuli.

3. Boshqa manbalardan olingan daromadlarni ishlatish usuli. Masalan, Xitoyda lotoreyalarni sotishdan olingan daromaddan, Argentinada qo‘shilgan qiymat solig‘idan foydalanildi.

4. Davlat byudjetinnig profitsitidan foydalanish usuli.

5. Davlat mulkini xususiy lashtirishdan olingan mablag‘larni joriy pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish uchun ishlatish usuli. Peru, Boliviya va Polshada ushbu usuldan foydalanildi.

Taqsimlanuvchi pensiya tizimi ham, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi ham kamchiliklarga va afzalliklarga ega. Pensiya siyosati faqat bir pensiya tizimiga asoslanib qolmasligi kerak. Taraqqiy etgan mamlakatlarda har ikkala tizimdan foydalanishga asoslangan uch pog‘onali pensiya tizimi shakllandi:

–majburiy davlat pensiya tizimi. Ushbu tizimining mavjudligi pensionerlar o‘rtasida qashshoqlikni oldini olish va qisqartirish imkonini beradi;

–majburiy jamg‘ariladigan pensiya tizimi. Ushbu tizimda pensiya miqdori pensionerlarning individual hisobvaraqlarida to‘plangan mablag‘larga va investitsion daromadlarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur tizim davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilishi mumkin yoki xususiy kompaniyalar va fondlar tomonidan boshqariladi;

–ixtiyoriy pensiya sug‘urtasi rivojlantiriladi.

«Pensiya tizimining uch darjasи qariyalarnи siyosiy va iqtisodiy vaziyatlardagi holatlardan kelib chiqadigan xatarlardan ishonchli himoya qiladi. Chunki bu darajalar boshqaruv turlari (xususiy, davlat), moliyalashtirish manbalari (kapital va aholi mablag‘lari), investitsiya (aksiya va obligatsiyalar) strategiyalarini o‘zaro uyg‘unlashtiriladi»¹⁰¹.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi hamda o‘z vaqtida to‘lanishi bo‘yicha risklar paydo bo‘lishi mumkin. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida shaxsiy jamg‘arib borildaigan pensiya tizimini isloh qilish natijasida tizimni modernizatsiyalash talab etiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti strategiyasini ishlab chiqishda ijtimoiy risklar e’tiborga olinishi kerak. Pul daromadlarini (ish haqi, pensiyalar, nafaqalar) infliyatsiyadan himoya qilish muammosi alohida ahamiyatga egadir. Shu maqsadda indeksatsiya qo‘llaniladi, ya’ni davlat tomonidan aholining pul daromadlarini oshirish mexanizmlaridan foydalilaniladi. Ushbu mexanizm iste’mol tovarlari va xizmatlarining qimmatlashishini qisman yoki to‘la qoplash maqsadini ko‘zlaydi. Daromadlarni indeksatsiya qilish aholi, ayniqsa uning nochor qismi – belgilab qo‘yilgan daromadlarga ega pensionerlar, nogironlar, shuningdek, yoshlarning xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Indeksatsiya ham davlat miqyosida, ham jamoa shartnomalari orqali alohida korxonalar darajasida amalga oshiriladi.

Respublikamizda pensiya tizimi uchun strategik jihatdan muhim bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ishlar tashkil etildi. Pensiya jamg‘armasining samaradorligi mablag‘larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida mablag‘larni ishlatish darajasini ifoda etadi. Pensiya ta’minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslar yetarli bo‘lishini ta’minlashdir. Bu muammo aholining

¹⁰¹ Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent. 2010.- № 4. 22-b.

keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi. Aynan shu jihatdan kelib chiqib, pensiya tizimini moliyalashtirishning xorijiy tajribalarini o'rganish va respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini hayotga tatbiq etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

4.3. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Pensiya ta'minoti tizimining asosiy maqsadi - insonning mehnat faoliyatini pirovard natijalariga qarab (mehnat staji, sug'urta staji, mehnat qilish davomidagi daromad ko'rsatkichlari) uning qonunda belgilangan yoshiga qarab yoki sog'lig'iga qarab (nogironlik) hamda boquvchisini yo'qotgan vaziyatda yoshiga doir yoki nogironlik pensiyasi hamda boquvchisini yo'qotgan oilalarga pensiya to'lovlanri belgilaydi.

Pensiya ta'minoti faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar - davlatdagi demografik vaziyat, mehnat bozoridagi muvozanat, eng kam ish haqi, aholi daromad ko'rsatkichlari, iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, sug'urta tizimining aholini qamrab olish darajasi, bank tizimining barqarorligidan iborat.

«Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to'g'risida»gi nizom "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibini belgilaydi. Mazkur Nizomda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida foydalaniladigan asosiy tushunchalarga tarif berilgan.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i - fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarining jamg'arib boriladigan pensiya badallari va ulardan

jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘lanadigan shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab qo‘shilgan foizlar ana shu hisobvarag‘iga kelib tushadi va unda hisobga olinadi¹⁰².

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi - uning foydasiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga badallar kiritiladigan (uning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar o‘tkaziladi), shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs hisoblanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi - jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxsdir.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar - jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining foydasiga majburiy yoki ixtiyoriy tartibda badal kirituvchi tomonidan kiritiladigan pul mablag‘lari bo‘lib, foizli daromadlar - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga mablag‘larni joylashtirish natijasida olingan va fuqarolarning pensiya jamg‘armasidagi mablag‘lari qoldig‘iga qo‘shiladigan daromadlar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilari, pensiya badallari summasining miqdori va harakati, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxfiy hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining «Bank siri to‘g‘risida»gi qonuni mavzusini tashkil etadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i umumiy va maxsus qismlardan, zarurat bo‘lganda, qo‘shimcha qismdan iborat bo‘ladi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining

¹⁰² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida»gi 595-soni qarori. 2004-yil. 21-dekabr.1-ilova. «Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

umumiylar qismida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchi to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar mavjud»¹⁰³:

a) shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining doimiy shaxsiy tartib raqami;

b) jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish paytida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi;

v) jinsi;

g) tug‘ilgan sanasi;

d) tug‘ilgan joyi - viloyat, tuman, aholi punkti;

e) doimiy yashash joyi (ro‘yxatdan o‘tgan) manzili;

j) pasportdagи ma’lumotlar - pasportning seriyasi va raqami, passport berilgan sana va joy. Ayrim hollarda - pasportning o‘rnini bosuvchi hujjatdagи ma’lumotlar;

z) ayni bir vaqtning o‘zida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochilishi sanasi hisoblanadigan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olingan sana.

Mazkur bandning "b" va "j" kichik bandlaridagi ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga tegishli qo‘sishchalar kiritiladi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining maxsus qismida fuqarolar va uning pensiya jamg‘armasi mablag‘lari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar mavjud:

a) jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchiga Xalq banki filiali tomonidan beriladigan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining tartib raqami;

b) har bir oy uchun va o‘sib boradigan yakunlar bilan xodimning ish haqi va boshqa daromadlari miqdori;

v) har bir oy uchun va o‘sib boruvchi yakun bilan majburiy badallar summasi;

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr.1-ilova. «Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

- g) har bir oy uchun va o'sib boruvchi yakun bilan ixtiyoriy badallar summasi;
- d) har bir kalendar yil uchun pensiya jamg'armalari qoldig'iga foizli daromadlar shaklida hisoblangan summa;
- e) kalendar yilning har bir oyi uchun va o'sib boradigan yakun bilan to'langan pensiya jamg'armasi summasi;
- j) har bir bank kunining boshlanishida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armalari qoldig'i;
- z) shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i yopilishining asosi va sanasi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining doimiy shaxsiy tartib raqami o'n to'rtta o'nlik raqamlardan (0 dan 9 gacha) iborat bo'ladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining bitta doimiy shaxsiy tartib raqami faqat bitta shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga berilishi mumkin va yagona hisoblanadi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining doimiy shaxsiy tartib raqamini berish Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Xalq banki filialiga tushgan so'rovnama va ariza-so'rovnama ma'lumotlari asosida jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ini ochish paytida Xalq banki filiali xodimi tomonidan ochiladi.

Quyidagilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ini ochish uchun asos hisoblanadi:

–yuridik shaxslar tomonidan majburiy tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchisi hisoblangan xodimga Xalq bankining filialiga taqdim etiladigan fuqaroni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish bo'yicha so'rovnama;

–fuqarolar tomonidan Xalq bankining filialiga mustaqil taqdim etiladigan ixtiyoriy tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan fuqarolarni hisobga olish bo'yicha ariza-so'rovnama.

Xalq banki filiali so'rovnomani to'ldirishning to'liqligini tekshiradi va unda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma'lumotlar

bazasiga kiritadi: yozma tarzda rasmiylashtirilgan so‘rovnomanini olishda uch ish kuni mobaynida; Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda rasmiylashtirilgan so‘rovnomanini olish bilan bir vaqtida. So‘rovnoma bosma harflar bilan to‘ldiriladi yoki mashinkada yoziladi. So‘rovnoma bosma tuzatishlar kiritishga va bandlarning asossiz bo‘sh qoldirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportida fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u holda ish beruvchi yashash joyi bo‘yicha ichki ishlar organlaridan fuqaroning identifikatsiya raqamini (shaxsiy kodini) so‘raydi va u aniqlangandan keyin so‘rovnomaning tegishli ustuniga yozuvni qayd etadi. Yozma ravishda to‘ldirilgan so‘rovnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi ish beruvchining rahbari imzosi bilan tasdiqlanadi. Agar xodim uzoq muddat bo‘limganligi (kasallik, xizmat safari, ta’til yoki boshqa sababga ko‘ra) munosabati bilan so‘rovnomadagi mavjud ma’lumotlarni shaxsan tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘lmasa, ish beruvchi ushbu sabablarni so‘rovnomada ko‘rsatadi va uni o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

To‘ldirilgan so‘rovnomalar ish beruvchi tomonidan ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq bankining filialiga yozma tarzda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasida hisobga qo‘yish elektron shaklda yuboriladi.

Xalq bankining filiali¹⁰⁴:

–yozma tarzda rasmiylashtirilgan so‘rovnoma olingen kundan boshlab uch ish kuni mobaynida fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochadi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtiradi;

¹⁰⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish choratalbirlari haqida"gi 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-son qarori. 2015-yil. 29-avgust.

-Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali olingan elektron shaklda rasmiylashtirilgan so'rovnomanı olish bilan bir paytda fuqaroni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobvarag'i ochadi, shuningdek, bir kun muddatda - jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtiradi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ini ochish hamda jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtirish va yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Agar ish beruvchi tomonidan yozma tarzda yuborilgan so'rovnoma hisobga qo'yilishi kerak bo'lgan shaxsni ishonchli identifikasiyalash imkonini bermaydigan tushirib qoldirishlar, xatolar yoki tuzatishlar aniqlangan, yoxud yagona ma'lumotlar elektron bazasida ana shunday so'rovnoma ma'lumotlariga ega bo'lgan shaxs aniqlangan hollarda, Xalq banki filiali so'rovnoma taqdim kundan boshlab uch ish kuni mobaynida uni aniqlangan xatolarni ko'rsatgan hamda ularni aniqlashtirish va tuzatish uchun ish beruvchiga qaytaradi.

Agar ish beruvchi tomonidan Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda taqdim etilgan so'rovnoma shaxsiy ma'lumotlarni identifikasiyalash imkon bo'lmasa, xatolar, noaniqliklar bo'lsa yoxud yagona ma'lumotlar elektron bazasida ana shunday so'rovnoma ma'lumotlariga ega bo'lgan shaxs aniqlangan hollarda Xalq banki filiali Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali so'rovnoma taqdim kundan boshlab bir ish kuni mobaynida uni aniqlangan xatolarni ko'rsatgan hamda ularni aniqlashtirish va tuzatish uchun ish beruvchiga qaytaradi. Ish beruvchi so'rovnoma ko'rsatilgan ma'lumotlarning uch ish kuni mobaynida aniqlashtirilishini va tuzatilishini ta'minlaydi va uni Xalq banki filialiga qaytaradi. Fuqaroni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo'yishda Xalq banki filiali uch ish kuni mobaynida ish beruvchiga 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha uning xodimlari

jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani yozma yoki elektron shaklda, hisobga olingan har bir xodimga jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari ochish to‘g‘risida xabarnoma yuboradi. Ish beruvchi tegishli xabarnoma kelgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida Xalq banki filialidan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini, ilova qilinadigan vedomostni oladi va ular olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida xodimlarga beradi. Xodim jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini olganligi to‘g‘risida ilova qilinadigan vedomostga imzo chekadi. Illova qilinadigan vedomost to‘ldirilgandan keyin besh kun muddatda Xalq banki filialiga qaytariladi. Agar ish beruvchi xodim uzoq vaqt bo‘lmanligi munosabati bilan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini unga berish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, ish beruvchi jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasidagi yozuvlarni tekshiradi, ilova qilinadigan vedomostda bo‘lmanan xodim uchun imzo qo‘yadi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini bo‘lmanan xodimga topshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobda turmagan (shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamiga va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga ega bo‘lmanan) xodimni ishga qabul qilishda, ish beruvchi ish boshlangan kundan boshlab besh kun muddatda Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish uchun ishga qabul qilingan xodimning shaxsiy ma’lumotlari ko‘rsatilgan so‘rovnomani yuborishi (taqdim etishi) shart.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i mazkur Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlar unga to‘liq kiritilgan taqdirda ochilgan, deb hisoblanadi. Ma’lumotlarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritish qulay bo‘lishi uchun Xalq bankining filiali tomonidan ma’lumotlarni kiritishning ularni kiritishda xato ma’lumotlar kiritilishidan himoya qilingan maxsus kompyuter ko‘p darchali dasturdan foydalaniladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyi yoki ish

joyi o‘zgargan taqdirda yangi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochish talab etilmaydi. Har bir jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchiga bir marta ochilgan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i butun umr bo‘yi amal qiladi.

Belgilangan tartibda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochilgandan keyin shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini yuritishning quyidagi tartib-qoidasi amalga oshiriladi:

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda qatnashayotgan fuqarolarning ish haqi (daromadi) davri va miqdori hamda ushbu fuqarolar foydasiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritiladigan majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritish;

–xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘lgan badal kirituvchilar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish;

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy tartibda qatnashayotgan fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritish;

–mablag‘larni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida joylash-tirishdan olingan foizli daromadlarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazish;

–shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lash;

–Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarni berish va ayirboshlash;

–pensiya jamg‘armasining holati to‘g‘risida fuqarolarga axborot berish;

–birlamchi hujjatlarni (reyestrlarni) saqlash va ular arxivini yuritish;

- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini yuritish uchun zarur bo‘lgan boshqa tartib-qoidalar.

Xodimlarning ish haqi (daromadi) davri va miqdori hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Xalq banki filialiga har oyda Xalq bankiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq belgilangan shakl bo‘yicha reyestr shaklida tushadi. Reyestrda jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha xodimlari, shu jumladan, o‘rindoshlik bo‘yicha ishlovchi va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha ishlarni bajaruvchi xodimlar (agar ushbu xodimlardan qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ushlab qolinsa) ko‘rsatiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan elektron hujjat tushgan pul mablag‘larini fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkazish uchun asos hisoblanadi. Ish beruvchi tomonidan tuzilgan reyestrning qog‘oz manbasidagi asl nusxasini rahbar va bosh buxgalter imzolaydi va ish beruvchida saqlanadi. Reyestrni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasiga kiritish jarayonida xatolar va tafovutlar aniqlangan taqdirda ushbu reyestr qabul qilinmaydi va avtomatik rejimda xatolarni tuzatishi yoki tafovutlarni bartaraf etish uchun ish beruvchiga qaytariladi.

«Ish beruvchi qaytarilgan reyestrda xatolarni tuzatadi yoki tafovutlarni bartaraf etadi hamda uch kun muddatda ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq banki filialiga elektron manbalarda takroran taqdim etadi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" yoxud Internet tarmog‘ining reyestrni yuborish imkonini beruvchi boshqa saytlari orqali yuboradi. Agar hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha ish beruvchi reyestrga tuzatish kiritish choralarini ko‘rmasa, Xalq banki filiali bu haqda davlat soliq xizmatining

tegishli hududiy organini chora ko‘rish uchun xabardor qiladi»¹⁰⁵. Shaxsiy hisobga olish hujjatlari rahbarning imzosi va muhr (mavjud bo‘lsa) bilan tasdiqlangan yozma shaklda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda yuboriladi. Elektron shaklda yuborilgan hujjatlar elektron raqamli imzo mavjud bo‘lgan taqdirda yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron bazasiga avtomatik rejimda reyestr kelib tushgandan keyin reyestrning yakuniy qatorida ko‘rsatilgan badallarning yakuniy summasini elektron to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan badallar summasi bilan solishtiriladi, shuningdek, reyestrning har bir qatori va har bir ustuni bo‘yicha yakunlarning to‘g‘riliqi tekshiriladi. Reyestr va elektron to‘lov hujjatining yakuniy qatorida ko‘rsatilgan badallar summasi, shuningdek, reyestrning har bir qatori va har bir ustuni bo‘yicha yakunlar tafovuti bo‘limganda, reyestrning ma’lumotlari Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

Reyestrda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligi uchun majburiy jamg‘arib boriladigan badallarini kirituvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari javob beradi. Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasi shakllantirilishining to‘g‘riliqi uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i yuritilishi uchun mas‘ul bo‘lgan Xalq banki filialining mansabdor shaxsi javob beradi. Ixtiyoriy tartibda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Xalq bankining istalgan filialida pul mablag‘larini to‘lashda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritiladi. Ixtiyoriy tartibdagi jamg‘arib boriladigan

¹⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida"gi 2004-yil 21-dekabrdagi 595-soni qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-son qarori. 2015-yil. 29-avgust.

pensiya tizimida qatnashuvchi fuqaro shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar kiritishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining doimiy shaxsiy tartib raqamini, familiyasi, ismi, otasining ismini, tug‘ilgan sanasini ko‘rsatgan holda Xalq banki tomonidan belgilangan shakl bo‘yicha maxsus blankani to‘ldiradi va bank xodimiga jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini taqdim etadi.

Xalq banki filialining xodimi maxsus blanka to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshiradi va to‘g‘ri to‘ldirilgan taqdirda badal miqdori va kiritilgan sanasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma‘lumotlar bazasiga kiritadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar kiritilgandan keyin Xalq banki filialining xodimi tomonidan badal summasi va kiritilgan sanasi to‘g‘risida belgi qo‘yiladi va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadigan belgilangan namunadagi kvitansiya beriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan foizli daromadlarni fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazish belgilangan tartibda amalga oshirildi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lash tartibi «Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan belgilanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchilar kalendar yilning oxirgi kunidagi holati bo‘yicha ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida ularning manziliga mazkur Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha xabarnoma yuborish yo‘li bilan Xalq bankining filiali tomonidan majburiy tartibda xabardor qilinadi. Xabarnoma jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchiga muhrlangan konvertda pochta orqali yoki Internet tarmog‘i orqali elektron shaklda

yuboriladi yoxud Xalq banki filialining xodimi tomonidan oluvchining imzosi qo'ydirilib shaxsan beriladi. Oluvchining ixtiyoriga ko'ra jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar xabarnomasi shuningdek, ushbu Nizomga ilovada keltirilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan **SMS**-xabarlar jo'natish yo'li bilan yuboriladi. Xabar berish hisobot davridan (kalendar yildan) keyingi yilning birinchi choragi mobaynida amalga oshiriladi.

«Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari hamda fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlar bilan bog'liq barcha o'zgarishlar (mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagi ma'lumotlar hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi) to'g'risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o'z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart»¹⁰⁶.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini va shaxsini tasdiqlaydigan hujjatni ko'rsatgan holda, yozma talab bo'yicha bevosita Xalq bankining filialida o'zining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraq'idagi pensiya jamg'armasi to'g'risida axborot olishi mumkin.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining talabi bo'yicha:

–murojaat qilingan paytda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armasi;

–joriy yil boshidan boshlab shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga kiritilgan badallar;

–oldingi kalendar yil uchun badallar va foizli daromadlar;

¹⁰⁶O'zbekiston Respublikasiining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni. 2004-yil, 2-dekabr, 22-modda. Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilarning majburiyatları.

-joriy yil boshidan boshlab va oldingi kalendar yil uchun berilgan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari summasi to'g'risida uxborot beriladi.

-shaxsi

(Xalq banki filiali nomi)

(Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi fuqaroning familiyasi, ismi va otasining ismi)

(Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi fuqaroning manzili)

-son

shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya
hisobvarag'ining holati to'g'risida

XABARNOMA

"Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq banki Sizning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ingizning 20 yildagi holati haqida xabardor qiladi:

1) 20 yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armalar summasi _____ so'm;

2) 20 yil mobaynida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga kiritilgan mablag'lar summasi _____ so'm,

shu jumladan:

2.1.) Majburiy badallar summasi - _____ ming so'm;

2.2.) Ixtiyoriy badallar summasi - _____ ming so'm.

3) shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga hisoblangan foizli daromad summasi - _____ so'm.

4) shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idan to'langan pensiya summasi - _____ so'm.

5) 20 yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra (hisobot oyidan keyingi oy) shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi pensiya jamg'armasi summasi _____ so'm.

Xalq banki

filiali rahbari _____

(imzo) (F.I.O.)

Ma'lumot olish uchun aloqa qilish telefoni: _____

Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini o'tkazish tartibga muvofiq badal to'lovchining rekvizitlari, o'tkazish maqsadlari, o'tkaziladigan jamg'arib boriladigan pensiya badallari summasi, Xalq banki filialiga yo'llangan reyestrning tartib raqami va sanasi ko'rsatilgan holda to'lov topshirig'i vositasida amalga oshiriladi. Reyestrning tartib raqami va sanasi to'lov topshirig'ining "Tushuntirishlar" ustunida ko'rsatiladi.

Fuqarolarga ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i holati to‘g‘risida axborot berishning ishonchliligi va to‘liqliligi uchun javobgarlik jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchiga xizmat ko‘rsatuvchi Xalq bankining tuman (shahar) filiali rahbariga (jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchi yashaydigan joy bo‘yicha) yuklanadi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini yuritish uchun zarur bo‘lgan birlamchi hujjatlar - reyestrlar, so‘rovnomalar, ariza-so‘rovnomalar ular yuborilgan Xalq banki filialida bunday hujjatlar uchun belgilangan muddat mobaynida saqlanadi. Birlamchi hujjatlarni saqlash shartlari ularning saqlashning butun davri mobaynida saqlanishini ta’minlashi kerak. Birlamchi hujjatlar arxivini yuritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasidagi mavjud axborotni saqlash muddati cheklanmasdan arxiv fayllari shaklida saqlanadi. Majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kiritish jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan har oyda Badal kirituvchi soliq ro‘yxati olingan joydagি Xalq banki filialida maxsus tranzit hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Xalq banki filiali jamg‘arib boriladigan pensiya badallari tushgan kundan keyingi ish kunidan kechikmay mablag‘larni hosil bo‘lgan majburiyatlar miqdorida Xalq bankining markaziy operatsiya filialiga o‘tkazadi. Filiallardan olingan mablag‘lar Xalq bankining markaziy operatsiya filiali tomonidan belgilangan tartibda joylashtiriladi.

4.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini boshqarish va tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o‘zida uch yo‘nalish:

–minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi;

– professional assotsiatsiya yordamida o‘zining ish beruvchilariga qo‘shimcha pensiyani shakllantirish;

– fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta’minlash belgilangan.

AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlarda shu tajribalardan foydalaniladi. Pensiya ta’minotining xususiyashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarining ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Aynan, moliya sohasida pensiya islohotlariga ehtiyoj va iqtisodiy islohotlarning kengaytirilgan sohasi kesishadi. Kapital bozori rivojlanishi pensiya fondlari pullarini iqtisodiyotga investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhimdir. Shu tarzda davlat pensiya ta’minoti, jamg‘arilgan pensiya ta’minoti va xususiy pensiya ta’minoti moliyalashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlardagi shaxsiy pensiya ta’minotining moliyalashtirish manbalari chuqr tadqiq qilinmoqda.

Nodavlat pensiya jamg‘armalari tabiatiga ko‘ra ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, bu jamg‘armalar jamiyatdagi mehnatga layoqatsiz bo‘lgan a’zolarning moddiy holatini yaxshilash vazifasini hal qilish maqsadini ko‘zlaydigan muhim ijtimoiy institut, deb hisoblanadi. Ular yordamida odamlar keksalik davrida davlat tomonidan kafolatlangan eng kam miqdordan yuqoriroq daromad olish imkonini qo‘lga kiritadilar. Ishchilar o‘z pensiya badallarini mustaqil tartibga solish yoki bu vazifalarni kasaba uyushmalari orqali o‘z ish beruvchilarining zimmasiga o‘tkazish imkoniga egadirlar. Ikkinchidan, bu jamg‘armalar mamlakatning iqtisodiy tizimida muayyan vazifani bajaradigan o‘ziga xos moliyaviy institutlar hisoblanadi. Bunday institutlar fuqarolarning jamg‘arilgan pullarini uzoq muddatli investitsiyalash maqsadida jamlash bilan shug‘ullanadilar.

Iqtisodiyot real sektori barqaror rivojlanishining asosiy omili investitsion faollikni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarning mavjudligi hisoblanadi. Istiqbolda uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy manbayi aholi mablag‘lari bo‘lishi lozim. Shu bilan

birga bunday resurslardan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatlarini izlash lozimki, bu resurslar kapital investitsiyalarning asosiy manbayidir. Shuning uchun bu mablag'lardan foydalanish strukturasiga quyidagi o'zgartishlarni rag'batlantirish kerak: birinchidan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga investitsiyalar hajmini oshirish, ikkinchidan, jamg'ariladigan va professional (korporativ) pensiya tizimlariga ajratmalarni rag'batlantirish orqali ish beruvchining ishlovchilarning pensiya ta'minotiga qo'yadigan mablag'larini kengaytirish.

Pensiya jamg'armalari moliyaviy bozorning uzoq muddatli amalga oshirishga mo'ljallangan dasturlarni investitsiyalash bo'yicha katta imkoniyatga ega muhim subyektlari hisoblanadi. Pensiya jamg'armalari mablag'larni kapital bozoriga yo'naltiradi, uzoq muddatli investitsiya sifatida ushbu bozorning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bunda pensiya jamg'armalarining o'zлari kapital bozoridagi qudratli kuchga aylanadi. Bunday sharoitda jamg'armalar boshqaruvchilarining investitsion siyosati kapitalni taqsimlash va samaradorligiga hamda umuman butun iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Korporativ jamg'armalarda mablag'larni boshqarish boshqacha tartibda bo'ladi. Nodavlat pensiya jamg'armalari risklarni qoplash (yopish) yoki shaxsiy sug'urta zaxiralarini shakllantirish uchun kompensatsiya jamg'armalarini tashkil qilishi mumkin. Bu mexanizm yanada ishonchli pensiya tizimini shakllantirganligi va fuqarolarning pensiya huquqlarini himoya qilganligi sababli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Ta'kidlash joyizki, pensiya jamg'armalari – ba'zi moliyaviy funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasa emas, balki, eng avvalo ijtimoiy funksiyani bajaruvchi moliyaviy institutdir. Demak, pensiya jamg'armalariga investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari, banklarga qo'yilgani kabi talablar qo'yilishi lozim. Bugungi kunda pensiya fondlari kabi moliyaviy institutlarni yiriklashtirish haqida ko'p gapirilmoqda. Ushbu masalada ikki holatni inobatga olish lozim. Birinchidan, institutsional investorlarni haddan tashqari yiriklashtirish to'laqonli raqobat muhitinining buzilishiga olib kelishi

mumkin. Ikkinchidan, har qanday markazlashtirilgan tizim tarqoq tizimga nisbatan riskka ancha ko'proq duch keladi. Markazlashtirilmagan tizim barqaror, shuningdek, fuqarolarga, ya'ni iste'molchilarga yaqinroq bo'ladi.

Pensiya zaxiralarini markazlashgan holda tartibga solishning xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, bu boradagi asosiy masalalardan biri - sug'urtalangan shaxsning pensiya daromadini oshirish borasidagi uzoq muddatli manfaatlarini ham inobatga olish lozim. Agar pensiya mablag'larining saqlanishi va ularni investitsiyalash samaradorligi muammosi hal etilmasa, jamg'arish tizimi taqsimlash tizimidan deyarli farq qilmaydi. Bunda nafaqat pullarni saqlash, balki inflyatsiya darajasi, ish haqining o'sish sur'atiga nisbatan uning sur'atini oshirish zarur. Buning uchun jamg'arilgan pensiya mablag'larini joylashtirishda siyosiy jihatdan ahamiyatlari obektlarga yo'naltirish lozim.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish asosida aytish mumkinki, nodavlat pensiya jamg'armalarini rivojlantirish va investitsion faolligini oshirish uchun bir qator strategik tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Nodavlat pensiya jamg'armalarini rivojlantirish uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi iqtisodiy rag'batlantirish choralarini yaratish:

- ishlovchilar, ish beruvchilar va band aholini pensiya jamg'armalarini shakllantirish uchun badallar to'lashga rag'batlantiruvchi qulay soliq tartibi;

- nodavlat pensiya jamg'armalari investitsion salohiyatidan oqilona foydalanish, investitsion jarayonlarni tartibga solishni takomillashtirish.

2. Pensiya zaxiralarini joylashtirish jarayonini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun pensiya jamg'armalari investitsion portfeli tarkibi va tuzilmasini tartibga solishning miqdoriy uslublaridan dunyoda keng tarqalgan "javobgarlik xatti-harakati" tamoyiliga o'tish lozim. Bu prinsip institutsional investorlarga investitsiyalarning ishonchliligi va ochiqligini (shaffofligini)

saqlagan holda bozor takliflariga yanada mos ravishda harakat qilish imkonini beradi. Buning uchun belgilangan standartlarga javob berayotgan jamg‘armalarga o‘zlarining aktivlarini moliyaviy bozorlarga mustaqil investitsiyalash huquqi beriladi. Bu holat pensiya tizimining shaffofligini oshiradi va o‘z navbatida ular faoliyatiga ishonchning ortishini ta’minlaydi. Nodavlat pensiya jamg‘armalari mablag‘larini milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega kompaniyalar aksiyalariga qo‘yish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantiriladi. Bunday mexanizm, bir tomondan pensiya jamg‘armalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, ikkinchi tomondan milliy iqtisodiyotning lokomotivi bo‘lishi mumkin bo‘lgan kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, pensiya aktivlarini davlatning qo‘llab-quvvatlashi asosida amalga oshiriladigan uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalarga jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

3. Aholining shaxsiy pensiya jamg‘armalari faoliyatiga ishonchini oshirish uchun nodavlat pensiya jamg‘armasi ishtirokchilari va jamg‘arma qo‘yuvchilarning huquqlarini himoyalashning aniq mexanizmi yaratish, shuningdek, aholining pensiya sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish lozim.

4. Nodavlat pensiya ta’minotini kelgusi rivojlantirish uchun davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtish lozim. Bu jarayonda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi aniq ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan davlatning pensiya ta’minoti boradagi choratadbirlar tizimi belgilab qo‘ylgan bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, nodavlat pensiya jamg‘armalari faoliyati uzoq davrga mo‘ljallanadi, o‘z navbatida, pensiya shartnomasining o‘rtacha amal qilish muddati 40-50 yilni o‘z ichiga oladi. Bu davr oralig‘ida turli inqirozlar yuz berishi mumkin va pensiya tizimi bunga tayyor bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy ta’minotning rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan shakllaridan biri jamg‘arib boriladigan pensiyalar bo‘lib, uning vositasida qariyalar va boshqa ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar

qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Mamlakatimizdagi jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi fuqaro yosh va mehnatga yaroqli bo'lgan paytida topgan daromadlarining bir qismi ular qariganda yoki boshqa xatarlar yuz berganda qo'shimcha ravishda moddiy yordam olish imkonini beradi. Ijtimoiy ta'minot olish yuzasidan Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlarini yanada to'laroq ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini amalgalash oshirish davlat tomonidan tashkil qilinadi va tartibga solinadi. Bozor munosabatlarni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalgalash oshirish uchun muomalada "uzun" moliyaviy resurslar salmog'ining yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalgalash oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bevosita "uzun" moliyaviy resurslar hisobiga amalgalash oshiriladi. Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, muddati jihatidan "uzun" bo'lган moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda pensiya jamg'armalarining o'rni nechog'lik yuqori ekanligining guvohi bo'ldik¹⁰⁷.

Mamlakatimizda nodavlat pensiya jamg'armalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida bu boradagi iqtisodiy islohotlarning ko'lami yanada chuqurlashdi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimiz bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalgalash oshirishda yana bir turtki vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari ham muddatiga ko'ra "uzun" moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanib, uni to'lash bilan bir vaqtida jamg'arma hisobiga tegishli summa o'tkaziladi. Hozirda jamg'armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarisiz salmoqqa ega, shu jihatidan ushbu

¹⁰⁷ Axmedov M. Iqtisodiyotda "uzun" moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2012. №2. 132-b.

tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg‘armalari bilan shug‘ullanuvi moliyaviy bosharuv organini tashkil etish kerak.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, Yevropa mamlakatlarida xususiy fondlar pensiya fondlarining mablag‘larini boshqaruvchi kompaniyalar raqobat asosida boshqarish huquqini qo‘lga kiritadilar. Bu esa pensiya fondlari mablag‘larini to‘lov qobiliyati darajasi yuqori bo‘lgan kompaniyalar ixtiyoriga berish imkonini yuzaga keltiradi. Boshqaruvchi kompaniyalar mablag‘larni ishonchli va daromadli investitsiyalash obyektlariga yo‘naltiradilar. Pensiya fondlarining mablag‘laridan samarali foydalanishlari uchun boshqaruvchi kompaniyalar o‘zlarining moliyaviy mablag‘lari va mulklari bilan javob beradilar¹⁰⁸.

Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida jamg‘ariladigan pensiya fondlarining aktivlari katta miqdorda bo‘lib, Yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa ularda pensiya fondlari faoliyatining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi. Ko‘p pog‘onali pensiya tizimi ijtimoiy risklardan sug‘urtalanish imkonini beradi. Buyuk Britaniya va Gollandiyada pensiya fondlarining katta miqdorda aktivlarga ega ekanligi ularning investitsion faoliyatini Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda samarali ekanligidan dalolat beradi. Ammo shu bilan birga ayrim Yevropa mamakatlarida pensiya fondlarini nisbatan kichik miqdordagi aktivlarga ega ekanligi aholi sonining kamligi, xususiy pensiya tizimiga ishlovchilarning sezilarli qismini jalg‘ etilganligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Pensiya ta’mnotinining jamg‘arish prinsiplariga o‘tish borasidagi dastlabki tadbirlar Lotin Amerikasi mamlakatlarida amalga oshirildi. Lotin Amerikasi mamlakatlari o‘zlarining taqsimlanuvchi pensiya ta’mnotinini saqlab qolgan holda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini ko‘p pog‘onali pensiya tizimini joriy qilish maqsadida qo‘llashdi. Bunday davlatlar sifatida Argentina, Kolumbiya, Peru va Urugvayni ko‘rsatish mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlarda

¹⁰⁸ Barton Waring, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011. –P. 77.

aholining barcha qatlamlarini to‘liq qamrab olgan universal taqsimlanuvchi pensiya tizimi mavjud. Bundan tashqari xususiy sektorda shaxsiy sug‘urtaga asoslangan ixtiyoriy pensiya ta’minoti mavjud. Islohotlarning dastlabki bosqichida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Italiyada pensiya tizimining daromadlarini oshirish maqsadida pensiya badallarini oshirishga harakat qilishdi. Bu esa, ishlovchilar va tadbirdorlarning qattiq noroziligiga sabab bo‘ldi.

Shunisi xarakterlikni, Buyuk Britaniyada ishlovchilarning xususiy jamg‘ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishi davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari qo‘llash orqali rag‘batlantiriladi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra ishlovchilarning qariyb 50% xususiy jamg‘ariladigan pensiya tizimida ishtirok etadi. Buning natijasida davlatning pensiya bo‘yicha majburiyatları 30,0 foizdan ortiq summaga qisqardi. Buyuk Britaniya pensiya bozori Yevropadagi eng katta bozor bo‘lib, jami pensiya jamg‘armalarining 40,0 foiziga ega. Mehnatga layoqatli 33 mln angliyalikdan 22 millioni yollanib ishlaydi. Ularning yarmi, ya’ni 10,5 mln kishi korxonalar tomonidan tashkil etilgan xususiy pensiya sxemalarida ishtirok etadi, 4,5 million kishi individual pensiya hisobvaraqlarga pul o‘tkazishadi, ishlovchilarning uchdan bir qismi pensiya sxemalarida ishtirok etmaydi.

Buyuk Britaniyada xususiy pensiya fondlari pensiya sxemalarni ishlab chiqadi, badallar va to‘lovlarning hisobini olib boradi. Kel-gusida o‘zining majburiyatları bo‘yicha hisoblashishni tashkil qiladi, boshqaruvchi kompaniyaga mablag‘larni qaytarish bo‘yicha shartlar qo‘yadi. Pensiya fondining o‘zi investitsiyalash bilan shug‘ullanmaydi, balki shartnomaga asosida boshqaruvchi kompaniya shug‘ullanadi.

Qisqacha xulosalar

Aholini ijtimoiy himoyalashning “Iqtisodiyot inson uchun” tarzida bo‘lishi lozim bo‘lgan zamонави иqtisodiyotga o‘tish uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-

iqtisodiy guruhga mansubligidan qat’iy nazar pensiya ta’minoti tizimidan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda fuqarolarda “ertangi kunga ishonch” bo‘lishiga erishish mumkin.

Har bir davlat iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida ijtimoiy rivojlanishining ustuvor maqsadlarini belgilaydi. Ushbu strategik maqsad – odamlar turmush farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan. Rivojlanishning shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ayrim mamlakatlarda bиринчи navbatdagi vazifalar qatorida ishsizlikni kamaytirish, boshqalari – kambag‘allika barham berish, uchinchilari – aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish bilan belgilanadi. Mazkur maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha bo‘lishi mumkinligiga qaramasdan, eng asosiyasi – aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishdir. Mazkur strategiya ijtimoiy muammolar – ish bilan bandlikni oshirish, kam ta’minlanganlik darajasini kamaytirish va fuqarolarning ijtimoiy ta’mnotinini yaxshilash va pensiya tizimi mexanizmlarini yaratishga qaratiladi.

Davlat pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagи asosiy iqtisodiy funksiyasi – mehnatga layoqatli va mehnatga layoqati bo‘lмаган тоифадаги fuqarolar o‘rtasidagi yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash, muntazam daromad manbayiga ega va daromadga ega bo‘lмаганлар, katta daromadga va past daromadga ega shaxslar o‘rtasida hamda yoshiga doir pensiyaga chiqayotgan mutaxassislar va endi mehnat jarayoniga kirib kelayotgan yosh ishchilar o‘rtasida, keksa avlod va yosh avlod o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy qaramaqarshi ziddiyatlarni bartaraf etish, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Respublikamizda pensiya tizimi uchun strategik jihatdan muhim bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ishlar tashkil etildi. Pensiya jamg‘armasining samaradorligi mablag‘larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida mablag‘larni ishlatish darajasini ifoda etadi. Pensiya ta’minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy

resurslar yetarli bo‘lishini ta’minlashdir. Bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi. Aynan shu jihatdan kelib chiqib, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimining xorijiy tajribalarini o‘rganish va respublikamizda uni hayotga tatbiq etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingen foizli daromadlarni fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazish belgilangan tartibda amalga oshirildi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lash tartibi «Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan belgilanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan mablag‘lar to‘lash davrigacha shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lar summasi haqiqatdan to‘langan summaga kamayadi.

Pensiya ta’mnoti sohasida amalga oshirilgan chuqur islohotlar, ularning zamonaviy ko‘rinishlarining amaliyatga joriy etilishi respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash masalalarining to‘g‘ri tashkil etilganligidan dalolat beradi. Jahon pensiya tizimini isloh etish tajribasining chuqur tahlili va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish konsepsiysi aralash pensiya tizimini shakllantirishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, oilalar va fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti mablag‘larini shakllantirish va ulardan noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish imkonini berdi.

Tayanch so‘z va iboralar

Ijtimoiy ta’mnot; jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotini boshqarish; davlat pensiya ta’mnotining taktikasi va strategiyasi; jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari; ixtiyoriy badallar;

majburiy badallar; xabarnoma; mehnat shartnomasi; investitsiya; risklar; pensiya fondlarini boshqarish.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti davlat pensiya ta’minotining tarkibiy qismi ekanligini tushuntirib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari qanday boshqariladi?
3. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Mamlakatimizdada jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini aytинг.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “Taqsimot va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining yutuq va kamchiliklari” mavzusida referat yozing va slaydlar tayyorlang.
2. “O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining taktikasi va strategiyasi” mavzusida chizma tayyorlang va izohlang.

Test savollari

1. Xorijiy davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimining qaysi turida mas’uliyat davlatga yuklatiladi.
 - A. Liberal model.
 - B. Konservativ model.
 - C. Sotsial-demokratik model.
 - D. Barchasi to‘g‘ri.
2. Jamg‘ariladigan pensiya tizimiga o‘tishni moliyalashtirish usullari:
 - A. Davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag‘larni pensiya majburiyatlarini bajarish uchun ishlatalish usuli.

B. Ish haqi fondidan ajratiladigan majburiy va ixtiyoriy badallar-ni shakllantirish usuli.

C. Davlat byudjetinnig profitsitidan foydalanish usuli.

D. Barchasi to‘g‘ri.

3. Ijtimoiy kafolatlarni bajarishda:

A. Ish kuchi bozorida vujudga keladigan ziddiyatlarni yumshatish orqali tartibga solish lozim.

B. Mehnatga qobiliyatli barcha jamiyat a’zolarining ish bilan band bo‘lishiga ko‘maklashish lozim.

C. Keksalarning moddiy ta’minotga e’tibor qaratish lozim.

D. Barchasi to‘g‘ri.

4. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining ... jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi to‘g‘-risidagi ma’lumotlar mavjud.

A. Umumiyligi qismida.

B. Maxsus qismida.

C. Qo‘srimcha qismida.

D. Kirish qismida.

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyi yoki ish joyi o‘zgargan taqdirda yangi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i

A. Ochish talab etilmaydi.

B. Ochish talab etiladi.

C. Dublikat beriladi.

D. Dublikat berilmaydi.

6. Reyeestrning ma’lumotlari

A. Ipoteka bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

B. Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

C. Asaka bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

D. Kapital bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

7. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iningfuqarolar va uning pensiya jamg‘armasi mablag‘lari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar mavjud.

- A. Maxsus qismida.
- B. Umumiy qismida.
- C. Qo‘sishmcha qismida.
- D. Yakuniy qismida.

8. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish uchun fuqarolar tomonidan Xalq bankiga taqdim etiladigan ...asos hisoblanadi.

- A. Ariza.
- B. So‘rovnoma.
- C. Guvohnoma.
- D. Xabarnoma.

9. «Ish beruvchi qaytarilgan reyestrdagi xatolarni tuzatadi yoki tafovutlarni bartaraf etadi, ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq banki filialiga elektron manbalarda takrorantaqdim etadi.

- A. Uch kun muddatda.
- B. Ikki kun muddatda.
- C. O’n kun muddatda.
- D. Besh kun muddatda.

10. Agar hisobot oyidanish beruvchi reyestrga tuzatish kiritish choralarini ko‘rmasa, Xalq banki filiali bu haqda davlat

soliq xizmatining tegishli hududiy organini chora ko‘rish uchun xabardor qiladi.

- A. Keyingi oyning 25-kunigacha.
- B. Keyingi oyning 20-kunigacha.
- C. Keyingi oyning 15-kunigacha.
- D. Keyingi oyning 10-kunigacha.

V BOB JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTINI BOSHQARISH

5.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarish to‘g‘risida tushuncha

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi, milliy boylikning ko‘payishi, aholining munosib turmush va mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan qudratli, barqaror iqtisodiyotni barpo etish kabi buyuk vazifa turganligini, bunday iqtisodiyot «strategik maqsadimiz bo‘lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning asosi»¹⁰⁹ ekanligini e’tiborga olsak, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti boshqaruvidagi muammolar naqadar ko‘pligi va murakkabligi, mazkur pensiya ta’minotining boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarurligi ayon bo‘ladi.

O‘zbekistonda Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish hamda YuNIDAF 2010-2015-yillar dasturi bo‘yicha aholi turmush darajasini oshirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

–keksa kishilar, aholining kam ta’minlangan qatlamlari turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy himoya choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqaruvning markaziy va mahalliy organlari salohiyatini mustahkamlash;

–aholining nochor qatlamlarini ishga joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;

–pensiya ta’minoti sohasida maslahat-axborot xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish;

¹⁰⁹Karimov I. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\\\ Xalq so‘zi. 2013-yil. 19-yanvar.

–aholining asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mahalliy organlar bilan birgalikda infratuzilmalarni tuzish.

Tashkilot faoliyatini boshqarish amaliyotida xolis qonun-qoidalar, an'analar, odatlar, umumiylablar, mehnat taqsimoti, intizom, huquq, majburiyat, tartib, vakolat, mas'uliyat, faoliyat yo'naliشining bir xilligi, shaxsiy manfaatlarni umumiylab manfaatlarga bo'yundurish, xodimlarni rag'batlantirish, markazlashish va nomarkazlashish, adolat kabi «tamoyil»lar hal qiluvchi mexanizm hisoblanadi. Boshqarishning qonun-qoidalari, tamoyillari hamma uchun majburiy me'yor, odat, qoidadir. Bu tamoyillar mamlakatimizning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik bilan shakllantirib borishni, unga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tishni bildiradi. Boshqarishni tashkil etishdagi asosiy tamoyillar qanchalik ilmiy asoslangan bo'lsa, boshqarish istiqbolli, samarali va maqsadlarga erishish uchun ehtiyoj kuchayadi.

«Boshqarish» atamasi keng ma'no va mazmunga ega. Boshqarish orqali tashkilotdagi barcha resurslarga ta'sir ko'rsatiladi, faoliyat turlariga muvofiqlashtiruvchi, yechim va qarorlar qabul qiluvchi, tashkil etuvchi, rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi vazifalarni amalgalashiriladi. Shu bilan birga boshqarishning ilmiy asoslanganligi, to'g'ri belgilanganligi tashkilotning maqsadiga erishish uchun muhimdir. Jamiyatda ijtimoiy ta'minot, pensiya taminoti tizimi va unga xizmat qiluvchi maxsus muassasalarni boshqarish pensiyalarini to'lash mexanizmi hamda pensiya sohasidagi davlat siyosatini amalgalashirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy dastak va vositalarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilash sharoitida iqtisodiy munosabatlarning yangilanishi, pensiya ta'minoti institutsional o'zgarishlarning amalgalashirish jamiyatda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarish tizimining maqbul tarkibini yaratilishini talab etadi. Mamlakatda turmush farovonligini oshirish shaxsiy hisobvaraqqalab mablag'larini tushishini to'g'ri va samarali tashkil etish boshqaruv organlari tizimi faoliyati

bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining mablag‘lar to‘plash va xarajatlar qismini samarali tashkil etish amaliyotida boshqaruv subyektlari ishlarini optimallashtirish ana shu asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining boshqaruv organlari faoliyatining ahamiyatini ilmiy asoslash va mazkur sohani moliyalashtirishning samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini optimallashtirish mazkur sohani boshqaruv uslubini takomillashtirishni talab etiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, keksalar pensiya ta’minotini boshqarish va moliyalashtirish mexanizmning uchta turi ko‘p uchraydi¹¹⁰.

—Barcha mamlakatlarda keng tarqalgan joriy tushumlardan moliyalashtiriladigan davlat transfertlari.

—Ixtiyoriy va majburiy shaxsiy jamg‘armalar.

—Iqtisodiy inqiroz, inflyatsiya, jamg‘armalarni yo‘qotishga va qadrsizlanishga olib keladigan investitsion risklardan himoya qiladigan sug‘urta tizimlari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatda amal qilayotgan davlat pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Pensiya tizimi mablag‘larini samarali boshqarishning hozirgi holatini o‘rganish dolzarb vazifalar qatoriga kiritildi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda muhim vazifani bajaradi. Respublikamizda fuqarolarga davlat pensiyasini o‘z vaqtida to‘lash bilan birga jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tartibini nazorat qilish va hisobvaraqdagi mablag‘larni samarali boshqarishni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim masalalardan hisoblanadi.

¹¹⁰Kasimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. 21-b.

Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya ta'minotini yanada rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Respublikamizda «Keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga, muhtaram faxriylarimiz hayotiga daxldor muammolarni hal etishga alohida ahamiyat qaratiladi»¹¹¹.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishda mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan pensiya tizimi yangidan tashkil qilindi. Har bir fuqaro keksayganda yashash manbayini yo'qotmasdan o'zining yillar davomida mehnati tufayli yaratgan moddiy ne'matlar, xizmatlari uchun moddiy jihatdan taqdirlanadi. Har bir ishlovchi o'zining turli darajadagi ijtimoiy foydali mehnati jarayonida yaratgan qiymatini davlat tomonidan belgilangan miqdorda pensiya jamg'armalariga o'tkazib turadi. Natijada pensiya yoshiga kirgan har bir fuqaro keksayganida belgilangan pensiya miqdorini oladi va tinch, osoyishta, farovon hayot kechiradi. Shuning uchun aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy- me'yoriy hujjatlarini takomillashirish va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarishning hozirgi holatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

5.2. Boshqarish subyektlari, ularning guruhanishi va asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq banki va Davlat soliq qo'mitasi bilan birligida fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish, nazorat qilish imkonini beradigan ma'lumotlar elektron bazasini

¹¹¹Karimov I. "2015-yil iqtisidiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo'l oshib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. »Xalq so'zi. 2015-yil. 18-yanvar.

shakllantirish uchun dasturiy ta'minlashni ishlab chiqish chora-tadbirlarini ko'radi. 2005-yil 1-iyulgacha bo'lgan muddatda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining barcha darajalarida ma'lumotlar ayriboshlanishi va ularning ishonchli himoya qilinishi imkoniyatini nazarda tutuvchi yagona ma'lumotlar elektron bazasining moddiy-texnik asosini shakllantirish va uning dasturiy ta'minlash tugallandi.

Xalq banki, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Markaziy bankka kompyuter texnikasi sotib olish, yagona ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish axborot tizimining puxta ishlashini ta'minlovchi elektron dasturiy vositalarni ishlab chiqish, zarur miqdorda jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalarini, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnomalar blankalarini va jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olish bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish shakllarini tayyorlash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj to'g'risida asoslangan takliflarni taqdim etdi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Markaziy bank bilan birgalikda xarajatlarni moliyalashtirish manbalari va hajmlari aniqladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Xalq banki korxonalar, tashkilotlar va muassasalarining xodimlari uchun metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar ishlab chiqdilar. Joylarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining faoliyat ko'rsatishi masalalari yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlari va buxgalterlari bilan seminarlar o'tkazilishini tashkil qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari joylarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish bo'yicha zarur tashkiliy ishlarni amalga oshirdi. Respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga

jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktabrdagi 88-sonli va 282-v sonli qarorlari bilan «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali boshqarish maqsadida, jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo‘yicha Muvofiglashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiglashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

– muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish obyektlarini belgilash;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining har bir joylashtirish obyektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish va investitsiya qilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraq‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish obyektlarini xatarlilik bo‘yicha guruhlarga ajratish.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga shaxsiy tartib raqami berish pasport tizimiga muvofiq aniqlanadigan fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) asosida amalgamoshiriladi. Ichki ishlar organlari, tumanlar va shaharlar hokimliklari jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish uchun fuqarolarning identifikatsiya raqamlarini (shaxsiy kodini) aniqlashda va Xalq bankida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga zarur yordam ko‘rsatdilar.

“Ijtimoiy risklar uchun javobgar shaxsni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Tashkilotning bosh rahbarlari xarajatlardan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan risklarni yumshatishga javob beradi. U risklar egasi sifatida risklarni boshqarish tizimini barpo etishi lozim. Risklarni boshqarish og‘ir vaziyatlarning oldini olish yoki yaxshi vaziyatlar o‘rinli bo‘lishi mumkinligini kafolatlay olmaslik bilan bog‘liq. Ijtimoiy risk muammolarini hal qilishda ijtimoiy riskning mumkinligi va unga yo‘l qo‘yilishi, maqbulligini kishilarning qabul qilishi va baholashi ijtimoiy mexanizmlarini hisobga olishi muhimdir. Bunday baholash insonning u yoki bu risk vaziyatini boshqarish uchun mas’ul bo‘lgan institutlar va tashkilotlarga ishonch darajasiga bog‘liq, deb hisoblanadi. Risk vaziyatiga moslashish omillari aholi turli guruhlarida turlicha. Asosiy risklarni to‘g‘ri boshqarish tashkilotning maqsadga erishishini ta‘minlaydi. Aksincha, risklarni noto‘g‘ri boshqarish natijasida jamg‘arma yoki tashkilot inqirozga yuz tutishi mumkin”¹¹².

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini investitsiyalashning asosiy maqsadi - risklarni e‘tiborga olgan holda daromad tushishini ta‘minlaydigan portfel shakllantirishdir¹¹³. Moliya bozorida investitsiyalar riskliligi bo‘yicha uch turga bo‘linadi:

¹¹²Kasimova G.A. Pensiya ta‘minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. // Moliya. - Toshkent. 2013. №3. 108-b.

¹¹³Barton Waring, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover. 2011. 978-1-118-10636-5. – P.33.

- shartli risksiz aktivlar- depozitlar, davlat qimmatli qog‘ozlari va davlat kafolati berilgan kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlari;
- riskli aktivlar - reytingdan o‘tgan likvidli, korporativ zayomlar;
- yuqori riskli aktivlar - korporativ zayomlar va aksiyalardan iborat boshqa vositalar.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini investitsiyalashda quyidagi asosiy cheklolvar mavjud:

- aktivlar bo‘yicha (Pensiya portfelida ayrim aktivlarni cheklash);
- risklar bo‘yicha (qimmatli qog‘ozlarga qabul qilish mumkin bo‘lgan minimal risklar belgilanadi);
- mulk konsentratsiyasi bo‘yicha (portfel paketida aniq kompaniyalar aktivlarining umumiy hajmini cheklash).
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha (qimmatli qog‘ozlarning ayrim turlarini cheklash);
- emitentlar bo‘yicha (portfelda ayrim kompaniyalarning aktivlari ulushini cheklash).

Bundan tashqari ko‘pgina mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar riskini aniqlashda qimmatli qog‘ozlar reytingidan foydalaniadi. O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini rivojlantirishning hozirgi holati bo‘yicha tahlil ma’lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, boshqa MDH mamlakatlari singari pensiya jamg‘armasi mablag‘larini investitsiyalashda maqbul darajadagi risk darajasini aniqlashda belgilangan (kam daromadli, doimiy) daromadlarni olish instrumentidan foydalaniadi.

Jahon amaliyotida, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimi va pensiya jamg‘armalari davlat nazoratida bo‘ladi. Barcha mamlakatlar amaliyotida pensiya tizimi mablag‘larining katta qismini investitsiyalarga yo‘naltirishda davlat qarzi instrumentlaridan foydalaniadi. Asosiy qismi (75%) davlat qarz majburiyatlariga investitsiya qilinadi. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini qayta tashkil qilish zarur. Hozirgi kunda davlat qimmatli qog‘ozlar bozorida asosan Markaziy bankning obligatsiyalari amal qiladi. Bu holat pensiya jamg‘armasini me’yor darajasida faoliyat

ko'rsatishi va investitsiya zaxiralari uchun yetarli emas. Davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli rivojlanmaganligi va instrumentlarning yetishmasligi O'zbekistonda tartibga soluvchi organlar tomonidan pensiya zaxiralari uchun limitlar belgilashni qattiq talab qiladi.

Kelgusida Xalq banki tomonidan investitsiyalash instrumentlar ro'yxatini kengaytirish mumkin. Jumladan, davlat kafolati ostidagi obligatsiyalarga yoki byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi kafolati ostida chiqarilgan obligatsiyalarga, shuningdek, davlat tomonidan nazorat qilinadigan va milliy infrastruktura loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etadigan kompaniyalarning obligatsiyalariga mablag'larni yo'naltirish mumkin.

Xalq banki tomonidan investitsiyalash instrumentlari soni chegaralangan bo'lishiga qaramasdan bank pensiya jamg'armalarining daromadlilik darajasini inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi uchun harakat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining agenti sifatida o'zining investitsion funksiyalaridan foydalaniishi mumkin. Bank aktivlarini boshqarishda yutuqlarga erishish, investitsiyalarni boshqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun ishonchli, standart va egiluvchan huquqiy asos, shuningdek, manfaatdor tomonlarning oshkora hisoboti zarur.

5.3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining boshqaruva organlari, ularning vakolatlari, huquq va majburiyatlar

Fuqaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlарини олиш huquqini tasdiqlovchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi fuqaroga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochilganidan keyin Xalq banki tomonidan beriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasida hisobga olingan sana, fuqaroning shaxsiga oid ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining tartib raqami, shuningdek,

boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi yo'qotib qo'yilgan (yo'qolgan) taqdirda uning dublikati shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining o'sha tartib raqami qo'yilgan holda beriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish;
- jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini berish.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga doir hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga taalluqli ma'lumotlar Xalq bankining yagona ma'lumotlar elektron bazasida shakllantiriladi va saqlanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Xalq banki shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larga pul qadrsizlanishiga nisbatan yuqori sur'atlardagi stavkalar bo'yicha foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblab qo'shadi.


Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi organlari, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining qo'shimcha qismida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kiritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumotlarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i tuzilmasida joylashtirish uchun alohida joy ajratiladi. Shaxsiy jamg'arib

boriladigan pensiya hisobvarag‘ining doimiy shaxsiy tartib raqami Xalq banki filiali tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o‘xhashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi to‘g‘risida" 200-sondosh qarorida nazarda tutilgan tartibda belgilanadigan fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) asosida beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-dekabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq 1996-yil 31-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o‘xhashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi 200-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o‘xhashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi tasdiqlandi.

Tuzilma kodi



5.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o‘xhashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi¹¹⁴

¹¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o‘xhashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi 200-sonli qarori. 1996-yil. 31-may.

Shaxs o'xshashligi raqami mashinada hisoblanadigan hujjatlar uchun **ISAO** xalqaro standarti talablariga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pasportlarida va boshqa hujjatlarda foydalanish uchun zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o'xshashligi raqami (shaxsiy kodi) - quyidagi tartibda joylashgan o'n to'rtta o'n raqamidan iborat bo'ladi:

2.1. guruh: Jinsi va tug'ilgan asri indeksi

1 - 1800.1.01. - 1899.31.12 da tug'ilgan erkaklar;

2 - 1800.1.01. - 1899.31.12 da tug'ilgan ayollar;

3 - 1900.1.01. - 1999.31.12 da tug'ilgan erkaklar;

4 - 1900.1.01. - 1999.31.12 da tug'ilgan ayollar;

5 - 2000.1.01. - 2099.31.12 da tug'ilgan erkaklar;

6 - 2000.1.01. - 2099.31.12 da tug'ilgan ayollar.

2.2. guruh: Formatdagi tug'ilgan sana: YYOOKK (kun, oy, yil).

2.3. guruh: Tuman, shahar kodi.

2.4. guruh: Ushbu kunda tug'ilgan va ushbu tumanda, shaharda pasport olgan fuqaroning tartib raqami.

Tartib raqami pasportlarni olish navbatiga muvofiq hisoblagich bo'yicha hosil bo'ladi.

2.5. guruh: Kontrol raqami.

Kontrol raqami (14-pozitsiya) 10 moduli bo'yicha doimiy ravishda takrorlanuvchi 731 731... salmoq funksiyasi bilan quyidagi tarzda hisoblanadi. Raqamli ma'lumotlarning tegishli elementi raqami tegishli mutazam pozitsiyada turgan salmoq ko'rsatkichiga chapdan o'nga ko'paytiriladi.

Har bir ko'paytirish natijalari jamlanadi.

Hosil bo'lgan yig'indi 10 (modul)ga bo'linadi.

Bo'lishda qolgan qoldiq kontrol raqami hisoblanadi.

Kodning haqiqiyligi tekshiriladi.

1-misol.

1963-yil 12-oktabrda tug'ilgan, 024 tartib raqami berilgan erkak uchun hisoblangan kontrol raqami.

3 12 10 63 204 024
7 31 73 17 317 317

21 32 70 621 6028 0228

Hosil bo‘lgan raqamlar jamlanadi:

$$21+3+2+7+0+6+21+6+0+28+0+2+28=124$$

Natija 10 ga bo‘linadi: $124/10=12$ (qoldiq - 4), shunday qilib kontrol raqami 4 ga teng, fuqaroning kodi esa:

3 121063 204 024 4

2-misol.

1940-yil 2-yanvarda tug‘ilgan, 001 tartib raqami berilgan ayol uchun hisoblanigan kontrol raqami.

4 02 01 40 205 001
7 31 73 17 317 317

28 02 03 40 6035 007

Hosil bo‘lgan raqamlar jamlanadi:

$$28+0+2+0+3+4+0+6+0+35+0+0+7+=85$$

Natija 10 ga bo‘linadi: $85/10=8$ (qoldiq - 5), shunday qilib kontrol raqami 5 ga teng, fuqaroning kodi esa:

4 020140 205 001 5

Raqamli ma’lumotlarning tegishli elementi raqami tegishli muntaзам pozitsiyada turgan salmoq ko‘rsatkichiga chapdan o‘nga ko‘paytiriladi. Har bir ko‘paytirish natijalari jamlanadi. Hosil bo‘lgan yig‘indi 10 (modul)ga bo‘linadi. Bo‘lishda qolgan qoldiq kontrol raqami hisoblanadi. Kodning haqiqiyligi tekshiriladi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining doimiy shaxsiy tartib raqami o‘n to‘rtta o‘nlik raqamlardan (0 dan 9 gacha) iborat bo‘ladi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining bitta doimiy shaxsiy tartib raqami faqat bitta shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga berilishi mumkin va yagona hisoblanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining doimiy shaxsiy tartib raqamini berish Xalq banki tomonidan

fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Xalq banki filialiga tushgan so‘rovnoma va ariza-so‘rovnoma ma‘lumotlari asosida jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish paytida Xalq banki filiali xodimi tomonidan ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son Farmonini bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, ish beruvchi quyidagilarga majburdir¹¹⁵:

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni belgilangan muddatda Xalq bankiga taqdim etish;

–Xalq banki filialidan tegishli xabarnoma tushgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida xodimlarning rasmiylashtirilgan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini olish va ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilishini ta‘minlash;

–hisoblangan badallarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘tkazish;

–xodimning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazilgan badallar summasi to‘g‘risida Xalq bankiga taqdim etilgan ma‘lumotlar nusxalarini xodimning talabiga ko‘ra bepul berish;

¹¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli qarori. «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom. 2004-yil. 21-dekabr.

-xodimga berilgan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi rekvizitlarining xodimning shaxsini tasdiqlaydigan hujjat rekvizitlariga muvofiqligini nazorat qilish.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i - fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag‘i bo‘lib, badal kirituvchilarining jamg‘arib boriladigan pensiya badallari va ulardan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘lanadigan shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab qo‘shilgan foizlar ana shu hisobvarag‘iga kelib tushadi va unda hisobga olinadi¹¹⁶.

Xalq bankining filiali yozma tarzda rasmiylashtirilgan so‘rvonoma olingen kundan boshlab uch ish kuni mobaynida fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochadi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtiradi. Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali olingen elektron shaklda rasmiylashtirilgan so‘rvonomani olish bilan bir paytda fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobvaraq ochadi, shuningdek, bir kun muddatda - jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylash-tiradi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish hamda jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtirish va yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat sektoridagi risklarni boshqarish sohasi davlat ijtimoiy xizmatlarini taqdim etish va ularni ko‘zda tutilgan darajada ushlab turishga ta’sir qiluvchi tahdidlar va ehtimollarni o‘z ichiga qamrab oladi. Risklarni boshqarish davlat boshqaruvi sektori uchun umumiy ko‘lamda bo‘lgan davlat xizmatlarini taqdim etish yo‘li bilan ijtimoiy

¹¹⁶O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida"gi 250-sonli qarori. 2015-yil. 29-avgust.

chtiyojlarni qondirishda jamg‘arma yoki byudjet tashkilotining vazifasini aniqlashtirishdan boshlanadi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyalanmaganlik darajasini baholashda «ijtimoiy xavf-xatar» tushunchasidan foydalilanadi. «Ijtimoiy xavf-xatar»ning ehtimollik darjasи pensiya tizimining mazmuni va chegaralarini belgilaydi. Pensiya tizimining pirovard vazifasi - inson chtiyojini hamda uning keksalik chog‘ida himoyalanishga bo‘lgan talabini qondirishdir.

Biznes Oksford slovarida «risk – xavf-xatar, yo‘qotish yoki zarar ko‘rish» degan tushunchani bildiradi. V.V.Shaxov tomonidan «risk»ka «xavf», «zarar» yoki «talofat ko‘rish ehtimoli» deb qaraladi. Riskni moliyaviy operatsiyalardan yomon holatlarning kelib chiqish ehtimolligi, deb ta’kidlashadi. Risk – biror bir voqeа yuz berishi va uning mazkur tashkilot maqsadiga erishishga salbiy ta’sir qilishi ehtimoli bilan xarakterlanadi. Operatsion risklar: ijroiyl (davlat xizmatlarini taqdim etish jarayoni bilan bog‘liq); moliyaviy (tashkilotlar faoliyatining byudjet mablag‘lari bilan ta’minlanganligiga bog‘liq); loyihibiy (loyihani amalga oshirish muddatları va rejalashtirilgan sarf-xarajatlar miqdoriga rioya qilinishi bilan bog‘liq); ijtimoiy (davlat va xususiy pensiya tizimining sifati bilan bog‘liq); texnologik (davlat xizmatlarini taqdim etishda yangi texnologiyalar qo‘llanilishi bilan bog‘liq).

Ijtimoiy sohani o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarida ijtimoiy himoyaning turli shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi “ijtimoiy risk” tushunchasini e’tirof etish bilan belgilanadi. Ijtimoiy xatar ommaviy bo‘ladi hamda ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi, shuningdek, alohida fuqarolarga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy xarakter kasb etadi.

Ijtimoiy risk – ijtimoiy omillar va oqibatlarni hisobga olish va tartibga solishdir. Ijtimoiy risklar kishilar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diradi. Ekologik, texnologik, xususiy mablag‘larni yo‘qotish, iqtisodiy halokatlar va buzilishlarni ana shunday ijtimoiy risk qatoriga kiritish mumkin. Bular inson faoliyatining turli sohalarida yuz beradi. “Ijtimoiy sug‘urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy

himoyalash hisoblanadi, ya’ni ishdan bo’shash, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo‘qotish kabi mablag‘lar yuzasidan xavf-xatarlar yig‘indisi hisoblanadi. Mehnatga layoqatsizlikni va daromadni yo‘qotishga olib keladigan risk quyidagilardan iborat:

- qarilik;
- boquvchisini yo‘qotish;
- kasallik;
- ishlab chiqarishdagi jarohat;
- kasbiy kasallik;
- baxtsiz hodisa;
- ishsizlik;
- ishlab topilgan va jamg‘arilgan mablag‘;
- onalik va bolalik.

“Ijtimoiy sug‘urta – davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish mexanizmidir. Bu ijtimoiy siyosatni moliyaviy jihatdan amalga oshirish hamda sug‘urtaviy jamlanib boradigan moliyaviy aktivlarni qayta taqsimlash jarayoni hisoblanadi”¹¹⁷. Ijtimoiy tartibga solish tamoyili jamiyatni rivojlantirishning asosiy ijtimoiy mo‘ljallarini belgilash, sug‘urtalash tamoyili esa oldinga qo‘yilgan ijtimoiy maqsadlarni moliyaviy ta’minalash mexanizmini yaratishga asoslangan. Rivojlangan jamiyat sharoitida sug‘urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va ijtimoiy manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi.

Iqtisodchi D.R. Vaxabov o‘zining ilmiy ishida ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy risklar masalasiga to‘xtaladi, uning fikricha ijtimoiy sug‘urta ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash bo‘yicha munosabatlar tizimi bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobiga maxsus sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va muayyan ijtimoiy risklarga uchrash oqibatida yo‘qotilgan daromadlarini qoplash uchun foydalanishdan iborat. Iqtisodchi D.R. Vaxabovning fikriga ko‘ra “Pensiya jamg‘armasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug‘urta badallari,

¹¹⁷ Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Iqtisodiyot. 2013. 340-b.

davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va ma'lum bir ijtimoiy risklarga muvofiq sug'urtalangan aholi qatlamlariga sug'urta to'lovlari amalga oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armasiga pensiya jamg'armasi deviladi"¹¹⁸. Ijtimoiy riskning muhim tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- jamiyatda aholi farovonligi darajasini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish,
- fuqarolar mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash;
- aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash;
- bolalar, onalar, keksa kishilar, yetimlar, nogironlar, qochoqlar, ishsizlar va ularning manfaatlarini himoyalash.

Risk vaziyati bilan bog'liq qaror qabul qilish jarayonining tahlili va shunday vaziyat ustidan nazorat markaziy o'rinni egallaydi. Risk vaziyatini baholash va boshqarishga quyidagilar ta'sir etadi: siyosiy sabablar, manfaatlar, qadriyatlar, a'zolari tegishli qaror qabul qiladigan u yoki bu guruhning ijtimoiy mavqeyi (jamg'armalar, risk ekspertlari, maxsus davlat xizmati organlari va byudjet tashkilotlari).

Iqtisodchilaridan Q.X.Abduraxmonov «Mehnat iqtisodiyoti» darsligida kishilarning ijtimoiy himoyalanmaganlik darajasini baholashda «ijtimoiy xatar» tushunchasidan foydalandi. «Ijtimoiy xatar»ning ehtimollik darajasi vujudga keladigan zararni qoplash, pensiya tizimining mazmuni va chegaralarini belgilaydi. Ish haqi jamiyatning ko'pchilik a'zolari uchun asosiy tirikchilik manbayiga aylanishi bilan ijtimoiy himoyasizlikning alohida turi, ya'ni ish haqidan maxrum bo'lish tufayli moddiy ta'minlanmaganlik riski vujudga keladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha risklar paydo bo'lishi mumkin.

¹¹⁸Vaxabov D.R. Ijtimoiy sug'urtaning fundamental asoslari, nazariyalari va ijtimoiy risklar xususida ba'zi mulohazalar // Iqtisodiyot va ta'lif. – Toshkent. 2012. № 6. 16-b.

Moliyaviy operatsiyalardagi risklarda operatsiyalarning to‘xtatilishi shiga yoki buzilishiga olib boradigan risklar tushuniladi. Shuningdek, operatsion risklarga xodimning hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishda xato qilish riskini kiritish mumkin. Operatsion risklarning yirik guruhiga texnologik risklar kiradi. Texnologik operatsiyalarga kompyuter tizimining buzilishi, saqlash joylari, shkaflarning ishdan chiqishi va elektron tizimning buzilishi, kompyuter ma’lumotlarini o‘zgarishi (xavfsizligi) natijasida elektron va qog‘ozdagи hujjatlarning yo‘qolishi kiradi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari va Xalq banki xodimlari zimmasiga ham fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida pensiya olishlarini tashkil etilishida muayyan vazifalar yuklatilgan. Xususan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘arsining tuman (shahar) bo‘limlari fuqaroda davlat pensiyasi olish huquqi paydo bo‘lgan vaqtidan boshlab jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini tasarruf qilish huquqini rasmiylashtirishni tashkil qiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish, ularning iqtisodiyotga investitsiya qilinishi va foyda olinishi ta’minlanishi, tizimda mavjud mablag‘lardan to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanilishini tashkil qilish, nazorat olib borish O‘zbekistan Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan amalgaloshiriladi.

Jamg‘ariladigan pensiya tizimida ko‘p sonli risklar mavjud. Tizim ishtirokchilari uning muvaffaqiyatsizligi uchun to‘liq javobgarlikni zimmalariga oladilar. Davlat faqatgina ularga minimal pensiya miqdorini ta’minlashi mumkin. Jamg‘ariladigan pensiya tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy omillarga bog‘liq. Iqtisodiy konyunkturaning yomonlashishi natijasida jamg‘armalarning likvidligi va daromadliligi keskin pasayishi mumkin. Fuqaroda jamg‘armalarни yo‘qotish va mablag‘larning investitsion daromadlilagini pasayish xavfi doim mavjud.

5.4. O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimining jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarishdagi o‘rni, ahamiyati, funksiyalari va vazifalari

Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituv-chilardan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish va ularni yuritish uchun zarur ma’lumotlarni oladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari hamda fuqarolarning shaxsiga oid ma’lumotlar bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar (mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagি ma’lumotlar hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma’lumotlar o‘zgarganligi) to‘g‘risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o‘z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

Jismoniy shaxs - ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnoma tuzgan shaxsdir. Ish beruvchi¹¹⁹ - jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnoma tuzgan va qonun hujjatlariiga muvofiq sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik shaxs.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarish uchun Xalq banki o‘zining tashkiliy tuzilmasiga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritdi, Xalq bankining markaziy apparatida Xalq bankining hududiy, tuman (shahar) filiallarida jamg‘arib boriladigan

¹¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligining 2015-yil 5-iyundagi 2015-20, 50-sonli qaroriga ilova. Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestriنى shakllantirish va yuritish to‘g‘risidagi Nizom.

(Xalq banki filiali)

(korxonaning burchakli shtampi)

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan xodimlarning
200 ___ yil " ___ " _____ dagi ___ -son

REESTRI

T/r	Xodimning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i	Xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi	Daromad solig'i to'lanadigan daromad miqdori (so'm)	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan majburiy badal miqdori (so'm)	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan ixtiyoriy badal miqdori (so'm)	O'tkazilgan badal summasi, so'm (5-ustun+6-ustun)
1	2	3	4	5	6	7
Hammasi:						

200 ___ yil _____ da jamg'arib boriladigan pensiya tizimida xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar miqdori _____ so'mni tashkil etdi.
(summa yozuv bilan)

Ko'rsatib o'tilgan summa 200 ___ yil " ___ " _____ dagi ___ -son to'lov topshirig'iga (ilova qilinadi) muvofiq Xalq banki

(Xalq banki filialining nomi)

filiali _____ hisobvarag'iga o'tkazildi.

(Xalq banki filialining hisobvarag'i)

Korxona rabbari _____

(imzo) (F.I.O.)

Bosh buxgalter _____

(imzo) (F.I.O.)

M.O'.

Qonun hujjatlariga muvofiq Xalq banki boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni shaxsiy hisobga olish ma’lumotlari Xalq banki tomonidan "Bank siri to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilishi mumkin. Ko‘rsatilgan ma’lumotlardan foydalanish noqonuniy cheklanishida yoki axborot himoyasi rejimi buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar. Nizomda nazarda tutilgan ishonchli va to‘liq hajmdagi ma’lumotlar taqdim etilishidan bosh tortgan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilari belgilangan tartibda javob beradilar.

Shaxsiy hisobga olishni yuritish uchun qonun hujjatlariga va idoraviy normativ hujjatlarga muvofiq kiritiladigan boshqa ma’lumotlardan ham foydalanish mumkin. Har bir ish beruvchi hisobot oyidan keyingi oyining 15-kunigacha har oyda mazkur Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etayotgan xodimlar reyestrini jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasi formatida elektron hujjat sifatida shakllantirishi ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq banki filialiga elektron manbalarda taqdim etishi yoki uni Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" yoxud Internet tarmog‘ining reyestrni yuborish imkonini beruvchi boshqa saytlari orqali bevosita jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasiga yuborishi shart.

Xalq banki ish beruvchi tomonidan reyestr taqdim etilgandan keyin elektron to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan summalarni va reyestrda ko‘rsatilgan badallarning yakuniy summasini solishtiradi hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasi orqali fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkazadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etayotgan fuqarolardan tushgan shaxsiy hisobga olish ma’lumotlari tegishli murojaat Xalq banki filialiga tushgan kunda tekshiriladi va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkaziladi.

Tashkilot nomi
Xalq banki filiali

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan xodimlarning
REESTRI

2015-yil oktabr oyi uchun

T/r	Shaxsiy jamg'arib boradigan pensiya hisob varagi	Xodimning F.I.O.	Daromad soliq'i	Sh.JBP hisob varagi	Sh.JBP hisob varagi o'tkaziladigan ixtiyor hadal miqdori	O'tkaziladigan badal summasi (5+6 ustun)
			to 'landigan daromad miqdori	4	5	6
1	2	3				
1.	40904800410402	Adilova Gayxar Razzokovna	880800,00	8808,00		8808,00
2.	42012840070019	Raximjonova Dilafuz Melisovna	152900,00	1529,00		1529,00
3.	42102750250086	Norbekova Iroda Normuratovna	595400,00	5954,00		5954,00
4.	43006820360019	Axmchedova Gulchexra Xoldorovna	595300,00	5953,00		5953,00
5.	40506752600098	Abdurazimova Sevara Gulomovna	400700,00	4007,00		4007,00
6.	40501853920032	Abilova Moxira Mirzaevna	595400,00	5954,00		5954,00
7.	41101950250020	Rizaeva Malika Maximud kizi	595400,00	5954,00		5954,00
8.	40612741610022	Eralieva Zoxidha Shermatovna	585100,00	5851,00		5851,00
9.	42703700560035	Diumashova Gulbahor Tuzelovna	697500,00	6975,00		6975,00
10.	42503950250016	Rustambekova Ziliola Murod qizi	397700,00	3977,00		3977,00
11.	41310860270026	Mirzaeva Dilnoza Alisherovna	962400,00	9624,00		9624,00
12.	40408670360013	Xailillova Turg'uniyo	407800,00	4078,00		4078,00
13..	42206750520043	Nozimova Fotima Hamidjonovna	402700,00	4027,00		4027,00
14.	40203690210021	Abdukodirov Guinzoa Nuritdinovna	402700,00	4027,00		4027,00

15.	32412860070027	Istqandarov Aziz Muxtarovich	332200,00	33220,0	3322,0
16.	42308900251581	Seliverstova Emiliya Georgievna	309200,00	3092,0	3092,0
17.	42410750790021	Rajapova Shoira Baxtiyorovna	236500,00	2365,00	2365,00
18.	43007901220051	Mirzajonova Shahnoza Yakubjon qizi	453500,00	4535,00	4535,00
19.	41702874160050	Bozonova Gulaihan Xabibullaevna	153700,00	1537,00	1537,00
20.	32206620190056	Nartayev Islambek Shaxuaevich	86200,00	862,00	862,00
21.	31101560270099	Dadashev Rustam Salievich	230800,00	2308,00	2308,00
22.	41312784280055	Chemberdieva Niliufar To'ychiboy qizi	364900,00	3649,00	3649,00
23.	30706900201303	Xalilov Baxodir Abduqodir o'g'li	219400,00	2194,00	2194,00
24.	31204924170096	Pulatov Azimjon Komilon o'g'li	219400,00	2194,00	2194,00
25.	40107842280135	Chamananova Sabohat Jalilovna	272100,00	2721,00	2721,00
26.	40609852600013	Jalilova Lohar Baxadirovna	309200,00	3092,00	3092,00
27.	41908873920034	Xonova Viloyat Xasanovna	289700,00	2897,00	2897,00
28.	421049608330076	Istqandarov Yurzida Shodmon qizi	353400,00	3534,00	3534,00
29.	41608710250019	Azimova Shohista Abdullaevna	145600,00	1456,00	1456,00
30.	40711956530010	Tursunova Saodatxon Hikmatullo qizi	309100,00	3091,00	3091,00
31.	42604940250051	Qo'zhoeva Umida Shomurod qizi	309100,00	3091,00	3091,00
32.	40106750770012	Ergasheva Diyora Razzaqovna	167500,00	1675,00	1675,00
33.	43107940210151	Nomurodova Zilola Baxtiyor qizi	203800,00	2038,00	2038,00
34.	4203966520032	Sharipova Malika Abdullaevi kizi	311800,00	3118,00	3118,00
35.	43008872710015	Turdialieva Mayluda	237800,00	2378,00	2378,00
jami			13186700,00	131867,00	131867,00

Ish beruvchi qaytarilgan reyestrdagi xatolarni tuzatadi yoki tafovutlarni bartaraf etadi hamda uch kun muddatda ish beruvchi soliq ro'yxatiga olingan joydagi Xalq banki filialiga elektron manbalarda takroran taqdim etadi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" yoxud Internet tarmog'ining reyestrni yuborish imkonini beruvchi boshqa saytlari orqali yuboradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi vafot etgan taqdirda ish beruvchi yoki oluvchining merosxo'rlari belgilangan tartibda fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari organi tomonidan berilgan oluvchining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida Xalq banki tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha ma'lumotlarni Xalq banki filialiga taqdim etadi.

Shaxsiy hisobga olish hujjatlari rahbarning imzosi va muhr (mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan yozma shaklda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda yuboriladi. Elektron shaklda yuborilgan hujjatlar elektron raqamli imzo mavjud bo'lgan taqdirda yuridik kuchga ega bo'ladi.

Shaxsiy hisobga olish hujjatlarini saqlash muddati tamom bo'lgandan keyin ularni yo'q qilish jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma'lumotlar elektron bazasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishgandan (kompyuterdan chiqarilgan shaklda taqdim etiladi) va unga tanishish sanasidagi holat bo'yicha shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idan ko'chirma topshirilgandan keyin amalga oshiriladi.

Ish beruvchilar, shuningdek, ixtiyoriy asosdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasida belgilangan moliyaviy hisobot hujjatlarini saqlash qoidalariga muvofiq saqlanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari

ochadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga o‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining holati va undagi mablag‘lar harakati to‘g‘risida yozuvlar kiritish uchun Xalq banki filialiga istalgan vaqtida murojaat qilish huquqiga ega. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishga oid barcha masalalar bo‘yicha Xalq bankining yaqin joydagи filialiga murojaat qilish mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining birinchi betidagi yozuvlar xalq banki filialining yumaloq muhri bilan tasdiqlanadi. Birinchi betning namunasi ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan.

	shakl
Nº _____	
(shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining tartib raqami)	
Familiyasi _____	
Ismi _____	
Otasining ismi _____	
Tug‘ilgan sanasi _____ (yil, kun, oy)	
Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olingan sana _____ (yil, kun, oy)	
Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi _____ da (yil, kun, oy)	
Xalq bankining _____ (filial nomi)	
filiali tomonidan berildi.	
M.O‘.	
(Xalq banki filiali mansabдор shaxsining imzosi)	
AA № 000000	

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi yo‘qolganda (yo‘qotib qo‘yilganda, yaroqsiz bo‘lib qolganda) jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsiy arizasi asosida, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining aynan o‘sha doimiy shaxsiy tartib raqami bilan uning dublikati beriladi". Muqovaning to‘rtinchi betida yozuvlar bo‘lmaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining birinchi betida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- a) jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i doimiy shaxsiy tartib raqami;
- b) oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi;
- v) oluvchining "yil - kun - oy" shakli bo‘yicha tug‘ilgan sanasi;
- g) jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida "yil - kun - oy" shakli bo‘yicha hisobga olish sanasi;
- d) "yil - kun - oy" shakli bo‘yicha Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi berilgan sana;
- e) Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini bergen Xalq banki filialining nomi;
- j) Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini bergen Xalq banki filiali xodimining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda shaxsiy imzosi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining ikkinchi va keyingi betlarida quyidagi yozuvlar bo‘ladi. Har qaysi betning yuqorigi qismida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i doimiy shaxsiy nomeri ko‘rsatiladi. Har qaysi sahifa quyidagi mazmundagi jadval shaklida 6 ta ustunga bo‘lingan bo‘ladi. Har qaysi betning pastki qismida Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining seriyasi va tartib raqami ko‘rsatiladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olingan har qaysi fuqaro uchun, fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur hujjatlar olingan va Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Xalq banki filiali tomonidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingandan keyin uch ish kuni mobaynida, Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingan paytdan boshlab bir kun muddatda rasmiylashtiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini oluvchiga berishdan oldin Xalq banki filiali tomonidan uning birinchi beti to‘liq to‘ldiriladi va unda Nizomga muvofiq yozuvlar qayd etiladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi jamg‘arib boriladigan pensiyani oluvchiga quyidagi tartibda beriladi:

a) jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchilar sifatida hisobga olingan fuqarolarga Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi Xalq bankining tegishli filialida rasmiylashtirilgan Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini ishonchnoma bo‘yicha oladigan ish beruvchi tomonidan beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi ish beruvchiga Berish dalolatnomasi asosida beriladi.

Nizomga
2-ILQVA

-son

**shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya
hisobvarag‘idagi jamg‘armalar to‘g‘risidagi**

shakl

-500

**shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya
hisobvarag‘idagi jamg‘armalar to‘g‘risidagi**

AA № 000000

Berish dalolatnomasiga Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini berish vedomosti ikki nusxada ilova qilinadi, unda tartib raqami, xodimlarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari doimiy shaxsiy tartib raqami, ularning fami liyasi, ismi, otasining ismi hamda Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini olganlik to‘g‘risidagi imzo uchun joy ko‘rsatilgan bo‘ladi. Ish beruvchi Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olingan xodimlarga Vedomostga imzo qo‘ydirgan holda uch ish kuni mobaynida beradi. To‘ldirilgan Vedomostlar ish beruvchining mansabdar shaxsi tomonidan imzolanadi va ularning bir nusxasi Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini bergen Xalq banki filialiga yuboriladi, ikkinchi nusxasi ish beruvchida qoladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini ayrim xodimlarga ularning uzoq vaqt joyida bo‘limganligi sababli berish mumkin bo‘limgan taqdirda ish beruvchi Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini ularni berish vaqtigacha o‘zida saqlaydi, Vedomostda esa ish beruvchining mansabdar shaxsi imzosi bilan tasdiqlanadigan tegishli yozuv qayd etiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchilar sifatida hisobga olingan fuqarolarga Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari Xalq banki filiali tomonidan, ip o‘tkazib tikilgan va tartib raqami qo‘yilgan, Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini berishni hisobga olish daftariга imzo qo‘ydirgan holda beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining ikkinchi va keyingi betlariga yozuvlarni qayd etish jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi Xalq banki filialiga bevosita kelganda va Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni shaxsan ko‘rsatgan taqdirda, ma’lumotlarning yagona elektron bazasidagi mavjud ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Yozuvlarni qayd etishda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- a) oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga oldingi yozuvlar qayd etilgan vaqtdan boshlab tushgan badallar miqdori;

- b) yozuvlar qayd etilgan sanagacha berilgan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdori;
- v) kalendar yil uchun hisoblab chiqilgan foizlar miqdori;
- g) shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘lar miqdori.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasidagi har bir yozuv Xalq banki filiali xodimining imzosi bilan tasdiqlanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasida yozuvlarni qayd etish uchun joy etishmagan taqdirda (barcha betlar to‘ldirib bo‘linganda) oluvchiga Nizomda ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan Suqma varaq beriladi. Suqma varaqni berish tartibi Xalq banki tomonidan belgilanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi yo‘qolganda (yo‘qtib qo‘yilganda yoki yaroqsiz bo‘lib qolganda) oluvchining arizasi asosida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining aynan o‘sha doimiy shaxsiy tartib raqami bilan, ma’lumotlarning yagona elektron bazasidagi ma’lumotlar asosida uning dublikati beriladi.

Xalq banki filiali tomonidan olingan Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari blankalari olingan kunning o‘zida mas’ul xodimlar tomonidan qayta sanab chiqiladi va kirim qilinadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini olish va berishning hisobini yuritish ip o‘tkazib tikilgan va tartib raqami qo‘yilgan hisobga olish daftarida, qat’iy hisobda turadigan blankalarni hisobga olish va saqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli buxgalteriya hisob varag‘i va shartli qiymatda olib boriladi.

Mamlakatimizda Xalq banki fuqarolarning pensiya jamg‘armalarini boshqarishga mas’ul etib tayinlandi. Mazkur qaror tasodifiy emas, chunki Xalq banki bank sohasida katta tajribaga ega bo‘lib, mamlakat bo‘ylab yoyilgan hududiy filiallari mavjud va to‘liq davlat banki hisoblanadi. Mamlakatimizda Xalq banki aktivlarning miqdori bo‘yicha eng yirik banklarning oltinchisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (51%) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (49%) bank egalaridir.

Xalq banki boshqa davlat banklardan jismoniy shaxslarni (iste’mol krediti) kreditlashga an’anaviy ravishda yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi. Jismoniy shaxslariga iste’mol krediti berish – bank tomonidan jismoniy shaxslarga shaxsiy ehtiyojlari uchun kredit ajratishdir. Kredit ajratish maqsadi – avtomobil sotib olish, maishiy jihoz va orgtexnika, mebel va uy jihoz buyumlari, qurilish mollari va qurilish montaj ishlari bilan bog‘liq xizmatlar, meditsina xizmatlari, ma’rosim va tadbirlarni o‘tkazishdan iborat. Iste’mol krediti uchun sotib olinayotgan tovar yoki xizmatlarning 100 foizi miqdorida kredit ajaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan, jismoniy shaxs ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan tovar, mahsulot yoki xizmatlar kredit obyekti bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kredit ajratish to‘g‘risidagi hujjatlar taqdim etilganidan keyin 3 ish kunida ko‘rib chiqiladi. Iste’mol kreditini olish uchun boshlang‘ich to‘lov 10 foizni tashkil etadi, kredit olish muddati 3 yil belgilangan. Iste’mol krediti minimal ish haqining 100 baravari miqdorigacha beriladi. Iste’mol krediti Xalq banki kredit portfeli umumiy hajmining 20 %ga teng. Iste’mol krediti doimiy yashash joyiga ega, o‘z faoliyati natijasida doimiy daromad oladigan, balog‘at yoshiga yetgan, ishga yaroqli jismoniy shaxslarga taqdim etiladi. Kundalik turmushimizda foydalaniladigan maishiy texnika vositalari, turli xil mebellarga har bir oila ehtiyoj sezadi. Bunday texnika va jihozlarni sotib olish uchun yillab mablag‘ jamg‘arish o‘rniga tijorat banklarining iste’mol kreditlari ko‘magidan foydalanish har tomonlama qulay. Xalq banki ham o‘z mijozlari manfaatini ko‘zlab, joriy yilning hisobot sanasida 7 280 nafar fuqarolarga 40,2 mlrd so‘m iste’mol kreditlari ajratdi.

Xalq banki filiallari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning aksariyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotinii rivojlantirish, o‘z navbatida, fuqarolarimizning

tarovon hayot kechirishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Xalq banki barqaror resurs baza (pensiya jamg‘armalari)ga va diversifikatsiyaning yuqori darajasiga ega¹²⁰. Xalq banki davlat tomonidan doim qo‘llab-quvvatlanadi. Xalq bankiga xalqaro moliya institutlari tomonidan kredit mablag‘lari jalb qilmaydi. Xalq banki jumg‘arishning tashqi manbalariga bog‘liq emas desak bo‘ladi. Muammoli kreditlar darajasi 3,0 foizni tashkil etadi, boshqa davlat banklari bilan taqqoslanadi. Yurtimiz banklari qatorida Xalq banki ham muntazam ravishda “Standard & Roor’s” xalqaro reyting agentligining ijobiy bahosiga sazovor bo‘lmoqda. “Standard & Roor’s” xalqaro reyting agentligi 2017-yil avgustda Aksiyadorlik tijorat bankingning uzoq muddatlilqisqa muddatli kredit reytingi «B/B» «Barqaror» darajada tasdiqlandi¹²¹.

Xalq banki ham ana shunday e’tiroflarga hamohang ravishda tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga molivaviy ko‘mak berish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirish, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mintoni rivojlantirish borasida ko‘plab loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xalq banki tomonidan 2017-yilning I- yarim yilligida kichik biznes vakillarining 4492 ta loyihalara 637,7 mlrd so‘mlik kreditlar ajratildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 147,8 mlrd so‘mga oshib, 130,2 foizga o‘siganidan dalolat beradi. Natijada mazkur sohada 4 125 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi¹²². Xalq banki tomonidan ham xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, bank xizmatlaridan keng foydalanish, ularning kredit olishlari va o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishlari uchun qator samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. 2016-yilning yanvar-iyul oylarida

¹²⁰ Diversifikatsiya - (lotinchadan *diversus* har xil va *facere* qilmoq, bajarmoq) - ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirishdir. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bevosita uyg‘unlashadi.

¹²¹ https://www.xb.uz/sites/default/files/page_files/20160824_halk_bank_fa_rus.pdf

¹²² Xalq banki: Aholi va tadbirkorlar manfaati uchun qayg‘uradi. <http://kun.uz>.

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida bank tomonidan 1416 nafar tadbirkor ayolga 79,2 mldr so‘m miqdorida kreditlar ajratilgani ham yuqoridagi fikrlarning yorqin ifodasidir. Ushbu kreditlar hisobiga 886 ta yangi ish o‘rnini tashkil etildi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida bank tomonidan kasb-hunar kollejlarining 832 nafar bitiruvchilariga 19,7 mldr so‘mlik kreditlar ajratildi. Buning natijasida 900 ga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Depozitlarning umumiy hajmiga nisbatan kreditning umumiy hajmi 63 foizga teng. Mijozlarning boshlang‘ich depozitlari bank resurs bazasining 95,0 foizini tashkil etadi, boshqa banklar bilan taqqoslaganda bu ko‘rsatkich yuqori. Likvidli aktivlar mijozlarning qisqa muddatli depozitlarining 72 foizini qoplaydi, bu ko‘rsatkich boshqa ko‘rsatkichlariga nisbatan banklar yaxshi. Bank yetarli barqaror depozit bazasiga ega. Depozitlarning umumiy hajmi 3,699 trln so‘mni tashkil etdi, bundan 65,0% foizi jamg‘arma depozitlari, 17,5% qisqa depozitlar, 17,5% mijozning talab kilib olinguncha depozitlaridan iborat. Mijozning talab qilib olinguncha depozit – bu jamg‘arma qo‘yilmalarining eng ko‘p uchraydigan turi bo‘lib, mijoz xohlagan vaqtida bankni ogohlantirmsandan depozit hisobraqamidagi mablag‘larni yechadi va o‘zining ehtiyojlariga ishlataladi, bunda jamg‘arma summasining hammasi yoki uning ma’lum qismi yopiladi.

Qisqacha xulosalar

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilash sharoitida iqtisodiy munosabatlarning yangilanishi, pensiya ta’minoti institutsional o‘zgarishlarning amalga oshirilishi jamiyatda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mintoni boshqarish tizimining maqbul tarkibini yaratilishini talab etadi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishda mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan pensiya tizimi yangidan tashkil qilindi.

Har bir fuqaro keksayganda yashash manbayini yo'qotmasdan o'zining yillar davomida mehnati tufayli yaratgan moddiy ne'matlar, xizmatlari uchun moddiy jihatdan taqdirlanadi. Har bir ishlovchi o'zining turli darajadagi ijtimoiy foydali mehnati jarayonida yaratgan qiyamatining davlat tomonidan belgilangan miqdorda Pensiya junig'armasiga o'tkazib turadi. Natijada pensiya yoshiga kirgan har bir fuqaro keksayganida belgilangan pensiya miqdorini oladi va tinch, osoyishta, farovon hayot kechiradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy me'yorlariga amal qilinishi va jamg'arib boriladigan pensiya pensiya ta'minotini boshqarishning hozirgi holatini yaxshilash muhimdir. Tashkilot faoliyatini boshqarish amaliyotida xolis qonun-qoidalar, an'analar, odatlar, umumiy talablar, mehnat taqsimoti, intizom, huquq, majburiyat, tartib, vakolat, mas'uliyat, faoliyat yo'naliishing bir xilligi, shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatlarga bo'ysindirish, xodimlarni rag'batlantirish, markazlashtiriish va nomarkazlashtirish, adolat kabi «tamoyil»lar hal qiluvchi mexanizm hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha munosabatlar tizimi bo'lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug'urta badallari hisobiga maxsus sug'urta jamg'armalarini shakllantirish va muayyan ijtimoiy risklarga uchrash oqibatida yo'qotilgan daromadlarini qoplash uchun foydalanshidan iborat. «Ijtimoiy risk» (xatar)ning ehtimollik darajasi vujudga keladigan zararni qoplash, pensiya tizimining mazmuni va chegaralarini belgilaydi. Ish haqi jamiyatning ko'pchilik a'zolari uchun asosiy tirikchilik manbayiga aylanishi bilan ijtimoiy himoyasizlikning alohida turi, ya'ni ish haqidan maxrum bo'lish tufayli moddiy ta'minlanmaganlik riski vujudga keladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha risklar paydo bo'lishi mumkin.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Respublikamizda jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni shaxsiy hisobga olish ma’lumotlari Xalq banki tomonidan "Bank siri to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilishi mumkin. Ko‘rsatilgan ma’lumotlardan foydalanish noqonuniy cheklanishida yoki axborot himoyasi rejimining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar. Fuqarolar uchun ishonchli va to‘liq hajmdagi ma’lumotlar taqdim etilishidan bosh tortgan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilari belgilangan tartibda javob beradilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda qatnashadigan fuqarolar Xalq bankining filialiga to‘lov hujjatining nusxasi bilan birgalikda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga to‘langan badallar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Ma’lumotlar fuqaroning tanloviga ko‘ra istalgan vaqtida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘iga badallar to‘lanishi bilan bir vaqtida taqdim etiladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi vafot etgan taqdirda ish beruvchi yoki oluvchining merosxo‘rlari belgilangan tartibda fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari organi tomonidan berilgan oluvchining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida Xalq banki tomonidan belgilanadigan shakl bo‘yicha ma’lumotlarni Xalq banki filialiga taqdim etadi. Shaxsiy hisobga olish hujjatlari rahbarning imzosi va muhr bilan tasdiqlangan yozma shaklda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy

"tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda yuboriladi. Elektron shaklda yuborilgan hujjatlar elektron raqamli imzo mavjud bo'lgan taqdirda yuridik kuchga ega bo'ladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya ta'minotini yanada rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Mamlakatda aholi turmush farovonligini oshirish, shaxsiy hisobvaraqqva mablag'lari tushishini to'g'ri va samarali tashkil etish boshqaruv organlari tizimi faoliyatini bilan uzviy bog'liq.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti boshqaruv organlari faoliyatining ahamiyatini ilmiy asoslash va mazkur sohani moliyalashtirishning samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini optimallashtirish mazkur sohaning boshqaruv uslubiyotini takomillashtirishni talab etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini boshqarish subyektlari; ixtiyoriy badallar; majburiy badallar; mehnat shartnomasi; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi; Xalq banki; davlat soliq organlari; davlat moliyaviy nazorati.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi boshqaruv subyektlarini guruhlarga ajrating va tushuntiring.
2. O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarishdagi tutgan o'rnnini tushuntiring.
3. Mamlakatda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ish beruvchining vakolatlarini aytинг.
4. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi sohasidagi boshqaruv organlarining huquq va majburiyatları nimalardan iborat?

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining funksiyalari va vazifalarini izohlang.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarishdagi o‘rnini mavzusida referat yozing va slayd tayyorlang.

Test savollari

1. Jamg‘arma faoliyatini boshqarish tamoyillari:

- A. Intizom.
- B. Vakolat.
- C. Adolat.
- D. Barchasi to‘g‘ri.

2. Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini ...tomonidan belgilangan tartibda yuritadi.

- A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G‘aznachiligi.

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan xodimlarning Reyestriga imzo qo‘yadi:

- A. Korxona rahbari va bosh hisobchi.
- B. Ish beruvchi va bosh hisobchi.
- C. Ish beruvchi va jismoniy shaxs.
- D. Korxona raxbari va pensioner.

4. Muvofiqlashtiruvchi Kengash jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish obyektlarini belgilashda ... tamoyillarga asoslanadi.

- A.Qaytarmaslik.
- B.Daromadlilik.
- C.Muddatlilik.
- D.Diversifikatsiyalash.

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo‘yicha... tashkil etildi.

- A. Muvofiqlashtiruvchi Kengashi.
- B. Ijrochi Direktor.
- C. Bosh Direktor.
- D. Oliy Kengash.

6. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish hamda pensiya daftarchasini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

- A. Vazirlar Mahkamasi.
- B. Moliya Vazirligi.
- C. Markaziy Bank.
- D. Xalq banki.

7. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsiy kodini aniqlash tartibida fuqaroning jinsi va tug‘ilgan asri indeksi qaysi guruhda ko‘rsatiladi?

- A. 2.1.
- B. 2.2.
- C. 2.3.
- D. 2.4.

8. Xalq banki filiali tomonidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingandan keyin ... rasmiylashtiriladi.

- A. Uch ish kuni.
- B. Bir ish kuni.
- C. Besh ish kuni.

D. O'n ish kuni.

9. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini berish tartibi ... tomonidan belgilanadi.

A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

B. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.

C. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.

D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

10. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsiy kodini aniqlash tartibida fuqaro yashaydigan tuman va shahar kodi qaysi guruhda ko'rsatiladi?

A. 2.3.

B. 2.2.

C. 2.5.

D. 2.1.

11. Reyestrning qog'oz manbasidagi asl nusxasi ...saqlanadi.

A. Ish beruvchida.

B. Xalq bankida.

C. Jismoniy shaxslarda.

D. Soliq organlarida.

12. Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingan paytdan ...muddatda rasmiylashtiriladi.

A. Uch ish kuni.

B. Bir ish kuni.

C. Besh ish kuni.

D. O'n ish kuni.

VI BOB JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTI MABLAG‘LARINING SHAKLLANISHI

6.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti mablag‘larining mazmuni va manbalari

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘sishimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’milanadi. Shaxsiy pensiya badallarni ajratishning majburiy va ixtiyoriy shakllari bo‘lib, fuqarolarning pensiya ta’motiga ajratgan badallari va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lariga hisoblab qo‘shilgan foizlar Xalq bankida ochilgan hisobvaraqqacha kelib tushadi hamda daromadlar hisobga olinadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’moti olish huquqiga ega.


«Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’moti - fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘sishimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minalashdir. Jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari - shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga ixtiyorilik asosida kiritiladigan pul mablag‘lari hisoblanadi. Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari - shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag‘laridan iborat»¹.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari

¹O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’motini to‘g‘risida»gi qonuni. 2004-yil. 2-dekabr.

ochadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi - jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxsdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘sishimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minalash tushuniladi. Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma'lumotlar o‘zgargan taqdirda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i tartib raqami o‘zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochish talab etilmaydi. Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining miqdori xodimlarning, shu jumladan, ishlayotgan pensionerlarning ish haqi va boshqa daromadi summasi asosida hisoblab chiqariladi.



**6.1-rasm. O‘zbekiston Pensiya daromadlarining shakllanishi
va xarajatlar taqsimoti¹**

¹Vaxabov A.V. Pensiya tizimining moliaviy barkarorligini ta’minalash muammolari. Pensiya tizimining moliaviy barqarorligini ta’minalash va samaradorligini oshirish.

Ish beruvchining jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badal-larini to‘lashi uchinchi shaxslarning foydasiga amalga oshirilishi mumkin emas. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolar o‘z shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, shuningdek, uchinchi shaxslar foydasiga o‘zlari mustaqil ravishda belgilaydigan miqdor va muddatlarda qo‘srimcha badallar kiritishga haqli. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etuvchi fuqarolar o‘z shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, jumladan, uchinchi shaxslar foydasiga kiritiladigan badallar miqdori va muddatlarini o‘zlari mustaqil ravishda belgilaydilar.

Ish beruvchiga o‘zining mablag‘lari hisobidan o‘z xodimlarining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo‘srimcha badallar to‘lash huquqi beriladi. Qo‘srimcha badallarning miqdori va ularni kiritish muddatlari jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi belgilandi. Jamoa shartnomasiga ish beruvchi va xodimlarning quyidagi masalalar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlar kiritilishi mumkin¹²³:

–mehnatga haq to‘lash shakli, tizimi va miqdori, pul mukofotlari, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo‘srimcha to‘lovlar;

–narxlarning o‘zgarib borishi, inflyatsiya darajasi, jamoa shartnomasi bilan belgilangan ko‘rsatkichlarning bajarilishiga qarab mehnatga haq to‘lashni tartibga solish mexanizmi;

–xodimlarni ish bilan ta’minlash, qayta o‘qitish, ishdan bo‘shatib olish shartlari;

–ish vaqt va dam olish vaqtি, mehnat ta’tillarining muddatlari;

–xodimlar, shu jumladan, ayollar va o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslarning mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasini yaxshilash, ekologiya jihatidan xavfsizlikni ta’minlash;

Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 15-novabr. 6-b.

¹²³O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr. 37-modda. Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishi.

-korxonani va idoraga qarashli turar joyni xususiylashtirish vaqtida xodimlarning manfaatlariga rioya qilish;

-ishni ta’lim bilan qo’shib olib boruvchi xodimlar uchun imtiyozlar;

-ixtiyoriy va majburiy tarzdagi tibbiy hamda ijtimoiy sug‘urta.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari Xalq bankida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni jamlash yo‘li bilan shakllantiriladi. Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining alohida hisobini yuritadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat (-rasm):

-jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari;

-jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;


-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag‘lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;

-qonun hujjatlari zid bo‘limgan boshqa mablag‘lar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘limgan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas.

Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag‘lar foydalanishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlaridan, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar olinmaydi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati nusxasini, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari tartib raqami, familiyalar, har bir xodimning hisoblab chiqarilgan ish haqi summasi, boshqa daromadlari va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi ko‘rsatilgan xodimlar reyestagini ish beruvchi o‘zi turgan joydagи Xalq banki filialiga har oyda taqdim etishi shart. Xalq banki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan to‘lov hujjati va reyestr asosida mablag‘larni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazadi.



6.2-rasm. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari¹

¹ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tamomoti to'g'risida» gi qonuni. 2004-yil. 2-dekabr.

«Reyestr va elektron to‘lov hujjatining yakuniy qatorida ko‘rsatilgan badallar summasi, shuningdek, reyestrning har bir qatori va har bir ustuni bo‘yicha yakunlar tafovuti bo‘limganda, reyestrning ma’lumotlari Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi. Reyestrda ko‘rsatilgan qatorlar va ustunlar badallari, yakunlari mos kelmagan taqdirda ushbu reyestr qabul qilinmaydi va aniqlik kiritish uchun badal kirituvchiga avtomatik rejimda qaytariladi»¹²⁴.

Quyidagilar shaxsiy hisobga olishning maqsadlari hisoblanadi¹²⁵:

– fuqaroning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobga olinishining to‘liqligini ta‘minlash, badal kirituvchilar tomonidan shaxsiy pensiya to‘lovlarini oluvchi foydasiga amalga oshiriladigan shaxsiy jamg‘arilib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar kiritish davrlari va miqdorlari, mablag‘larni joylashtirishdan olingan foizli daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham shu jumлага kiradi;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchilari va ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga omonatlari to‘g‘risidagi Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasini yaratish;

– mablag‘larning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga to‘g‘ri o‘tkazilganligini tezkor nazorat qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilariga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovları tayinlash tartibini soddalashtirish va tartib-qoidasini tezlashtirish.


O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida" 2004-yil 21-dekabrdagi 595-son karoriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-sonli qarori. 2015-yil. 29 avgust.

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida"gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 2-ilova. «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni shaxsiy hisobga qo‘yishni tashkil etishning normativ-huquqiy asosi, prinsiplari va mexanizmini belgilaydi. Mazkur nizomda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

Fuqarolarni shaxsiy hisobga olish - jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining har bir qatnashchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashkil etish va ularning hisobini yuritishdir. Jamg‘arib boriladigan pensiya bndallarini kirituvchi - jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan ish beruvchi yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs tushuniladi, 6.2-rasmda shaxsiy hisobga olish prinsiplari ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki shaxsiy hisobga olishni amalga oshiruvchi hisoblanadi.



6.3-rasm. Shaxsiy hisobga olish prinsiplari¹²⁶

¹²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-soni qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 2-ilova. «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

Shaxsiy hisobga olish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish; ish davrlari (o‘zgarishlar) va hisobga olingandan keyingi ish davri uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar to‘lash miqdorlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yig‘ish; jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini miqdorini belgilash va unga tuzatish kiritish jarayonini axborot bilan ta’minalash.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi - fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashishini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi, unda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining asosiy rekvizitlari ko‘rsatiladi va ushbu hisobvarag‘ida pul mablag‘larining harakati aks ettiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi pensiya ta’mintoning yangi shakli sifatida jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat pensiyasini olish huquqiga ega fuqarolarni qo‘srimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minalash, fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti to‘g‘risida»gi qonuni kuchga kirdi.

«Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, «Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi to‘g‘risida»gi nizom Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari shaklini va mazmunini, shuningdek, ulari hisobga olish, saqlash, ochish va yuritish tartibini belgilaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan beriladigan, fuqaroning jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishga huquqini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasining formati 100 mm x 140 mm. Muqovasining old tomonida O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va «*Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi*» yozuvni bo‘ladi. Muqovaning ikkinchi betida O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunidan

quyidagi ko‘chirmalar keltirilgan: "5-modda. Davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi.

Davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi. Muqovaning uchinchi betida quyidagi mazmundagi eslatmalar mavjud. Ish beruvchi va fuqaroning o‘zi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo‘sishimcha badallar kiritish huquqiga ega. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazilgan mablag‘lar, foizlar va boshqa daromadlar, shuningdek, fuqarolar tomonidan olingan summalar soliqqa tortilmaydi.

Ish beruvchilarining, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etadilar.

6.2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larining tarkibi, tuzilishi va dinamikasi

„Keksalarimizni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida shu yilning o‘zida 2 million 750 ming nafar otaxon va onaxonlarimizning pensiya miqdori 20 foizdan ziyod ko‘paytirilib, ularga davlat byudjeti hisobidan 12 trillion 888 milliard so‘m pensiya to‘langani, o‘z vaqtida va uzlusiz yetkazib berilganini alohida ta’kidlash joiz. Bu haqda gapirganda bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag‘ning miqdori dunyodagi kamdan kam davlatlar qatorida o‘rtacha oylikning 41 foizidan ziyodini tashkil etishini yana bir bor ayтиб о‘тмоqchiman»¹²⁷.

¹²⁷Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat.

6.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq bankida ochilgan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari soni va mablag'lar qoldig'i ko'rsatkichlari¹²⁸

Yillar	Hisobraqamlar soni (dona)	Mablag'lar qoldig'i (mlrd so'mda)
2005	4084,9	18,9
2006	4726,3	50,8
2007	5410,7	99,7
2008	5586,0	173,4
2009	5987,6	274,6
2010	6468,6	404,6
2011	7082,9	578,9
2012	7685,4	802,4
2013	8204,8	1087,0
2014	8704,5	1408,9
2015	9339,4	1670,7
2016	10012,4	1998,2
2017	10692,4	2323,2

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 595-sonli qaroriga muvofiq, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi. 2005-yilning 1 aprel holatiga ko'ra Respublikada korxona va tashkilotlarining 254,9 mingtasidan 212,2 mingtasi yangi tizimga jalb qilindi. Respublika

I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2015-yil. 5 dekabr.

¹²⁸O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

jamg‘arib boradigan pensiya fondiga 1630 mln so‘m mablag‘ o‘tkazildi»¹²⁹.

«Xalq banki ma’lumotlariga ko‘ra korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fermer xo‘jaliklari va yuridik shaxslar tashkil etgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini Xalq bankida ochilgan 5866,7 ming nafar fuqarolarning hisobvaraqlariga o‘tkazilishi yuzasidan kunlik monitoring o‘rnatilgan. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lari qoldig‘i 160,5 mlrd so‘mni tashkil etadi. Ushbu mablag‘larning 158,5 mlrd so‘mi banklararo depozitlarga va 2,0 mlrd so‘mi O‘zbekiston Temir yo‘llari aksiyadorlik kompaniyasiga kredit tarzida joylashtirilgan.

Shuningdek, tizimga ixtiyoriy a‘zo bo‘lgan 145,6 mingdan ortiq ishtirokchilarga ham ular tomonidan kirim qilib kelinayotgan badallarning hisobvaraqlariga muntazam hisobga kiritilishi ta‘minlanib kelinmoqda»¹³⁰.

Tahlil ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, «Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag‘lar qoldig‘i 2005-yilda 18.9 mlrd so‘mdan 2013-yilga kelib 1087.0 mlrd so‘mga teng bo‘ldi. Ushbu mablag‘lar to‘laligicha banklarni depozit lariga joylashtirib real sektor tarmoqlarini modernizatsiyalashni kreditlashga yo‘naltirilmoqda»¹³¹.

Ish beruvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o‘z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart. Jamg‘ariladigan pensiya jamg‘armasiga tushumlarning daromad solig‘ining pasayish hisobiga ko‘payishi

Davlat byudjeti daromadlarini ma’lum miqdorda kamayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, jamg‘ariladigan pensiya ta‘minotiga tushumlarning ko‘payishi daromad solig‘ining pasayishi hisobiga yuz

¹²⁹ «O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-itisodiy rivojlanishining 200-yil I- chorak asosiy yakunlari to‘g‘risida» // Xalq so‘zi. 2005-yil. 6-may. 87-son.

¹³⁰ <http://www.halkbank.uz>

¹³¹ <http://www.halkbank.uz>

bermasa, u holda ajratmalarni taqsimlanuvchi va jamg‘arib boriladigan tizimlar o‘rtasida qayta taqsimlashni talab etadi.

6.2-jadval

**Jamg‘ariladigan pensiya tizimida
mablag‘larning holati**

Ko‘rsatkichlar	Yillar			
	2005	2008	2010	2013
Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari (dona)	4 084 871	5585975	6468588	8204769
Jamg‘arilgan mablag‘lar jami (mlr. so‘m)	18,9	173,1	404,6	1087,0
Hisoblangan foiz daromadi (mlr. so‘m)	0,6	12,8	26,0	62,0
Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarining o‘rtacha daromadliligi (foizda)	10,0	10,0	8,0	7,0

Quyidagi rasmida 2005-2017-yillarda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag‘larga hisoblangan foizlar ko‘rsatilgan.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to‘lab boradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishslash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega. Har bir xodim¹³²:

–kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

¹³²O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr. 16-modda. Xodimning asosiy mehnat huquqlari.

–ish bilan bog‘liq holda sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga yetka-zilgan zararning o‘rnini qoplash;

6.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag‘larga hisoblangan foizlar¹³³

(foizda)

Yillar	Shaxsiy jamg‘ariladigan pensiya tizimidagi mablag‘larga foizlar	
	Majburiy	Ixtiyoriy
2005	10,0	24,0
2008	8,0	10,0
2009	8,0	10,0
2010	8,0	10,0
2011	8,0	24,0
2012	8,0	24,0
2013	7,0	24,0
2014	7,0	18,0
2015	6,2	9,0
2016	6,2	9,0
2017	6,2	9,0

–kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish;

–jamoalarga doir mehnat nizolarida o‘z manfaatlarini quvvatlash huquqiga ega;

–qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega;

–o‘zining mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish huquqiga ega.

¹³³ O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Belgilangan yoshga etgan hamda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat tomonidan aholini ish bilan ta’minlash jarayonini tartibga solish usullari asosan uch guruhga tasniflanadi:

– Ma’muriy-qonunchilik usullari (mehnat shartnomalari tuzish, ish vaqt, ish vaqtidan qo‘sishimcha vaqt ish davomiyligini tartibga solish, jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armalariga majburiy to‘lovlarni joriy etish, aholining nochor qismi uchun kafolatli ish joylari sonini kvotalash).

– Iqtisodiy usullar (byudjet siyosatida yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish uchun ish beruvchilar, ayniqsa, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, soliq yukini kamaytirish, ishga muhtoj aholini mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarga o‘rgatish).

– Tashkiliy usullar (ish bilan bandlik va aholini ish bilan ta’minlash xizmatlari, mehnat bozoriga xizmat ko‘rsatuvchi axborot tizimlarini, kasba yo‘naltirish hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish).

Ish beruvchi va ushbu sohada faoliyat olib boradigan mutaxassis (buxgalteriya hisob-kitob bo‘limlarining xodimlari) kasaba uyushmasi faollari mehnat shartnomasi bo‘yicha muammolarni o‘rganishsa hamda talab etishsa, ijobjiy natija aniq bo‘ladi. Mehnat nizolari ancha kamayadi va mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari tegishli tarzda rag‘batlantiriladi. Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishini taraflar belgilaydi. Jamoa shartnomasi, bir tarafdan, xodimlar tomonidan kasaba uyushmalari yoki o‘zлari vakolat bergen boshqa vakillik organlari orqali, ikkinchi tarafdan — bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergen vakillar tomonidan tuziladi.

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo‘yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar

asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir¹³⁴. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo‘srimcha holatlar (tanlovdan o‘tish, lavozimga saylanish) bo‘lishi mumkin. Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Mehnat shartnomasining mazmuni taraflar kelishuvi bo‘yicha, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:

- ish joyi (korxona yoki uning bo‘linmasi);
- xodimning mehnat vazifasi — mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
- ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;
- mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomasining shakli O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shartnomani hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo‘lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi. Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko‘rsatiladi. Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustahkamlanib, imzolangan muddati qayd etib qo‘yiladi. Mansabdor shaxsning imzosi imzoning haqiqiy va vakolatli ekanligini ta’kidlash tariqasida korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Mehnat shartnomalari: nomuayyan muddatga; besh yildan ortiq bo‘limgan muayyan muddatga; muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallab tuzilishi mumkin. Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mehnat shartnomasi

¹³⁴O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr. 72-modda. Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari.

nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi. Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning rozilgisiz muayyan muddatga, shuningdek, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallab qayta tuzilishi mumkin emas.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha hollar nazarda tutilmagan bo‘lsa, ish beruvchilar, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshirayotgan fuqarolar uchun jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashish majburiy hisoblanadi.

6.4-jadval

Umumiy belgilangan to‘lovli va belgilangan badalli pensiya rejalarini

Pensiya rejasi	Majburiy	Ixtiyoriy
Maxsus belgilangan pensiya rejasi	Michigan Alyaska	Kolorado, Florida, Ogayo, Montana, Janubiy Karolina
Aralash (gibrild) pensiya rejasi	Indiana, Oregon	Ogayo, Vashington

Jadval ma'lumotlari AQShning turli shtatlarida umumiy belgilangan to‘lovli va belgilangan badalli pensiya rejasingin shakllanishini ko‘rsatadi. «Turli shtatlarda belgilangan badalli pensiya rejalarining qisqacha tavsifiga asoslangan holda, xususiy sektordan farqli ravishda davlat sektorida maxsus belgilangan badalli rejada majburiy qatnashish juda kam uchrashini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval). Pensiya rejalarining barchasida yangi ishchilar va allaqachon an'anaviy rejada bo‘lgan ishchilarning 90,0 foizidan oshig‘iga yangi tuzilgan belgilangan badalli rejaga o‘tish ixtiyori berilganda, ular

an'anaviy belgilangan to'lovli rejada qolishga qaror qilishdi. Chunki belgilangan to'lovlidan belgilangan badalli rejaga o'tish, amalda moliyalashtirish xatarini reja homiyalaridan reja a'zolariga o'tkazadi, agar moliyaviy jihatdan ta'minlanganlik ham reja homiysi va a'zosi majmuyi bo'lib qaralsa, unda moliyalashtirish xatari qisqartirilishi haqida so'z ketganda bir reja boshqa reja ustidan farqli ustunlikka ega bo'lmaydi»¹³⁵. AQShda alternativ pensiya rejasi – Kaliforniya kassa qoldig'i rejasi mavjud, u moliyalashtirish xatarini reja homiylari va reja a'zolari o'rtasida taqsimlashga imkon beradi. Kassa qoldig'i rejasi birinchi o'rinda, belgilangan to'lovli rejadir, chunki to'lov pensiyaga chiqish vaqtida taxminan aniqlanishi va kassa qoldig'i rejasi homiysi tomonidan kafolatlanishi mumkin. Biroq kassa qoldig'i rejasi ham belgilangan badalli rejaning bir qancha xususiyatlarini oladi. Shuning uchun, kassa qoldig'i rejasi aralash reja ham deb ataladi. Kassa qoldig'i rejasi ko'p yillar davomida xususiy sektorda mavjud bo'ldi va keng foydalanildi, bir vaqtning o'zida uning davlat sektoridagi foydalanilishi chegaralandi. Kassa qoldig'i rejasi Kaliforniya shtatida to'liqsiz ish kuni band bo'lgan davlat maktab ishchilari uchun mo'ljallangan. Kaliforniya shtatida qo'llanadigan kassa qoldig'i rejasining asosiy xususiyatlari qo'yidagilardan iborat:

1. Har bir ish beruvchi ishchi ish haqining 4,0 foizdan kam bo'lmanan summasidagi mablag' kiritadi va ishchi hamda ish beruvchining badallari ishchi oyligining 8% miqdoriga teng yoki ko'p bo'lishi kerak. Pensiya rejasi a'zosi ish beruvchining badaliga bevosita ega bo'lish huquqiga ega.

2. O'qituvchilar pensiya boshqaruvi tomonidan belgilangan kafolatlangan foiz stavkasi reja yilidan 12 oy oldin bo'lgan 30 yilga mo'ljallangan AQSh g'azna obligatsiyalarining o'rtacha miqdoriga asoslanadi.

3. Foyda va zarar reja doirasida belgilanadi, ushbu zaxiraning maqsadi investitsion daromad miqdori kafolatlangan foiz stavkasidan yuqori bo'lgan miqdorini jamg'arib borishdir. Shunday qilib, real daromad kafolatlangan stavkasidan pastroq bo'lgan yillarga ushbu

¹³⁵Barton Waring M, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011. -R.187.

mablag'lar zaxiradan olinib ishchining kredit hisobiga to'la o'tkazilishi mumkin.

4. Reja yili tugagandan keyin, avvalgi yil ichida investitsiyalardan umumiy tushum miqdori aniq bo'lsa, boshqaruv kreditdan tushgan qo'shimcha foydani ishchi hisobiga o'tkazishga qaror qilish mumkin.

5. Reja a'zosi pensiyaga chiqqanda u ikki yo'l orqali standart pensiya to'loviga da'vo qilishi mumkin, uning hisobidagi kredit qoldig'iga teng bo'lgan bir yo'la beriladigan pensiya olishi mumkin»¹³⁶. Bir yo'la pensiya barcha to'lovlar shaxsiy pensiya rejası (IRA), belgilangan badallı pensiya reja yoki boshqa pensiya rejasiga o'tkazishi mumkin. Pensioner pensiya sug'urtasining 5 turidan bittasini tanlashi ham mumkin: (1) naqd pulni qaytarib olish imkoniyati mavjud bo'lgan yagona umrbod pensiya sug'urtasi, (2) naqd pulni qaytarib olish imkoniyati mavjud bo'limgan yagona umrbod pensiya sug'urtasi, (3) 100 foiz aralash va amaliy pensiya sug'urtasi, (4) 50 foiz qo'shma va amaliy pensiya sug'urtasi, (5) belgilangan muddatli pensiya sug'urtasi.

6.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larini shakllantirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining ishtiroki hamda soliq idoralarining ahamiyati

Davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanilishiga ham bog'liqdir. Daromadlar ko'p bo'lishining o'zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, insonni rivojlantirishning ikki xususiyati – imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchisi bo'lgan fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

–o'zining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni Xalq banki filialidan bir yilda bir marta bepul, shuningdek, o'z so'roviga ko'ra istalgan vaqtda olish;

¹³⁶Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications. 2008. –R.282.

shakl

Davlat soliq inspeksiyasiga

Xalq banki filiali

shtampi

Bank nomi _____

Bank _____

rekvizitlari _____

Manzil _____

STIR N _____

200 ____ yil “____” ____ dagi holat bo‘yicha
 shaxsiy jamgarib boriladigan pensiya hisobvaraklariga
 badallar kiritgan yuridik shaxslar to‘grisida ____-son

MA’LUMOTLAR

(so ‘mlarda)

T/r	Yuridik shaxsler	Yuridik shaxs STIRi	Ularga jamgarib boriladigan badallar o’tkaziladigan xodimlar soni	Jismoniy shaxslarning daromad solig‘iga tortiladigan jami daromad summasi	ShJBPXga qayd etilgan majburiy badallar summasi	ShJBPXga qayd etilgan ixtiyoriy badallar summasi	Kiritilgan badallar umumiy summasi (6-ust. + 7-ust.)
1	2	3	4	5	6	7	8
REESTR BO‘YICH A JAMI:							

Xalq banki filiali raxbari

(imzo)_____
(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter

(imzo)_____
(F.I.Sh.)

M.O‘.

–istalgan vaqtida so‘rov bo‘yicha shaxsiy hisobga olish uchun ish beruvchi tomonidan Xalq banki filialiga taqdim etilgan ma’lumot-larning nusxasini ish beruvchidan olish;

o‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga, shu jumladan, o‘tkazilgan jamg‘arib borilgan pensiya badallari summasiga rozi bo‘lmagan taqdirda ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni tuzatish to‘g‘risidagi ariza bilan ish beruvchiga, Xalq bankiga yoxud sudga murojaat qilish.

Ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirdorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

shak!

(korxonaning burchakli shtampi)

(Xalq banki filialining nomi)

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni hisobga olish SO'ROVNOMASI

1. Xodimning familiyasi:

2. Ismi

3. Otasining ismi

4. Jinsi:

Erkak

Ayo!

1

5. Tug‘ilgan sanasi:

Yil

[] kun

oy

6. Tug‘ilgan joyi:

6.1. Viloyat:

6.2. Tuman:

[REDACTED]

6.3. Aholi punkti:

7. So‘rovnoma to‘ldirilgan sanada yashash (doimiy ro‘yxatda turgan) joyi

7.1. Viloyat

7.2. Tuman

7.3 Abolii punkti

74 Kočha

7.5 Упражнени

7.6. Xonadon raqami

7.6 Xonadon sagami

8. Pasportdagि ma'lumotlar:

81. Serivasi

8.3 Berilgan vaqtı:

8.4 Berilgan joyi

		8.2. Raqami				
yil			Kun			oy

IDENTIFIKASI YA RAOAMI

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20

9. Identifikasiya raqamini tasdiqlayman (IIB xodimi imzosi)

10. Sorovnomaya to idirilgan sana 200 yil " "

So'rovnomani to'ldirgan mansabдор shaxsnинг имзоси

Korxona rahbarining imzosi

M₂O⁶

Jamg'arib boriladigan pensiya fondiga majburiy yoki ixtiyoriy badal to'lovchi shaxslar ularning asosiy ish joylaridagi Xalq banki filiallarida hisobga olinadilar, ular uchun shaxsiy Jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqami ochiladi, Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi beriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish va tasarruf qilish huquqi Xalq bankiga beriladi hamda fuqarolarning ushbu tizim mablag'laridan pensiya ta'minoti olish huquqi bevosita Xalq banki filiallari orqali ta'minlanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy

tartibda qatnashayotgan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish ish beruvchi tomonidan ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagি Xalq bankining filialida amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar avvalo turli mulkchilik shakliga asoslanuvchi korxona va tashkilotlarda yollanish asosida mehnat qilayotgan xodimlar, yakka tadbirkorlar va boshqa fuqarolar, ularning vakillari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki, uning joylardagi filiallari sanaladilar. Qonunga muvofiq shartnomaga asosida yollanib ishlovchi xodim yoki o‘zga shaxs o‘z daromadlaridan majburiy badallar to‘lashi lozim. Bu badallar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qaroriga muvofiq oylik ish haqining (daromadning) 1% ni tashkil qiladi, 2018-yil 1-yanvardan majburiy badallar 2% ga oshdi. Ishlovchi fuqaro davlat byudjetiga o‘tkazishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i hisobidan shakllanadi, ya’ni, fuqarolar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i miqdori 2,0 foizga kam bo‘lib, ushbu mablag‘ keyinchalik uning shaxsiy jamg‘armasi bo‘lib boradi.

Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilarini ishga qabul qilishda ulardan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ko‘rsatishni talab qilish;

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobda turmagan xodimlardan ma’lumotlarni taqdim etishni talab qilish;

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxslar to‘g‘risidagi o‘zi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tegishli organlar bilan kelishgan holda to‘ldirish va aniqlashtirish;

–fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlari organlaridan so‘rash va olish.

shakl

Xalq bankining _____ filialiga
(filial nomi)

**Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy
tartibda qatnashuvchi fuqarolarni hisobga olish**

ARIZA - SO‘ROVNOMASI

Meni O'zbekiston Respublikasining jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga turishga qabul qilishingizni so'rovman.

O'zim hagimda quyidagi ma'lumotlarni ma'lum qilaman:

1. Xodimning familiyasi:

2. Ismi

A horizontal row of 20 empty square boxes for writing responses.

3. Otasining ismi

4. Jinsi:

Erkak

Ayol

5. Tug‘ilgan sanasi:

yil kun oy

6. Tug‘ilgan joyi:

6.1. Viloyat:

6.2. Turnan:

6.3. Aholi punkti:

7. So'rovnama to'ldirilgan sanada yashash (doimiy ro'yxatda turgan) joyi

7.1. Viloyat

7.2. Tuman

7.3. Aholii punkti

7.4. Ko'cha

7.5. Uyraqami

8. Pasportdagি ma'lumotlar:

- 8.1. Seriyasi
 8.3. Berilgan vaqtি:
 8.4. Berilgan joyi

		8.2. Raqami						
Yil		Kun		oy				

IDENTIFIKATSIYA RAQAMI

--	--	--	--	--	--	--	--

9. Identifikatsiya raqamini tasdiqlayman _____ (IIB xodimi imzosi)
 10. Ariza-so'rovnoma to'ldirilgan sana 200 ____ yil "___"
 Ariza-so'rovnomani to'ldirgan mansabdor shaxsning imzosi _____

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvrag'iga har oyda ularga hisoblangan ish haqining bir foizi miqdorida badal belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnik ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy pensiya badallari byudjetga to'lanadigan soliqlar va yig'implarga tenglashtirildi. 2005-yil 1 iyuldan e'tiboran barcha yuridik shaxslar fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni jismoniy shaxslarning daromad solig'i bilan birqalikda mazkur soliq uchun belgilangan shakl va muddatlarda amalga oshirish tartibi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrлari to'g'risida»gi PQ-3454 sonli qaroriga muvofiq jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha ajratmalar 2,0 foiz qilib belgilandi.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'lanishi natijasida ishlayotgan fuqarolar uchun ish haqidan (daromadidan) hech qanaqa yo'qotish bo'lmaydi. Ishlovchi fuqaroning shaxsiy hisobvrag'iga o'tkazib berilayotgan har oylik pensiya majburiy badallari ushbu xodimning daromadiga qonunda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning daromad solig'idan chegirib qolinadi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to‘plangan mablag‘lar uchun hisoblangan foizlar hamda bu mablag‘lar hisobiga berilgan pensiyalar soliq to‘lashdan ozod qilinadi. Shu bilan birga Soliq kodeksiga¹³⁷ muvofiq jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltirilgan summalariga soliq solinmaydi.

Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning, shuningdek, penya va jarimalarning hisoblangan hamda to‘langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi. Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning har bir turi bo‘yicha ochiladi. Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida o‘tkazilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak. Daromadlarning turi bo‘lim, paragraf va daromad tipidan iborat. Daromadlar bo‘limi daromadlarni ularni olish manbalari bo‘yicha kodlashdan iborat.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish – soliq stavkasini qo‘llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini, shuningdek, eng kam ish haqining karrali

¹³⁷O‘zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qonuni. 2007-yil. 25-dekabr. 31-bandı.

miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1-yanvaridagi holati inobatga olinadi.

6.5-jadval

**Jismoniy shaxslarning daromad solig‘ini
hisoblash stavkalari¹³⁸**

(2018-yil)

Soliq solinadigan daromad	Solik stavkasi
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad solig‘ining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so‘m) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqining bir baravari miqdoridan oshadigan summasining 7,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so‘m) o‘n baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan solik +besh baravaridan oshadigan summaning 16,5 foizi
eng kam ish haqining o‘n baravari (+1 so‘m) va undan yuqori miqdorda	eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq +o‘n baravaridan oshadigan summaning 22,5 foizi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib

¹³⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози ва Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-3454 sonli qaroriga 9-ilova.

boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Misol. Byudjet tashkiloti xodimi A.A.Aliyevaga mehnat sharnomasi asosida 2017-yil oktayabr oyida jami 1911492,0 so'm miqdorida oylik hisoblangan. Oktabr oyi uchun undirilishi lozim bo'lgan soliq mikdori 267402,0 so'mni, kasaba uyushmasiga 19115,0 so'mni, jismoniy shaxslardan majburiy sug'urta badallari 152919,0 so'mni tashkil etadi, shundan 17617,0 so'm shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladi. A.A.Aliyevning oktabr oyi uchun soliq solinadigan daromadi 1911492,0 so'mni tashkil etadi. Uning oktabr oyi uchun shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga (ShJBPH) o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy pensiya badallarning summasi 17617,0 so'mni tashkil etadi (1911492-149775x1 %).

Soliqqa solinadigan daromadlar guruhlari bo'yicha soliqqa tortish shkalasi yil boshiga – 2017-yil 1-dekabr holatiga belgilangan eng kam oylik ish haqi (172240 so'm)dan kelib chiqib belgilanadi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq summasini hisoblash maqsadlari uchun eng kam ish haqi miqdori yil boshidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi. Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan byudjetga to'lanadigan jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq summasi, jismoniy shaxslarning daromad solig'i solinadigan daromadlardan, «0» stavka qo'llaniladigan daromad chegirilgan holda, 2,0 foiz miqdorida hisoblanadigan, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkaziladigan oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxslarning qonunchilikka asosan eng kam stavkasi bo'yicha soliq solinadigan ayrim daromadlarini soliqqa tortish maqsadlari uchun eng kam soliq stavkasi 7,5 foiz miqdorida qo'llaniladi. «Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga (ShJBPH) majburiy badallarning stavkasi 2017-yil uchun jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarining,

«0» stavka qo'llaniladigan daromad chegirilgan holda, 2,0 foizi miqdorida belgilandi. Bunda JShDS ning ShJBPHga o'tkaziladigan mablag'lar summasiga kamaytirilish tartibi saqlanib qolindi, ya'ni badallar summasi hisoblangan daromad solig'i summasdan chegirib tashlanadi. Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan fuqarolarning ish haqi yuzasidan hisoblangan ish haqining majburiy sug'urta badallari hisoblanadigan summasining 8,0 foizi miqdorida belgilandi. Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning stavkasi 2018-yilga yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadigan ish haqi fondining: mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – 15,0 foizi; boshqa to'lovchilar uchun 25,0 foizi miqdorida belgilangan»¹³⁹.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 310-moddasida kursatilganidek, yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga (ShJBPH) majburiy badallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi 110сонли qarorining 2-bandiga muvofiq, barcha yuridik shaxslar fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga (ShJBPH) majburiy badallar ajratishni jismoniy shaxslar daromad solig'ini byudjetga belgilangan shakl va muddatlarda to'lash bilan birga amalga oshiradilar (ya'ni ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtدا).

«Xalq banki filialidan maxsus tranzit raqamga yanvar oyi uchun jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga (ShJBPH) majburiy badallari to'lanayotganda, to'lov topshiriqnomasini tayyorlash bilan birga, Xalq banki filialiga taqdim etish uchun tegishli Reyestrni tayyorlash lozim. Xalq banki filiali Reyestr takdim etilganda unga

¹³⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-3454 sonli qaroriga 9-ilova.

badallarning jami summasi maxsus tranzit raqamga o‘tkazilgan to‘lov topshiriqnomasining nushasi ilova qilinishi lozim»¹⁴⁰. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarnig ish haqidan majburiy sug‘urta badallari O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 310-moddasiga asosan, yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarini to‘lash har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

“Yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalarini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingga summalarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart»¹⁴¹. “Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida o‘tkazilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi»¹⁴².

Soliq agentlari Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. Soliq agentlari soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida, asosiy ish joyi bo‘yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnomaga taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

—soliq to‘lovchining — jismoniy shaxsnинг identifikatsiya raqами;

¹⁴⁰Djurayev A. Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq va majburiy to‘lovlari va badallar hisob-kitobi.\\" Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2016. №1. 15-b.

¹⁴¹O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 187-modda. Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi.

¹⁴²O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 75-modda. Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan nazorat qilish.

–soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

–o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingga umumiy summasi;

–soliq agentining identifikasiya raqami;

–soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili).

Daromadni qayta taqsimlash natijasida davlat va korxonalar, tarmoqlar, muassasalar, aholi o‘rtasida moliyaviy munosabatlар ro‘y beradi, ularning har biri o‘ziga tegishli vazifani bajaradi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakkki, “Ijtimoiy sug‘urta” ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash munosabatlari tizimi bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobiga maxsus sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va mehnat daromadlarini qoplash yoki saqlash uchun foydalanishdan iborat. Lekin sivilizatsiyalashgan butun dunyoda pensionerlar o‘zining faol mehnat faoliyati davrida davlat pensiya jamg‘armasiga qo‘shtgan hissasiga mos ravishda pensiya oladi va yaxshi yashash uchun sharoit yaratadi”¹⁴³.

6.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larining shakllanishi jarayonidagi o‘ziga xos muammolar

Rivojlanayotgan mamlakatlar pensiya ta’minoti tizimi oldidagi turli muammolar mavjudligiga qaramasdan bosh masala-pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va jamg‘armaning xarajatlariga mablag‘larining yetarli darajasini kafolatlash hisoblanadi.

Pensiya ta’minoti tizimida mazkur vazifa yangi emas, ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida asosan taqsimot-tortiluvchan davlat pensiya tizimi amalda ishlayotgan mamlakatlarda muammolarni keskinlashtirdi.

¹⁴³Kasimova G.A. Pensiya ta’minotida majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimining zaruriyati. // Moliya. 2014. №6. –B.123.

**Xorijiy davlatlarda pensiya tizimining
tarkibiy tuzilishi¹⁴⁴**

Pensiyaning sug'urta qismi	Pensiyaning taqsimlanadigan qismi		
	Maqsadli pensiya	Boshlang'ich pensiya	Minimal pensiya
Belgilangan to'lovlar	Shvetsiya, Shveytsariya, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya, Kanda, Lyuksemburg, Portugaliya, AQSh, Turkiya, Urugvay, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya.	Buyuk Britaniya, Kanada, Koreya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Chexiya, Estoniya, Yaponiya	Aljir, Belgiya, Bolgariya Buyuk Britaniya, Vengriya, Gretsiya, Egipet, Iordaniya, Eron, Ispaniya, Liviya, Lyuksesburug, Portugaliya, Tunis, Turkiya, Chexiya, Shveytsariya
Belgilangan vvznoslar	Avstraliya, Bolgariya, Daniya, Kolumbiya, Meksika, Peru, Salvador, Urugvay, Chili, Shvetsiya	Daniya, Argentina, Litva, Xorvatiya, Estoniya	Bolgariya, Vengriya, Latviya, Polsha
Pension ballar tizimi	Germagiya, Norvegiya, Fransiya	Xorvatiya, Estoniya	Fransiya, Slovakiya
Shartli- jamg'ariladiga ni hisobraqam tizimi	Italiya ,Shvetsiya		Latviya, Polsha
Belgilangan kredit	Shveytsariya		Shveytsariya

¹⁴⁴Kasimova G.A., Sholdarov D.A. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. "STAR POLIGRAF" MCHJ nashriyoti. T.: 2017. 16-b.

Yuqoridagi jadvalda xorijiy davlatlarda keng tarqalgan pensiya tizimining tarkibiy tuzilishi berilgan: belgilangan to‘lovlar – pensiya sug‘urtasini ta’minalash shakli; belgilangan vznoslar – har bir xodimning personal hisobraqami mavjudligi; pension ballar tizimi; shartli-jamg‘ariladigan hisobraqam. Shartli-jamg‘ariladigan hisobraqam tizimida har bir xodimning ajratmalari uning alohida hisobraqamida saqlanadi va bu mablag‘lar foyda keltiradi. Mazkur hisobraqamlarga tushumlar va ularga hisoblangan foizlar yuritiladi. Mazkur tizim Italiya, Latviya, Polsha, Shvetsiyada joriy qilingan.


Amerika Qo‘shma Shtatlarida 1974-yilda Kongress “Yollanma xizmatchi pensiya daromadining muhofazasi” qonuni chiqarildi, xususiy pensiya rejalar uchun mezonlar o‘rnatildi¹⁴⁵. Fuqarolar xususiy pensiya rejalar bo‘yicha Pensiya Daromadlarini Kafolatlash Korporatsiyasidan sug‘urta xarid qilishi lozim, agarda kompaniya pensiya to‘lay olmasa, uni korporatsiya to‘laydigan bo‘ldi. Federal pensiya tizimlarining eng yirigi - AQSh Fuqaro Xizmati Pensiya tizimida yollanma xizmatchilarga ham hukumat tomonidan mablag‘ ajratiladi.

Qo‘sishma ravishda asosan ishga yollanuvchi fuqarolar, pensiya bilan ta‘minlanmaydigan va o‘z pensiya rejalar xizmatlariga yarasha to‘lanmasligiga ishonganlar o‘z daromadlarining bir qismini maxsus shaxsiy pensiya hisobiga ajratadi. Federal hukumat bu reja xizmatidan foydalanuvchi shaxslarga daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish orqali ham madad beradi. Shaxsiy pensiya hisobiga qo‘yilgan mablag‘lar foyda keltiradi, u o‘z-o‘zidan hisobga qo‘silib boraveradi. Shaxsiy pensiya hisobidagi hosil qilingan foydaga soliqlar solinmaydi.

6.4-rasmda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning davlat pensiya tizimiga ta’siri ko‘rsatilgan. Hamon davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning fondlariga to‘lanuvchi sug‘urta badallarining kamayishiga olib keldi. Global moliyaviy inqiroz tufayli jahoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlaridan tortib, rivojlanish

¹⁴⁵ William Meyer, William Reichenstein. Social Security Strategies: How to Optimize Retirement Benefits, 2nd Edition. Second edition. USA, 2015. P.78.

yo'liga endigina kirib borayotgan davlatlarda ham korxona va ta'nhikotlarining birin-ketin inqirozga uchrashi natijasida ishsizlar sonining keskin o'sib ketishi kuzatildi.



6.4-rasm. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning pensiya tizimiga ta'siri¹⁴⁶

Asosan ishchi va xizmatchilar ish haqidan to'lanuvchi va ularni yollagan ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy sug'urta badallari davlat majburiy pensiya fondlari va jamg'arib boriladigan pensiya fondlarining daromad manbayi bo'lib hisoblanadi. Ishsizlik

¹⁴⁶Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta'siri. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014-yil. 16-aprel. 29-b.

oqibatida daromadlardan turli pensiya fondlariga ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘lovchi shaxslar soni va ular tomonidan to‘lanuvchi badallar miqdori keskin kamayib ketdi.

Pensiya oluvchi pensionerlar soni nisbatan o‘sib borayotgan hozirgi davrda, ushbu pensiya fondlariga to‘lanuvchi badallar miqdorining kamayib borishi, demografik omillar tufayli byudjet defitsitiga uchragan milliy pensiya fondlarining moliyaviy inqiroz holatlarini yanada chuqurlashtirdi. Masalan, Fransiyada ishsizlar soni dunyo mamlakatlarida global moliyaviy inqiroz boshlanishidan avval 2008-yilda mamlakatdagi ishga layoqatli aholi umumiyligi soniga nisbatan o‘rtacha 7,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yildan boshlab ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 10,5 foizni tashkil etdi. Global moliyaviy inqiroz ta’siri yanada katta bo‘lgan Gretsiya, Ispaniya kabi davlatlarda ushbu ko‘rsatkich 26-28 foizni tashkil etib, ularni iqtisodiy inqiroz jar yoqasiga keltirib qo‘ydi.

Dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining o‘zgarishi berilgan. Xorijiy davlatlar yaratilgan YaIM ning katta miqdorini pensiya xarajatlari uchun sarflashga majbur bo‘lmoqda. Masalan, AQShda pensiya tizimi joriy etilgan 1935-yili pensiya xarajatlari uchun mamlakatda yaratilgan YaIMnig 0,2 foizini sarflagan bo‘lsa, hozirda pensionerlar soni aholi umumiyligi sonining 10,0 foizini tashkil etgan holatda ularga sarflanayotgan xarajatlar hajmi YaIMning 6,0 foizini tashkil etmoqda. Italiyada pensionerlarga pensiya to‘lash uchun YaIMning 14,0 foizi, Turkiyada esa 7,2 foizi sarflanmoqda. Natijada mamlakatda ishsizlar sonining ko‘payishi, o‘z navbatida ushbu fondlardan ishsizlarga beriluvchi nafaqalar va ularni qayta tayyorlashga sarflanuvchi xarajatlar miqdorining o‘sishiga olib keladi.

Demak, milliy iqtisodiyotda ishsizlar sonining ortib borishi bir tomonidan, davlat va jamg‘ariladigan pensiya fondlari daromadlarining kamayishiga olib kelsa, ikkinchi tomonidan, ishsizlar uchun mazkur fonddan beriladigan nafaqalar uchun xarajatlarning yanada o‘sishiga olib keladi.

**Dunyo mamlakatlarida mexnatga layoqatli aholi
sonining o'zgarishi¹⁴⁷**

(foizda)

Mamlakatlar	Mehnatga layoqatlilarning aholi umumiy sonidagi ulushi		
	2010-yil	2050 yil	farqi
AQSh	62	56	-6
Yevropa ittifoqi	60	50,3	-9,7
Yaponiya	57	44,6	-12,4
Xitoy	68	53,7	-14,3
Rossiya	67,4	52,1	-15,3

Pensiya tizimi sug'urta asosida shakllantiriladigan, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalgaloshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari fondidan foydalanishga asoslanadi. XX asrning 90-yillariga kelib xalqaro tashkilotlar jahonda demografik inqiroz boshlanishi mumkinligini, hamda bu inqirozga qarshi samarali choralarни oldindan ishlab chiqish va qo'llash kerakligini ta'kidlashgan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan demografik inqirozning pensiya tizimiga ta'sirini pasaytirish uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish tavsiya qilinadi.

O'zbekistonda quyidagi omillar ta'sirida pensiya tizimini isloh etish obyektiv zaruratga aylanmoqda. Bozor munosabatlarning rivojlanishi jarayonida aholi daromadlarining o'rtacha oilaga yoki aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdorlarida qat'iy tabaqlanish kuzatilmoqda. Buning natijasida aholi tarkibida barqaror va nisbatan katta daromadlarga ega bo'lgan aholi qatlami tarkib topmoqda. Aholining yuqori daromadga ega qatlami uncha ko'p bo'limgan holda miqdor jihatdan o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Aholining ushbu qatlami uchun uy xo'jaligi xarajatlari tarkibida

¹⁴⁷ Martin Neil Baily, Jacob Funk Kirkegaard. US Pension Reform: Lessons from Other Countries. PetersonInstitute for International Economics; 1 New edition USA, 2009. P.59.

jamg‘armalarning o‘sib borish tendensiyasi xos. Ushbu holat ularning jamg‘ariladigan pensiya jamg‘armalariga o‘z jamg‘armalarini yo‘naltirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, mustaqillik yillarda jumladan, 2005-yildan boshlab mamlakat aholisi tabiiy o‘sishi orta borgan sari qoplash koeffitsiyenti 3,7 dan 4,1 baravarga qadar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. “Ijtimoiy xavfsizlik talablaridan kelib chiqqan holda qoplash koeffitsiyenti 40 % dan kam bo‘lishi kerak emas, aks holda minimal yashash darajasi kafolatlanmaydi. Mamlakatimizda 1995-2010-yillarda qoplash koeffitsiyenti o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lsada hali ijtimoiy xavfsizlik talablariga to‘liq javob bermaydi”¹⁴⁸.

Mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash hisobiga soliq to‘lovchilar bazasining kengayishi orqali ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining pasayishi va majburiy sug‘urta badallari o‘rtasidagi farqning qisqarib borishi jamg‘arma mablag‘lari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda pensiyalarni hisoblashda, aksariyat hollarda ish haqi to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar saqlanmaganligi, shu kunga qadar arxivlarga hujjalarni topshirish va ularni saqlanishida kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi, to‘langan badallarning shaxsiy hisobi yuritilmaganligi sababli muammolarga duch kelinmoqda. Shuningdek, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan fuqarolarning sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan fuqarolarning sug‘urta badallari ma’lumotlarini

¹⁴⁸ Barton Waring, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011. –R.97.

yakka tartibda hisobga olishni joriy etish chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqildi»¹⁴⁹.

Mamlakatda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida aholining ish bilan samarali bandligini ta’minalash eng muhim ijtimoiy masalalardan hisoblanadi. Bu hisobga olingan holda mamlakatda yiliga o‘rtacha 1 millionta yangi ish o‘rinlari yaratish rejalanigan. Ish balan bandlik davlat va hududiy dasturlarga muvofiq yangi ish o‘rinlari quyidagilar hisobiga tashkil etiladi:

- investitsiya dasturlari, mahalliy lashtirish dasturlari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash tarmoq dasturlarini amalgga oshirish;

- vaqtincha ishlamayotgan korxonalarini, shu jumladan, tijorat banklari balansiga berilgan korxonalarini tiklash;

- kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

- kasanachilikni, birinchi navbatda, sanoat korxonalarini bilan mehnat shartnomasi bo‘yicha kooperatsiyalashga asoslangan kasanachilikni hamda hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish;

- fermer va dehqon xo‘jaliklarini, ayniqsa, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikka, shuningdek, meva-sabzavot va boshqa turdagи qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish.

Pensiya tizimi ijtimoiy ta’minot asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalgga oshirish uchun yo‘naltiriladigan pul mablag‘lari jamg‘armasidan foydalanishga asoslanadi. Nazariy ma’lumotlarga qaraganda pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg‘armalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag‘larning qat’iy maqsadli ishlatilishi, mablag‘larning shakllanishi va ishlatilish

¹⁴⁹O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligining 2015-yil 5-iyundagi 2015-20, 50-sonri qarori bilan tasdiqlangan. Illova. «Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestriنى shakllantirish va yuritish to‘g‘risida»gi nizom.

muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil moliya-kredit tashkiloti va byudjetdan tashqari ekanligi hamda ijtimoiy ta'minotining muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar e'tirof etiladi. Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag'lar foydalanilishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlaridan, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar olinmaydi.

«Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes subyektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi»¹⁵⁰.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo'ldi. Mamlakatimizda bandlik muammosini hal etishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirish,

¹⁵⁰Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи majlisidagi ma'ruzasi.

Lishilarning shaxsiy ijtimoiy jamg‘armalarini shakllantirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo‘lib bormoqda.

Yurtimizda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da «tadbirkorlar safini kenniyatirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarini mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdegisi vazifamiz bo‘lishi shart»¹⁵¹.

Respublikamizda sog‘lijni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, jumladan, yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy hujumoyaga muxtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va davlat pensiya ta‘minoti kabi katta ijtimoiy ahamiyatga molik boshqa masalalar bo‘yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishtiroki faollashtiriladi. O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy asosida ishtirok etishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi pensiya ta‘minotining yangi shakli sifatida jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘sishimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta‘minlanadi. Shaxsiy pensiya badallarni ajratishning majburiy va ixtiyoriy shakllari bo‘lib, fuqarolarning pensiya ta‘minotiga ajratgan badallari va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lariga hisoblab qo‘shilgan foizlar Xalq bankida ochilgan hisobvaraqqha kelib tushadi hamda daromadlar hisobga olinadi.

¹⁵¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr.uz/.../zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyee.

Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i tartib raqami o'zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochish talab etilmaydi. Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'inining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to'lab boradi. Ish beruvchilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o'z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar avvalo turli mulkchilik shakliga asoslanuvchi korxona va tashkilotlarda yollanish asosida mehnat qilayotgan xodimlar, yakka tadbirkorlar va boshqa fuqarolar, ularning vakillari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, O'zbekiston Respublikasi Xalq banking joylardagi filiallari sanaladilar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq banki shaxsiy hisobga olishni amalga oshiruvchi hisoblanadi. Shaxsiy hisobga olish quyidagi larni o'z ichiga oladi: fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish; ish davrlari (o'zgarishlar) va hisobga olingandan keyingi ish davri uchun shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar to'lash miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish; jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini miqdorini belgilash va unga tuzatish kiritish jarayonini axborot bilan ta'minlash.

Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi - fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashishini tasdiqlovchi hujjat, unda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'inining asosiy rekvizitlari ko'rsatiladi va ushbu hisobvarag'ida pul mablag'larining harakati aks ettiriladi. «Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi to'g'risida»gi nizom O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya

tin'minoti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalari shaklini va mazmunini, shuningdek, ularni hisobga olish, saqlash, ochish va yuritish tartibini belgilaydi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan beriladigan, fuqaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishga huquqini tasdiqlaydigan hujat hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasida shaxsiy jumg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining asosiy rekvizitlari ko'rsatiladi hamda ushbu hisobvarag'idagi mablag'lar harakati, shu jumladan, kiritilgan badallar, ular bo'yicha foizlarni hisoblash va jumg'arib boriladigan pensiya to'lovleri bo'yicha operatsiyalar aks ettiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi) — jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs. Yuridik shaxslar — ish beruvchilar, ularda mehnat shartnomasi asosida yollanib ishlovchi fuqarolar pensiya tizimi ishtirokchilari hisoblanadi. Yakka tartibdag'i tadbirkorlar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмагan dehqon xo'jaliklarining a'zolari va vaqtinchalik ish faoliyati bilan shug'ullanmaydigan fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasining investitsion faolligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Jamg'arma mablag'larining ishonchli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilayotganligi ustidan nazoratni va maslahatlarni berish ishlarini yuqori bilimga ega moliya bozori professional ishtirokchilari olib borishi lozim.

2. Aholi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishi uchun doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida, korxona, tashkilotlar va mahalla fuqarolar yig'inlarida tushuntirish va targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish lozim.

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorining dastlab kam darajada (oylik ish haqining ikki foizi miqdorida) belgilanishi va kelgusida uning miqdorini oshirib borilishi imkoniyatidan kelib chiqib, investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishni ko‘paytirish uchun xodimlardan undiriladigan badal miqdorini hozirgi sharoitda oylik ish haqidan 3,0% miqdorida belgilash mumkin.

4. Davlat va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari summalar o‘rtasidagi farqni qisqartirish, fuqarolarni pensiya ta’minoti - uni jamg‘armaga to‘lagan badallariga bog‘liqligini oshirish uchun keyinchalik xodimlarning ish haqidan undiriladigan badal foizlarini oshirib borish mumkin.

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mablag‘lari fuqarolarni ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga ham shakllanishini inobatga olib, ixtiyoriy pensiya badallarini rag‘batlantirish maqsadida, jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqalariga to‘langan badal summalar respublikada ish haqi miqdori oshirilgan holatlarda mutanosib ravishda oshirib borilishi lozim.

6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirishda jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni oshirish hamda aholini ijtimoiy himoyalash va fuqarolarning ish bilan bandligini ham ta’minlash zarur.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalq banki, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti; jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘lari; ixtiyoriy badallar; majburiy badallar; jamoa shartnomasi; mehnat shartnomasi; fuqarolar; xo‘jalik yurituvchi subyektlar; soliq agentlari; aholi; soliq organlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larining tarkibiy tuzilishi va dinamikasini aytib bering.

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larining manbalari nimalardan iborat?

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini shakllantirish jarayonidagi o‘ziga xos muammolarni ko‘rsating.

4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘lari barqarorligini ta’minlashda ish beruvchining o‘rnini ko‘rsating.

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini shakllantirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining ishtirokini tushuntiring.

6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini shakllantirishda soliq idolarining faoliyatini izohlang.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “To‘liq bandlik asosida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘lari barqarorligini ta’minlash” mavzusida referat yozing.

2. “Xalq banki tomonidan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish” mavzusida keys stadi tuzing.

Test savollari

1. Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini ...tashkil etadi.

- A. Muvoqiflashtirish Kengashi.
- B. Xalq banki.
- C. Markaziy bank.
- D. Moliya vazirligi.

2. JBPT mablag‘larini ... joylashtirilishi mumkin

A. Davlat qimmatli qog‘ozlariga, ipoteka obligatsiyalariga, muomalaga chiqarilgan va listingdan o‘tgan korporativ qimmatli qog‘ozlarga, banklardagi milliy va chet el valyuta-sidagi muddatli depozitlarga.

B. Muomalaga chiqarilgan va listingdan o‘tgan korporativ qimmatli qog‘ozlarga.

- C. Ipoteka obligatsiyalariga.
- D. Davlat qimmatli qog‘ozlariga.

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsgauning shaxsiy imzosi ostida jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi beriladi.

- A. Uch ish kuni mobaynida.
- B. O‘n ish kuni mobaynida.
- C. Bir ish kuni mobaynida.
- D. Besh ish kuni mobaynida.

4. Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan .. «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag‘lar» balans hisobraqamida jamlanadi.

- A. 22628.
- B. 22624.
- C. 22625.
- D. 22627.

5. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni shakllantirish manbayi -

- A. Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari.
- B. Jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari.
- C. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlar.
- D. Barchasi to‘g‘ri.

6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotidamumkin emas.

A. Davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi.

B. Ish beruvchining jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarini to‘lashi uchinchi shaxslarning foydasiga amalgao shiriladi.

C. Xalq banki fuqarolarga umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi.

D. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchilari va ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga omonatlari to‘g‘risidagi Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasi yaratiladi.

7. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati nusxasini, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari tartib raqami, familiyalar, har bir xodimning hisoblab chiqarilgan ish haqi summasi, boshqa daromadlari va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi ko‘rsatilgan xodimlar reyestrini ish beruvchi o‘zi turgan joydagি Xalq banki filialiga ...

- A. Har oy taqdim etishi shart.
- B. Har kuni taqdim etishi shart.
- C. Har chorak taqdim etishi shart.
- D. Har yili taqdim etishi shart.

8. Ish beruvchi so‘rvnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning aniqlashtirilishini va tuzatilishini ta‘minlaydi va uni Xalq banki filialiga qaytaradi.

- A. Uch ish kuni mobaynida.
- B. O‘n ish kuni mobaynida.
- C. Bir ish kuni mobaynida.
- D. Besh ish kuni mobaynida.

9. Soliq agentlari soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnomma taqdim etishi shart.

- A. Davlat Soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi.
- B. Markaziy bank va Moliya vazirligi.
- C. Markaziy bank va Xalq banki.
- D. Davlat Soliq qo‘mitasi va Xalq banki.

10. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarnig ish haqidan majburiy sug‘urta badallariasosan yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarini to‘lash har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

- A. Soliq Kodeksining 310-moddasiga.
- B. Soliq Kodeksining 188-moddasiga.
- C. Soliq Kodeksining 187-moddasiga.
- D. Soliq Kodeksining 311-moddasiga.

11. ...Pensiya jamg‘armasiga jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan fuqarolarning sug‘urta badallari ma’lumotlarini yakka tartibda hisobga olishni joriy etish chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqildi.

- A. Davlat soliq qo‘mitasi, Pensiya jamg‘armasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda.
- B. Davlat soliq qo‘mitasi, Bandlik jamg‘armasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda.
- C. Davlat soliq qo‘mitasi, Pensiya jamg‘armasi, Moliya vazirligi bilan birgalikda.
- D. Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda.

VII BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI MABLAG'LARINING SARFLANISHI

7.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xarajatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi

Keksalarimizga ko'rsatilayotgan maxsus yordamlar, ularning moddiy, ijtimoiy, maishiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarimiz bilan birga ular yashayotgan xonadonlar, mahallalar, qishloq va shaharlarimizni obod va farovon qilish borasidagi faoliyatimiz va ularning amaliy samarasi hech shubhasiz, keksalarimizning hayotini yanada mazmunli va fayzli qilishga qaratilgani bilan alohida e'tiborlidir.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, mustaqillik yillardan, 2005-yildan boshlab mamlakat aholisi tabiiy o'sishi orta borgan sari qoplash koeffitsiyenti 37,0 foizdan 41,0 foizdan oshirish tendensiyasiga ega bo'ldi. Jahon iqtisodiyotini kelajakda kutayotgan demografik inqiroz mamlakatlarni pensiya islohotlarga bo'lgan e'tiborining kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, ko'plab mamlakatlar o'z pensiya tizimlarini quyidagi uch yo'nalish bo'yicha isloh qilishmoqda¹⁵²:

– pensiya sug'urta tizimining moliyaviy ta'minotini yaxshilash. Bunda norasmiy bandlikni pasaytirishga, pensiya yoshini oshirishga va pensiya bo'yicha imtiyozlarni qisqartirishga qaratilgan choralar qabul qilinmoqda.

– minimal pensiya qiymatini oshirish – Yevropa Ittifoqida har beshinchchi pensioner qashshoqlik xavfiga yuz tutadi. Buyuk Britaniyada har uchinchi pensioner bu xavfga duch keladi;


– xususiy pensiya tizimlarida xavf-xatar darajasini pasaytirish.

¹⁵² Гурвич Е.Т. Пенсионная реформа: общие принципы и необходимые меры. – М.: Экономическая экспертиза группа 2011. – С.2

Ko‘plab mamlakatlarda xususiy pensiya fondlarini davlat tomonidan nazorat qilish kuchaytirilmoqda va investitsiyalar kiritilishi mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar turlari belgilanmoqda. Pensiya tizimining maqsadi hamma turdagи pensionerlarni moddiy ta‘minlashning barqaror iqtisodiy mexanizmini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi muammolarni hal qilish kerak:

1. Pensionerlarning xarid qobiliyatini darajasini kamaytirish.
2. JBPTda aholining iqtisodiy faolligini oshirish.

Respublikamizda «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingandan keyin o‘tgan davr mobaynida jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar hamda pensiya ta‘minotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar ushbu tizimni isloq qilish zarurligini taqozo etmoqda. Pensiya ta‘minoti sohasida islohotlar o‘tkazish eng avvalo, bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazasini talab qiladi. Pensiya jamg‘armalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ommabop bo‘lishining zaruriy sharti to‘lovlar yuqori darajada kafolatlanganligidadir. Shu tariqa, respublikamizda ijtimoiy barqarorlik vazifasi amalga oshirilmoqda.



7. I-rasm. O‘zbekistonda jami pensionerlar soni dinamikasi
(yil oxirigacha ln. kishi)¹⁵³

¹⁵³Vaxabov A.V. Pensiya tizimining moliyaviy barkarorligini ta‘minlash muammolari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 15-noyabr. 7-b.

Davlat pensiyasiga chiqqan fuqarolarni qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to'lovlari oluvchi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega¹⁵⁴.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. «Murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo'lishi mumkin. Murojaatlar arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida bo'lishi mumkin. Ariza - huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan murojaatdir»¹⁵⁵. To'lovlarni oluvchilar o'zлari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishni yoki jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini bir yo'la olishni tanlash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunning maqsadi davlat organlari va davlat muassasalariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlariga murojaat etish huquqiga ega. Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Davlat organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish davlat

¹⁵⁴O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni. 2004-yil. 2-dekabr.16-modda. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi.

¹⁵⁵O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 29-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2014-yil 13-noyabrdan ma'qullangan.

organining rahbari yoxud boshqa vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Davlat organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi mazkur organlar rahbarlari tomonidan belgilanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomani berish so‘ralgan arizani O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonuni 6-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan fuqarolar ish beruvchi orqali, ushbu qonuning 6-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan fuqarolar esa bevosita yashash joylardagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman shaxar bo‘limiga beradilar.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisoblarida to‘plangan pul mablag‘lari faqat ana shu hisob egalari bo‘lgan fuqarolarga tegishlidir. Ularning o‘zлari, ishonch bildirgan boshqa shaxslar yoki merosxo‘rlardan boshqa hech kim pul mablag‘ini olish huquqiga ega emas. Fuqarolar shaxsiy jamg‘arma pensiya mablag‘larini olishlari davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lingan paytdan boshlab bir vaqtda yoki oyma-oy teng ulushlarda olishlari mumkin, uning shakli oluvchi tomonidan belgilanadi.

«Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi - uning foydasiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga badallar kiritiladigan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir»¹⁵⁶.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini to‘lash uchun foydalaniladi. Fuqaro vafot etgan taqdirda, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar qonun hujjalariada

¹⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunimi amalga oshirish choratadbirlari haqida»gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 2-ilova. «Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

belgilangan tartibda merosga o‘tadi va merosxo‘rga bir yo‘la to‘la hujmda to‘lanadi. Fuqaro O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo‘lsa, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar bir yo‘la to‘la hujmda to‘lanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining huquqlari

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan to‘lovlarini belgilangan tartibda olish

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘dagi jamg‘armalarning holati to‘g‘risida, shuningdek, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlar xaqida axborot olish

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi jamg‘armalarni qonun hujjalariга muvofiq vasiyat qilib qoldirish

7.2-rasm. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining huquqlari

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomada jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini boshlanadigan sana ko‘rsatiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma bunday to‘lovlarini oluvchiga ariza O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga kelib tushgan kundan e’tiboran besh ish kuni ichida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma o‘z vaqtida berilishini ta‘minlaydi hamda berilgan guvohnomalar hisobini yuritadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan berilgan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida bunday to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan to‘lanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri ularni olish uchun murojaat etilgan oydan keyingi oydan e‘tiboran, lekin bunday to‘lovlarini oluvchida davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgach, to‘lanadi. Bunday to‘lovlarini oluvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni qonun hujjatlariga muvofiq berilgan hujjatlar asosida ishonchli shaxslar orqali olishlari mumkin.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

–shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan to‘lovlarini belgilangan tartibda olish;

–shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi jamg‘armalarining holati to‘g‘risida, shuningdek, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlar haqida axborot olish;

–shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi jamg‘armalarini qonun hujjatlariga muvofiq vasiyat qilib qoldirish.

–jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi Xalq bankining mazkur to‘lovchi oldidagi majburiyatlarini bajarishiga ta‘sir qiluvchi o‘zgarishlar to‘g‘risida Xalq banki filialiga xabar qilishi shart.

–qonun hujjatlariga muvofiq, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

7.2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibi

«Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonuniga muvofiq. Xalq bankida ochilgan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibini belgilaydi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdori fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag ‘ida jamg‘arilgan pul mablag‘lari doirasida belgilanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish uchun fuqarolar mazkur Nizomga¹⁵⁷ muvofiq shakl bo‘yicha Guvohnoma berish to‘g‘risidagi ariza bilan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qiladilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchisi bo‘lgan xodim tomonidan vakil qilingan ish beruvchining mansabdor shaxsi ariza beruvchi bo‘lishi mumkin.

Bu holda ariza jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya

¹⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 3-ilova. «Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.

to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnomani berish so'ralgan ariza davlat pensiyasi olish huquqi yuzaga kelgandan keyin biron-bir muddat bilan cheklanmagan holda, istalgan vaqtida berilishi mumkin.

shakl

ga
 (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
 huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya
 jamg'armasi bo'limi nomi).

ARIZA

Fuqaro _____
 (familiyasi, ismi, otasining ismi)

Manzili _____
 (ro'yxatda turgan manziliga asosan)

PASPORT	Seriysi			Raqami					
	Berilgan sanasi			Kim tomonidan berilgan					
	Tug'ilgan sanasi								
	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i raqami								

Davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lganligim munosabati bilan menga mening shaxsiy jamg'arib boriladigan hisobvarag'imdan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar shaklida pul mablag'lari berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishingizni so'rayman.

Menga _____ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
 (tuman, shahar nomi)

huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan

20____ yil "___" dan davlat pensiyasi tayinlangan.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag' to'lash tartibi to'g'risidagi nizom bilan tanishdim.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinadi (*Hujjatlar nomi asl nusxadami yoki asl nusxasidan ko'chirma ekanligi ko'rsatilsin*):

- 1) _____
- 2) _____
- 3) _____

Shaxsan ko'rsatiladi:

1) jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi

2) pasport

Sana: 20____ y. "___"
 (shaxsiy imzo)

Arizaga jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi, shuningdek, fuqaroning yoshi, nogironligi yoki boquvchisini yo'qotganligi tufayli davlat pensiyasi olishga bo'lган huquqini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

shakl

**JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA
TO'LOVLARI OLİSH HUQUQI TO'G'RISIDA
GUVOH NOMA**

20__ yil " __" ____ № _____

(tuman, shaiar nomi) O'zbekiston
Respublikasi Moliya vazirligi
iuzuridagi byudjetdan tashqari
Pensiya jamjarmasi bo'limi

Mazkur guvoinoma fuqaro _____ ning
(F.I.O.)

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamjarib boriladigan pensiya ni'mnoti to'jisida"gi qonuni 16-moddasiga muvofiq shaxsiy jamjarib boriladigan pensiya yosha doir pensiyaga, nogironligi bo'yicha pensiyaga chiqish iuquqi mavjudligi yoki boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan (keraklisining tagiga chiziladi)

iisobvarajidan

(jamjarib boriladigan pensiya daftarchasida ko'rsatilgan shaxsiy
jamjarib boriladigan pensiya iisobvarajining tartib raqami)

jamjarib boriladigan pensiya to'lovlari olish iuquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

To'lov 20__ yil _____ dan boshlanadi.
(oy)

To'lov 20__ yil _____ da tugaydi*.
(oy)

Bo'lim boshliji _____
(imzo) (F.I.O.)
M.O'

*) nogironligi bo'yicha pensiyaga chiqish iuquqi mavjudligi yoki boquvchisini yo'qotganda to'ldiriladi".

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi to‘g‘risidagi nizoming (4-ilova) 11-bandı quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olingan har qaysi fuqaro uchun, fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur hujjatlar olingan va Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Xalq banki filiali tomonidan:

Yozma ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingandan keyin uch ish kuni mobaynida;

Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda rasmiylashtirilgan hujjatlar olingan paytdan boshlab bir kun muddatda rasmiylashtiriladi".

Agar jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish to‘g‘risidagi murojaat yoshi yoki nogironligi bo‘yicha davlat pensiyasi tayinlangandan keyin tushgan taqdirda "Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan beriladigan belgilangan shakldagi pensiya guvohnomasi ilova qilinadi.

Fuqarodan boshqa hujjatlar talab qilinmaydi. Ariza tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan ariza va ilova qilinayotgan hujjatlar qabul qilib olinishida arizada ko‘rsatilgan ma'lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligi tekshiriladi.

Tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga fuqaroning yoshi, nogironligi bo‘yicha yoki boquvchisini yo‘qotganligi tufayli davlat pensiyasi olish huquqini tasdiqlovchi

hujjatlarning to‘liq to‘plami taqdim etilgan kun ariza ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana hisoblanadi. Tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg ‘armasi bo‘limi ariza olingan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanadan boshlab uch ish kuni mobaynida mazkur Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha jamg ‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risida guvohnomani beradi. Nogironligi bo‘yicha yoki boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya tayinlashda Jamg ‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomada to‘lovarning boshlanish va tugash muddatlari ko‘rsatiladi.

Jamg ‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchida fuqaroning yoshi, nogironligi bo‘yicha yoki boquvchisini yo‘qotganligi tufayli davlat pensiyasini olish huquqi yo‘qligi munosabati bilan guvohnoma berish rad etilgan taqdirda, tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg ‘armasi bo‘limi ariza olingan kundan boshlab uch kun muddatda ariza beruvchiga rad etish sabablari va shikoyat qilish tartibi ko‘rsatilgan holda rad etish to‘g‘risidagi xabarnomani yuboradi.

7.3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotida amalga oshiriladigan pensiyalar va boshqa to‘lovlar

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchilarga guvohnomani ularning arizasi asosida shaxsan beradi, guvohnoma oluvchilarning yashash joyi o‘zgarganda ham amal qiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdori jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lar summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining eng kam yoki eng ko‘p miqdorini belgilash nazarda tutilmaydi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan barcha mablag‘larni

bir yo‘la olishda to‘lovlar jamg‘arilgan pensiya to‘lovlarni olish vaqtida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lar doirasida to‘liq hajmda amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari bo‘lib-bo‘lib olingan taqdirda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazilgan jamg‘arilgan summa jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni oluvchi ushbu to‘lovlarni olishni xohlaydigan oylar soniga bo‘linadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni amalga oshirish davri va davriylici jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni oluvchi tomonidan belgilanadi va cheklanmaydi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan to‘lovlar to‘lov tayinlangan kalendar oydan keyingi oyda amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib olishda joriy to‘lovlar miqdori ikkinchi kalendar yildan boshlab quyidagi tartibda belgilanadi:

a) to‘lov boshlangan yildan keyingi kalendar yildan boshlab shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdori har qaysi kalendar yil uchun alohida-alohida belgilanadi;

b) har qaysi kalendar yil uchun to‘lovlar miqdorini belgilashda xodimning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘larning kalendar yil boshidagi holatiga ko‘ra qoldig‘i hamda xodimning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamlangan, oldingi kalendar yil mobaynida olingan pensiya jamg‘armalarini investitsiyalashdan foizlar hisobga olinadi.

Har qaysi kalandar yil uchun belgilanadigan har oylik to‘lov miqdori quyidagi formula bo‘yicha belgilanadi:

$$P = (PJQ + FD)/(N_0 - N_0 p),$$

bunda:

P - joriy kalendar yil uchun belgilangan har oylik to‘lov miqdori;

PJQ - pensiya jamg‘armasini joylashtirishdan olingan, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga ilgari o‘tkazilgan

summalarни hisobga olgan holda, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining to‘lanadigan qismida aks ettirilgan pensiya jamg‘armasining oldingi yil oxiridagi qoldig‘i;

FD - shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘larning oldingi kalendar yil uchun qoldig‘iga hisoblab chiqarilgan foizli daromad;

№ - to‘lovlarni olish oylarining soni;

№п - to‘lovlarning birinchi oyidan boshlab joriy kalendar yil boshigacha pensiya olib bo‘lingan oylar soni.

Pensiya jamg‘armasi investitsiyalaridan foizli daromad (**FD**) Xalq banki tomonidan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan amaldagi daromadlardan kelib chiqqan holda belgilanadi, bunda Xalq bankining belgilangan marjasи chegirib tashlanadi.

Marjaning miqdori Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Nizomda belgilangan shartlarda amalga oshiriladigan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘lar qoldig‘ini istalgan vaqtida bir yo‘la olish yoki jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari davrini va davriyilagini o‘zgartirish huquqiga ega.

Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini to‘lash yuzasidan shartnoma tuzish tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan berilgan guvohnoma hamda oluvchi tomonidan shaxsan ko‘rsatiladigan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi asosida yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq bankining filiali bilan oluvchi o‘rtasida Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha tuzilgan shartnoma shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan mablag‘larni to‘lash uchun asos hisoblanadi.

shakl

Jamg‘arib boriladigan pensiya
to‘lovlarini amalga oshirish to‘g‘risida

ShARTNOMA №_____

shahri 200_ y. " "

O‘z faoliyatini _____ da tasdiqlangan, _____ tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan Ustav asosida amalga oshiruvchi Xalq bankining
filiali nomidan uning Rahbari
(filial nomi)

bir tomonidan,

(F.I.O.)

hamda Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari olish huquqi
to‘g‘risidagi _____ -son guvohnomaga ega bo‘lgan, jamg‘arib
boriladigan pensiya tizimida shaxsiy doimiy tartib raqami
bo‘lgan, _____

da yashovchi, jamg‘arib
boriladigan pensiya to‘lovlari oluvchi fuqaro

(F.I.O.)

keyingi o‘rinlarda Oluvchi deb yuritiladi, ikkinchi tomonidan mazkur
Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida"gi
O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq Xalq bankining filiali o‘ziga
Oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i
dagi mablag‘lari hisobiga jamg‘arib boriladigan pensiya
to‘lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.

2. Oluvchining xohishiga ko‘ra jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari 200_ y.
" " dan boshlab _____ amalga oshiriladi.

(amalga oshirish shakli: qisman yoki bir yo‘la)

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini bir yo‘la to‘lash amalga
oshirilganda, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan to‘lov
mablag‘lari mazkur shartnomasi imzolangan vaqtadan boshlab besh kun muddatda
to‘lanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari qismlarga bo‘lib to‘langanda,
Oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi
mablag‘lari batamom foydalanim bo‘lingunga qadar har oyda _____ oy mobaynida
to‘lab boriladi.

Xalq bankining filiali tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya
to‘lovlarini amalga oshirish sanasi - har oyning _____ kuni.

3. Jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlaringin har oydag'i miqdorini aniqlashda Xalq bankining filiali Fuqarolarning shaxsiy jamg 'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlardan mablag' to'lash tartibi to'g 'risidagi nizomning bandlarida ko'rsatilgan shartlarga amal qiladi.

4. Jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlari Oluvchining shaxsiy jamg 'arib boriladigan pensiya hisobvarag 'idan jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlari bir vaqtning o'zida hisobdan chiqarilgan holda Xalq banki filialining da joylashgan kassasida naqd pul shaklida amalga oshiriladi;

Xolisona vaziyatlarda jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlarini bevosita kassada olishning Oluvchi uchun imkoniyati bo'lмаган taqdirda, Xalq bankining filiali jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlarini jamg 'arib boriladigan pensiya hisobvarag 'ini yuritish bo'yicha operatsiya xarajatlari uchun nazarda tutilgan mablag' lardan qoplagan holda bevosita Oluvchining manzili bo'yicha amalga oshiradi.

5. Oluvchi vafot etgan taqdirda shaxsiy jamg 'arib boriladigan pensiya hisobvarag 'idagi pul mablag' lari qoldig'i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga bir yo'la to'lanadi.

6. Jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlari Xalq bankining filiali aybi bilan o'z vaqtida to'lanmaganda, filial Oluvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun to'lanishi kerak bo'lган jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovi kechiktirilgan summasining 0,2 foizi miqdorida, biroq 10 foizdan ortiq emas, penya to'laydi.

Penya to'lash Xalq bankining filialini jamg 'arib boriladigan pensiya to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

7. Xalq bankining filiali qayta tashkil etilgan, qayta o'zgartirilgan yoki tugatilgan taqdirda mazkur Shartnomaning shartlarini bajarish bo'yicha majburiyatlar uning huquqiy vorisiga yoki Xalq bankining muassislariga o'tadi.

8. Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Oluvchining shaxsiy jamg 'arib boriladigan pensiya hisobvarag 'idagi mablag' lar batamom tugagunga qadar amal qiladi.

9. Shartnoma Tomonlarning yozma kelishuvi bo'yicha bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

10. Mazkur Shartnomaning shartlari bajarilmaganligi sababli paydo bo'ladijan nizolar muzokaralar olib borish yo'li bilan, o'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal etiladi.

Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lган, har bir Tomon uchun bir nusxdadan ikki nusxada tuzildi.

Tomonlarning rekvizitlari:

Xalq banki filiali:

Oluvchi:

Tomonlarning imzolari:

Xalq banki filiali rahbari

M.O'.

Oluvchi

Shartnomani bir tomonidan, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi, ikkinchi tomonidan, Xalq banki filialining rahbari imzolaydi. Shartnoma ikki nusxada to‘ldiriladi, ulardan bittasi jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchiga beriladi, ikkinchisi Xalq banki filialida qoladi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi tomonidan shartnoma uning qonuniy vakili tomonidan tuzilishi mumkin.

Shartnoma jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘lar to‘liq tugagandan keyin o‘z-o‘zidan o‘z kuchini yo‘qotadi. Shartnoma tuzish vaqtida Xalq banki filiali jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchiga uning huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini mufassal tushuntirishi shart. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri oluvchining yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan amalga oshiriladi.

Kolisona sabablarga ko‘ra oluvchining Xalq banki filialiga kelish imkoniyati bo‘limgan taqdirda jamg‘arib boriladigan pensiya

to‘lovlarini oluvchining uyiga yetkazib berish Xalq banki filiali tomonidan amalga oshiriladi. To‘lovlarni yetkazib berish haqi Xalq banki tomonidan, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha operatsiya xarajatlari uchun nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida to‘lanadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari bevosita shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i egalariga, ular jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatgan taqdirda amalga oshiriladi. Yashash joyi yoki pasportidagi ma‘lumotlar o‘zgargan taqdirda jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi bu to‘g‘rida Xalq banki filialini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xalq banki filiali tegishli o‘zgartirishlarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining umumiyligini qismiga belgilangan tartibda kiritadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari quyidagi hollarda to‘xtatiladi¹⁵⁸:

–shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar batamom tugaganda;

–to‘lovlarni oluvchi shaxsiy jamg‘arib borilgan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan jami summani merosga o‘tkazish maqsadida to‘lovlarni olishdan yozma ravishda notarial tasdiqlangan tartibda voz kechganda;

–davlat pensiyasi olish huquqini yo‘qotganda.

Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag‘lar foydalанишдан fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlardan, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar olinmaydi. To‘lovlarni oluvchilar o‘zlarini mustaqil ravishda belgilaydigan muddat

¹⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida”gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 3-ilova. «Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

mobaynida har oylik jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishni yoki jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini bir yo‘la olishni tanlash huquqiga ega.

Pensiya ta’minoti bo‘yicha xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, pensiya sxemalarini moliyalashtirish bo‘yicha ikkita asosiy usuli mavjud¹⁵⁹:

1. Pensiyanı to‘lash bo‘yicha joriy sarf-xarajatlarnı joriy tushumlardan qoplash.

2. Hozirgi va kelajakdagı barcha pensiya to‘lovlarini ta’minlaydigan maxsus zaxirani yaratish.

Moliyalashtirishning birinchi usulini qo‘llaydigan pensiya sxemalari jamg‘arilmaydigan sxemalar turkumiga kiradi (taqsimlash sxemalari). Pensiya ta’mintoning bunday sxemasida makro darajadagi xarajatlar va badallar muvozanati quyidagi oddiy formula orqali ifodalanadi:

$$Nj *S1, *P = N2*S2;$$

bu yerda

Nj – ishlochilarining umumiy soni;

S1 – o‘rtacha ish haqi;

R – pensiya badallarining stavkasi

N2 – pensionerlarning umumiy soni

S2 - o‘rtacha pensiya.

Moliyalashtirishning ikkinchi usuli jamg‘ariluvchi sxema guruhiga kiradi. Bunday sxemalar yana jamg‘ariladigan sxemalar deyiladi¹⁶⁰. Ular pensiyani ushbu maqsadda to‘plangan pullik jamg‘armadan to‘lashga asoslangan bo‘lib, odatda pensiya jamg‘armalari deb ataladi. Ushbu usulda yoshga doir pensiya ta’minoti uzoq muddatli investitsion jarayon bo‘ladi va bu jarayon jamg‘armaga badallar kiritish va bu yig‘ilgan pullarni investitsion

¹⁵⁹ Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. 85-b.

¹⁶⁰ Dan McGill, Kyle N. Brown, John J. Haley, Sylvester Schieber, Mark J. Warshawsky. Fundamentals of Private Pensions 9th Edition. Pension Research Council. Oxford University Press. UK, 2010. P.15-16.

daromadlar hisobiga keyin ko‘paytirishni va bundan so‘ng to‘plangan pullarni muntazam davriy to‘lovlar ko‘rinishida olishni nazarda tutadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini to‘lash uchun foydalaniladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini ko‘paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag‘lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lidan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilmaydi.

Fuqarolarning shaxsiga oid ma’lumotlar bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar: mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagи ma’lumotlar hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma’lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o‘z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda 2012-yil yanvar holatiga ko‘ra 7 million nafardan ziyod fuqaro jamg‘arib boriladigan pensiya oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan.

Qonun hujjalari belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimida qo‘yilgan mablag‘larni markazlashgan holda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirib kelmoqda. Bundan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan mumkin bo‘lgan investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanishda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holatni tahlil qilish kerak. Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy o‘sish va qimmatli qog‘ozlar bozorida erishilayotgan

yutuqlarni o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishda korrelyatsion tahlildan foydalanish mumkin.

Pensiya jamg‘armasining moliyaviy faoliyatini investitsiyalash ko‘rinishida takomillashtirish muhimdir. Pensiya jamg‘armasi moliya bozorida investor sifatida qatnashish mumkin. Jamg‘arma pensiya ta’mnoti tizimidagi mablag‘lari bank depozitlari, davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilishi mumkin, ammo bu jarayonda pensiya aholini mablag‘laridan to‘planganligi tufayli moliya bozorida mayjud risklarga e’tibor qaratilishi shart.

7.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta’minlash

«Pensiya» (lotincha «pensio» – «to‘lov» so‘zidan) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va odatda, umrbod naqd pul shaklida va pensionerning elektron hisobraqamiga to‘lanadigan to‘lovlar hisoblanadi»¹⁶¹. Davlat pensiya tizimining subyektlari – davlat, ish beruvchilar va pensionerlar, nogironlar, boquvchisini yo‘qtgan oilalardir. Pensiya tizimining obyektlari – davlat pensiya ta’mnoti idoralari, Pensiya jamg‘armalari, Xalq banki bo‘linmalari, pochta bo‘linmalari va boshqalar.

Respublikamizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, fermer xo‘jaliklari va yuridik shaxs tashkil etgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan 2005-yil 5-yanvargacha bo‘lgan muddatda ish beruvchilar joylashgan joy bo‘yicha Xalq bankining tuman (shahar) filiallariga belgilangan shakllarga muvofiq xodimlarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun ma'lumotlar taqdim etilishi ta’minlandi. Ma'lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi, ularning to‘liqligi va ishonchliligi uchun shaxsiy javobgarlik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlari zimmasiga yuklatildi.

¹⁶¹ Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. - T.: “Iqtisodiyot”. 2013. 378-b.

Xalq banki tomonidan 2005-yil 1-martgacha bo‘lgan muddatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida xodimlar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinishini, ular uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochilishini ta’minlandi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari berildi. Fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish zarur ma’lumotlar besh kun mobaynida taqdim etildi. Xalq banki O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2005-yil 1-aprelgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo‘yicha fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinishining to‘liqligi to‘g‘risida axborot berdi.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog‘lom, munosib turmush kechirish, ma’lumotli bo‘lish uchun zarur vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o‘zлari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni aholiga uning ehtiyojlarini va manfaatlariga muvofiq ravishda o‘zini ta’minalash uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak.

Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o‘sishni ta’minalabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi. Bunday rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning o‘z turmushlariga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishlarini ta’minalashni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish inson manfaatini ko‘zlaydi, ular uchun ish joylarni ko‘paytirishga, ish joyida mehnat shartnomalari tuzishda, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Insonni rivojlantirishning asosiy mezoni umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan **Insonni rivojlantirish indeksidir**. XX asning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda insonga

va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasiga xarajatlar moddiy jamg‘armalar miqdoriga qaraganda yuqori bo‘lmoqda.

«Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. O‘tgan yil davomida «Keksalarni e’zozlash yili» Davlat dasturini to‘liq amalgalashish masalasi ham diqqatimiz markazida bo‘ldi. Bu haqda albatta uzoq gapirish mumkin, lekin muxtasar qilib aytganda, «Keksalarni e’zozlash yili» Davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalgalashish uchun barcha manbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard so‘m va 225 million dollardan ziyod mablag‘ sarflanganining o‘zi, o‘ylaymanki, bu boradagi ishlarimizning miqyosi va ko‘lamidan yaqqol dalolat beradi»¹⁶².

Insonni rivojlanadirish konsepsiysi nihoyatda ko‘p qirrali, uning inson va jamiyat hayotining turli tomonlarida qo‘llanilishi imkoniyatlari keng. “BMT Rivojlanish dasturining har yilgi insonni rivojlanadirish to‘g‘risidagi ma‘ruzalari va turli mamlakatlarning milliy ma‘ruzalari xuddi shundan dalolat beradi. Shu tariqa ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi insonni faqat ijtimoiy hayotning an‘anaviy ma‘naviy sohasidagina emas, takror hosil qilish jarayonlarida ham insonga markaziy o‘rinni ajratadi. Bunda inson ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning birlamchi va pirovard maqsadi ekanligi e’tirof etiladi. Ya‘ni rivojlanadirishning insoniy yoki ijtimoiy mezoni dominanti bo‘lib, moddiy-ashyoviy salohiyat esa bu rivojlanishning sharti deb belgilanmoqda»¹⁶³.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti qatnashchilari bo‘lgan fuqarolar quyidagilarga majburdir:

—jamg‘arib boriladigan pensiya tizmida o‘z vaqtida shaxsiy hisobga olishda turish;

¹⁶²Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi.

¹⁶³Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik.– T.: Iqtisodiyot. 2013. –B. 6-7.

–o‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mavjud ma’lumotlar o‘zgarganligi, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi yo‘qolganligi haqida ish beruvchiga yoki Xalq bankining filialiga ma’lum qilish;

–jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini zarur tartibda saqlash.

«*Insonni rivojlantirish*» tushunchasi uning qobiliyati va imkoniyatlarini shunchaki shakllantirishga qaraganda ancha kengroqdir. Bu imkoniyatlardan foydalanish mehnat jarayonida, dam olish va ijtimoiy faoliyatda, jamg‘armalardan foydalanishda ham nazarda tutiladi. Imkoniyatlarni shakllantirish va ularni ishga solish o‘rtasida mutanosiblik bo‘lmas ekan, inson salohiyatidan foydalanilmay qolinadi.

Avvalo, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta’kidlash joiz.

Yurtimizda 2018-yilga Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili, deb nom berildi. Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yonda-shuvsular, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir. «Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimmi, yangi ish o‘rnlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz»¹⁶⁴.

Xorijiy davlatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki¹⁶⁵, Juhon banki tomonidan turli mamlakatlar uchun ko‘p darajali pensiya tizimiga o‘tish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, davlat taqsimot dasturlariga ega bo‘lgan va keng aholi qatlamlari qamrab olinadigan

¹⁶⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr.uz/.../zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyee.

¹⁶⁵Dan McGill, Kyle N. Brown, John J. Haley, Sylvester Schieber, Mark J. Warshawsky. Fundamentals of Private Pensions 9th Edition. Pension Research Council. Oxford University Press. UK, 2010. P.15.

mamlakatlar, shuningdek, demografik muammolari bo‘lgan mamlakatlar uchun birinchi qadam – davlat pensiya tizimida islohotlarni o‘tkazish hisoblanadi.

7.1-jadval

Jahon mamlakatlarida yoshga doir pensiya olish uchun talablar¹⁶⁶

Mamlakatlar	Erkaklar uchun belgilan gan yosh	Ayollar uchun belgilangan yosh	Amal eta boshlagan yil
Yaponiya	70	70	2012
Islandiya	67	67	2007
Norvegiya	67	67	2011
Daniya	65-67	65-67	2008
Germaniya	65-67	65-67	2008
AQSh	65	65	2012
Ispaniya	65	65	2011
Belgiya	65	65	2009
Avstriya	65	60	2011
Buyuk Britaniya	65	60	2012
Gruziya	65	60	2011
Italiya	57-65	57-65	2009
Moldaviya	65	60	2011
Armaniston	63	63	2011
Qozog‘iston	63	60	2011
Qirg‘iziston	63	58	2011
Tojikiston	63	58	2011
Ozarbayjon	62,5	57,5	2011
Turkmaniston	62	57	2011

Buning uchun pensiyaga chiqish yoshini ko‘tarish, imtiyozli pensiya tayinlash shartlarini qat’ylashtirish, kechroq pensiyaga chiqishni rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish, pensiya belgilash normativlarini o‘zlashtirish va boshqa chora-tadbirlar

¹⁶⁶ Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”. 2013. 384-b.

o'tkazilishi lozim. Ikkinchi qadam majburiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish bo'ladi, ya'ni bosqichma-bosqich davlat pensiyasi miqdorini asta-sekin kamaytirib, pensiya badallarini majburiy pensiya tizimiga qayta taqsimlash yo'li tanlanadi. Bunday bosqichma-bosqich o'tish Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida ham amalga oshirila boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, Jahon banki huvsiyalari Vengriya, Latviya va Qozog'istonda pensiya islohotlarini amalga oshirishda qo'proq e'tiborga olingan. Pensiya tizimini isloh qilishning yana bir yo'li – bu birdamlik pensiya tizimi doirasida to'lanmay yig'ilib qolgan qarzlarni e'tirof etish va ularni to'lash majburiyatini olish, bir vaqtning o'zida tamomila yangi pensiya tizimini yaratishdir (Chili, Lotin Amsrikasi mamlakatlari). Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti davlat tomonidan tartibga solinganiga qaramay nodavlat sektorning zimmasiga yuklanishi tufayli iqtisodiyotga nisbatan soliq yukini kamaytirish bilan birqalikda iqtisodiyotdagagi kapital oqimini ko'paytiradi va tezlashtiradi.

Shunday qilib, pensiya ta'minotining xorijiy andozalarini o'zlashturish iqtisodiy o'sish sodir bo'layotgan, davlat pensiya tizimida mablag'lardan foydalanishning samaradorligi oshgan, ularga nisbatan tegishli nazorat amalga oshirilgan, qo'shimcha pensiya ta'minoti soliq imtiyozlari hisobidan rag'batlantirilgan sharoitdagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

O'zbekistonda davlat tomonidan aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish, muhtoj tabaqa-huriga beriladigan yordam aniq yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash, mablag'lardan maqsadli foydalanish, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mexanizmlarini aholi uchun tushunarli, sodda bo'lishiga erishish maqsadida qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Pensiya ta'minoti xususidagi yondashuvning mohiyati shundaki, har bir inson o'z hayoti uchun zarur bo'lган shart-sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bu esa, davlat pensiya tizimini fuqarolarning ish haqi va investitsion daromadlari hisobidan pensiya badallari to'lashga

asoslangan nodavlat tizim bilan almashtirishni ko'zda tutadi. Ularning asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

–jamg‘ariladigan asosga o‘tgan pensiya tizimi yalpi milliy jamg‘arish hajmini oshiradi va investitsiyalar miqdorining o‘sishiga olib keladi;

–xususiy boshqaruv ostidagi pensiya tizimi raqobat va siyosiy aralashuvdan xoli bo‘lganligi tufayli davlat pensiya tizimiga nisbatan samarali bo‘ladi;

–jamg‘ariladigan pensiya tizimi demografik muammolarga bog‘liq bo‘lmaydi;

–jamg‘ariladigan pensiya tizimi pensiyalar miqdorini fuqaroning ish haqi va pensiya jamg‘armalaridan foydalanish samaradorligiga bog‘liq ravishda tabaqlashtirish imkonini beradi.

“2014-yilda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi joylashtirishdan olingan daromad 93.3 mlrd mlrd so‘m bo‘lib, uning 69.3 %i individual jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini foiz daromadi to‘lovlar va 23.2 %i kelajakdagi jamg‘arma daromadlarini ta‘minlash uchun jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining rezerv fondini to‘ldirishga yo‘naltirildi. 2011-2013-yillarda bir fuqaroga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha jamg‘ariladigan mablag‘ miqdori 82 ming so‘mdan 124 ming so‘mgacha oshgani pensiya ta‘minotining barqarorligi ortib borayotganligini va istiqbolda amalga oshiriladigan islohotlar uchun bardoshliligini ifodalaydi”¹⁶⁷.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy kiritilgan badallariga inflyatsiya darajasidan kam bo‘limgan miqdorda daromadlar qo‘shib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»dagi 1438-sonli qaroriga ko‘ra

¹⁶⁷ Mamadjonov I., Mirzamahmudov M. Davlat pensiya ta‘minotini rivojlantirish masalalari. // Iqtisod va moliya. 2014. №5. 57-b.

ixtiyoriy kiritilgan mablag‘larga 2011-yildan boshlab Markaziy bank qayta moliyalash stavkasiga qarab daromadlar qo‘shildi.

O‘zbekiston Markaziy banki boshqaruvi qayta moliyalash stavkasini yillik 9 foiz darajasida o‘zgartirmasdan qoldirish to‘g‘-risida qaror qabul qildi. Qayta moliyalash stavkasining ushbu darajasi inflyatsiyaning maqsadli prognoz parametrлari doirasida bo‘lishini ta’minalash hamda investitsion faoliyikni rag‘batlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali pul-kredit siyosatini yuritish uchun xizmat qiladi. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan monetar siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarishi hamda pul bozoridagi holatdan kelib chiqib, belgilanadi, iqtisodiyotdagи foiz stavkalarining indikatori bo‘lib xizmat qiladi. Qayta moliyalash stavkasi monetar siyosat instrumentlaridan biri bo‘lib, Markaziy bankning tijorat banklari bilan operatsiyalarini amalga oshirishda qo‘llaniladi.

7.5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘laridan samarali foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari

Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minalash, ijtimoiy kafolatlarni berish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta’minlab turishning shart-sharoitini yaratadi.

Pensiya tizimining faoliyat yurishidagi muhim masalalardan biri - bu moliyaviy mablag‘larning yetarlilik darajasidir. Pensiya tizimini moliyalashtirishning ikkita yo‘nalishi mavjud¹⁶⁸: pensiyalarni to‘lash uchun xarajatlarni qoplash va jamg‘arilib boruvchi zaxira fondini shakllantirish. Bu boradagi rivojlangan mamlakatlar jumladan, Yevropa Ittifoqining tajribasini o‘rganish va uning maqbul tomonlarini mamlakatimizda qo‘llash mumkin.

¹⁶⁸Dan McGill, Kyle N. Brown, John J. Haley, Sylvester Schieber, Mark J. Warshawsky. Fundamentals of Private Pensions 9th Edition. Pension Research Council. Oxford University Press. UK, 2010. P.21.

Quyidagi jadval ma'lumotlarda Yevropa Ittifoqiga kiruvchi ayrim mamlakatlarda pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari ko'rsatib o'tilgan. Bu esa korxona va tashkilotlarning katta miqdorlardagi mablag'larini qayta investitsiyalash imkoniyatlarini yaratadi. Davlat tomonidan pensiya to'lovlarini qoplash bo'yicha subvensiyalarning ajratilishi, aholining davlat ijtimoiy siyosatiga va moliyaviy muassasalarga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Turli shakldagi moliyaviy tanazzullarning oldini oladi. Shu bilan birga mamlakat moliyaviy tizimining asosiy manbayi bo'lgan korxona moliyasining boshqarilishi va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

7.3-jadval

Yevropa Ittifoqining ayrim mamlakatlarida pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalari¹⁶⁹

Mamlakatlar	Xodimning ish haqidan ajratma (foizlar)	Ish beruvchining ajratmalari (ish haqi fondidan foizlar)	Davlat ishtiroki
Belgiya	7,5	8,9	Yillik xarajatlarni 20 foizi miqdoridagi
Fransiya	6,6	8,2	-
Gretsiya	4,7	9,5	-
Italiya	7,1	17	Subvensiyalar
Ispaniya	4,8	24	Subvensiyalar
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,4	Subvensiyalar
Germaniya	9,3	9,3	Subvensiyalar

Mutaxassislarning fikricha pensiya tizimi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan rivojlangan malakatlar boy tajribasidan samarali foydalanish, respublikamiz aholisini ijtimoiy himoyasini ta'minlash darajasini oshiradi va turli ijtimoiy muammolarni hal etilishida muhim o'rinn tutadi. Ko'pchilik mamlakatlardagi XMTning tavsiylariga ko'ra pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun bir xilda ya'ni 65

¹⁶⁹ Церкасевич Л.В. Современные тенденции социальной политики в странах Европейского союза. СПб. 2012. С. 109.


yosh qilib belgilangan. Yevropa mamlakatlarda pensiya yoshini belgilash ushbu tavsiyalardan birmuncha farq qiladi. Masalan pensiyaga chiqish yoshi, Fransiyada 60 yosh, Daniyada 67 yosh, Italiyada ayollar uchun 57 yosh va erkaklar uchun 62 yosh, Gretsiyada esa pensiya yoshi faqatgina ayollar uchun 60 yosh etib belgilangan. Shu bilan birga to'liq pensiya olish uchun zarur bo'lgan ish stoji uzunligi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda turlicha qilib belgilangan va bu boradagi jinsiy farqlar yo'qotilgan. Masalan, Daniya va Italiyada zarur ish stoji 40 yil, Angliyada 27 yil, Fransiyada 37,5 yil, Shvetsiyada 30 yil, Gretsiyada 11 yildan 35 yilgacha, Belgiyada erkaklar uchun 45, ayollar uchun esa 40 yil etib belgilangan. Ma'lumotlarini tahlil etish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning aksariyatida xodimlarning ish haqidan ajratmalar miqdori respublikamizda qabul qilingan me'yorlardan bir muncha yuqori.

O'zbekiston pensiya ta'minotining muhim xususiyatlardan biri – pensionerlarning aholi tarkibida kichik salmoqqa ega ekanligi hisoblanadi. Bu esa pensiya tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Statistiq ma'lumotlarga ko'ra mamlakat aholisining 58,0 foizdan ortiq qismi mehnatga layoqatli hisoblanadi. O'zbekistonda pensionerlarning aholi sonidagi ulushi kam bo'lishiga qaramasdan YALM dagi pensionerlarga pensiya to'lash xarajatlari salmog'i boshqa MDH davlatlarinikiga qaraganda yuqori.

Shuni alohida qayd etish lozimki, pensiya tizimini takomillash-tirish mehnatga haq to'lash, soliq tizimi, mehnat bozorining holati va moliya bozori bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlakatdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisi tabiiy o'sishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ajratib hal etib bo'lmaydi.

Shuningdek, ishlayotganlar sonining qisqarishi, davlat byudjetining xarajatlar qismida davlat xarajatlarining ortishi, aholining mehnatga qobiliyatlari qismiga tushadigan og'irlilikning ko'payishi, pensiya jamg'armasi mablag'lari shakllanishi aksariyat qismining ish beruvchilar tomonidan to'lanishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida ishlovchilar ish haqi darajasining ortishi va mutanosib ravishda qarilikni sug'urtalashdagi ulushining ortib borishi joriy pensiya to'lovlarida defitsitlik holatlarini vujudga keltirib,

amaldagi pensiya ta'minotini moliyalashtirishning isloh etilishini taqozo etmoqda. Quyidagi 7.3-rasmda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi modelining tavsifi berilgan.



7.3-rasm. Pensiya tizimi modellari¹⁷⁰

¹⁷⁰Martin Neil Baily, Jacob Funk Kirkegaard. US Pension Reform: Lessons from Other Countries. Peterson Institute for International Economics; 1 New edition USA, 2009. –P.17.

Mazkur tizimda pensiya ta'minotida taqsimot-tortiluvchan pensiya tizimi modeli va jamg'arish turidagi pensiya tizimi modeli komponentlari taqqoslanadi. Lekin yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlari bilan birga, jamg'ariladigan pensiya tizimi qator muammolarga ham ega bo'lib, ulardan asosiyлари quyidagilardan iborat:

–aholidan pensiya tizimlarining xususiyati, moliyaviy instrumentlar to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishni talab etadi;

–jamg'ariladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab bo'lib, aniq tartibga solishni talab etadi;

–jamg'ariladigan pensiya tizimida muvaffaqiyatsiz investitsion qarorlar qabul qilinishi yoki aktivlarni boshqarish xarajatlarining oshishi natijasida jamg'armalar miqdori kamayishi mumkin.

Kasbiy pensiya tizimlarining poydevori - tarmoq pensiya jamg'armalaridir. Gollandiyada ularning soni 90-100 tani tashkil etadi. Bu jamg'armalar pensiya badallari to'laydigan kompaniyalardan mustaqil bo'lgan iqtisodiy birliklar hisoblanadi. Mazkur jamg'armalar qoida bo'yicha o'z mablag'larini davlat qimmatli qog'ozlari yoki mamlakat kompaniyalari aksiyalariga investitsiya qiladilar. Ular faoliyati sug'urta boshqarmasi tomonidan nazorat qilib boriladi. Gollandiyaning barcha iqtisodiy subyektlari uchun biror tarmoq sug'urta jamg'armasida ishtirok etishi majburiydir. Agar bu subyekt kamida tarmoqdagi yetakchi sug'urta jamg'armasi to'laydigan nafaqa miqdorida nafaqa to'lash salohiyatiga ega bo'lgan o'z pensiya jamg'armasini tashkil etgan taqdirdagina ana shu majburiyatdan ozod qilinadi. Nodavlat pensiya ta'minoti qator soliq imtiyozlari: pensiya jamg'armasiga badallarni, shuningdek, jamg'armalarning investitsiya kiritishdan olgan foydalarini soliqdan ozod qilish joriy qilingan. Lekin pensiyadan fuqarolar daromadlari turidan biri sifatida katta miqdorda bo'lmasa ham daromad solig'i olinadi .

Shvetsiya 1999-yilda yangi turdag'i pensiya tizimini joriy etgan birinchi davlat hisoblanadi. Shvetsiyaning bu pensiya tizimi tajribasidan keyin turli mamlakatlarda u yoki bu darajada foydalananishdi. Mazkur modelga muvofiq, pensiya uch tarkibdan iborat:

- shartli-jamg‘arib boriladigan pensiya;
- jamg‘arib boriladigan pensiya;
- kafolatli pensiya.

G‘arbiy Yevropa standartlariga mos keladigan teran pensiya islohotlari o‘tkazilgan mamlakatlardan biri – Shvetsiyadir. Bu mamlakatda taqsimotga asoslangan an‘anaviy pensiya tizimi ham taqsimot, ham jamg‘arma unsurlarini o‘z ichiga oladigan aralash tizim bilan almashtirilmoqda. Shvetsiyada ishlovchilar va ish beruvchilarning pensiya badallari ish haqiga nisbatan 18,5 %ni tashkil qiladi. Ushbu ajratma ikki qismga ajratiladi. Pensiya badallarining 16,5 % joriy yilda taqsimlanuvchi pensiya tizimi asosida to‘lanadigan pensiyalarни moliyalashtirishga sarflanadi. Bunda individual jamg‘arma hisobraqamlari ochiladi va unda ishlovchining pensiya badallari aks etadi. Ammo ushbu mablag‘lar kapitalizatsiya qilinmaydi va shaxsning mulkiga aylanmaydi. Pensiya badallarining 2 % maxsus individual jamg‘arma hisobraqamlariga o‘tkaziladi. Ushbu hisobraqamdagи mablag‘lar sug‘urtalangan shaxsning tanloviga ko‘ra xususiy fondlardan biriga yoki davlat boshqaruvida bo‘lgan jamg‘armaga berilishi mumkin. Xodim pensiyaga chiqishi bian kapitallashgan jamg‘arma mablag‘lari qaytarib beriladi. Amalda Shvetsiyada taqsimlanuvchi pensiya tizimi aralash taqsimlanuvchi-jamg‘ariluvchi pensiya tizimi bilan almashtirilgan.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnotinini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aholi turmush farovonligini oshirishda muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jamiyatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik adolat, mehr-oqibat tamoyillarini mustahkamlaydi. Mehnatni rag‘bat-lantirish, ish haqini ko‘paytirish va aholi daromadlarini o‘sishini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar aholi turmush darajasining oshib borishida eks etadi.

O‘zbekistonda pensiya ta’mnotinining ikkinchi darajasi jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti hisoblanadi. Mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi ish beruvchi va fuqarolar uchun jamg‘arib

boriladigan pensiya tizimida qatnashish majburiy hisoblanadi. Asosiy ish joyidan Xalq banki filialiga ish beruvchi buyurtmasiga ko‘ra shaxsiy jamg‘ariladigan pensiya hisobraqami ochiladi. Xalq bankida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobvaraqlar soni 2014-yilda 8,205 million nafarni tashkil etdi. Vaholanki, ushbu ko‘rsatkich 2005-yilda 4.085 million nafarga teng bo‘lgan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilmagan dehqon xo‘jaliklari a‘zolari jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida ixtiyoriy qanashadi.

Hozirda mamlakatimizda amal qilayotgan tizimni sug‘urta elementlari mavjud bo‘lgan davlat pensiya tizimi deb atash mumkin. Mamlakatimizdagi pensiya ta’minoti birdamlik bilan birgalikda majburiy jamg‘ariladigan element kiritilishiga qaramay pensiya tizimi asosini davlat pensiya ta’minoti tashkil etmoqda. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi sug‘urta stoji va badallarni hisobga olishga asos yaratdi. O‘zbekistonda amal qilayotgan pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taminlashda ayrim muammolar mavjud. 2013-yilda O‘zbekiston pensiya tizimi tarkibini 98.0 % ini asosiy davlat pensiyasi, 1.0 %ini majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya va 1.0 %ini ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya tashkil etdi. Respublikamizda 2018-yilda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq yuki darajasini fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobraqamlariga ajratmalar miqdorini 1 foizdan 2 foizgacha oshirish hisobiga kamaytirish va bu fuqarolarning jamg‘armalarini umuman 450 milliard so‘mdan ko‘proqqa oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining asosiy muammosi - aholi mablag‘larini jalb etishdagi jozibadorligining yuqori emasligidir. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining salbiy tomonlarini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat: daromadlilik darajasining pastligi; boshqaruva xarajatlarni yuqoriligi, mazkur mablag‘larni joylashtirishning muqobil varinatlarini yo‘qligi, Xalq bankining moliyaviy institut sifatidagi faoliyatining sustligi hisoblanadi. Tahlil ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Xalq bankining

shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari to‘g‘risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo‘lishiga karamasdan, ba’zi hollarda fuqarolarga xabarnoma jo‘natilmagan holatlar mayjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi 2010-yil 26-noyabrdagi 1438-sonli qarorida belgilangan kompleks chora-tadbirlarida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va pensiya ta’mnotinining samaradorligini oshirish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog‘liq:

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish;
- insonning kuch va qobiliyati to‘la-to‘kis faollashuvini ta’minalashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;
- aholi daromadlari va turmush darajasida asossiz farqlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- aholining eng kam himoyalangan qatlaming davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish;
- davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlai, xayriya tashkilotlari, fuqarolarning mablag‘larini jamg‘armalarga keng jalb etish.

Respublikamizda ishlab chiqilgan «o‘zbek modeli»ning besh tamoyilida aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariга o‘tish bilan bir qatorda, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi qayd etilgan.

O‘zbekistonda fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti sohasida yagona tizim yaratilgani esa soha faoliyatini yanada takomillash-tirishga, shuningdek, ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirishga keng yo‘l ochdi.

Qisqacha xulosalar

Respublikamizda «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingandan keyin o‘tgan davr mobaynida jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar hamda pensiya ta’minotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar ushbu tizimni isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda. Pensiya ta’minoti sohasida islohotlar o‘tkazish eng avvalo, bozor munosabatlari talablariga javob beruvchi yangi qonunchilik bazasini talab qiladi. Pensiya jamg‘armalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ommabop bo‘lishining zaruriy sharti to‘lovlar yuqori darajada kafolatlandi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman yoki shahar bo‘limi qonun hujjatlarida belgilangan shaklda beradigan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma bunday to‘lovlarini olish uchun asos bo‘ladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomani berish so‘ralgan arizani fuqarolar ish beruvchi orqali, ikkinchi qismida ko‘rsatilgan fuqarolar esa bevosita yashash joylaridagi Pensiya jamg‘armasining tuman yoki shahar bo‘limiga beradilar.

«Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, Xalq bankida ochilgan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibini belgilaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar yoshi, nogironligi bo‘yicha davlat pensiyasi yoki boquvchisini yo‘qotganligi tufayli pensiya (agar pensiyaning ushbu turi jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining o‘ziga tayinlansa) olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan jamg‘arib

boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqiga ega bo‘ladilar. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdori fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan pul mablag‘lari doirasida belgilanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish uchun fuqarolar Guvohnoma berish to‘g‘risidagi ariza bilan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qiladilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchisi bo‘lgan xodim tomonidan vakil qilingan ish beruvchining mansabdar shaxsi ariza beruvchi bo‘lishi mumkin. Bu holda ariza jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga beriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomani berish so‘ralgan ariza davlat pensiyasi olish huquqi yuzaga kelgandan keyin biron-bir muddat bilan cheklanmagan holda istalgan vaqtda berilishi mumkin.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda bunday mablag‘lar foydalanimishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlardan, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlaridan, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari aylanmasidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar olinmaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to‘lovlari oluvchi sifatida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini qonun hujjatlariha muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega.

To‘lovlarni oluvchilar o‘zлari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishni yoki jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini bir yo‘la olishni tanlash huquqiga ega.

Tayanch so‘z va iboralar

Mehnat shartnomasi; Xalq banki; xo‘jalik yurituvchi subyektlar; soliq organlari; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘larini shakllantirish; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti xarajatlari; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘larini sarflash; pensiya to‘lovleri; ixtiyorli badallar; majburiy badallar.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti xarajatlarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘laridan foydalanshidagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsating.
3. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini shakllantirish va sarflash mutanosibligini ta‘minlash yo‘llarini ayting.
4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotida pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibini tushuntiring.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotida pensiyalarni to‘lash tartibi” mavzusida referat yozing va himoya qiling.
2. “Mehnat shartnomalari va jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti” mavzusida esset yozing.

Test savollari

1. Lotin tilidagi «pension» so‘zi tarjima qilinganda...
 - «To‘lov» ma’nosini anglatadi.
 - «Sug‘urta» ma’nosini anglatadi.
 - «Xarajat» ma’nosini anglatadi.

D. «Ijtimoiy sug‘urta» ma’nosini anglatadi.

2. «Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturi bo‘yicha barcha manbalar hisobidan ziyod mablag‘ sarflandi.

- A. 2 trillion 246 milliard so‘m va 225 million AQSh dollaridan.
- B. 3 trillion 246 milliard so‘m va 225 million AQSh dollaridan.
- C. 2 trillion 246 milliard so‘m va 325 million AQSh dollaridan.
- D. 1 trillion 246 milliard so‘m va 225 million AQSh dollaridan.

3. — huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaatdir.

- A. Ariza.
- B. Talabnama.
- C. So‘rovnoma.
- D. Arznama.

4. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zлari tanlagan

- A. Bitta pensiya tayinlanadi.
- B. Ikkita pensiya tayinlanadi.
- C. Xususiy pensiya tayinlanadi.
- D. Jamg‘arilgan pensiya tayinlanadi.

5. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarnig ish haqidan majburiy sug‘urta badallari Soliq Kodeksining 310-moddasiga asosan yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarini to‘lash har oyda amalga oshiriladi.

- A. Keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay.
- B. Keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay.
- C. Keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay.
- D. Keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay.

6. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami nima asosida beriladi?

- A. Xalq bankining yagona elektron ma’lumotlar bazasi asosida.

B. Jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochishga murojaat qilish tartibida.

C. Fuqarolarning ish beruvchilari hisobvaraqlaridan kelib chiqqan holda.

D. Fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida.

7. Murojaatlar shakli:

A. Og‘zaki.

B. Yozma.

C. Elektron.

D. Barchasi to‘g‘ri.

8. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri tuman yoki shahar ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan berilgan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagiasosida bunday to‘lovlnarni oluvchining yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan to‘lanadi.

A. Guvohnoma.

B. Ariza.

C. Talabnama.

D. So‘rovnama.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1438-soni qarori ...da tasdiqlandi.

A. 2010-yil.

B. 2012-yil.

C. 2014-yil.

D. 2009-yil.

10. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarga meros qolgan mablag‘

A. Bir vaqtda to‘liq to‘lanadi.

B. Oylar bo‘yicha to‘lanadi.

C. Yillik hajmda to‘lanadi.

D. Choraklar bo‘yicha to‘lanadi.

11. Fuqaroga davlat pensiyasini olish huquqi yo‘qligi munosabati bilan guvohnoma berish rad etilgan taqdirda, Pensiya jamg‘armasi bo‘limi ariza olingan kundan boshlabariza beruvchiga rad etish sabablari va shikoyat qilish tartibi ko‘rsatilgan holda rad etish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboradi.

- A. Bir kun muddatda.
- B. Ikki kun muddatda.
- C. Uch kun muddatda.
- D. O‘n kun muddatda.

12. Shvetsiyada pensiya tizimi qanday qismidan iborat?

- A. Davlat, nodavlat, sug‘urtaviy.
- B. Korporativ, davlat.
- C. Majburiy va ixtiyoriy.
- D. Shartli jamg‘arib boriladigan, jamg‘arib boriladigan, kafolatlangan.

13. Qaysi javobda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida fuqarolarning huquqlari to‘g‘ri ko‘rsatilmagan.

A. Fuqarolar pensiya to‘lovlari oluvchi sifatida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega.

B. To‘lovlarini oluvchilar o‘zлari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishni yoki jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini bir yo‘la olishni tanlash huquqiga ega.

C. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega emas.

D. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zлari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

VIII BOB. JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTI NAZORATI

8.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti faoliyatini nazorat qilishning mazmuni, vazifalari va ahamiyati

Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy ta’mnot hamda davlat pensiya ta’mnoti tizimi nazoratini takomillashtirish fuqarolik jamiyati sari dadil odimlab borayotgan O‘zbekiston uchun nihoyatda muhim masalalardir.

Pensiya ta’mnoti tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- pensiya ta’mnotini bozor munosabatlari talablariga yanada moslashtirish;

- pensiyalarни moliyalashtirishdagi mayjud muammolarni hal qilish;

- Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli sarflanishi va pensiya to‘lovlari yuzasidan nazoratni kuchaytirish;

- pensiya ta’mnotini zamonaviy texnik usullar orqali boshqarish;

- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti xarajatlarini optimallashtirish;

- davlat tasarrufida bo‘lmagan xususiy pensiya ta’mnoti tizimini yaratish.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar oldida turgan global muammolardan biri bu – barcha mamlakatlarda pensiya fondlarini tashkil qilish va mazkur fondlarning mablag‘laridan to‘g‘ri va samarali foydalanishning nazorati hisoblanadi. Moliyaviy nazorat tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: adolatlilik, tizimlilik, uzlusizlilik, qonuniylik, obyektivlik, oshkorlik, samaradorlik.

Moliyaviy nazoratning maqsadi – tekshirilayotgan obyektdan amaldagi moliyaviy qonunchilik talablariga qay darajada rioya etilayotganligini aniqlash, qonunbuzarlik holatlari aniqlangani taqdirda uni bartaraf qilish choralarini ko‘rish, aybdor shaxslarni va ularning javobgarligi masalalarini hal etish, kelgusida shunday qonunbuzarliklar yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida salbiy shart-sharoitlarga barham berishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «...Aholi bandligini ta’minalash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. Turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta’minot va tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari»¹⁷¹ juda muhim. Korxona tashkilot va jamg‘armalarda mablag‘larini maqsadsiz ishlatalishida ko‘p sonli holatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirishni zarurligini ko‘rsatmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakat yo‘qki, moliya sohasida davlatning nazorat organlari mavjud bo‘lmasin.



8.1-rasm. Moliyaviy nazorat tamoyillari

¹⁷¹Karimov I. “2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. Islom Karimovning 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2015-yil. 18-yanvar.

Davlat moliyaviy nazorat tizimida idoraviy moliyaviy nazorat ujratiladi, u vazirliklar, idoralar va boshqa davlat boshqaruv organlari tomonidan tizimga kiruvchi korxona, tashkilotlar va muassasalarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan belgilangan maqsadda foydalaniishi hamda foizlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq bankining shu maqsad uchun maxsus tashkil etilgan bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonga jahon moliyaviy inqirozining ta’sirini jiddiy bo‘limganligini mutaxassislar qo‘yidagi omillar bilan izohlashmoqda:

–O‘zbekistonda moliya, byudjet, bank, soliq, pul-kredit, ijtimoiy ta’minot tizimi, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va ijtimoiy soha tarmoqlarining barqaror hamda uzlusiz ishlashini ta’minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

–ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lini tanlanganligi;

–davlat bosh islohotchi sifatida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;

–ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda narxlari indeksini asossiz tarzda o‘sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

– oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

– davlat moliyaviy nazorati tizimining barqaror va ishonchliligi.

Moliyaviy nazoratning amal qilish ko‘lami xo‘jalik munosabatlarining butun majmuyini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Moliyaviy nazorat mablag‘lar holati ustidan olib boriladigan nazorat, byudjetni to‘ldirish, markazlashgan va markazlashmagan pul jamg‘armalaridan foydalaniish operatsiyalari yuzasidan olib boriladigan nazorat va boshqa ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Moliyaviy nazoratning mohiyati

uning vazifalarida o‘z ifodasini topadi. Moliyaviy nazorat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

–moliyaviy faoliyat jarayonida qonunchilikka rioya qilishni ta’minalash;

–moliyaviy resurslarning holatini nazorat qilish;

–korxona, muassasa, jamg‘arma va tashkilotlardagi moliyaviy operatsiyalar qonun asosida olib borilishi bilan birga, mablag‘lardan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni ta’min etishdan iborat.


Fikrimizcha, ijtimoiy sug‘urtaning mohiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’rif O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ham keltirilgan. Ijtimoiy sug‘urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta’minalash, yordam berish tizimi¹⁷²dan iborat. “Jamg‘arib boriladigan pensiya” kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarini shakllantirish, keksalik chog‘ida foydalanish shakl va usullarini yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg‘armalardan pensiyalarning moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir.

Bizning mamlakatimizda qonunchilik rivojlanishining huquqiy asoslari kuchli moliyaviy nazoratdan dalolat beradi¹⁷³. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimi nazoratini takomillashtirish maqsadida me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Respublikamizda keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash maqsadida 2015-yil 18-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Keksalarni e’zozlash yili» davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2302-sonli qarori qabul qilindi. «Keksalar va nogironlarga doimiy e’tibor qaratadigan sektorni mustahkamlash, bunda ularga xizmat ko‘rsatadigan idora va

¹⁷² O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. To‘rtinchı tom. –T.: 2002. 87-b.

¹⁷³ O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat etish to‘g‘risida»gi qonuni. 1999-yil 24-dekabr. // Davlat moliya tizimi. Me’yoriy -huquqiy hujjatlar to‘plami. 1-jild.

xitmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy va tibbiy ta'minot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish»¹⁷⁴ kuchaytirildi.



8.2-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qo'llanilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi “Jamg’arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 110-sonli qaror bilan davlat soliq organlari zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy jamg’arib boriladigan pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblanishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagagi jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan nazorat o‘rnataladi. Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi

¹⁷⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldaggi «Keksalarni e’zozlash yili» davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2302-sonli qarori.

Davlat soliq qo‘mitasi zimmasiga ta’sir choralari qo‘llash vazifalari yuklatildi. To‘lovlarning to‘g‘riligini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish organlari¹⁷⁵ tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi etib qayta tashkil qilindi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi organlari, davlat soliq xizmati organlari va O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘lmalmalar¹⁷⁶:

–byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi;

–byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari ijrosi;

–byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari hisobidan to‘lovlnarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to‘liqligi;

–davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan manbalardan ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli foydalaniishi;

–O‘zbekiston Respublikasining chet eldag‘i diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag‘lardan to‘g‘ri va maqsadli foydalaniishi;

¹⁷⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3231-sonli qarori. 2017-yil. 21-avgust.

¹⁷⁶O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qonuni. 2013-yil. 26-dekabr. 177-modda. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘lmalmalar tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.

- pensiyalar va nafaqalar to‘g‘ri tayinlanishi, hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining faoliyati;
- byudjet ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi;
- O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) maqsadli foydalanilishi;
- insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi;
- davlat xaridlari bo‘yicha tender (tanlov) savdolarining to‘g‘ri o‘tkazilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Moliyaviy nazorat obyekti tomonidan e’tirozlar o‘n kunlik muddatda yozma shaklda taqdim etilmagan taqdirda, davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjat moliyaviy nazorat obyekti tomonidan qabul qilingan, deb hisoblanadi hamda davlat moliyaviy nazorat organi tomonidan uni amalga oshirish choralar ko‘rildi. Moliyaviy nazorat obyekti sudga murojaat etgan taqdirda, o‘zining sudga murojaat etganligini tasdiqlovchi hujjatni o‘n kunlik muddatda davlat moliyaviy nazorat organiga taqdim etishi shart. Sud tomonidan moliyaviy nazorat obyektining murojaati xususida qaror qabul qilinguniga qadar davlat moliyaviy nazorat organi davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatning nizoli band-larga tegishli qismi bo‘yicha amalga oshirilishini to‘xtatib turadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini ushlab qolish yoki to‘xtatib turish sud qarorlari va boshqa organlarning qonun hujjaliga muvofiq ijro etiladigan hujjatlari asosida amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risi-dagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat

moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi etib qayta tashkil qilindi va uning qo'shimcha vazifalari etib quyidagilar belgilandi¹⁷⁷:

—byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo'yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

—byudjet qonunchiligiga rioya etish bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

—byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag'ları va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo'l qo'yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiliginı boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

—masofaviy nazoratni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini aniqlash yo'li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish.

«Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida»gi qonunini takomillash-tirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi, unda maqsadli jamg'armalarda, byudjet jarayonining har bir bosqichida tashqi va ichki moliyaviy nazoratining vazifa va funksiyalarini aniq taqsimlash, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ziyod bo'lgan tashkilotlarda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish masalalari ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'lijni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi

¹⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliylashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 3231-sonli qarori. 2017-yil. 21-avgust.

hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasida - soni 3 shtat birligidan iborat ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkil etildi. Respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining shtat birliklari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalarida qisqartirilayotgan shtat birliklari hisobidan to‘ldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparati tarkibida vazirlikning umumiyligi cheklangan xodimlari soni doirasida Byudjetni tuzish va g‘aznachilik ijrosi, ichki audit va moliyaviy nazorat metodologiyasi boshqarmasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ilg‘or xalqaro tajriba asosida byudjet mablag‘laridan foydalanish natijadorligini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining o‘zini o‘zi ta’minlashi, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining byudjet daromadlari bazasini kengaytirish va mablag‘laridan oqilona foydalanish bo‘yicha manfaatdorligini oshirishga qaratilgan yo‘nalishlarda byudjet jarayoni metodologiyasini takomillashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet hisobi va hisoboti tizimini yanada takomillashtirish, byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi va davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish;

- respublika darajasidagi va hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan ta’minlash va muvofiqlashtirish;

- ichki audit va moliyaviy nazoratning xalqaro standartlarini ularning faoliyatiga joriy etish.

Byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo‘ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish,

shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining roli tubdan qayta ko'rib chiqildi.

O'zbekiston jahonda aholisi soni barqaror sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining yosh tarkibida yoshlар katta salmoqqa ega bo'lishiga qaramasdan keksalarning salmog'i barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi tobora yaxshilanib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ushbu holatlar ijtimoiy sug'urta masalalariga nisbatan jiddiy e'tibor berishni taqozo etadi, pensiya tizimiga oid masalalar alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, kuchli moliyaviy nazorat qilishni talab etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi hamda aholi farovonligiga ta'sirini har tomonlama va jiddiy baholagan holda, 2018-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xarajatlarini boshqarish pensiya islohotlarining eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Mazkur mablag'lardan maqsadsiz foydalanishda noqonuniy holatlarni kamaytirish, to'lov intizomi va byudjet intizomiga rioya qilish va ichki nazoratini kuchaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq, quyidagilar byudjet intizomini buzish hisoblanadi:

–byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek, pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabдор shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish;

–Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari

mablag‘larini ulami olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo‘limgan maqsadlarga yo‘naltirish;

–mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘srimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etmaslik.

«Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish jarayonini tegishli bozor infratuzilmasi, ya’ni bank, moliya tizimi, lizing, auditorlik, sug‘urta, injiniring»¹⁷⁸, soliq va nazorat tuzilmalarni rivojlantirmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari davlat moliyaviy nazoratini soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Mamlakatda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini boshqarish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, hisob-kitoblarni olib borish, badallarni yig‘ish va pensiya to‘lovlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilishning to‘g‘ri tanlangan strategiyasi asosida ichki nazorat tizimining mustahkamlanmoqda. Ichki nazorat asosida mazkur jamg‘armaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining moliyaviy nazoratiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariiga o‘tishning besh asosiy tamoyillaridan biri - davlatning bosh islohotchi ekanligi tamoyilidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra davlat mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun pensiya tizimini rivojlantirishning zarur barcha shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Respublikamizda jahon

¹⁷⁸ Karimov I.Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minalash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy is-lohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazir-lar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi. 2008-yil fevral.

stardartlariga muvofiq pensiya ta'minotini boshqarish sohasida tashkil etilgan ichki nazoratni rivojlantiriladi. Pensiya tizimida belgilangan jarayonlar va protseduralarning ijrosida o'rnatilgan tartibga, belgilangan reglamentga, tegishli operatsiyalar hisobini yuritish, ularni hisobotlarda aks ettirishda o'rnatilgan tartibga rioya qilinishi bo'yicha moliyaviy nazorat takomillashtiriladi.

8.2. Nazoratning turlari, shakllari va usullari

Moliyaviy nazorat o'zaro hamkorlikdagi ikki sohaga bo'linadi: davlat moliyaviy nazorati va nodavlat moliyaviy nazorat.

Davlat moliyaviy nazorati – davlatning asosiy qonuniga asoslanuvchi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari huquqiy-iqtisodiy faoliyatining kompleks va maqsadli yo'naltirilgan tizimidir. Mamlakat konstitutsiyasi moliyaviy nazoratni tashkil qilishda aniqlovchi rol o'ynaydi. Moliyaviy nazoratning huquqiy reglamenti davlatning turlariga, uning ijtimoiy-siyosiy usqurtmasi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va mulk munosabatlariga bog'liq.

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat miqyosida yaratilgan YaIMni qiymat nisbatlarida taqsimlashni qamrab oladi. Davlat moliyaviy nazorati davlat pul fondlarining shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq davlat pul resurslari oqimlarini muvofiqlashtiradi. Davlat nazoratchilariga davlat sektorida amalga oshiriladigan taftish va tekshirish bilan birga xususiy va korporativ sektorda nazorat o'tkaziladigan obyekt umummilliy iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lsa, ularni ham taftish va tekshirish huquqi beriladi.

Adabiyotlarda moliyaviy nazoratning asosiy vazifalari qatoriga korxonalar, tashkilotlar, jamg'armalar tomonidan ularning tasarrufidagi pul mablag'laridan to'g'ri foydalanilishi hamda tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, jamg'armalar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mablag'larini saqlashga oid qoidalarga rioya etilishini tekshirish kiritilgan. Noqonuniy holatlar aniqlangan hollarda tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda jazo

choralari qo'llaniladi. Davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan zararni qoplash ta'minlanadi. Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy nazoratga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Moliyaviy nazorat bu pul mablag'larini yig'ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir. Moliyaviy nazoratning asosiy vazifalaridan biri - moliyaviy resurslarning holatini nazorat qilishdan iborat.

Moliyaviy nazorat davlat nazoratining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funksiyasi hisoblanadi. Moliyaviy nazoratning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlashdir. Bunday holatlar mavjud bo'lganida esa ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. Moliyaviy nazorat ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda pul jamg'armalari harakatining butun jarayonida kuzatiladi. Shu sababli moliyaviy nazorat xo'jalik yuritish mexanizmining obyektiv ravishda zaruriy bo'lgan tarkibiy qismidir, deb aytish mumkin.

«Moliyaviy nazorat» tushunchasining iqtisodiy mazmuni E.A.Voznesenskiy tomonidan taklif etilgan ta'rifda ham berilgan. E.A.Voznesenskiy moliyaviy nazorat bilan moliyaviy faoliyatning o'zaro bog'liqligiga e'tibor beradi, muallif moliyaviy nazorat chegaralarini kengaytirish kerakligini haqqoniy ravishda ko'rsatadi. Uning fikricha moliyaviy nazorat xo'jalik munosabatlarining muayyan majmuyiga ham ta'sir qilib, real borliqqa, haqiqatga muvofiq keladi. Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyatini nazorat qilishda taftish qilish va tekshirish hujjatlari xizmat qiladi. Muallifning ta'kidlashicha davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi - davlat moliyaviy nazoratining tamoyillaridir.

Barcha demokratik davlatlar davlat moliyaviy nazorati muhim bo'g'inini qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimi bo'yicha nazorat organi, deb hisoblash qabul qilingan. Odatda, barcha mamlakatlarda

davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar mablag‘larini xarajat qilish ustidan parlament nazorati maxsus institutlari mavjud. AQShda Kongressning Bosh byudjet-nazorat boshqaruvi mavjud, Rossiyada Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasi ishlab turibdi. Buyuk Britaniyada bunday institut- Milliy nazorat-taftish boshqarmasi, deb ataladi. Kanadada - Bosh taftishchi mahkamasi, Fransiyada - Hisob-kitoblar sudi, Shvetsiyada - Milliy taftish byurosi shunday muassasalardan hisoblanadi. Avstriya, GFR, Fransiya, Vengriyada Bundestag va Parlament huzurida Hisob palatalari ishlab turibdi. Parlament nazorati institutlaridan tashqari, ko‘pgina mamlakatlarda ijroiya hokimiyati tizimi bo‘yicha nazorat yoki hukumat nazorati, deb ataladigan nazorat hamda davlat boshlig‘i huzurida moliyaviy nazorat organlari - Prezident nazorati faoliyat ko‘rsatmoqda.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi 870-sonli qaroriga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida»gi nizom tasdiqlandi. Nizom Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning xududiy boshkarmalarining maqomini, vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Moliyaviy nazorat funksiyasi yuklatilgan xodimlar attestatsiyadan har 3 yilda 1 marotaba o‘tkaziladi. Shuningdek, mazkur bosh boshqarma quyidagilar ustidan nazoratni amalga oshiradi:

- moliyaviy huquqburzaliklar profilaktikasi;
 - byudjet tizimi byudjetlari mablag‘lari va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘larning maqsadli sarflanishi;
 - moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishini.
- Shu maqsadda unga quyidagi vakolatlar berilgan¹⁷⁹:

¹⁷⁹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida»gi nizomni tasdiqlash haqidagi 870-sonli qarori. 2017-yil. 24-oktabr.

a) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, banklardan va boshqa tashkilotlardan zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rash va olish;

b) nazorat obyektlarining elektron ma'lumotlar bazasi va axborot resurslaridan foydalanish;

c) yozma so'rov asosida bank va tijorat sirini tashkil etuvchi byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar haqidagi ma'lumotlarni olish;

d) aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan majburiy tusga ega taqdimnomalar kiritish.

e) Xalq banki filiallaridan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga kelib tushgan pensiya badallari to'g'risida ma'lumotlarni so'rash va olish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat moliyaviy nazorat organiga qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Moliyaviy nazorat tushunchasining mazmun-mohiyati va shakllari to'g'risida iqtisodiy adabiyotlarda hamon munozarali fikrlar davom etmoqda. Moliyaviy nazorat - xo'jalik subyektlari (korxona, muassasa, tashkilot, jamg'arma) faoliyati bilan bog'liq moliyaviy masalalarni tekshirishda maxsus shakl va uslublarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan harakatlar va operatsiyalar yig'indisidir.

Moliyaviy nazorat mexanizmidan nafaqat uslub va qoidalarning yagona tizimi sifatida foydalaniladi, balki iqtisodiyotning rivojlani-shiga ta'sir qiladigan boshqaruv dastagi hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida

amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratdan eng ko‘p samara uning barcha shakllarini o‘zaro harakatida erishilishi mumkin. Davlat moliyaviy nazoratining usullari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan.

Nazoratning maqsadga yo‘naltirilganligi va predmetiga qarab kompleks nazorat, mavzuli nazorat, muqobil nazoratga guruhlash mumkin. Kompleks nazoratda moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining barcha yo‘nalishlarini nazorat qilinadi. Mavzuli nazoratda moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini nazorat qilinadi. Muqobil nazorat - operatsiyalar yagonaligi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va turli moliyaviy nazorat obyektlarida turgan hujjatlarni solishtirishdan iborat bo‘lgan tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat obyekti mansabдор shaxslarining harakatlarda jinoyat alomatlari bo‘lgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi. Moliyaviy nazorat obyekti mansabдор shaxslariga nisbatan ma’muriy huquqbuzarliklarga doir materiallar sndlarga yoki tegishli vakolatli davlat organlariga topshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining natijalariga doir hujjatlar davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazgan mansabдор shaxslar, shuningdek, moliyaviy nazorat obyektining mansabдор va mas’ul shaxslari tomonidan imzolanadi. Moliyaviy nazorat obyektining mansabдор va mas’ul shaxslari davlat moliyaviy nazorati natijalariga rozi bo‘lmagan taqdirda hujjatni o‘z e’tirozlar bilan imzolaydi hamda o‘n kunlik muddat ichida e’tirozlarini davlat moliyaviy nazorat organiga yozma shaklda taqdim etadi. Nazorat predmeti sifatida shartnomalar, xaratjatlar smetasi, to‘lov topshiriqnomalari, narxlar monitoringi, ish haqi, ish staji, pensiya, nafaqa, mablag‘lar, to‘lov topshiriqnomalari, moliyaviy operatsiyalar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to‘liqligi davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabдор shaxslari tomonidan ta’minlanadi.

Moliyaviy nazorat obyektining mansabdon shaxslari davlat moliyaviy nazorati amalga oshirilishining maqsadi, boshlanish sanasi va davomiyligini bilishga; davlat moliyaviy nazorat organlarining tekshiruvchi mansabdon shaxslaridan mazkur organ rahbarining qarorini va yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi bir martalik guvohnomani, shuningdek, shaxsiy guvohnomani talab qilishga; davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asosga ega bo'lmagan shaxslarni davlat moliyaviy nazoratiga qo'ymaslikka; davlat moliyaviy nazorati natijalari yuzasidan shikoyat qilishga haqlidir.

Moliyaviy nazorat obyektining mansabdon shaxslari:

—davlat moliyaviy nazorat organining mansabdon shaxslari davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishi uchun zarur sharoitlar yaratishi;

—davlat moliyaviy nazorat organi va uning mansabdon shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, davlat moliyaviy nazorat organi mansabdon shaxslarining qonuniy faoliyatiga monelik qilmasligi;

—davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish vaqtida davlat moliyaviy nazorat organining mansabdon shaxslariga mazkur nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishi hamda ularning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligi uchun shaxsan javobgar bo'lishi shart.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasiga «O'zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi» AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari mablag'larining ishlatalishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish uchun davlat va korporativ xaridlar bo'yicha maxsus axborot portalining yopiq qismidan foydalanishga ruxsat berildi¹⁸⁰. Moliyaviy nazorat obyektining mansabdon shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Moliyaviy nazorat obyekti mansabdon shaxsining yaqin qarindoshi, erining (xotini) qarindoshi, moliyaviy nazorat obyektida shaxsiy mulkiy manfaatlari bo'lgan tekshiruv bilan qamrab olingan

¹⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 3231-sonli qarori. 2017-yil. 21-avgust.

davrda moliyaviy nazorat obyektida ishlagan davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdon shaxslari tomonidan o'tkazish taqiqlanadi. Ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdon shaxslari bu haqda davlat moliyaviy nazoratini tayinlagan organning rahbarini yozma shaklda xabardor qilishi kerak.

Nazoratning uslublariga quyidagilar kiradi: tahlil, sintez, inventarizatsiya, bajarilayotgan ishni nazorat o'chovi, tanlab kuzatish, uzlusiz kuzatish, loyihalar va smeta hujjatlarini ekspertizasi, eksperiment, analitik hisob uslubi, iqtisodiy tahlil, statistik hisob, kameral tekshiruv, yoppasiga tekshirish, tanlanma tartibda tekshirish va umumiy ma'noda moliyaviy hujjatlarni tekshirish. Barcha turdag'i tekshiruvlarni moliyaviy nazoratning samarali usullari sifatida tan olinib, ularning ijobjiy tomonlarini kamaytirmagan holda, shuni qayd etish zarurki, taftish alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazoratning mazkur usuli o'zining maqsadi va obyektlari nuqtayi nazaridan ham, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan ham eng muhim nazorat usuli bo'lib hisoblanadi.

8.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti nazoratida dastlabki nazorat, joriy nazorat va so'nggi nazoratni amalga oshirishning vazifalari

Davlat moliyaviy nazorati muddati bo'yicha dastlabki, joriy va yakuniy nazoratga bo'linadi. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati nazorat rejasiga ko'ra amalga oshiriladi va davlat moliyaviy nazorat organining qarori asosida o'tkaziladi¹⁸¹.

Davlat moliyaviy nazoratining turlari quyidagi¹⁸²:

a) dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

¹⁸¹O'zbekiston Respublikasining "Byudjet Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni. 2013-yil. 26-dekabr. 27-bob. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish. 180-modda. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati.

¹⁸²O'zbekiston Respublikasining "Byudjet Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni. 2013-yil. 26-dekabr. 173-modda. Davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari.

b) joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

c) yakuniy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so‘ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir.

8.1-jadval

Moliyaviy nazoratning muddatlari bo‘yicha turlari¹⁸³

Moliyaviy nazoratning muddatlari bo‘yicha turlari		
Dastlabki nazorat	Joriy nazorat	Yakuniy nazorat
Korxonalar, tashkilotlar, jamg‘armalar moliyaviy rejasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayonidagi moliyaviy nazorat o‘tkaziladi	Moliyaviy rejani bajarilishi, daromadlar va xarajatlarni bajarilishi to‘g‘riligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi, tezkorlik va egiluvchanlik muhim rol o‘ynaydi	Amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni so‘nggi natijalarining samaradorligini tekshirish hisoblanadi

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdar shaxs davlat moliyaviy nazorat organi qaroring ko‘chirma nusxasiga va xizmat guvohnomasiga ega bo‘lishi kerak. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdar shaxslariga qo‘yiladigan talablar vakolatli organ tomonidan belgilanadi. Davlat moliyaviy nazorat organlari maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko‘rib chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning ekspertlari va mutaxassislarini jalg etadi.

¹⁸³ Эфимова Е.П. Методологические основы государственного финансового контроля. Монография. –Москва. // Экономика. 2009. –С. 11.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati tasdiqlangan moliyaviy nazorat obyektlarini nazorat qilish rejasiga ko‘ra yiliga ko‘pi bilan bir marta amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati o‘ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati davlat moliyaviy nazoratini tayinlagan tegishli davlat moliyaviy nazorat organining rahbari yoki u vakolat bergen shaxs tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratining natijalari davlat moliyaviy nazorat organining mansabdon shaxsi tomonidan¹⁸⁴:

—tekshirish va taftish natijalari bo‘yicha tuziladigan hujjat — dalolatnoma;

—davlat moliyaviy nazorati natijalarini umumlashтирувчи hujjat — jamlanma dalolatnoma;

—o‘rganish va nazorat tartibida tekshirish natijalari bo‘yicha tuziladigan hujjat — ma’lumotnomasi yoki xulosa;

—O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha tuziladigan hujjat — hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunining ijrosini o‘rganish davomida o‘z yechimini kutayotgan masalalarga ham e’tibor qaratildi. Mazkur qonunning 13-moddasida ish beruvchi tomonidan majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarini ochish, ularni yuritish tartibiga rioya qilish, badallarni to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni moliya, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsada, lekin ushbu organlar orasida o‘zaro hamkorlik lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

¹⁸⁴O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qonuni. 2013-yil. 26 dekabr. 183-modda. Davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilgan hujjatlarning ko'chirma nusxalari, davlat moliyaviy nazorati doirasida harakatlarni bajarish to'g'risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, jalb etilgan ekspertlar va mutaxassislarning xulosalari, nazoratni o'tkazish jarayonida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdar shaxslarning so'roviga ko'ra olingan materiallar, shuningdek, nazorat doirasida bajarilgan harakatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qo'shib qo'yilishi lozim. Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga qonun hujjatlari bilan yoki moliyaviy nazorat obyekti faoliyatining davlat moliyaviy nazorati jarayonida amalga oshirilgan tartib-tamomillar natijalari bilan tasdiqlanmagan turli xil xulosalar, taxminlar va faktlarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatda moliyaviy nazorat obyektingin mansabdar va moddiy javobgar shaxslari harakatlariga huquqiy baho berilmasligi, shuningdek, ularning qilmishlari, niyatlar va maqsadlari tavsiflanmasligi lozim.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlar quyidagilar ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi:

- rasmiylashtirilayotgan hujjatning turi;
- tekshirish o'tkazilgan joy, hujjat tuzilgan sana;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asos;
- davlat moliyaviy nazoratining turi va uni o'tkazish davri;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazgan mansabdar shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- molayaviy nazorat obyektingin to'liq nomi, nazorat bilan qamrab olingan davr uchun mas'ul mansabdar shaxslarning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi ular egallab turgan lavozimlarida ishlagan davr albatta ko'rsatilgan holda;
- molayaviy nazorat obyektingin joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari;
- oldingi taftish (tekshirish) natijalari yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlar;

– davlat moliyaviy nazorati bilan qamrab olingen davr hamda uni o'tkazish uchun moliyaviy nazorat obyekti tomonidan taqdim etilgan hujjatlar haqidagi umumiy ma'lumotlar;

– taftish (tekshirish) jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklar faktlari, normalari buzilgan qonun hujjatlari ko'rsatilgan holda.

Pensiya ta'minoti tizimidagi taqsimlash tamoyili ko'pgina xorijiy mamlakatlarda, shu qatori O'zbekiston pensiya tizimida ham asosiy tamoyil bo'lib hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida pensiya ta'minoti pensiya rejalarini asosida amalga oshiriladi. Ko'pgina mamlakatlarda amal qilayotgan asosiy pensiya rajalari – belgilangan badalli pensiya rajasi (ingl. **Defined contribution-DC**) hamda belgilangan to'lovli pensiya rejasidir (ingl. **Defined benefit-DB**).

"Pensiya ta'minoti bo'yicha tadqiqotlarning ko'rsatishicha, belgilangan to'lovli pensiya rejalarini o'zida pensiya jamg'armalari homiyilari uchun ahamiyatlari xatarni ifodelaydi. Ushbu xatarlar va boshqa belgilangan to'lovli rejalarining aniqlangan kamchiliklari tufayli davlat pensiyasini islohot qilishga bo'lgan talablar oshdi. Ikki turdag'i davlat pensiya islohotlari talab qilindi, biri tadrijiy va boshqasi ko'proq tubdan isloh qilishdir. Belgilangan badalli pensiya dasturlari davlat sektorida ko'payotganligi tufayli, belgilangan to'lovli pensiya rejasidan belgilangan badalli pensiya rejalariga o'tishda kelib chiqadigan foyda va xatarlarni tushunmasdan turib, davlat va mahalliy pensiya rejalarini samarali boshqarish va nazorat qilishni tushunish mumkin emas"¹⁸⁵.

Pensiya rejasidir qatnashchisi uchun belgilangan to'lovli pensiya rejalarining bir qancha ustunliklari mavjud. Pensiyaga chiqqandan so'ng, pensiya yordamining aniqliligi eng katta ustunlik bo'lib, ushbu aniqlikning uchta jihatlari mavjud. Birinchidan, fuqaro yillik pensiya yordamining miqdorini biladi, chunki pensiya o'rnatilgan formula yordamida aniqlanadi. Fuqaro davlat sektorida qancha vaqt ishlashini va uning maoshi qanchalik tez ko'tarilishini yetarlicha taxmin qila olishi tufayli qatnashuvchi pensiyaga chiqqanida uning yillik pensiya

¹⁸⁵Barton Waring M, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011. –P. 98.

muylag‘lari qancha bo‘lishi haqida yetarlicha yaxshi tasavvurga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, ko‘p hollarda yillik pensiya yordami infliyatsiyani hisobga olgan holda ko‘rsatiladi. Shuning uchun u o‘zining pensiyasi haqida qayg‘urmasligi kerak, pensiyaga chiqqandan so‘ng bir qancha yillar davomida yaxshi yashashda davom etadi. Uchinchidan, belgilangan to‘lovli pensiya rejasidagi pensioner uzoq yashashning moliyaviy ta’mnoti haqidagi qayg‘urmasligi kerak. Pensionerga hayotining oxirigacha pensiyasi kafolatlanadi. Bu ma’noda, belgilangan to‘lovli pensiya rejasi ko‘proq uzoq yashash bo‘yicha sug‘urta dasturi guruhi sifatida xizmat qiladi.

AQShda ijtimoiy dasturlarning amalga oshirish uchun turli darajada boshqariladigan ko‘p sonli ijtimoiy fondlar faoliyat ko‘rsatadi. Bulardan uchta eng yirik fondlarni ko‘rsatish mumkin.

1. Qarilikni, nogironlikni va boquvchini yo‘qtoganda sug‘urtalash fondi.

2. Davlat xizmatchilarini sug‘urtalash fondi.

3. Muhtojlarga yordam fondi.

“AQShda xususiy sektorda 1981-yilda 401(k) Individual pensiya rejasi o‘rnatilgandan keyin Belgilangan badalli pensiya rejasi keng foydalilaniladigan reja turiga aylandi. Bir vaqtning o‘zida belgilangan to‘lovli pensiya fondlariga a’zolik oshib ketdi. Davlat sektorida, oliy o‘quv muassasasida ishlaydigan aholi belgilangan badalli pensiya rejaside an’anaviy ravishda ishtirot etdi. Ushbu guruhda ishchilar ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladigan belgilangan to‘lovli komponent va ishchilar tomonidan moliyalashtiriladigan belgilangan badalli komponentdan tashkil topgan aralash rejada qatnashishlari shart, aralash pensiya rejasi belgilangan to‘lovli komponentni o‘z ichiga oladi,

Indiana shtati Umumiy ishchilar pensiya fondlari va shtat O‘qituvchilar pensiya fondlari misol sifatida keltiriladi. Ularning ikki tarkibiy qismi mavjud: belgilangan to‘lovli pensiya fondlari va belgilangan badalli pensiya sug‘urta jamg‘arma hisobraqami. Belgilangan to‘lovli pensiya fondlari to‘lig‘icha ish beruvchi tomonidan moliyalashtiriladi. Belgilangan badalli qismida shtat

qonuni ishchining soliq bilan hisoblangan ish haqining 3,0 foizi Pensiya sug'urtasi jamg'armasi hisobraqamini moliyalashtirish uchun kiritilishini talab qiladi. Ishchi ham o'zining Pensiya sug'urtasi jamg'armasining hisobraqamiga, agar ish beruvchi uchun bunga ruxsat bergen bo'lsa, qo'shimcha hissasini qo'shishi mumkin (Indiana shtati umumiy ishchilar pensiya fondlari)¹⁸⁶

Oregon aralash pensiya rejada qatnashish majburiy bo'lgan boshqa shtat hisoblanadi. 72-sonli Oregon qonun chiqaruvchi organi Oregon davlat xizmati pensiya rejasini yaratdi. 2003-yil 29-avgustdan keyin ishga qabul qilingan davlat xizmatchilari Oregon davlat xizmati pensiya rejasi qismiga aylanadi. Oregon davlat xizmati pensiya rejasi ikki tarkibiy qismli aralash pensiya rejasidir: Pensiya Dasturi (belgilangan to'lovli qism) va Individual hisobraqami (belgilangan badallli qism). Ish beruvchining hissasi belgilangan to'lovli dasturlarni moliyalashtirishga ketadi. Oregon davlat xizmati pensiya rejasi a'zolari individual hisobraqamga o'zining ish haqisining 6,0 foizini qo'shadi va ishchini yollaydigan maxsus davlat muassasasi 6,0 foizlik badal to'lashga rozi bo'lishi mumkin. Bu guruhda, davlat faol a'zoga yoki an'anaviy belgilangan to'lovli rejaga yoki aralash rejaga qo'shilish tanlovini beradi. Ixtiyoriy belgilangan badallli rejaga qo'shimcha ravishda, Ogayo shtati Qo'shma pensiya rejasi, deb nomlangan ixtiyoriy aralash pensiya rejasiga ega. Ish beruvchi hissasi tomonidan moliyalashtiriladigan Qo'shma pensiya rejasining belgilangan to'lovli qismiga ko'ra a'zoning pensiyasi qisqartirilgan formulaga ko'ra aniqlanadi. Foizni ko'paytiruvchi koeffitsiyent Qo'shma pensiya rejasi formulasida 1,0 foizni tashkil qiladi, u Ogayoning an'anaviy belgilangan to'lovli rejasida 2,2 foizni tashkil qiladi. Qo'shma pensiya rejasining belgilangan badallli qismiga ko'ra ishchi badallari a'zoning individual hisobraqamida to'planadi.

Vashington shtati O'qituvchilar va maktab ishchilar pensiya tizimining uchinchi rejasi namunasiga ko'ra yaratilgan aralash pensiya rejasi 1996-2000-yillarda yaratildi. Vashington shtati qonunchilik organi 2000-yilda Umumiy xizmatchilar pensiya tizimi –

¹⁸⁶Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. USA.: Auerbach Publications. 2008. P.188.

uchinchi pensiya rejasi to‘g‘risida qonun tasdiqladi. Umumiy xizmatchilar pensiya tizimi – uchinchi pensiya rejasi doirasida a’zolik badallari alohida hisobraqamga tushadi, ish beruvchi badallari belgilangan to‘lovli qismlarni moliyalashtirishga ketadi.

Umumiy xizmatchilar pensiya tizimi ishchilari ishga olingandan no‘ng 90 kun ichida ikkinchi pensiya rejasi (an’naviy belgilangan to‘lov rejasi) yoki uchinchi pensiya rejasi a’zosiga aylanishni tanlashi surur. Agar ishchi 90 kun ichida rejani tanlamasa, uchinchi pensiya rejasi standart rejaga aylanadi, reja tanlovini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Umumiy xizmatchilar pensiya tizimi – ikkinchi pensiya rejasi a’zolari har yili yanvar oyidavomida uchinchi pensiya rejasiga o‘tishni tanlashi mumkin.

«Koreya Respublikasida pensiya tayinlash tartibi quyidagicha: davlat xizmatchisi kamida 10 yil stajga ega bo‘lsa, 65 yoshida pensiyaga chiqish huquqiga ega buladi. Pensiyalar iste’mol savatchasiga ko‘ra indeksatsiya qilinadi. Ishchi pensiya yoshiba yetganida jamg‘arilgan mablag‘ning barchasini yoki oyma-oy olish huquqiga ega»¹.

Fuqarolarga yosha doir pensiyalarni tayinlashda uning miqdori ish haqi, ish stoji va to‘langan majburiy sug‘urta badallariga nisbatan hisobga olinadi. Masalan, og‘zaki tavsiyanoma bilan ishga kirgan restoran xodimi yoki qurilish firmasida ishlashni xohlayotgan quruvchi balki oyiga o‘rtacha ikki-uch yuz ming so‘m daromad qilishi mumkin. Biroq bu keyinchalik ana shu xodimning kelajagiga ta’sir ko‘rsatmaydi, degani emas.

Qog‘ozbozlik qilmaslik bahonasida jismoniy soliqlardan daromad solig‘i, jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga mablag‘lar va boshqa ijtimoiy to‘lovlarini to‘lashdan bosh tortayotgan bu «hujjatsiz xodimlar» o‘zлari uchun bir kun kelib kasallik varaqasi, mehnat va homiladorlik nafaqasi, pensiya bilan bog‘liq muammolar kelib chiqishini tasavvur ham etishmaydi.

¹(Government employees pension. Annual report. 2016. P.10.

**Belgilangan to‘lovli, belgilangan badalli va kassa
qoldig‘i pensiya rejalarini taqqoslash¹⁸⁷**

Ko‘rsatkichlar	Pensiya rejalarি		
	Belgilangan to‘lovli	Belgilangan Badalli	Kassa qoldig‘i
Pensiya	Mexnat staji, eng so‘nggi ish haqi va ko‘paytirish omili orqali aniqlanadigan formulaga asoslanadi	To‘langan badal va kiritilgan mablag‘ning qaytarilishi orqali aniqlanadigan individual mablag‘ kiritish hisobi balansiga asoslanadi	Badal va kafolatlangan minimal kiritilgan mablag‘ni qaytarish orqali aniqlanadigan shartli aloxida hisob balansiga asoslanadi.
Mablag‘ kiritish	Reja homiysi javobgar	Reja qatnashuvchisi javobgar	Reja homiysi javobgar
Pensiya rejasining moliyalashtirish xatari	Mablag‘ kiritishda va kela-jakdagи moliyalashtirish talabidagi noaniqlik tufayli hamma moliyalashtirish xatarini taxmin qiladi	Hech qanday moliyalashtirish xatarini taxmin qilmaydi	Chegaralangan moliyalashtirish xatarini taxmin qiladi
Ishchi-xodimning moliyalashtirish xatari	Moliyalashtirish xatarini taxmin qilmaydi	Mablag‘ kiritishda va pensiyada talab qilinadigan aktivlar miqdoridagi noaniqlik tufayli hamma moliyalashtirish xatarini taxmin qiladi	Moliyalashtiris h xatarini taxmin qilmaydi
Moliyaviy xatar	Moliyaviy xatar ehtimoli	Moliyaviy xatar ehtimoli yo‘q	Moliyaviy nazorat asosida xatar chegaralanadi.

¹⁸⁷ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications. 2008. P. 199.

Chunki ularni ishga olayotganda shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki diplom ham talab qilinmaydi. Shu bilan birga mehnat shartnomasi ham tuzilmaydi. Oqibatda norasmiy vakil sifatida faoliyat yurituvchi xodim mehnat muhofazasi, ijtimoiy sug‘urta va qonunda ko‘zda tutilgan ijtimoiy himoyaning boshqa turlaridan ham chetda qolaveradi.

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishslash va ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega. Shu bilan birga har bir xodim o‘z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo‘lmagan miqdorda haq olish, muddati belgilangan ish vaqtini o‘rnatish, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek, haq to‘lanadigan yillik ta’tillar berish orqali ta’minlanadigan dam olish, pensiya olish huquqiga ega. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Respublika bo‘yicha jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida yig‘ilgan mablag‘larning bir ishtirokchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdori 2010-yilda 59,6 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 81,7 ming so‘mni tashkil etadi. Respublika bo‘yicha jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida 2012-yilning 1-yanvar holatida jami 7077897 nafar, Farg‘ona viloyati bo‘yicha esa jami 742338 nafar fuqaro jamg‘arib boriladigan pensiya oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan, shuningdek, ishtirokchilardan 6870322 nafariga, Farg‘ona viloyati bo‘yicha esa 736002 ta jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi tarqatildi.

Qonun hujjatlarida belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida yig‘ilgan mablag‘larni markazlashtirilgan holda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirdi. Jumladan, 2006-yilda 3,2 mlrd so‘m fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari qoldig‘iga qo‘shilgan bo‘lsa, 2010-yilda ushbu ko‘rsatkich 26,0 mlrd so‘mni, 2011-yilda esa 38,8 mlrd so‘mni, jami

ushbu tizim ishga tushirilgan davr mobaynida 106,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2010-2011-yillarda tizim ishtirokchilarining majburiy badallari uchun 8 foiz miqdorida, ishtirokchilarning ixtiyoriy kiritgan badallari uchun 24 foiz miqdorida foizlar hisoblanib, olingan daromadlar fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari qoldig‘iga qo‘sildi.

Respublikamizda fuqarolarga davlat pensiyasini o‘z vaqtida to‘lash bilan birga jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tartibini nazorat qilish va hisobraqamdagи ma’lag‘larni samarali boshqarishni takomillashtirish yo’llarini ishlab chiqish muhim masala sanaladi. Shu bilan birga joylarda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining faoliyat ko‘rsatishi masalasi yuzasidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va buxgalterlari bilan tizimli ravishda seminarlar o‘tkazishga, har doim mazkur pensiya ta’minoti tizimning afzalliklari va mexanizmlarini aholiga tushuntirishga yetarli darajada e’tibor qaratilishi kerak. Respublikamizda qonun ijrosi bo‘yicha aniqlangan muammolar muhokama etilib, ularni bartaraf qilishga jiddiy ahamiyat berish lozim.

Fuqarolarning shaxsiga oid ma’lumotlar bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar: mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagи ma’lumotlar hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma’lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o‘z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

8.4. Xalq banki tizimida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi nazoratini amalga oshirilishi

Moliyaviy nazorat tizimi — nazorat qilish subyektlari, nazorat obyektlari, nazoratni amalga oshirish shakkllari, usullari hamda vositalarini o‘z ichiga oladi.

shakl

Xodimlarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga
olinganligi to'g'risida 200 ____ yil "_____" _____ dagi
- SONLI XABARNOMA

(Xalq banki filiali nomi) (Korxona nomi va manzili)

Mazkur xabarnoma bilan "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq quyidagi fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda jamg'arib boriladigan pensiya oluvchilar sifatida jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lum qilinadi.

Ko'sratib o'tilgan fuqarolarga Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaragi ochildi.

Xalq banki filiali boshlig'i _____ Imzo F.I.O. _____

M.O'.

Qırqış chızıg'ı

**200__ yil " " dagi -SONLI XABARNOMA
QABUL QILINGANLIGI TO'G'RISIDA AXBOROT**

(korxona nomi) (Xalq banki filiali)

Mazkur bilan xodimlar jamg'arib boriladigan tizimda shaxsiy hisobga olinganligi to'g'risida 200__ yil "_____" dagi ____-son xabarnoma olinganligini va ijro etish uchun qabul qilinganligini ma'lum qilamiz.

Korxona rahbari _____ Imzo F.I.O. _____

Moliyaviy nazorat tizimi o‘z tarkibida - subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va uslublarini birgalikda jamlaydi. Davlat moliyaviy nazoratning amalga oshirish usullariga ko‘ra guruhlanadi: tekshiruv, tadqiq etish, moliyaviy tahlil, monitoring, audit, taftish. Moliyaviy nazoratning obyektiga moliyaviy resurslarning harakati, shakllanishi, foydalanishdagi taqsimlash usullari kiradi. Moliyaviy nazorat qilish obyektlariga ko‘ra guruhlanadi: byudjet nazorati, byudjetdan tashqari jamg‘armalar va davlat maqsadli jamg‘armalari ustidan nazorat, valyuta nazorati, kredit nazorati, sug‘urta nazorati, investitsiya nazorati, pul massasi bo‘yicha nazorat, soliq nazorati.

Ish beruvchi quyidagilarga majbur”¹⁸⁸:

–mazkur Nizomga muvofiq jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda Xalq bankiga taqdim etish;

–Xalq banki filialidan tegishli xabarnoma tushgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida xodimlarning rasmiylashtirilgan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini olish va ularning qonun hujjatlarda belgilangan tartibda berilishini ta’minalash;

–hisoblangan badallarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘tkazish;

–xodimning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga o‘tkazilgan badallar summasi to‘g‘risida Xalq bankiga taqdim etilgan ma’lumotlar nuxxalarini xodimning talabiga ko‘ra bepul berish;

–xodimga berilgan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi rekvizitlarining xodimning shaxsini tasdiqlaydigan hujjat rekvizitlariга muvofiqligini nazorat qilish.

Agar ish beruvchi tomonidan Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy "tadbirkorlik subyekti kabineti" orqali elektron shaklda taqdim etilgan so‘rovnomada shaxsiy ma’lumotlarni

¹⁸⁸O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida»gi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-son qarori. 2015-yil. 29-avgust.

identifikatsiyalash imkoni bo‘lmasa, xatolar, noaniqliklar bo‘lsa yoxud yagona ma’lumotlar elektron bazasida ana shunday so‘rovnoma ma’lumotlariga ega bo‘lgan shaxs aniqlangan hollarda, Xalq banki filiali Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali so‘rovnoma taqdim kundan boshlab bir ish kuni mobaynida uni aniqlangan xatolarni ko‘rsatgan hamda ularni aniqlashtirish va tuzatish uchun ish beruvchiga qaytaradi.

Moliyaviy nazoratni davr talabiga mos ravishda tashkil etish orqali mablag‘lar samaradorligini oshirish mumkin. Mablag‘lar samaradorligini yaxshi va to‘liq yo‘lga qo‘yishda moliyaviy nazoratni odilona va oqilona tashkil etish lozim. Respublikamizda «to‘lov jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchiga bog‘liq bo‘lмаган sabablarga ko‘ra to‘xtatib qo‘yilganda yoki u to‘lanmaganda yoxud to‘lov tartibi va uning miqdori bo‘yicha nizoli masalalar paydo bo‘lganda oluvchi tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga, uning yuqori tashkilotiga, Xalq bankining hududiy boshqarmasiga va boshqaruviiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir»¹⁸⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandiga asosan 2010-yilning 1-yanvaridan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalari jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari sifatida belgilanganligi munosabati bilan 2012-yil 1-may holatiga mazkur tizimda ixtiyoriy ravishda ochilgan hisobvaraqlar soni 521 taga etib, 2012-yil yanvar-aprel oylari davomida fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy hisobvaraqsiga ixtiyoriy ravishda 186,7 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasiga yo‘naltirilgan mablag‘larni, xodimlar pensiya yoshiga yetib, davlat

¹⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish choratadbirlari haqida”gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr. 3-ilova. «Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag‘larni to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan vaqtida, yashash joyidagi Xalq banki filialidan olish huquqi belgilangan.

Fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yishda Xalq banki filiali uch ish kuni mobaynida ish beruvchiga shakl bo‘yicha uning xodimlari jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani yozma yoki elektron shaklda, hisobga olingan har bir xodimga jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari ochish to‘g‘risida xabarnoma yuboradi. Ish beruvchi tegishli xabarnoma kelgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida Xalq banki filialidan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalarini, ilova qilinadigan vedomostni oladi va ular olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida xodimlarga beradi. Xodim jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini olganligi to‘g‘risida ilova qilinadigan vedomostga imzo chekadi. Ilova qilinadigan vedomost to‘ldirilgandan keyin besh kun muddatda Xalq banki filialiga qaytariladi. Agar ish beruvchi xodim uzoq vaqt bo‘lmaganligi munosabati bilan jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini unga berish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, ish bernvchi jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasidagi yozuvlarni tekshiradi, ilova qilinadigan vedomostda bo‘lмаган xodim uchun imzo qo‘yadi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini bo‘lмаган xodimga topshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobda turgan (shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga ega bo‘lgan) xodimni ishga qabul qilishda, xodim ish bernvchiga o‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobda turmagan (shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamiga va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga ega bo‘lмаган) xodimni ishga qabul qilishda, ish beruvchi ish boshlangan kundan boshlab besh kun muddatda Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish uchun ishga qabul qilingan xodimning shaxsiy ma’lumotlari ko‘rsatilgan so‘rovnomani yuborishi (taqdim etishi) shart.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy tartibda qatnashuvchi fuqarolar ularning arizalari va Nizomda ko'rsatilganga o'xshash tartibda o'z qo'li bilan to'ldirilgan so'rovnoma asosida hisobga olinadi. Fuqaro hisobda turish uchun yashash joyi bo'yicha Xalq banki filialiga mustaqil murojaat qilishi kerak. Hisobga olingandan keyin ixtiyoriy tartibda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga besh ish kuni mobaynida uning shaxsiy imzosi ostida jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi beriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlar jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarni oluvchi to'g'risidagi quyidagi umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

–bir vaqtning o'zida jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasining ham tartib raqami hisoblangan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining tartib raqami;

–jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarni oluvchining hisobga olish paytidagi familiyasi, ismi, otasining ismi;

–v) jinsi;

–tug'ilgan sanasi va joyi;

–jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarni oluvchining hisobga olish paytida mavjud bo'lgan pasportining seriyasi va raqami;

–jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish sanasi;

–j) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha hisobga olishdan chiqarish sanasi;

–z) hisobga olgan Xalq banki filialining nomi.

Mazkur bandning "b" va "d" kichik bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgarganda shaxsiy hisobga olish ma'lumotlariga tegishli qo'shimchalar kiritiladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobga olish to'g'risidagi maxsus ma'lumotlar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar miqdori va ularni to'lash davrlarini aks ettiradi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

duxli bor. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar eng avvalo, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Lekin keyingi paytda nyirim korxonalar, qurilish firmalari va fermer xo'jaliklari ishchilariga "konvert" usulida ish haqi berish holatlari ish beruvchi tomonidan ishchilar manfaatiga tamoman zid harakatdir.

Respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Xalq bankining Farg'ona viloyat filiali bo'yicha 2005-2011-yilar davomida ishtirokchi korxona-tashkilotlar tomonidan qonunning 15-moddasi talablari bajarilmagani uchun, ya'ni jamg'arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi haqidagi reyestr taqdim etilmaganligi tufayli 1,228,4 mln so'm mablag' fuqarolarning hisobraqamlariga kiritilmagan. Faqat 2012-yil 1-may holatida reyestr taqdim etmagan korxona va tashkilotlar soni 2021 tani yoki 316,0 mln so'mni tashkil qiladi. Xalq banki filiali va soliq organlari o'rtasida o'zaro axborot almashish lozim darajada amalga oshmay qolgan. Davlat soliq organlari tomonidan qonunning 13-moddasida belgilangan talab qonun ijrosi ustidan nazorat yetarli darajada tashkil etilmagan.

Xalq bankining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlari holati to'g'risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo'lib, bu borada viloyat bo'yicha 742 ming 338 nafar ishtirokchidan 587 ming 896 nafariga xabar berilgan, xolos. 154 ming 442 ishtirokchiga esa, xabarnoma jo'natilmagan¹⁹⁰.

Hukumatimiz tomonidan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'lovchi korxona-tashkilotlarning mas'uliyati oshirilib, bunday ijtimoiy ahamiyatdagi mablag'larni o'z vaqtida hamda yetarli miqdorda to'lash talabi qo'yilgan. Lekin keyingi paytda ayrim korxonalar, ayniqsa, xususiy savdo va umumiyovqatlanish korxonalar, qurilish firmalari va fermer xo'jaliklari ishchilar va xodimlariga hujjatlar bo'yicha kam ish haqi hisoblanib, unga nisbatan hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov va

¹⁹⁰Nazorat tahlil faoliyati. Kamchiliklarga e'tibor qaratildi.<http://parliament.gov.uz>

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar amalga oshirilgan davrlar (oylar);

-ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotga muvofiq shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar ulardan amalga oshirilgan ish haqi va boshqa daromadlar miqdori;

-v) shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblangan va to‘langan badallar summasi;

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblangan foizli daromadlar summasi;

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idan to‘langan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari summasi.

Mazkur bandning "a"-“g” kichik bandlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishiga qarab muntazam ravishda to‘ldiriladi va o‘zgartiriladi.

Bugungi kunda soliq organlariga belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minalash shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasiga badallarni to‘g‘ri hisoblanishi va belgilangan tartibda o‘tkazilishi yuzasidan nazorat tadbirdari ham amalga oshirilib kelimoqda. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda 2012-yilning 1 may holatiga o‘tkazilgan tekshirishlarda 43 ta holatda fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasiga badallar hisoblamaslik va belgilangan muddatlarda Xalq bankidan ochilgan hisobvaraqlarga mablag‘larni ko‘chirmaslik holatlari aniqlanib, byudjetga 4194,1 ming so‘mlik ustama jarimalari hisoblanib undirildi va 17 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 28 nafar mansabdor shaxslariga nisbatan sud organlari tomonidan 2289,4 ming so‘mlik ma‘muriy jarimalar qo‘llanildi. Jamg‘arib boriluvchi pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan asosiy masalalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minalashda muhimdir. Bugun respublikamizda taxminan 10 milliondan ortiq fuqaro nomiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari ochilgan. “Toma-toma ko‘l bo‘lur” maqolining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga

daxli bor. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar eng avvalo, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashga qaratilgan. Lekin keyingi paytda ayrim korxonalar, qurilish firmalari va fermer xo‘jaliklari ishchilariga “konvert” usulida ish haqi berish holatlari ish beruvchi tomonidan ishchilar manfaatiga tamoman zid harakatdir.

Respublikamizda jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak. Xalq bankining Farg‘ona viloyat filiali bo‘yicha 2005-2011-yilar davomida ishtirokchi korxona-tashkilotlar tomonidan qonunning 15-moddasi talablari bajarilmagan uchun, ya’ni jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi haqidagi reyestr taqdim etilmaganligi tufayli 1,228,4 mln so‘m mablag‘ fuqarolarning hisobraqamlariga kiritilmagan. Faqat 2012-yil 1-may holatida reyestr taqdim etmagan korxona va tashkilotlar soni 2021 tani yoki 316,0 mln so‘mni tashkil qiladi. Xalq banki filiali va soliq organlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashish lozim darajada amalga oshmay qolgan. Davlat soliq organlari tomonidan qonunning 13-moddasida belgilangan talab qonun ijrosi ustidan nazorat yetarli darajada tashkil etilmagan.

Xalq bankining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari holati to‘g‘risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo‘lib, bu borada viloyat bo‘yicha 742 ming 338 nafar ishtirokchidan 587 ming 896 nafariga xabar berilgan, xolos. 154 ming 442 ishtirokchiga esa, xabarnoma jo‘natilmagan¹⁹⁰.

Hukumatimiz tomonidan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘ to‘lovchi korxona-tashkilotlarning mas‘uliyati oshirilib, bunday ijtimoiy ahamiyatdagi mablag‘larni o‘z vaqtida hamda yetarli miqdorda to‘lash talabi qo‘yilgan. Lekin keyingi paytda ayrim korxonalar, ayniqsa, xususiy savdo va umumiyyovqatlanish korxonalari, qurilish firmalari va fermer xo‘jaliklari ishchilar va xodimlariga hujjatlar bo‘yicha kam ish haqi hisoblanib, unga nisbatan hisoblanadigan yagona ijtimoiy to‘lov va

¹⁹⁰Nazorat tahlil faoliyati. Kamchiliklarga e’tibor qaratildi.<http://parliament.gov.uz>

ish haqidan ushlanadigan to‘lovlar, jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag‘lar o‘tkazishdan qochish, ko‘proq “konvert” usulida ish haqi berish holatlari kuzatilmoxda. Aholining Xalq bankiga ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarida saqlangan mablag‘larga foizlarni kunlik hisoblanishini yo‘lga qo‘yish hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarining yillik harakati to‘g‘risidagi xabarnomalarni elektron tizim orqali ma’lumotlar berilishini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar tezda hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq ko‘mitasi zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining to‘g‘riliqi, to‘liq hisoblanishi va o‘z vaqtida o‘tkazilishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ko‘shilishi ustidan nazorat o‘rnatish vazifasi yuklandi. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta’sir chorralari qo‘llaniladi. Davlatning nazorati va davlat kafolati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg‘armadan pensiyalarni moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatlari jihatidir.

Xalqaro amaliyotni o‘rganib, muddati jihatidan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda nodavlat pensiya jamg‘armalarining o‘rni nechog‘lik yuqori ekanligiga amin bo‘ldik. Mamlakatimizda nodavlat pensiya jamg‘armalarining huquqiy asoslarini yaratish va amaliyotga joriy etish natijasida iqtisodiy islohotlar yanada tezlashadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’motni mamlakatimiz bank-moliya tizimi sohasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg‘arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal

ko‘rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to‘lovlarini manbayining ishonchli asosini ta’minlaydi. Bu esa, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining yangi shakli sifatida jamiyat huyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Qisqacha xulosalar

O‘zbekistonga jahon moliyaviy inqirozining ta’sirini jiddiy bo‘limganligini mutaxassislar qo‘yidagi omillar bilan izohlashmoqda:

–O‘zbekistonda moliya, byudjet, bank, soliq, pul-kredit, ijtimoiy ta’minot tizimi, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va ijtimoiy soha tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

–ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lini tanlanganligi;

–davlat bosh islohotchi sifatida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;

–ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda narxlar indeksini asossiz tarzda o‘sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

–oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

– davlat moliyaviy nazorati tizimining barqaror va ishonchliligi.

Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy ta’minot hamda davlat pensiya ta’minoti tizimi nazoratini takomillashtirish fuqarolik jamiyatni sari dadil odimlab borayotgan O‘zbekiston uchun nihoyatda muhim masalalardir. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar oldida turgan global muammolardan biri – bu barcha mamlakatlarda pensiya fondlarini tashkil qilish va mazkur fondlarning mablag‘-laridan to‘g‘ri va samarali foydalanishning nazorati hisoblanadi. Moliyaviy nazorat tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

tizimlilik, uzlusizlilik, qonuniylik, obyektivililik, oshkorlik, samaradorlik.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishning kuchayishi pensiya ta'minoti amaliyotini moliyalashtirish nazoratini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Moliyaviy nazorat - bu pul mablag'larini yig'ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir. Moliyaviy nazoratning asosiy vazifalaridan biri - moliyaviy resurslarning holatini nazorat qilishdan iborat. Adabiyotlarda moliyaviy nazoratning asosiy vazifalari qatoriga korxonalar, tashkilotlar, jamg'armalar tomonidan ularning tasarrufidagi pul mablag'laridan to'g'ri foydalanilishi hamda tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, jamg'armalar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mablag'larini saqlashga oid qoidalarga rioya etilishini tekshirish kiritilgan. Noqonuniy holatlar aniqlangan hollarda tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda jazo choralar qo'llaniladi. Davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan zararni qoplash ta'minlanadi.

Moliyaviy nazoratning amal qilish ko'lami xo'jalik munosabatlarning butun majmuyini ham o'z ichiga qamrab oladi. Moliyaviy nazorat mablag'lar holati ustidan olib boriladigan nazorat, byudjetni to'ldirish, markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalaridan foydalanish operatsiyalari yuzasidan olib boriladigan nazorat va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin. Moliyaviy nazorat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: moliyaviy faoliyat jarayonida qonunchilikka rioya qilishni ta'minlash; moliyaviy resurslarning holatini nazorat qilish; korxona, muassasa, jamg'arma va tashkilotlardagi moliyaviy operatsiyalar qonun asosida olib borilishi bilan birga, mablag'lardan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni ta'min etishdan iborat. Nazorat predmeti sifatida shartnomalar, xarajatlar smetasi, to'lov topshiriqnomalari, narxlar

monitoringi, ish haqi, ish staji, pensiya, nafaqa, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘lari, moliyaviy operatsiyalar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to‘liqligi davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ta’minlanadi.

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat miqyosida yaratilgan YalMni qiymat nisbatlarida taqsimlashni qamrab oladi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog‘liq davlat pul resurslari oqimlarini muvofiqlashtiradi. Davlat nazoratchilariga davlat sektorida amalga oshiriladigan taftish va tekshirish bilan birga, xususiy va korporativ sektorda nazorat o‘tkaziladigan obyekt umummilliy iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarga ega bo‘lsa, ularni ham taftish va tekshirish huquqi beriladi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiya ta’motini moliyalashtirish va boshqarish borasida xorijiy tajribalardan oqilona foydalanish O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimini isloh qilish imkoniyatlarini ko‘taradi, uni yangi sifat darajasiga olib chiqadi, shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarishning shaffofligi, samaradorligi va nazoratliliginı maksimal darajada oshiradi.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliyaviy nazorat, nazorat turlari, pensiya to‘lovleri nazorati; Xalq banki; soliq organlari; dastlabki nazorat; joriy nazorat;

yakuniy nazorat; jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti; jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti xarajatlarining nazorati.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy nazoratning turlari, shakllari va usullarini bilasizmi?
2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti faoliyatini nazorat qilishning iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti nazoratida dastlabki, joriy va yakuniy nazorat vazifalarini tushuntiring.
4. Xalq banki tizimida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi nazoratini amalga oshirish mexanizmini tushuntirib bering.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida moliyaviy nazorat” mavzusida 1000 so‘zlik esse yozing.

Test savollari

1. Moliyaviy nazoratning maqsadi –

- A. Tekshirilayotgan obyektdan amaldagi moliyaviy qonunchilik talablariga qay darajada rioxha etilayotganligini aniqlash.
- B. Qonunbuzarlik holatlari aniqlangani taqdirda uni bartaraf qilish choralarini ko‘rish.
- C. Aybdor shaxslarni va ularning javobgarligi masalalarini hal etish.
- D. Barchasi to‘g‘ri.

2. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan ta’sir choralar qo’llash vazifalari zimmasiga yuklatildi.

- A. Davlat Soliq qo‘mitasi.
- B. Moliya vazirligi.

- C. Markaziy bank.
- D. Xalq banki.

3. Nazoratning maqsadga yo‘naltirilganligi va predmetiga qarabguruhash mumkin.

- A. Kompleks nazorat, mavzuli nazorat, muqobil nazoratga.
- B. Kompleks nazorat, mavzuli nazorat, yakuniy nazoratga.
- C. Kompleks nazorat,joriy nazorat, muqobil nazoratga.
- D. Kompleks nazorat, mavzuli nazorat, dastlabki nazoratga.

4. Moliyaviy nazorat tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- A. Qonuniylik.
- B. Obyektivlilik.
- C. Oshkoraliq.
- D. Barchasi to‘g‘ri.

5. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan belgilangan maqsadda foydalaniishi hamda foizlar to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi ustidan nazorat tomonidan amalga oshiriladi.

- A. Moliya vazirligi va Xalq banki.
- B. Markaziy bank va Moliya vazirligi.
- C. Markaziy bank va Xalq banki.
- D. Davlat Soliq qo‘mitasi va Xalq banki.

6. Nazoratning uslublariga quyidagilar kirmaydi:

- A. Iqtisodiy tahlil, sintez, inventarizatsiya.
- B. Statistik hisob, kameral tekshiruv, yoppasiga tekshirish.
- C. Hujjatlar ekspertizasi, eksperiment, analitik hisob uslubi.
- D. Kompleks nazorat, uzlucksiz kuzatish, moliyaviy hujjatlarni tekshirish.

7. Moliyaviy nazorat obyekti tomonidan e’tirozlaryozma shaklda taqdim etilmagan taqdirda, davlat moliyaviy nazorati

natijalariga doir hujjat moliyaviy nazorat obyekti tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

- A. O'n kunlik muddatda.
- B. Uch kunlik muddatda.
- C. Besh kunlik muddatda.
- D. Bir kunlik muddatda.

8. Byudjet intizomini buzish hisoblanadi:

- A. Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilot-larga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berishni kechiktirish.
- B. Pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasa-larga pul mablag'lari berishni kechiktirish.
- C. Pul to'lovlarida banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan asossiz kechiktirish.
- D. Barchasi to'g'ri.

9. Qaysi nazorat davlat moliyaviy nazoratining muddatiga ko'ra turlari tarkibiga kirmaydi.

- A. Dastlabki nazorat.
- B. Joriy nazorat.
- C. Yakuniy nazorat.
- D. Mavzuli nazorat.

10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 179-moddasi 31-bandiga asosan, ... fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari sifatida belgilangan.

- A. 2010-yilning 1-yanvaridan.
- B. 2005-yilning 1-yanvaridan.
- C. 2011-yilning 1-yanvaridan.
- D. 2016-yilning 1-yanvaridan.

IX BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

9.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy siyosatning kuchi va ahamiyati uning insonga, aholini ijtimoiy himoyalashga insonparvarlarcha qaratilganligidan iborat. Biroq, bu holat keyinchalik, respublika bozor iqtisodiyotiga barqaror va qat'iy sur'atda kirib borganidan keyin unga ehtiyoj qolmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarkib topgan ijtimoiy ta'minot tizimi, tabiiyki, kelajakda o'zgarib borayotgan aniq tarixiy sharoitlarga muvofiq holda tegishli sur'atda yangilanadi. Lekin ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida unga bo'lgan ehtiyoj hech qachon yo'qolmaydi, demokratik yo'sinda tashkil etilgan qonun asosidagi davlat boshqaruvi mohiyati ana shunda ko'rindi.

Fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida ham xalqaro norma va qoidalarni hisobga olib ish ko'rildi. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni xalqaro talablargacha yana ham muvofiqlashtirish maqsadida ijtimoiy ta'minot masalalariga oid maxsus xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish, ulardagi normalarni milliy qonunchiligidimizga yaqinlashtirish vazifalari tobora dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rinnegallamoqda. Iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va

takomillashtirilmoqda. Davlat pensiya ta'minoti tizimining barqaror va oqilona tizimini shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan zamonaviy me'yorlarni ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2010-yil 3-maydagi 37, 2010-20-son qarori bilan «O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, 2010-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Ushbu Nizomda ta'kidlanishicha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga kamaytirish tarzida beriladi. Soliq chegirmasi soliq solinadigan ish haqi va (yoki) boshqa daromadlarini o'zining jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriy ravishda o'tkazgan jismoniy shaxsga beriladi.

shakl

(Yuridik shaxsnинг nomi)

ARIZA

Men,

Sizdan ish
haqimdan

(F.I.O.)

va (yoki) boshqa daromadimdan bir

yo'la (har oy)

(tagiga chizilsin)

(summa yozib ko'rsatiladi)

miqdorida mening O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘imga o‘tkazishingizni so‘rayman.

Shundan xabardormanki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslar daromadlarining O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalarji jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etiladi.

Bunda, agar men ushbu mablag‘larni qaysi soliq davrida o‘tkazgan bo‘lsam, ushbu soliq davrida undan foydalanadigan bo‘lsam, ushbu mablag‘larga jismoniy shaxsning jami yillik deklaratsiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Solik kodeksida belgilangan tartibda soliq solinadi.

(F.I.O.)

(imzo)

(sana)

Soliq chegirmasi daromad oluvchi jismoniy shaxsning Nizomda keltirilgan shaklga muvofiq arizasiga asosan to‘lov manbayida taqdim etiladi.

Agar to‘lov manbayiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ushlab qolish va o‘tkazish majburiyati yuklatilmagan bo‘lsa, soliq chegirmasi jismoniy shaxsga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asosan taqdim etilishi mumkin. Arizaning taqdim etilishi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lov manbayida ushlab qolmaslik uchun asos bo‘ladi.

Soliq chegirmasi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan summaga, jismoniy shaxsning hisoblangan daromadi miqdorida beriladi.

(Davlat soliq xizmati organining nomi)

Xalq banki filiali to‘g‘risida MA’LUMOT

STIR

To'liq nomi

Joylashgan yeri

Pochta manzili

Telefon: kod **raqam**

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda mablag‘larni o‘tkazgan jismoniy shaxslarga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini to‘g‘risida

MA'LUMOTLAR

20 yil uchun

(so'm)

Xalq banki filiali rahbari

(F.I.O.)

(Imzo)

M₂O^c

Arizaning taqdim etilishi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lov manbayida ushlab qolmaslik uchun asos bo‘ladi. Soliq chegirmasi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan summaga, jismoniy shaxsning hisoblangan daromadi miqdorida beriladi. Ish beruvchi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan mablag‘larni ish haqini to‘lash muddatidan kechiktirmay o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki filiallari hisobot yilidan keyingi yilining 15 fevraliga qadar tegishli hududiy davlat soliq xizmati organiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag‘larni ixtiyoriy ravishda o‘tkazgan jismoniy shaxslarga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘g‘risida ma’lumotlarni Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etadi. Agar jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy badallar tarzida tushgan mablag‘lar soliq davri tugaguniga qadar to‘lanadigan bo‘lsa, ushbu mablag‘larga jismoniy shaxsning jami yillik deklaratsiyasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Ish beruvchilar xodimlarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar reyestrini O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining xizmat ko‘rsatuvchi filialiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 30-kuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etadi.

**Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga
ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi**

MA’LUMOTLAR

20 yilning choragi uchun

T/r	Ko‘rsatkichlar	
1.	Jismoniy shaxslar soni (kishi):	
1.1.	yil boshidan	
1.2.	hisobot choragi uchun	
2.	Jamg‘arib boriladigan Ixtiyoriy pensiya badallari summasi (mln so‘m)	
2.1.	yil boshidan	
2.2.	hisobot choragi uchun	

Rais o‘rinbosari

(F.I.O.)

(Imzo)

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi har chorakda hisobot choragidan keyingi chorakning ikkinchi oyining 10-kuniga qadar, yil yakunlari bo‘yicha esa – 5-apreldan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan mablag‘lar miqdoriga soliq chegirmasini qo‘llagan jismoniy shaxslar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki filiallari davlat soliq xizmati hududiy organlariga ish beruvchilar tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraliga qadar taqdim etilgan ma’lumotlar asosida ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan davlat soliq xizmati organiga taqdim etilgan jismoniy shaxslarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq siri hisoblanadi va oshkor etilmaydi. Soliq chegirmalarining to‘g‘ri qo‘llanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

shakl

**Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga
ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan mablag‘lar miqdoriga soliq chegirmasini
qo‘llagan jismoniy shaxslar soni to‘g‘risidagi**

MA’LUMOTLAR

20 ____ yilning ____ choragi uchun

T/r	Ko‘rsatkichlar
1.	Soliq chegirmasini qo‘llagan jismoniy shaxslar soni,kishi
1.1.	yil boshidan
1.2.	hisobot choragi uchun
2.	Imtiyoz summasi (mln so‘m):
2.1.	yil boshidan
2.2.	hisobot choragi uchun

Rais o‘rinbosari

(F.I.O.)

(Imzo)

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydag‘i «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minalash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sirlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-4725-son Farmonini bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’moti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida 2015-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 250-son qarori qabul qilindi.

«Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 3-bandidagi «yagona ma’lumotlar elektron bazasi» so‘zleri «Xalq bankining jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasi» so‘zleri bilan almashtirildi. Ish

beruvchilar, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshirayotgan fuqarolar uchun jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashish majburiy hisoblanadi, agar qonun hujjatlarida boshqacha hollar nazarda tutilmagan bo‘lsa. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda qatnashayotgan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish ish beruvchi tomonidan ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq bankining filialida amalga oshiriladi. Hisobga olish uchun ish beruvchi xodimning pasportidagi ma’lumotlar asosida mazkur Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha xodimning so‘rovnomasini ixtiyoriy tarzda yozma shaklda yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalining shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabineti»da elektron shaklda to‘ldiradi. So‘rovnoma bosma harflar bilan to‘ldiriladi yoki mashinkada yoziladi. So‘rovnomada tuzatishlar kiritishga va bandlarning asossiz bo‘sh qoldirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportida fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi) ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u holda ish beruvchi yashash joyi bo‘yicha ichki ishlar organlaridan fuqaroning identifikatsiya raqamini (shaxsiy kodini) so‘raydi va u aniqlangandan keyin so‘rovnomaning tegishli ustuniga yozuvni qayd etadi. Yozma ravishda to‘ldirilgan so‘rovnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi ish beruvchining rahbari imzosi bilan tasdiqlanadi. Agar xodim uzoq muddat bo‘lmaganligi (kasallik, xizmat safari, ta’til yoki boshqa sababga ko‘ra) munosabati bilan so‘rovnomadagi mavjud ma’lumotlarni shaxsan tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘lmasa, ish beruvchi ushbu sabablarni so‘rovnomada ko‘rsatadi va uni o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi. To‘ldirilgan so‘rovnomalar ish beruvchi tomonidan ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagi Xalq bankining filialiga yozma tarzda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabineti» orqali jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasida hisobga qo‘yish elektron shaklda yuboriladi.

Xalq bankining filiali yozma tarzda rasmiylashtirilgan so‘rovnoma olingen kundan boshlab uch ish kuni mobaynida fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochadi va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtiradi. Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabinet» orqali olingen elektron shaklda rasmiylashtirilgan so‘rovnomani olish bilan bir paytda fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga oladi, uning uchun shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobvarag‘i ochadi, shuningdek, bir kuni muddatda — jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtiradi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish hamda jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtirish va yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar ish beruvchi tomonidan yozma tarzda yuborilgan so‘rovnomada hisobga qo‘yilishi kerak bo‘lgan shaxsni ishonchli identifikatsiyalash imkonini bermaydigan tushirib qoldirishlar, xatolar yoki tuzatishlar aniqlangan, yoxud yagona ma’lumotlar elektron bazasida ana shunday so‘rovnoma ma’lumotlariga ega bo‘lgan shaxs aniqlangan hollarda, Xalq banki filiali so‘rovnoma taqdim kundan boshlab uch ish kuni mobaynida uni aniqlangan xatolarni ko‘rsatgan hamda ularni aniqlashtirish va tuzatish uchun ish beruvchiga qaytaradi. Agar ish beruvchi tomonidan Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabinet» orqali elektron shaklda taqdim etilgan so‘rovnomada shuxsiy ma’lumotlarni identifikatsiyalash imkoni bo‘lmasa, xatolar, noaniqliklar bo‘lsa yoxud yagona ma’lumotlar elektron bazasida ana shunday so‘rovnoma ma’lumotlariga ega bo‘lgan shaxs aniqlangan hollarda, Xalq banki filiali Interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali so‘rovnoma taqdim kundan boshlab bir ish kuni mobaynida uni aniqlangan xatolarni ko‘rsatgan hamda ularni aniqlashtirish va tuzatish uchun ish beruvchiga qaytaradi. Ish beruvchi so‘rovnomada ko‘rsatilgan ma’lumot-larning uch ish kuni mobaynida

aniqlashtirilishini va tuzatilishini ta'minlaydi va uni Xalq banki filialiga qaytaradi.

Fuqaroni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo'yishda Xalq banki filiali uch ish kuni mobaynida ish beruvchiga mazkur Nizomdag'i 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha uning xodimlari jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo'yilganligi to'g'risidagi xabarnomani yozma yoki elektron shaklda, hisobga olingan har bir xodimga jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalari ochish to'g'risida xabarnoma yuboradi.

Ish beruvchi tegishli xabarnoma kelgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida Xalq banki filialidan jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalarini, ilova qilinadigan vedomostni oladi va ular olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida xodimlarga beradi. Xodim jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini olganligi to'g'risida ilova qilinadigan vedomostga imzo chekadi. Illova qilinadigan vedomost to'ldirilgandan keyin besh kun muddatda Xalq banki filialiga qaytariladi. Agar ish beruvchi xodim uzoq vaqt bo'limganligi munosabati bilan jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasiniunga berish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ish beruvchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasidagi yozuvlarni tekshiradi, ilova qilinadigan vedomostda bo'limgan xodim uchun imzo qo'yadi va jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini bo'limgan xodimga topshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

O'mni kelganda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni bir xil qo'llash, bir xil tushunish sohasida qiyinchiliklar mavjudligi, me'yoriy hujjatlarining murakkablik darajasi yuqoriligini e'tiborga olish kerak. Ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimi sohasining boshqaruvi organlari tomonidan ilmiy usullarga tayanib, aholi turmush darajasini oshirish maqsadida barcha ijtimoiy jarayonlarga kompleks ta'sir qilinadi.

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi Yuridik boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

–Xalq bankining huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida bevosita qatnashish;

–normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan talablarga muvofiq yuritish;

–bank xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyatini ularga yetkazishda qatnashish;

–bank mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga ko'maklashish;

–bankning shartnomaviy-huquqiy va talabnama-da'vo ishlarini yuritishda qatnashish;

–sudlarda va boshqa idoralarda bankning mulkiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish.

Yuridik boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarни amalga oshiradi:

a) huquq ijodkorlik, huquqni qo'llash amaliyoti va huquqiy madaniyatni oshirish sohasida:

–bank huquqiy ijodkorligi faoliyati rejalarini ishlab chiqadi yoki ularning ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi va bajarilishini nazorat qilishda qatnashadi;

–bank vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqadi yoxud ishlab chiqishda qatnashadi;

–bankning ichki normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqadi yoxud ishlab chiqishda qatnashadi;

–bankka kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirilgan hisobini belgilangan talablarga muvofiq yuritadi, ularning saqlanishini va nazorat qilinishini ta'minlaydi;

–xodimlarning murojaatlari bo'yicha tegishli huquqiy hujjatlarni topishga ko'maklashadi, zarur hollarda ylarning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

b) Xalq banki faoliyatida qonuniylikni ta'minlash sohasida:

–qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini burtaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida takliflar kiritadi, zarur hollarda ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashadi;

–rahbariyatga taqdim qilinadigan byypyqlar, farmoyishlar va huquqiy tusdagi qonun hujjatlari loyihalarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi va ylar bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi.

–vakolatlari doirasida bank faoliyati bo'yicha ariza, shikoyat va boshqa murojaatlarni ko'rib chiqadi;

–bankda mehnat haqidagi qonunga rioya etilishini ta'minlashda, shu jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar (mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi va boshqalar)ni ishlab chiqishda qatnashadi, ushbu hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi va huquqiy xulosa beradi;

v) shartnomaviy-huquqiy, talabnomada'vo ishlari va huquqiy himoya qilish sohasida:

–boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda shartnomalarni tayyorlash va tuzish ishlarida qatnashadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi hamda shartnomalar loyihalariga, agar e'tiroz va takliflari bo'lmasa, viza qo'yadi.

–qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi shartnomalarning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan yozma xulosalarni tayyorlaydi va imzolaydi;

–shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

–bank manfaatlarini himoya qilish bo'yicha talabnomalar tayyorlashda va unga nisbatan bildirilgan talabnomalarni ko'rib chiqishda qatnashadi, talabnomalar bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

–shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlarini olib boradi;

–bankning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida qatnashadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, aholi turmush darajasining uzluksiz oshib borishi, fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini

qondirilishi, ijtimoiy guruhlarning moddiy ta'minoti davlatning ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishiga aylanib qoldi. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqarolarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj tabaqalarini manzilli ijtimoiy himoya qilish taraqqiyotimizning muhim hususiyatlardan bo'lgan bugungi sharoitda pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni keng joriy etish, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash chog'ida ijtimoiyadolat tamoyillarini to'la qaror toptirish, ana shu maqsadlar uchun ajratilayotgan moliyaviy resurslardan tejab-tergab, maqsadli va o'rinni foydalanishga erishish amalga oshirib kelinayotgan yangilanish va modernizatsiya qilish jarayonlarimizning muhim jihatlaridan sanaladi.

9.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari barqarorligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. Iqtisodiy optimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiylar hajmi oshdi.

O'zbekiston Respublikasida xalq farovonligini belgilovchi asosiy omillar qatorida davlat moliyasi, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda ularning pul aylanmasining barqarorligi belgilab olindi. Respublikamizda qabul qilingan byudjet parametrlarida qayd etilganidek, joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, 2018-yilgi byudjet siyosati konsepsiyasida asosiy e'tibor byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo'llab-quvvatlashga va byudjet tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiylar va ijtimoiy to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish va uning barqarorligini ta’minalash ishlari davlatning o‘z funksiya va vazifalarini to‘liq ado etish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Xorijiy davlatlarda pensiya tizimini isloh qilishning uch varianti ko‘p uchraydi:

- birinchisi – taqsimot tizimining ayrim parametrlarini isloh qilish;
- ikkinchisi – majburiy jamg‘arib boriladigan tizimga o‘tish;
- uchinchidan – bosqichma-bosqich taqsimot va jamg‘arma unsurlarini o‘zida mujassam etgan ko‘p darajali tizimga o‘tish.

Rivojlanayotgan mamlakatlar pensiya ta’minoti tizimi oldidagi turli muammolar mavjudligiga qaramasdan bosh masala – pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash va jamg‘armaning xarajatlariga mablag‘larining yetarli darajasini kafolatlash hisoblanadi.

Gap shundagi, XX asr 80-yillaridan boshlab rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarning pensiya ta’minoti tizimi tug‘ilish darajasi past bo‘lgan xolda umr ko‘rish davomiyligi uzayishi natijasida aholining qarishi jadal ortib borishi bilan bog‘liq murakkab demografik vaziyatga duch kelmoqda. Bu holatni 1990 yilda har bir pensioner hisobiga 2,2 nafar ish bilan band aholi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2002-yilda bu ko‘rsatkich 1,7 nafarni, 2012-yilda 1,5 nafarni tashkil etganligi ko‘rsatib turibdi. Demografik prognozlar 2030-yilga borib, ish bilan band aholiga pensiya ta’minoti bosimi ikki barobarga ortishini ko‘rsatmoqda. Hozirning o‘zida qator mamlakatlarda ish bilan band aholiga pensiya ta’mintoning bosimi pensiya tizimi defitsitini keltirib chiqardi, chunki joriy pensiya badallari joriy pensiya to‘lovlarini amalga oshirish imkonini bermay qo‘ydi. Shu sababli XX asr oxirlaridan boshlab, daromadi yuqori bo‘lgan aholi pensiya tizimidagi tenglikdan norozi bo‘la boshlaydi.

9.1-jadval

Jahonda har bir pensioner hissasiga to‘g‘ri keladigan ish bilan band aholi soni

Yillar	Har bir pensioner hissasiga to‘g‘ri keladigan ish bilan band aholi soni
1990	2,2
2002	1,7
2012	1,5
2030	0,8

O‘zbekiston pensiya ta’minotining muhim xususiyatlaridan biri – pensionerlarning aholi tarkibida kichiq salmoqqa ega ekanligi hisoblanadi.

Bu esa, pensiya tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasi mablag‘larini investitsiyalash hajmini oshirish imkoniyatini yuzaga keladi.


Statistiq ma’lumotlarga ko‘ra mamlakat aholisining 58 foizdan ortiq qismi mehnatga layoqatli hisoblanadi. O‘zbekistonda iqtisodiyoti-ning ayrim tarmoqlarida mehnat haqining yuqori sur’atlarda o‘sishi kuzatilmoqda.

Bu esa, jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasiga to‘ladigan badallar miqdorining yanada oshishiga olib keladi. Pensiya tizimini isloh etish jarayonida ushbu tizimning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birgalikda yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishga katta e’tibor beriladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy davlatlarda taqsimot va jamg‘arish tamoyillariga asoslangan pensiya fondlarini samaradorligini va moliyaviy barqarorligini baholovchi qiymat ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan, bugungi kunda pensiya ta’motini boshqarishda bu ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasida ta'kidlaganidek, “..Soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi”¹⁹¹.



9.1-rasm. Taqsimot va jamg'arish tamoyillariga asoslangan pensiya fondlarini baholovchi qiymat ko'rsatkichlari¹⁹²

Albatta, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish bevosita pensionerlarga pensiyalarining o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanish masalasini ham ifoda etadi. Shu bilan birga pensiyalarining o'z

¹⁹¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasasi. \\\ Xalq so'zi. 2016-yil.

¹⁹² Vaxabov A.V. Pensiya tizimining moliyaviy barkarorligini ta'minlash muammolari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2017-yil. 15-noyabr. 7-b.

vaqtida va to‘liq hajmda to‘lanishi uchun Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi ta’milanishi kerak.

Hukumatimiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlanтирish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, katta ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan o‘zgarishlar amalgalash oshirilmoqda. «Davlat va hukumatimiz o‘z oldiga qo‘yayotgan asosiy maqsad esa – olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat»¹⁹³.

Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Kelgusida «nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minalashga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va pensiyalarning qoplash koeffitsiyenti miqdorini oshirish lozim. O‘zbekistonda ko‘p darajali kombinatsiyalashgan pensiya tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda pensiya ta’minoti tiziminining barqaror amal qilishini ta’minalash uchun birinchi va ikkinchi bosqichda belgilangan chora-tadbirlarni amalgalash oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi bosqich. Pensiya jamg‘armasining o‘z xarajatlarini o‘zi qoplash darajasiga erishish. Birinchi bosqichda (10 yil) amalgalash oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

¹⁹³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanтирish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoniga sharh.

–tizimda pensiyalarni moliyalashtirish tamoyilidan sug‘urta tamoyiliga o‘tish zarur:

–Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badali to‘lagan fuqarolar pensiya olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, ijtimoiy himoyalash maqsadida nafaqa va kompensatsiyalar davlat byudjetidan to‘lanishi mumkin;

–pensiya badalini to‘lamayotgan hamda o‘z kuchini yo‘qotgan imtiyozlarga ega pensiya oluvchilar sonini qisqartirish shart;

–Pensiya jamg‘armasini axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida boshqa axborot-kommunikatsiya bazalari (Moliya vazirligi, Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Davlat soliq ko‘mitasi, IIV, Xalq banki, FHDYo bo‘limlari) bilan bog‘lanishni takomillashtirish kerak;

–Pensiya jamg‘armasiga jismoniy shaxslarning o‘tkazgan majburiy sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olish resstri asosida shaxsiy hisob-kitob yuritish tizimini takomillashtirish kerak.

Ikkinci bosqich. Yoshga doir pensiya to‘lovi bilan ta’minalash tizimidan kompleks sug‘urta tizimiga o‘tish. Ikkinci bosqichda (7 yil) amalga oshirila-digan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

–Pensiya jamg‘armasining moliyaviy mustaqilligini ta’minalash, mustaqil o‘zini-o‘zi boshqaruvchi moliyaviy institutga aylantirish zarur;

–pensiya to‘lovlarini o‘z ichiga oluvchi ikki darajali tizimni joriy qilish kerak. Boshlang‘ich pensiya miqdori kafolatlangan bo‘lib, eng kam pensiya miqdori barcha pensionerlar uchun bir hil bo‘lishi lozim;

–aktuar hisob-kitoblarga asoslangan holda pensiya formulalarini ishlab chiqish mumkin, ya’ni yaqin kelajakdagi 10-20 yil ichida pensiyaga chiquvchilar hamda keyinroq pensiyaga chiquvchilar uchun alohida hisob-kitoblar ishlab chiqiladi. Birinchi kategoriya uchun pensiya to‘lovi formulasini tanlash huquqini berish kerak, ikkinchi kategoriya uchun pensiya formularini majburiy hisoblanadi;

–pensiya to‘lovini tayinlash uchun zarur bo‘lgan aktuar hisobkitoblar va pensiya stajiga nisbatan talabning o‘sishidan kelib chiqib, erkaklar va ayollarning pensiya yoshini bosqichma-bosqich tenglashtirish zarur;

–respublikamizda katta ho‘jalik uyushmalari va korxonalarda (masalan, «O‘zbekneft-gaz» «O‘zbekiston-temiryo’llari» kabi) fuqarolar uchun korporativ pensiya sug‘urtasi tizimini joriy qilish.

9.3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘laridan oqilona foydalanish

Xorijiy davlatlarda pensiya jamg‘armalari yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

–korxonalarga kreditlar, dotatsiyalar, subsidiyalar beriladi;

–iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish yo‘li bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatiladi;

–ijtimoiy infratuzilmalar moliyalashtiriladi;

–xorijiy davlatlar, yuridik shaxslarga investitsiyalar yo‘naltililadi;

–pensiylar, nafaqalar va transfertlarni berish yo‘li bilan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi.

O‘zbekistonda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqligiga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘lash uchun foydalilanadi. Mamlakatimizda 2012-yil yanvar holatiga ko‘ra 7 million nafardan ziyod fuqaro jamg‘arib boriladigan pensiya oluvchilar ro‘yxatiga kiritildi. Qonun hujjatlarida belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida qo‘yilgan mablag‘larni markazlashgan holda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtiriladi.

2006-yilda CPPIB tizimida amalga oshirilgan islohotlar nati-jasida pensiya fondlari investitsion faoliyatidan olgan daromadlarni tegishli qismini pensionerlarga taqsimlab berish majburiyatini o‘z

zimmasiga oldi. Bunda pensiya fondi va sug‘urtalanuvchi fuqaro o‘rtasida pensiya fondiga to‘lab borilayotgan sug‘urta badallaridan investitsion faoliyatda foydalangani uchun o‘zaro shartnomalar tuzilib va mazkur shartnomada qayd etilgan miqdordagi foiz asosida pensionerlarning pensiya to‘lovlariiga ustamalar qo‘sib berish boshlandi. Bu esa o‘z navbatida, fuqarolarning ham pensiya sug‘urtasi badallarini to‘lashga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga sabab bo‘ldi. Natijada pensiya fondlarining investitsion imkoniyatlari yildan-yilgan rivojlanib, ularning moliyaviy holati yaxshilanib bordi.

«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda CPPIB dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Kanada pensiya fondlarining real daromadlilik darajasi 6,2 foizdan kam bo‘lmay qolmoqda. Shu bilan bir qatorda pensiya fondlarining daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nisbat ijobiy bo‘lib, pensiya fondi real daromadlari uning xarajatlari qismidan 4,0 foiz yuqori hisoblanadi»¹.

«Shu bilan bir qatorda mamlakatda amal qilayotgan pensiya tizimida jamg‘ariladigan komponentning ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga yanada ustuvorlik karatilishi kutilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, davlat pensiya fondi orqali fuqarolar faqatgina minimal pensiyalar bilan ta‘minlanib, qo‘sishimcha tarzda ularning sug‘urta badallarining bir qismini jamg‘ariladigan pensiya sug‘urtasi shaxsiy raqamlariga o‘tkazib borilishi kuchaytiriladi. Natijada bazaviy pensiyalarning fuqarolar uchun daromadlilik normasi bir muncha pasayadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra bazaviy pensiyalarning nominal daromadlilik darajasi 2015-2055-yillarda 6,0 foizdan 4,3 foizgacha kamayishi mumkin»¹.

Mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra bazaviy pensiyalarning daromadlilik normasining kamayib borishi o‘z navbatida mamlakat mehnat bozoridagi rasmiy bandlik darajasini ortishiga olib kelishi bilan bir qatorda pensiya sug‘urtasi badallarini to‘lab borish uchun ma’lum bir motivni vujudga keltiradi.

¹ CPPIB 2008-2015. For a timeline of important reforms and changes made to the CPPIB, see <http://www.sribi.com/en/who-we-are/our-history.html>

¹ CPPIB 2008-2015. For a timeline of important reforms and changes made to the CPPIB, see <http://www.sribi.com/en/who-we-are/our-history.html>

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, Kanada pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi Cppib tizimining yanada mukammalashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.


Bozor munosabatlarni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muomalada "uzun" moliyaviy resurslarning salmog'ining yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, muddati jihatidan "uzun" bo'lgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga taklif qilishda nodavlat pensiya jamg'armalarining o'rni nechog'lik yuqori ekanligini guvoh bo'ldik.

Mamlakatimida xususiy pensiya jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish natijasida bu boradagi iqtisodiy islohotlarning ko'lami yanada chuqurlashdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz bank-moliya tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va iqtisodiyotning strategik tarmoqlardagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir turki vazifasini bajaradi.

Mamlakatiizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'mnoti mablag'lari ham muddatiga ko'ra uzoq muddatli moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanib, uni to'lash bilan bir vaqtida jamg'arma hisobiga tegishli summa o'tkaziladi. Hozirda jamg'armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarisiz salmoqqa ega, shu jihatidan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg'armalari bilan shug'ullanuvi moliyaviy tashkilotlar tashkil etish mumkin.

Har bir davr iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Ular ishlab chiqarish munosabatlari xo'jalik yuritish mexanizmi namoyon bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bir tekisda davom etmasdan quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Bu esa taraqqiyotning universal qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodchilarning fikricha “jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi”¹⁹⁴. Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Toni Bler: “Bilimga asoslangan iqtisodiyot – amalda butun iqtisodiyotdir. Butun iqtisodiyot axborot texnologiyalari asosida o‘zgaradi – bu iqtisodiy inqilobdir”¹⁹⁵.



9.2-rasm. Bilimga asoslangan iqtisodiyot¹⁹⁶

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mutaxassislari tomonidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga batafsil ta'rif berilgan, ya'ni u “bilimlar barcha tarmoqlar, barcha sektorlar, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitadigan iqtisodiyotdir. Ko'pgina hollarda “bilimga asoslangan iqtisod” atamasi “innovatsion iqtisodiyot” sinonimi sifatida ishlatiladi. Bilimga asoslangan

¹⁹⁴Inson taraqqiyoti.Darslik./I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.:Iqtisodiyot. 2013. 6-b.

¹⁹⁵ Buckman R.H. Building a Knowledge – Driven Organization. – McGraw – Hill, 2004. -P. 132.

¹⁹⁶Inson taraqqiyoti.Darslik./I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.:Iqtisodiyot. 2013. 16-b.

iqtisodiyot – innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning oliv bosqichidir. Buning mohiyati shundan iboratki, bilimlar va maxsus noyob ko'nikmalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbayi va hal qiluvchi omiliga aylanadi. Iqtisodiyot turli shakllardagi bilimlardan foydalanibgina qolmasdan, balki mazkur bilimlarni yuqori texnologiyali mahsulotlar, yuqori malakali xizmatlar sifatida yaratadi”¹⁹⁷.

Innovatsion boshqaruva respublikamiz iqtisodiyotida yangi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga fan-texnika taraqqiyoti va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab olgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion fooliyatni asosiy yo'nalishlaridan biri mavjud resurslardan oqilona tarzda foydalanish, ularni boshqarish usullarini tanlash natijasida, innovatsion jarayon orqali korxona, tashkilot, muassasa, jamg'arma rivojlanishiga erishishdir. Innovatsiya bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amalda qo'llaniladigan yangi texnologiya va ijtimoiy xizmatga bo'lgan yangicha yondashuvdir.

Xalqaro standartlarga ko'ra innovatsiya bozorda joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiya faoliyatining pirovard natijasi sifatida baholanadi. Innovatsiyalar – bu insонning aql-zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi intellektual mulk ko'rinishidagi yangiliklar, ixtiolar, kashfiyotlar, g'oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir.

Milliy innovatsion tizim yaratilishi zaruriy shartlardan biri hisoblanadi, milliy innovatsion tizim – bu innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradigan subyektlar va institutlar majmuasidir. Milliy innovatsion tizim tarkibiga davlat, biznes subyektlari, o'quv yurtlar, ilmiy-tekshirish institutlari va ijtimoiy soha muassasalari kiradi. Milliy innovatsion tizimni tashkil etish va, rivojlantirishda davlat asosiy rol o'yaydi.

¹⁹⁷ BMTning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi // <http://www.undp.uz>.

Innovatsiya (inglizcha “*innovationas*” – “kiritilgan yangilik”, “ixtiro” so‘zidan) – fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar bo‘lib, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishidir. Korxonalar, tashkilotlar va umuman davlatning innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun ajratayotgan mablag‘lari mamlakatning texnologik rivojlanganligi, jahon bozorlarida raqobatbardoshligining asosiy ko‘rsatkichidir. Iqtisodiyot tarmoqlari innovatsion faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichi – innovatsiya mahsulotlari ishlab chiqarilishidir. Keng ma’noda innovatsiya deyilganda, yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar turlari sifatidagi yangiliklar, ishlab chiqarish, moliya, tijorat, ma’muriy yoki boshqa xususiyatlarga ega tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlardan samarali foydalanish tushuniladi. Yangilik g‘oyasining tug‘ilishi, uning yaratilishi va ommalashishidan boshlab foydalanishgacha bo‘lgan vaqtini innovatsiyaning hayotiy tsikli deb atashadi.

Innovatsiya nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo‘sghan avstriyalik olim Y.Shumpeter ta’rifi bo‘yicha : Innovatsiya – bu g‘oyani yangilikka aylantirish, rejalashtirish, kapital muomalalari, yangi mahsulot va xizmatni ishlab chiqarish va takomillashtirish, texnologiya va texnikani amalda qo‘llash, bozor qonun va qoidalariga asoslangan holda yangi mahsulotni sotish hamda iste’molchiga yangi turdagи xizmatlarni ko‘rsatishdan iborat. Ijtimoiy sohani va innovatsion jarayonlarni rivojlanirish respublikada amalgao shirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiya va loyihibar iqtisodiyot tarmoqlarida energiya va boshqa resurslarni tejash imkonini berdi¹⁹⁸.

Davlat innovatsiya siyosati deyilganda, davlat tuzilmalarining innovatsiya jarayonlarini faollashtirish va ular iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liq holda iqtisodiyot va umuman jamiyatga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maqsad hamda usullar kompleksi tushuniladi. Ijtimoiy soha, jumladan, ta’lim, sog‘liqni

¹⁹⁸ Xodjaev Ya. Innovatsiyalar – rivojlanish garovi . //Xalq so‘zi, 2012-yil 1-may.

inqlash, bandlik, madaniyat, ijtimoiy ta'minot kabi inson va jamiyat uchun muhim bo'lgan muassasalardan tashkil topgan. Ular birgalikda iqtisodiy taraqqiyot, jamiyat barqarorligi, muhit sog'lomligi hamda aholi turmush darajasini rivojlanishini belgilab beradi. Ijtimoiy sohaning innovatsion funksiyasi jamiyat va uning har bir a'zosi ehtiyojlariga islohot jarayonlarining muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, islohotlarni muvaffaaqiyatli borishini hamda ijobjiy mutijalarini ta'minlovchi ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etishdan iborat”¹⁹⁹. Albatta, innovatsion jarayonlarni ijtimoiy sohada, jumladan, pensiya sohasida qo'llanilishi bu sohaning jadal rivojlanishiga yordam beribgina qolmay, balki shu bilan birga pensiya tizimida mablag'larni samarali ishlatish imkonini beradi. Jang'arib boriladigan pensiya sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish mazkur sohaning nafaqat milliy, balki, jahon miqyosidagi nufuzini ham oshiradi.

Ijtimoiy sohaning innovatsion faoliyati funksiyasi bu – majmuali funksiyadir. Mamlakatning ijtimoiy ta'minot sohasida bu funksiyani keng tarqalishi O'zbekistonda yuz berayotgan tub o'zgarishlar bilan asoslanadi. Ijtimoiy sohaning innovatsion funksiyasi quyidagi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi: davlat, xo'jalik subyektlari, byudjet tashkilotlari, fuqarolar. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash sharoitida boshqa sohalar bilan birgalikda ijtimoiy sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish zarur. Innovatsiya bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amalda qo'llaniladigan yangi texnologiya va ijtimoiy xizmatga bo'lgan yangicha yondashuvlarning yig'indisidir. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash sharoitida boshqa sohalar bilan birgalikda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagи “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy

¹⁹⁹Axmedov K., Qosimov S. Innovatsion jarayonni boshqarish. // Moliya. –Toshkent. 2011. №1. –B. 106.

Xodjaev Ya. Innovatsiyalar – rivojlanish garovi . //Xalq so'zi, 2012-yil 1-may.

etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qaroriga muvofiq davlat pensiya ta‘minoti tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari joriy etildi. Pensiya va nafaqalarни hisobga olish, tayinlash hamda to‘lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg‘armasining barcha tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida samarali elektron hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, “Pensiya” dasturiy majmuyi shulardan biridir²⁰⁰.

«Pensiya» dasturiy majmuasi ishlab chiqildi hamda bugungi kunda ushbu dasturiy ta‘minot respublikaning barcha mintaqalarida tatbiq etilmoqda. Ushbu dasturiy ta‘minotning amaliyotda keng joriy etilishi, sohada samaradorlikni oshirib, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to‘lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg‘arma mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan tezkor nazoratni ta‘minlaydi. «Pensiya» dasturiy majmuasi bilan axborot almashinuvini tashkil etadi. Mazkur dasturning kelajakda idoralararo integrallashuvi sifatida, boshqa vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasi bilan o‘zaro axborot almashinuvini tashkil etishni qayd etish mumkin. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda salbiy holatlarining oldini olish maqsadida yurtimizda bank, moliya, byudjet, pensiya tizimini mustahkamlash, shuningdek, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarishning sifat jihatidan yaxshilashga alohida e’tibor berilmoqda.

²⁰⁰ Begalov B. Pensiya tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24-mart -B.3-5.

Binobarin, 2012-2015-yillar davomida tegishli vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasiga bog'lanish hamda ushbu dasturlar bilan o'zaro axborot almashinuv yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi.

Xalq banki va tijorat banklari dasturlari :

–tijorat banklari tomonidan plastik kartochka orqali to'lab beriladigan pensiya va nafaqalar bo'yicha oylik elektron to'lov ro'yxatlarini shakllantirish, solishtirish va ularni taqdim etib borish;

–hududlar kesimida to'lov qoldiqlari hamda to'langan mablag'lar miqdori bo'yicha ma'lumotlar olish;

–pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolar bo'yicha ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'lariga amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumot almashinuvi;

–pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'lari bo'yicha olingan ma'lumotlar bilan fuqaroning jamg'armaga taqdim etgan (ish stajii va ish haqi to'g'risidagi) ma'lumotlarni solishtirib borish.

9.4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti byudjetining balansliliginini ta'minlash

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, Chili eski pensiya tizimini isloh qilishni yangi tizimga o'tish bilan bir vaqtida olib borgan mamlakatlardan biridir. Davlat pensiya ta'minoti bo'yicha qarzlarni yangi xususiy majburiy jamg'armalarni tashkil qilish bilan bir qatorda davlat pensiya fondiga tushumlarni qisqartirish sharoitida olib bordi. Ijtimoiy ta'minot doirasidagi qarzlar o'z ichiga yangi tizim joriy etgan vaqtida pensiyaga chiqqan fuqarolarning pensiyasini (1 kategoriya), hali pensiyaga chiqmagan, lekin yaqinda isloh qilingan eski tizim ishtiropchilari sifatida qolishni istagan ishlovchilarning pensiyasini (2 kategoriya), yangi tizim ishtiropchilari bo'lishga qaror qilgan ishlovchi aholining pensiyasini (3 kategoriya) o'z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi kategoriyadagi

qarzlar davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi. Uchinchi kategoriya pensiyasi bo‘yicha qarzlar masalasi pensiya obligatsiyalarini chiqarish yo‘li bilan hal etiladi. Ushbu obligatsiyalar kafolatli hisoblanadi, 4% miqdorida foyda keltiradi va egalari pensiyaga chiqqandan so‘ng majburiy tartibda ochiladigan jamg‘arma hisobraqamlariga o‘tkaziladigan bir vaqtli to‘lov summalariga almashtirilishi mumkin.

Chili hukumati ushbu tadbirni o‘tkazish bilan 1970-1980-yillarda davlat byudjetidagi byudjet taqchilligining katta qismini pensiya tizimi islohotlari doirasida qopladi. Chili modeli-kapitallashgan model. Ushbu model erkin bozor islohotlari doirasida Chili mutaxassislari tomonidan ishlab chiqildi. Avlodlar birdamligi asosida qurilgan taqsimot modelidan farqli ravishda kapitallashgan model sug‘urta tamoyiliga asoslanadi. Kapitallashgan model «Chili modeli» nomi bilan xalqaro miqyosda mashhur. 1981-yilda e’lon qilingan farmonga ko‘ra shu kundan boshlab mehnat munosabatlarda ishtirok etgan har bir kishi uchun davlat pensiya ta’minoti bekor qilindi, bir vaqtning o‘zida ular xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi.

Kapitallashgan model sxemasi quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya qilishdan va to‘plashdan hosil bo‘lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi. Pensiya badallari kapital to‘lovchining shaxsiy hisobraqamida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobraqamni pensiya fondlari yoki pensiya kassalari, sug‘urta kassalari yoki banklar yuritadi. Pensiya mablag‘larini tizimli investitsiya qilish bilan ushbu institutlar investitsiya daromadlariga ega. Kapital yoki yig‘ilgan pensiya badallari summasi ularni investitsiya qilishdan olingan daromad pensiya fondi faoliyatni xarajatlari, natijasida kapitallashgan pensiyaning moliyaviy manbasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 110-sun qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-

dekabrdagi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2005-yil 29-avgust 76-son), Davlat soliq qo'mitasi (2005-yil 29 avgust 2005-47-son) va Markaziy banki Boshqaruvi (2005-yil 29-avgust 267-V-son) tomonidan qaror qabul qilindi. Mazkur qaror asosida «Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

Mehnat faoliyatini mehnat shartnomalari bo'yicha amalga oshirayotgan fuqarolar (jumladan, ishlovchi pensionerlar, o'rindoshlar), shuningdek, fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlarni bajaradigan fuqarolar (agar ushbu xodimlardan qonunga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlansa) jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchilar sifatida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining majburiy ishtirokchilari hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan to'liq ozod etilgan boshqa fuqarolar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxsni tashkil etmagan dehqon xo'jaliklarining a'zolari jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etadilar. Fuqarolarning ShJBPXga majburiy badallari byudjetga to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lov larga tenglashtiriladi. Fuqarolarning ShJBPHga majburiy badallari xodimning hisoblab yozilgan ish haqi (daromadi) soliq solinadigan summasining 2,0 foizi miqdorida hisoblab yoziladi, ushbu summa jismoniy shaxslarning daromadiga qonunga muvofiq hisoblab yozilgan soliq summasidan chegiriladi.

Ish beruvchi yuridik shaxslar o'z xodimlarining ShJBPXiga, mazkur yuridik shaxs xodim uchun asosiy ish joyi hisoblanishi yoki u o'rindoshlik yohud fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha ishlashidan qat'i nazar, majburiy badallar kiritishga majburdir.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobda turgan (ShJBPH va jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasiga ega bo‘lgan) fuqarolar ish beruvchi bilan mexnat shartnomasini tuzish chog‘ida (o‘rindoshlik yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi shartlarida tuzishlar ham kiradi) ish beruvchiga o‘z ShJBPHlari to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etadilar.

Daromadlari qonunga muvofiq har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortilmaydigan fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida umumiy asoslarda ishtirok etadilar, ya‘ni ish beruvchi xodim ish haqi soliq solinadigan qismidan 2,0 foizini ShJBPHga o‘tkazadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimo yashaydigan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (agar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va xalqaro shartnomalarida boshqa narsa nazarda tutilmagan bo‘lsa) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng holatda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotiga bo‘lgan huquqdan foydalanadilar. Ish beruvchilar fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni byudjetga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash bilan birgalikda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash uchun belgilangan shakl va muddatlarda ajratadilar. Bunda majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini o‘tkazish to‘lov topshiriqnomasi vositasida amalga oshiriladi, unda omonatchining rekvizitlari, o‘tkazish maqsadi, o‘tkazilayotgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining summasi, ish beruvchi joylashgan erdagisi Xalq banki filialiga yuborilgan reyestrning raqami va sanasi ko‘rsatiladi. Belgilangan tartibda naturada to‘laydigan yoki mahsulot sotilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishidan olingan tushumdan to‘lovnii amalga oshiradigan ish beruvchi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun mobaynida badallar summasini o‘tkazishi shart. Majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kiritishni ish beruvchi pul mablag‘larini, fuqarolarning ShJBPHiga qayd etish

uchun, Xalq banki filialidagi maxsus tranzit hisobvaraqla o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya badallarining ormonatchisi bo'lgan ish beruvchi o'zi joylashgan joydagi Xalq banki filiallari bilan ShJBPHga majburiy badallar bo'yicha hisob-kitoblar hisobini yuritadi. Ish beruvchi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar o'zi joylashgan joydagi Xalq banki filialiga jamg'arib boriladigan pensiya badallari o'tkazilganligi to'g'risida to'lov hujjatining ko'chirma nusxasini, belgilangan tartibda ShJBPH raqamlari, har bir xodimning familiyasi, hisoblab yozilgan ish haqi va jamg'arib boriladigan pensiya badallari summasi ko'rsatilgan holda xodimlar reyestrini taqdim etadi.

9.2-jadval

2013-2015-yillarda 359-sonli maktabgacha ta'lif muassasida hisoblangan ish haqi va ShJBPH¹

oylar	2013-yil		2014-yil		2015-yil	
	hisoblangan ish haqi	JBPM	hisoblangan ish haqi	JBPM	hisoblangan ish haqi	JBPM
Yanvar	10267162	102672	14861079	146810	16349251	163492
Fevral	14430322	144303	14271162	142712	14715869	147158
Mart	9930552	99306	13536405	135364	15767166	157671
Aprel	10600728	106007	13824707	138247	15306830	153068
May	10073461	100734	13735208	137352	20028720	200287
Iyun	10701797	107018	15002806	150028	16136457	161364
Iyul	11827110	118271	14168824	1416688	20387566	203875
Avgust	10702861	107028	13934506	139345	15356652	153366
Sentabr	12502690	125027	13194630	131946	17974961	179749
Oktabr	12681104	126811	13194630	131946	23974963	239749
Noyabr	15913155	159132	13055371	130554	18819820	126677
Dekabr	12621886	126218,9	12823775	128237,8	18408730	123169
jam'i	142252828	1422528	165864905	1658649	213226985	2132269

¹Yashnaobod tumani XTMMTTEB ga karashli 359-son maktabgacha ta'lif muassasasining hisobot ma'lumotlari.

Yuridik shaxs - xo‘jalik yurituvchi subyekt kuyidagi buxgalteriya yozuvarini qayd etadi:

–qonunga binoan hisoblab yozilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ushbu summani tegishincha chegirgan holda xodimning hisoblab yozilgan ish haqidagi ShJBPHga ushlangan majburiy badallar summalarini buxgalteriya hisobida ochilayotgan 6530 - “Shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobvaraqlarga to‘lovlari” hisobvarag‘i krediti bo‘yicha byudjetga to‘lovlari bo‘yicha karzni hisobga olish (turlari bo‘yicha) hisobvarag‘i (6400) bilan korrespondensiyada aks ettiriladi;

–ushlangan majburiy badallar summalarini xodim ShJBPHiga o‘tkazish buxgalteriya hisobida 6530 - “Shaxsiy jamg‘arib boriladigan hisobvaraqlarga to‘lovlari” hisobvarag‘i debeti va pul mablag‘larini hisobga olish hisobvaraqlari krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

ShJBPHga o‘tkaziladigan ushlangan majburiy badallar summalarini buxgalteriya hisobida transparent aks ettirish uchun Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ish beruvchilar uchun 190 - “Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i joriy etiladi.

Jismoniy shaxslardan ushlangan daromad solig‘ining umumiy summasini byudjet tashkilotining buxgalteriyasi quyidagi buxgalteriya provodkalari bilan aks ettiradi:

180-“Ishchilar va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i debeti;

173-“Byudjet bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i krediti.

Qonunga muvofiq jismoniy shaxslar daromadidan hisoblab yozilgan soliq summasini tegishincha kamaytirish hisobiga jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ushlangan majburiy badallar summasiga quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi:

173-“Byudjet bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i debeti;

190-“Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i krediti.

Jismoniy shaxslar daromadidan ushlangan soliq summasi o‘tkazilayotganida (shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ushlangan majburiy badallar chegirilgan holda) quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

173-“Byudjet bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i krediti.

090, 100-“Tashkilotning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i” ilova hisobvarag‘i krediti.

ShJBPHga ushlangan majburiy badallar summasi byudjet tashkiloti tomonidan alohida to‘lov topshiriqnomasi bilan o‘tkaziladi va buxgalteriyada quyidagi buxgalteriya provodkasi bilan aks ettiriladi:

190-“Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” ilova hisobvarag‘i debeti;

100 (090) -“Tashkilotning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i” ilova hisobvarag‘i krediti.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga ShJBPHga majburiy badallar summalarini ushlash va o‘tkazish tartibi byudjet tashkilotlarining byudjet mablag‘lari uchun belgilangan tartibga o‘xshaydi, bunda 090 va 100-ilova hisobvaraqlar o‘rniga 110-115-ilova hisobvaraqlar ko‘llanadi. To‘lov topshiriqnomasiga asosan byudjet tashkilotlarida fuqarolarning ShJBPHlariga o‘tkazilgan majburiy badallar summalari kassa xarajatlari hisoblanadi va oylik hamda choraklik hisobotlarda “kassa xarajatlari” ustunida aks ettiriladi (Davlat byudjeti xarajatlarini iqtisodiy tasniflash xarajatlarining 01-turi, 1-obyekti, 00-kichik obyekti, birinchi guruhi bo‘yicha).

Xalq banki tomonidan davlat soliq xizmati organlariga axborot taqdim etiladi. Xalq banki filiali har kuni o‘zi joylashgan joydagi davlat soliq inspeksiyasiga tranzit hisobvaraqqa kelib tushgan summalar to‘g‘risida ko‘chirma taqdim etib, unda yuridik shaxsning

STIRi, nomi va ShJBPHga kiritilgan badallar summasini ko'rsatadi. Xalq banki filiali har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 20-kuniga qadar, davlat soliq xizmatining tegishli hududiy organiga, mazkur Nizomga ilovaga ko'ra shaklda fuqarolarning ShJBPHiga badallar kiritgan yuridik shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bunda ma'lumotlar qog'ozli va elektron shakllarda taqdim etiladi. Ma'lumotlar Xalq banki filialining rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Ish beruvchi tomonidan ShJBPHga majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblanishi hamda o'z vaqtida kiritilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari amalga oshiradi. Jamg'arib boriladigan pensiya badallarining omonatchisi bo'lgan ish beruvchi amaldagi qonunlarga muvofiq Xalq banki filialiga taqdim etiladigan, ShJBPHga hisobga ko'yish uchun zarur ma'lumotlarning, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq barcha o'zgarishlar (mexnat shartnomasini tuzish yoki bekor qilish, pasport ma'lumotlarini va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma'lumotlar) to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riliqi va ShJBPHga badallarni o'z vaqtida kiritish hamda ularning talablariga ko'ra fuqarolarga hisoblab yozilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risida ma'lumotlarning taqdim etilishi uchun javobgardir. Xalq banki amaldagi qonunlarga muvofiq fuqarolarning ShJBPHlarini ochish va yuritish, fuqarolarni ushbu hisobvaraqlarning holati to'g'risida xabardor qilish, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini tayinlash va berish tartibini buzganlik uchun, shuningdek, boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri taqdim etish uchun javobgar bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga har oyda ularga hisoblangan ish haqining 1,0 foizi miqdorida badal belgilangan. Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy pensiya badallari byudjetga to'lanadigan soliqlar va yig'imlarga tenglashtirilgan. 2005-yil 1-iyuldan e'tiboran barcha yuridik shaxslar fuqarolarning shaxsiy

jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bilan birgalikda mazkur soliq uchun belgilangan shakl va muddatlarda amalga oshirish tartibi joriy etilgan.

Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining to‘lanishi natijasida ishlayotgan fuqarolar uchun ish haqidan (daromadidan) hech qanday chegirma yoki yo‘qotish bo‘lmaydi. Ishlovchi fuqaroning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib berilayotgan har oylik pensiya majburiy badallari ushbu xodimning daromadiga qonunda belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning daromad solig‘idan chegirib qolinadi. Misol uchun, korxonada ishlovchi xodimning daromadidan hisoblangan soliq summasidan chegirilib, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladi. Natijada ishlovchi fuqaroning nakd pulda olayotgan oylik ish haqi miqdori kamaymaydi.

9.5. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jibozlash

"Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 595-sonli qarorini ijro etish yuzasidan Xalq banki va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini amalda joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Respublikaning barcha mintakalaridagi Xalq banki bo‘limlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning taqdimnomasi bo‘yicha fuqarolar uchun yakka tartibdagи jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochilmoqda. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchalari berilmoqda, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga ko‘yishning elektron ma’lumotlar bazasi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimliklari hamda boshqa tegishli organlari tomonidan fuqarolarning shaxsiy kodini berish, ayrim

xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan fermer xo'jaliklari tomonidan xodimlarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo'yish uchun Xalq banki filiallariga ma'lumotlar taqdim etish ishlari hali talab darajasida tashkil etilmagan. Aholi o'rtasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining afzallikkleri to'g'risidagi tushuntirish ishlari yetaricha olib borilishi kerak. Pensiya jamg'armalarini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'lari hisobiga emas, balki davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lardan ajratmalar hisobiga shakllantirish mexanizmi va xususiyatlari sust yoritilmoqda. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining barqaror ishlashini va texnika bilan tegishli darajada jihozlanishini ta'minlash maqsadida fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar jismoniy shaxslar daromad solig'inining byudjetga yo'naltiriladigan qismi hisobidan amalgalashirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq ko'mitasi, Markaziy banki Xalq banki bilan bирgalikda «Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomni ishlab chiqildi. 2005-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 110-sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalgalashirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-son qaroriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. «Har bir ish beruvchi hisobot oyidan keyingi oyining 15-kunigacha har oyda mazkur Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etayotgan xodimlar reyestagini jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma'lumotlar elektron bazasi formatida elektron hujjat sifatida shakllantirishi ish beruvchi soliq ro'yxatiga olingan joydagi

Xalq banki filialiga elektron manbalarda taqdim etishi yoki uni Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabineti» yoxud Internet tarmog‘ining reyestrni yuborish imkonini beruvchi boshqa saytlari orqali bevosita jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma'lumotlar elektron bazasiga yuborishi shart»²⁰¹.

Ko‘rsatib o‘tilgan elektron hujjat tushgan pul mablag‘larini fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkazish uchun asos hisoblanadi. Ish beruvchi tomonidan tuzilgan reyestrning qog‘oz manbasidagi asl nusxasini rahbar va bosh buxgalter imzolaydi va ish beruvchida saqlanadi. Reyestrni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma'lumotlar elektron bazasiga kiritish jarayonida xatolar va tafovutlar aniqlangan taqdirda ushbu reyestr qabul qilinmaydi va avtomatik rejimda xatolarni tuzatishi yoki tafovutlarni bartaraf etishi uchun ish beruvchiga qaytariladi. Ish beruvchi qaytarilgan reyestrtdagi xatolarni tuzatadi yoki tafovutlarni bartaraf etadi hamda uch kun muddatda ish beruvchi soliq ro‘yxatiga olingan joydagи Xalq banki filialiga elektron manbalarda takroran taqdim etadi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabineti» yoxud Internet tarmog‘ining reyestrni yuborish imkonini beruvchi boshqa saytlari orqali yuboradi. Agar hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha ish beruvchi reyestrga tuzatish kiritish choralarini ko‘rmasa, Xalq banki filiali bu haqda davlat soliq xizmatining tegishli hududiy organini chora ko‘rish uchun xabardor qiladi. Shaxsiy hisobga olish hujjatlari rahbarning imzosi va muhr bilan tasdiqlangan yozma shaklda taqdim etiladi yoki Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi shaxsiy «tadbirkorlik subyekti kabineti» orqali elektron shaklda yuboriladi. Elektron shaklda yuborilgan hujjatlar elektron raqamli imzo mavjud bo‘lgan taqdirda yuridik kuchga ega bo‘ladi.

²⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 595-soni qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-soni qarori. 2015-yil. 29 avgust.

Xalq banki ish beruvchi tomonidan reyestr taqdim etilgandan keyin elektron to‘lov hujjatida ko‘rsatilgan summalarini va reyestrda ko‘rsatilgan badallarning yakuniy summasini solishtiradi hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma’lumotlar elektron bazasi orqali fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkazadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etayotgan fuqarolardan tushgan shaxsiy hisobga olish ma’lumotlari tegishli murojaat Xalq banki filialiga tushgan kunda tekshiriladi va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shahar va tumanlarning hokimliklari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari Moliya vazirligi, Xalq banki, O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi, Matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda:

–aholi o‘rtasida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mexanizmi va afzalliklari to‘g‘risidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyini doimiy asosda amalga oshirdilar, bunda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larni byudjetga ajratmalarni kamaytirish hisobiga shakllantirish hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning manfaatlarini kansitmaydigan tartibiga alohida e’tibor berildi;

–jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining prinsipial xususiyatlari hamda uni joriy etishning ijobiy tajribasini yoritishda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanildi.

Respublikamizda 2005-2006-yillarda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta‘minlash tadbirlari va xarajatlarning prognoz ko‘rsatkichlari dasturi ma‘qullandi. Xalq bankini kompyuter texnikasi bilan jihozlash va dasturlari bilan ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar Dasturini amalgalashirishga oid Idoralararo komissiya tarkibi tasdiqlandi. Ilk marotaba 2005-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlangan tadbirlar Dasturining amalgalashirishi to‘g‘risida axborot berdi. Idoralararo komissiya tasdiqlangan tadbirlar

Dasturining belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi ustidan qattik nazorat o‘rnatdi. Kompyuter texnikasi xarid qilish bo‘yicha tender hujjatlarini tayyorlandi va belgilangan tartibda tender savdolarini o‘tkazildi, tender shartlarida g‘olibning yetkazib beriladigan kompyuter texnikasi uch yil mobaynida uzluksiz ishlashini hamda servis xizmati ko‘rsatilishini ta’minlash majburiyati yuklatildi. Shu maqsaddagi xarajatlarning 51,0% - byudjet ssudasi hisobiga moliyashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisobiga xarajatlarning 49,0% i moliyashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2005-2006-yillarda Xalq bankining asosli buyurtmanomalari bo‘yicha 5 yil muddatga Narxlarni tartibga solish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 7,2 mlrd so‘m, shu jumladan, 2005-yilda 4,8 mlrd so‘m foizsiz byudjet ssudasi ajratildi, 2008-yilning 1 apreldidan boshlab uning har chorakda teng ulushlarda to‘lab borildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Xalq banki buyurtmanomalari bo‘yicha o‘z foydasi hisobidan 6,9 mlrd so‘m, shu jumladan, 2005-yilda 4,6 mlrd so‘m mikdorida mablag‘ ajratildi. Xalq banki o‘rnatilgan tartibda o‘zining ustav jamg‘armasini o‘z muassisalarining qonun hujjatlarida belgilangan ulushlariga muvofiq ko‘paytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha moddiy-texnika bazasining o‘z vaqtida shakllantirilishi ustidan qat’iy nazoratni amalga oshiradi.

Xalq banki va uning filiallari rahbarlari zimmasiga xarid qilinayotgan kompyuter texnikasining saqlanishi va maqsadga muvofiq foydalanilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklatildi.. Xarajatlarning uzil-kesil cheklangan miqdorlari tender savdolarining natijalariga qarab o‘rnatildi. Tejab qolingga mablag‘lar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga xizmat ko‘rsatish uchun Xalq bankini qo‘sishimcha ravishda jihozlashga yo‘naltirildi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi

guvohnomalarni tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi hisobidan 7,6 mln so‘m mikdorda mablag‘ ajratildi. O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi Xalq bankida tashkil etiladigan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi respublika yagona elektron ma’lumotlar bazasining holatini har yili tahsil qiladi, uni takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Moliya vazirligiga takliflar beradi²⁰².

Pensiya tizimi faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, avvalambor inson omilining salbiy rolini cheklash Pensiya jamg‘armasi o‘z oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalardan biridir. Aynan shu maqsadda, eng avvalo, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan zamонави avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga keng joriy etish ishlari jadal olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. «Pensiya» dasturiy majmuasi ishlab chiqildi hamda bugungi kunda ushbu dasturiy ta’minot respublikaning barcha mintaqalarida tatbiq etilmoqda. Ushbu dasturiy ta’minotning amaliyotda keng joriy etilishi, sohada samaradorlikni oshiradi, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to‘lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg‘arma mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan tezkor nazoratni ta’minlaydi.

²⁰² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 110-sonli qarori. 2005-yil. 28-iyun.

Pensiya jamg‘armalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ommabop bo‘lishining zaruriy sharti to‘lovlar yuqori darajada kafolatlanganligidadir. Shu tariqa, ijtimoiy barqarorlik vazifasi amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida Xalq banki boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron hujjat aylanmasi tizimini kengaytirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimini maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish yuzasidan chora-tadbirlar rejası tuzildi. Mazkur chora-tadbirlar rejasida “Fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti axborot tizimlarini rivojlantirish” bo‘limida quyidagilar ko‘zda tutildi:

–fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiyalash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash;

–fukarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimini rivojlantirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar turkumini kengaytirish;

–fuqarolar uchun fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti dasturida o‘z hisobraqamlarini internet, mobil qurilma, va SMS lar orqali monitoring qilish tizimini yaratish;

–fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimidagi foydalanishga topshirilgan “Elektron reyestrlarni qabul qilish” interaktiv xizmatini rivojlantirish maqsadida, bankda yaratilgan “Bank ikkinchi darajali ro‘yxatga olish” tizimi bazasida elektron raqamli imzoni ro‘yxatga olish markaziga litsenziya olish va ish faoliyatini tashkil etish.

O‘zbekistonda pensiya ta’mnoti tizimida axborotlar xavfsizligini saqlash ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga pensiya ta’mnoti organlarida kadrlar siyosatini takomillashtirish, texnika bilan ta’minlash bo‘limlaridagi kadrlarni joyiga qo‘yish, mutaxassislarni tayyorlash, kompyuterlarning ishlashi va nazorati uchun ma’sullarni aniq belgilash juda muhimdir.

9.6. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti faoliyatini takomillashtirish

Mamlakatimizda pensiya ta’minotida amalga oshirilib kelinayotgan huquqiy islohotlarning maqsadlaridan biri – inson manfaatlarini oliv qadriyat sifatida har tomonlama ta’minlash va muhofaza etishdan iborat. Aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1252-sod Farmoni pensiya ta’minoti tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish imkonini berdi. Mazkur hujjatda Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda moliyalashtirish, to‘lovlar ustidan monitoring yuritish, pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Davlat pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda hayotga izchil joriy etilayotgan hamda alohida tayyorgarlik talab qiladigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko‘nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalari mos kelishini ta’minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitni yaratishdan iborat.

Pensiya taminoti tizimi va unga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar, pensiyani hisoblash mexanizmi hamda pensiya sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi me’yoriy-huquqiy asoslar, iqtisodiy dastak va vositalarni qamrab oladi. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining qonuniy asoslarini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan ijobjiy o‘zgarishlar va tendensiyalar fuqarolarimiz turmush sharoitini yanada

yaxshilash, inson manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ishlarimiz miqyosini uzlucksiz ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan pensiya qonunchiligini takomillashtirish, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimidagi keng ko'lamli tadbirdardan ko'zlangan maqsad ham zamon talablarini hisobga olish hamda o'zgarib borayotgan sharoitga moslashishdan iborat.

Mamlakatda pensiya tizimini institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirish, Pensiya jamg'armasini barqarorlashtirish, pensiya imtiyozlarini qisqartirish, jamg'ariladigan pensiya tizimida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi sharoitida aholi turmush darajasini izchillik bilan oshirish va turmush sifatini yaxshilash shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining holatini baholash, tizimni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni birgalikda hal qilishni taqozo etmoqda.

Pensiya ta'minoti masalasi har qanday davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aholining mehnat qilish qobiliyatini yo'qtgan qismining manfaatlarini himoya qilish va shu bilan birga mehnat resurslarning motivatsiyasini rag'batlantirish masalalari pensiya ta'minoti borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblandi. Bu boradagi jahon amaliyotida jamlangan boy tajribani chuqur tahlil qilish va saboqlarini hisobga olish ijtimoiy siyosatning samadorligini ta'minlash imkonini beradi.

Jahonda pensiya ta'minoti tizimlarining paydo bo'lganiga bir asrdan oshiq vaqt o'tdi. Ushbu davr mobaynida birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi isloh qilinmoqda. Aralash pensiya tizimini shakllantirish borasidagi, pensiya ta'minotini moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlar uchun ham qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarning kuchayib borishiga rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy-demografik, makroiqtisodiy omillar hamda tashqi migrantsiya omillari jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu sababli yuqorida keltirilgan omillarni

pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishda e'tibordan chetga qolmaslik kerak.

Rivojlangan mamlakatlarda murakkab demografik vaziyatni vujudga kelishi aholini qarishi, tabiiy o'sish sur'atlarini pasayishi, mehnatga yaroqli aholi ulushining kamayib borishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtida demografik vaziyat barqaror bo'lib, aholining tabiiy o'sish sur'ati 1,5-1,8 % ni tashkil etmoqda, mehnat resurslarining kamayishi bilan bog'liq muammolar ko'zga tashlanmaydi. Shu bilan birligida o'rta va uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari e'tiborga olinsa, istiqbolda pensiya ta'minoti tizimining takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni o'sib borayotganligini kuzatish mumkin.

9.3-jadval

BMT ning 2005-2050-yillar uchun O'zbekistonda demografik holat bo'yicha prognozi²⁰³

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2005	2010	2020	2030	2040	2050
1.	Aholi jami mln so'm.	26,6	28,6	32,5	35,3	37,5	38,6
2.	Fertillik darajasi	2,74	2,27	1,94	1,85	1,85	1,85
3.	Erkaklar o'rtacha umr ko'rish yoshi	64	65,1	67,6	69,7	71,4	72,1
4.	Ayollar o'rtacha umr ko'rish yoshi	70,4	71,5	73,8	75,6	77,1	77,7
5.	60 yoshdan katta aholi qatlami, jami aholiga nisbatan foizda	6,2	6,2	8,7	12,3	15,8	21,1

²⁰³ Мамаджанов И.Т. Вектор развития пенсионных систем стран мира. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014-yil. 21-noyabr. 27-b.

Yaqin o'n yillarda pensiya oluvchilar sonini oshib borishi va uni moliyaviy barqarorligini ta'minlash zaruriyati yetarli miqdordagi pensiya to'lovlari bilan ta'minlash vazifasini hal etishni talab etmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizda o'rtacha umr ko'rish darajasining muttasil ortib borishi pensiya siyosatining tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal ko'rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari manbayining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zarur hollarda ish haqi miqdorini joriy ish haqi va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.


Avlodlar birdamligi qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan bo'lib, pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga xususan, jamg'ariladigan pensiya jamg'armalariga mablag'lar qo'yishini inkor etmaydi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish va takomillashtirish quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

–pensiya yoshidagi odamlarning daromadlarini samarali va adolatli tarzda saqlanishini ta'minlaydi;

–to'lanadigan pensiya badallari va beriladigan pensiya miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi oshadi;

–uzoq muddatli investitsiyalarga bo'lgan talabning qondirilish darajasining oshishiga olib keladi.

Respublikamizda "avlodlar birdamligi" pensiya tizimi bilan birga bosqichma-bosqich jamg'ariladigan pensiya tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq ravishda, izchillik bilan amalga oshirish zarur. Buning natijasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlar bo'yicha ish beruvchi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'arib boriladigan pensiya mablag'laridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy vazifalari takomillashtiriladi.



9.3-rasm. “Elektron hukumat” tizimi imkoniyatlari²⁰⁴

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «..Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat»²⁰⁵. Eng asosiy ustuvor vazifa – «Xalq bilan muloqot

²⁰⁴2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy- uslubiy risola. / O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. –T.: “Manaviyat” nashriyoti. 2017. B.32.

²⁰⁵Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2016-yil.

va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini amalga oshirish, «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oljanob g‘oyani izchilllik bilan hayotga tatbiq etishdan iborat.

Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo‘lishi kerak. Hukumatimiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “..Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”²⁰⁶. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, “Elektron hukumat”ni shakllantirish, umuman “Axborotlashgan jamiyat”ni qaror toptirish muammolarini tadqiq etish, yagona interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimining huqukiy va uslubiy bazasini yaratish ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. “Elektron hukumat” tizimi yanada takomillashtirilmoqda, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligi va sifatini yaxshilash hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining ulardan foydalanish imkoniyatlari oshirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4760-sonli farmoniga asosan, 2019-yil 1-yanvardan

²⁰⁶Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2016-yil. 8-dekabr.

respublikada “Elektron mehnat daftari” tizimi joriy etiladi. Barcha kerakli ma’lumotlar “elektron mehnat daftari”ga qayd etiladi. 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning barcha o‘quvchilari, ularning har biriga soliq to‘lovchining individual raqami beriladi va elektron raqamli imzo (ERI)ni tegishli to‘lovnii undirmasdan bergan holda, soliq to‘lovchi sifatida davlat soliq organlarida ro‘yxatga qo‘yiladi. O‘zbekistonda 2019-yildan boshlab eski ko‘rinishdagi mehnat daftarlari berilishi to‘xtatiladi.

O‘zbekistonda mehnat staji va ijtimoiy sug‘urta badallari elektron hisobini yuritishga o‘tilishi munosabati bilan 2019-yil 1-yanvardan boshlab birinchi bor ishga joylashayotgan xodimlarga an’anaviy mehnat daftarlari berilishi to‘xtatiladi. “Elektron mehnat daftarlari”dagi yozuvlar mehnat staji to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga tenglashtiriladi. Shu bilan birga xodim iltimosiga ko‘ra uming an’anaviy mehnat daftariga qaydlar 2021-yil 1-yanvargacha kiritib borilishi mumkin, biroq shundan so‘ng ular xodimlarga saqlash uchun topshiriladi.

“Elektron mehnat daftarlari” quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: xodimning pasport ma’lumotlari; STIR (INN) va fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovi bo‘yicha individual raqami (PTIR); tahsil to‘g‘risidagi ma’lumotlar. Farmonda aholini ishga joylashtirish sohasiga ilg‘or jahon tajribasiga mos zamonaviy texnologiyalarni jalb etishni kengaytirish maqsadida 2019-yildan boshlab xodimlarning mehnat faoliyati davri, maxsus staji va davlat ijtimoiy sug‘urtasiga to‘lagan to‘lovlari miqdori bo‘yicha ishonchli ma’lumotni hamda xodimning kasbiy o‘sishiga doir boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan “elektron mehnat daftari” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ko‘zda tutilgan.

Jahonning ko‘plab davlatlarida mehnat daftarlari o‘rniga soliq to‘lovchilar, ishchi-xodimlar uchun mehnatni hisobga olishning elektron tizimlaridan foydaliladi. “Bugungi kunda mehnat daftarlari faqat MDH mamlakatlarida ishlataladi, Germaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya kabi mamlakatlarda mehnat kartochkalaridan

foydalilanadi. Rossiya Federatsiyasida 2018-yil 1-yanvardan “elektron mehnat daftari” amaliyotga kiritiladi, lekin, bu holat bo‘yicha ish beruvchilar va profsoyuzlar turli pozitsiyalarda bo‘lishi mumkin»²⁰⁷.

Ispaniyada “Vida Laboral” (mehnat hayoti) deb nomlangan elektron tizim amaliyotga kiritilgan, tizimda ishchi-xodimning ishga kirishi va ishdan bo‘shashi, majburiy sug‘urta badallarining holati qayd qilinadi. Barcha ma’lumotlar Mehnat vazirligi va Ijtimoiy sug‘urta fondiga avtomatik ravishda tushadi. Lekin AQShda ham bandlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd qilinadigan alohida maxsus elektron tizim yo‘q. Ish beruvchilar elektron tizim o‘rniga ish kidiruvchilardan rezyume, ta’lim bo‘yicha guvohnoma, oxirgi ish joyidan tavsifnomasi talab qiladilar. Agar taqdim etilgan ma’lumotlarga nisbatan shubha tug‘ilsa, ishchi-xodim to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan Milliy xavfsizlik shug‘ullanadi. Fuqaroning mehnat biografiyasini sug‘urta badallariga asosan soliq organlarida qayd etiladi.

Germaniya, Daniya, Bolgariya, Boltiq bo‘yi mamlakatlarda ishchi-xodimlar yangi ishga kirganda mehnat daftarlari berilgan, lekin hozir bu amaliyotda qo‘llanilmaydi²⁰⁸. Shunga qaramasdan, sobiq sovet ittifoqi mamlakatlari, shular qatorida Ukrainianada ishchi-xodim to‘g‘risidagi axborotlar qog‘oz hujjatlarida ko‘rsatiladi. Shuni aytish kerakki, Germaniya va Italiyada hukumat amaliyotga kiritgan mehnat daftarlari uzoq muddat ishladi, Germaniya Ikkinchi jahon urushidan keyin mehnat daftarlari «arbaytbuxi»dan voz kechdi. Italiyada 2000-yilgacha mehnat daftarlari ishladi. Keyingi yillarda mehnat daftarlari foydalananish to‘xtatilgan davlatlardan biri - Vietnamdir. Turli mamlakatlarda mehnat daftarlari, avval qog‘oz ko‘rinishida, hozir soliq to‘lovchilarning ishchi xodimlar to‘g‘risidagi yagona elektron tizimidan foydalilanadi, bu tizim turli mamlakatlarda har xil nomlanadi.

²⁰⁷ Мировой опыт применения электронных трудовых книжек. <https://i-news.kz>

²⁰⁸ Жизн без трудовых книжек: опыт других стран. <http://thekievtimes.ua/society/445895-zhizn-bez-trudovyx-knizhek-opryt-drugix-stran.html>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2015-yil 14-apreldagi 90-son qarori bilan “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestrini shakllantirish va yuritish to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan soliq hisobotlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestri tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda fuqarolarga 2016-yildan boshlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali fuqarolarning o‘tkazilgan sug‘urta badallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish bo‘yicha davlat interaktiv xizmati joriy etildi. Pensiya jamg‘armasining elektron so‘rovi Davlat Soliq Qo‘mitasining Markazlashgan DSQning Markazlashgan axborot bazasida joylashgan ma‘lumotlardan foydalanishga huquq berish uchun asos hisoblanadi.

Pensiya jamg‘armasining elektron so‘rovi kelib tushganda, DSQning Markazlashgan axborot bazasi yakka tartibdagi hisobga olishning tegishli ma‘lumotlarini shakllantiradi va yuboradi. Ish bilan band bo‘lgan shaxsning ish stoji O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma‘lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limining sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma‘lumotnomasi bo‘yicha belgilanadi.

Mamlakatimizda jamiyat, davlat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish va ushbu munosabatlarni samarali tashkil etish, boshqarish va tahlil etish maqsadida “Elektron hukumat” tizimi yaratildi. Axborot-kommunikatsion tizimlardan foydalangan holda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va oshkorlikni ta’minlash fuqarolar ehtiyojlarini

hisobga olgan holda, davlat xizmatlari ko'rsatishga qaratilgan davlat boshqaruvining zamonaviy tashkili shakli desak bo'ladi.

Haqiqatdan, Pensiya jamg'armasiga DSQning Markazlashgan axborot bazasida yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini yakka tartibdagi hisobga olishning tegishli ma'lumotlardan foydalanish huquqini berilishi mamlakatimizda davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash ishlarini to'liq nazorat qilishga yordam beradi. O'zbekistonda hozirgi sharoitda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va tayinlashda mehnat staji o'rniga sug'urta badallari to'langan davrlar hisoblanishi kerak. Bugungi kunda mehnat staji haqidagi ma'lumotlar Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestridan olinadi. Amaliyotdagি qog'ozda mehnat daftарini yuritish, boshqaruvchi xodimlarning ancha vaqtini talab qiluvchi ortiqcha ishga aylandi.

"Elektron mehnat daftari" tizimini joriy etish nafaqat pensiya ta'minoti tizimida, balki mehnat bozorini yanada rivojlantirish, mehnat qonunchiligini takomillashtirish va bandlikni rag'batlantirish bo'yicha ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ichida muhim ahamiyatga ega. Bu yangilik kadrlar bo'limidagi ishlarni osonlashtiradi, qog'ozbozlikni qisqartirishga imkon yaratadi, chunki, ishchi-xodimlar to'g'risidagi barcha shaxsiy ma'lumotlar Pensiya jamg'armasiga elektron ko'rinishda yuboriladi.

Xodimlarning ish joyi va davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lov qilgan davri bo'yicha ro'yxatga olishning "elektron mehnat daftari" tizimini joriy etish, 2019-yilning 1-yanvaridan boshlab birinchi marta ishga joylashtirilgan xodimlarga qog'oz shaklidagi mehnat daftarlari berilishini to'xtatish va mehnat daftarlaridagi yozuvlarni soliq to'lovchining individual raqami (STIR) va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovi bo'yicha individual raqami (PTIR) asosida, xodimning ish joyi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lovlar amalga oshirilgan davri bo'yicha hisobga olish bilan bosqichma-bosqich almashtirib boriladi.

9.7. Pensiya jamg‘armasi tizimida joriy qilingan davlat interaktiv xizmatlarini yanada takomillashtirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorini ustuvor rivojlantirish bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishini ta’minlaydigan eng muhim sektor sifatida ko‘riladi. Respublikamizda elektron shaklidagi axborotdan barcha sohalarda (hukumat muassasalari, davlat boshqaruv organlari, tadbirkorlar, fuqarolar) foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. “Internetdan davlat boshqaruvini takomillashtirish (elektron hukumat), logistika, biznes xizmati qo‘rsatish sohalarida foydalanish jiddiy ravishda kengayadi. Iqtisodiyot, davlat boshqaruvi tizimi umumiy samaradorligini oshirishda Internet texnologiyalaridan qo‘llanish chora- tadbirlari ishlab chiqiladi.

Professor Q.X.Abdurahmonovning fikricha “Inson kapitalining ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriqoqdir”²⁰⁹. Shuning uchun inson kapitali iqtisodiy o‘sish va samaradorlikning asosiy omilidir. “Inson kapitali”ning iqtisodiy kategoriyasi sifatidagi tushunchasi “jahon axborot hamjamiyati” va “bilimlar iqtisodiyoti” rivojlanishi bilan birgalikda muntazam ravishda kengayib bormoqda. Hozirgi davrda inson kapitali intellektual va boshqaruv mehnatini, yashash va mehnat faoliyatini muhitini qamrab oladigan iqtisodiyot, jamiyat, ijtimoiy soha va oilalarni rivojlantirishning intensiv ishlab chiqarish omilidir.

Axborot resurslari iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri pensiya ta’minoti sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Inson aniq, dolzarb va tezkor axborotga ega bo‘lsa, u faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy zamini bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot-lotincha *«informatio»* – tushuntirish, xabar berish ma’nosini beradi. Axborot biron-bir dalil, voqeа, hodisani bayon qilish, tushuntirishni bildiradi. Mazmuniga va inson faoliyatida xizmat qilish doirasiga ko‘ra axborot ilmiy, ishlab chiqarish, boshqaruv, tibbiyot, iqtisodiyot, moliya, ekologiya, huquq va boshqa sohalar bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy axborot-axborotning eng muhim

²⁰⁹ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. –T.: Mehnat. 2009. - B.182.

turlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy axborot – ishlab chiqarish jarayonlari, moddiy resurslar, bozorlar, bank va moliya muassasalari faoliyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Zamонавиу axborot texnologiyalari komyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamонавиу darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining axborot infratuzilmasi va jahon axborot-hisoblash tarmog‘i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish iqtisodiyot, boshqarish, moliya, fan va ta’lim samaradorligining muhim omili bo‘lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yangi axborot texnologiyalari judayam rivojlanib bormoqda, ular nafaqat tibbiyat, qurilish, ijtimoiy va harbiy sohada, balki, iqtisodiyot, moliya, bank, ijtimoiy ta’minot sohalarida ham keng va unumli qo‘llanilmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiyoti nafaqat ishlab chiqarayotgan mahsulotlar soni bilan, balki o‘zları uchun zarur bo‘lgan axborot vositalaridan qanday foydalanishi bilan ham belgilanmoqda. Axborot sektorlari milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga, jumladan, pensiya ta’minoti sohasiga ham kirib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yig‘ilishida “Elektron hukumat” tizimi, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari shuningdek, biznes sohasidagi va fuqarolarga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini shakllantirish konsepsiysi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirishga axborot tizimlarining idoralararo va idoraviy komlekslarini integratsiya qiladigan milliy tizimni yaratishga alohida e’tibor qaratish lozim”²¹⁰ deb ta’kidlagan edilar.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimida zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, “Elektron hukumat”ni shakllantirish, umuman “Axborot jammiyat”ni qaror toptirish muammolarini tadqiq etish, yagona interaktiv davlat xizmati ko‘rsatish tizimining huqukiy va uslubiy bazasini yaratish ustida

²¹⁰Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanirish konsepsiysi. –T.: “O‘zbekiston”. 2013. –B.28.

chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. “Elektron hukumat” tizimi yanada takomillashtirilmoqda, davlat xizmati ko‘rsatishning samaradorligi va sifatini yaxshilash hamda aholi va tadbirdorlik subyektlarining ulardan foydalanish imkoniyatlari oshirilmoqda.

“Elektron hukumat” infratuzilmasida yagona Harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, “Elektron hukumat”ni shakllantirish, umuman “Axborotlashgan jamiyat”ni qaror toptirish muammolarini tadqiq etish, yagona interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimining huqukiy va uslubiy bazasini yaratish ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. “Elektron hukumat” tizimi yanada takomillashtirilmoqda, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligi va sifatini yaxshilash hamda aholi va tadbirdorlik subyektlarining ulardan foydalanish imkoniyatlari oshirildi, interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish portalini amal qiladi. “Elektron hukumat” bilan muloqatga kirishgan fuqarolar huquqlarini ta’minlashning kafolatlari belgilanadi.

Bugungi kunda “..Davlat va hukumatimiz o‘z oldiga qo‘yayotgan asosiy maqsad esa – olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat”²¹¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi 1989-qaroriga binoan “Elektron hukumat” tizimini joriy etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asosi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat” to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, “Elektron hukumat” – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga

²¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga sharh.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatni, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi. Mazkur Qonun bilan birga davlat boshqaruvida zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va "Elektron hukumat" tizimini shakllantirishga oid barcha masalalar milliy qonunchiligidagi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun, "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonunlar shu jumlasidandir.

"Elektron hukumat" infratuzilmasida yagona interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish portalı amal qiladi. "Elektron hukumat" bilan muloqatga kirishgan fuqarolar huquqlarini ta'minlashning kafolatlari belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18 fevraldag'i "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'risidagi PQ-2302-son qarori va "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Respublika komissiyasi yig'ilishining 2015-yil 23-fevraldag'i yig'ilishi 14-sonli bayoni asosida keksa fuqarolar uchun maxsusus "**nuroniy.uz**" internet-portalı ishlab chiqildi. Ushbu internet-portalning yaratilishidan asosiy maqsad pensiyaga oid qonun hujjatlari, pensiya tizimidagi yangilik va imtiyozlar, maslahat va boshqa ma'lumotlar to'g'risida xabardor qilishning samarali tizimni tashkil etish hamda keksalar uchun ijtimoiy tarmoq yaratish hisoblanadi.

Pensiya tizimi faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, bu qatlama vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish muhim. Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarining ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga keng joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdag'i "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy

etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qaroriga muvofiq davlat pensiya ta’minoti tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari joriy etildi.

Pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to‘lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg‘armasining barcha tarkibiy bo‘lmalari o‘rtasida samarali elektron hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, “Pensiya” dasturiy majmuyi shulardan biridir.

«..Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdag‘ interfaol xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta’sir ko‘rsatishi, katta hajmda axborot to‘plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmasligimiz zarur»²¹².

O‘zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabдор shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim»²¹³. 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra har bir fuqaro o‘z manfaatlariga daxldor axborotlarni

²¹²O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi.

²¹³O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston. 2008. 8-b.

bepul, boshqa axborotlarni kelishuv bo'yicha haq to'lab olish imkoniyatiga ega.

9.4-jadval

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlari bo'yicha fuqarolarga xizmat ko'rsatish

Nº	Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlari bo'yicha fuqarolarga xizmat ko'rsatish	Xizmat uchun haq
1.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun majburiy tartibda ishtirok etuvchilarni "so'rovnomalar" va ixtiyoriy tartibda ishtirok etuvchilargacha "ariza so'rovnomalar" blankasini taqdim etish	bepul
2.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iini ochish bilan birga pensiya daftarchasini berish va hisobvaraqlar yuritish.	bepul
3.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i idagi qoldig'i miqdorida naqd pul berish	bepul
4.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i egasining yozma arzasiga binoan pul mablag'larni bank filiali tomonidan xizmat ko'rsatilgan hudud doirasida turar joyiga o'tkazib berish	minimal ish haqining 5 % miqdorida+ o'tkazilgan mablag'larning 2,0 %, lekin 1000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorida
5.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i egalariga shaxsiy hisobvaraqlar aylanmasi va qoldig'i haqida ma'lumot berish	
5.1.	Belgilangan tartibda yilda bir marta	bepul
5.2.	Qolgan holatlarda hisobvaraqlar egasining yozma arizasi ko'ra (har bir holat bo'yicha)	minimal ish haqining 5 % miqdorida
6.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqam egasining yozma arizasiga binoan, olingan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar hamda kommunal to'lovlar uchun naqd pulsiz mablag' o'tkazish	
6.1.	Bir martalik to'lov topshiriqnomasi bo'yicha	300 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda (xar bir holat uchun)

6.2.	Ko‘p martalik to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha	300 so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda (har bir holat uchun)
7.	Hisobraqam egasining yozma arizasiga bo‘yicha shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi mablag‘larni o‘z nomiga yoki istagan boshqa shaxsning nomiga ochilgan omonot hisobvaraqlarga shu jumladan, plastik kartochkaga o‘tkazish	
7.1.	Shaxsiy hisobvaraq ochilgan filialda	bepul
7.2.	Xalq bankining boshqa filiallariga	o‘tkazilgan mablag‘larning 0,5 miqdorida
7.3.	Boshqa tijorat banklariga	o‘tkazilgan mablag‘larning 0,5 miqdorida
8.	Hisobraqam egasining yozma arizasiga ko‘ra yo‘qolgan va yaroqsiz holga keltirilgan pensiya daftarchasi o‘rniga yangi daftarcha (dublikat) berish	
8.1.	Birichi marta	Minimal ish haqining 20 % mikdorida
8.2.	Ikkinci va keyingi holatlarda	Minimal ish haqining 50 % mikdorida

O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarining ustuvorligi asosida davlat boshkaruv organlari, korxonalar, muassasalar, byudjet tashkilotlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, no davlat notijorat tashkilotlar, davlat maqsadli jamg‘armalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. O‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni Xalq banki filialidan bir yilda bir marta bepul, shuningdek, o‘z so‘roviga ko‘ra istalgan vaqtida olish huquqiga ega.

Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya

hisobvarag‘i tartib raqami o‘zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochish talab etilmaydi. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari kiritilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati nusxasini, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari tartib raqami, familiyasi, har bir xodimning hisoblab chiqarilgan ish haqi summasi, boshqa daromadlari va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi ko‘rsatilgan xodimlar reyestrini ish beruvchi o‘zi turgan joydagi Xalq banki filialiga har oyda taqdim etishi shart. Xalq banki to‘lov hujjati va reyestr asosida mablag‘larni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini boshqarish uslubiyoti takomillashtirilmoqda. Pensiya ta’minotida xususiy va korporativ sektorda tajribadan o‘tgan yondashuvlardan foydalanish bilan moliyaviy nazorat kuchaytirilmoqda. O‘zbekistonda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar turkumini kengaytirish kerak. Fuqarolar uchun jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti dasturida o‘z hisobraqamlarini *internet*, mobil qurilma va *SMS* lar orqali monitoring qilish tizimini yanada takomillashtirish lozim.

Qisqacha xulosalar

Respublikamizda qabul qilingan Davlat byudjeti parametrlarida qayd etilganidek, joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko‘rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, 2018-yilgi byudjet siyosati konsepsiyasida asosiy e’tibor byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo‘llab-quvvatlashga va byudjet tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy to‘lovlari miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Bugungi kunda fuqarolarni pensiya ta'minoti sohasida ham xalqaro norma va qoidalarni hisobga olib ish ko'riladi. Shu bilan birgalikda, pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni xalqaro talablarga yana ham muvofiqlashtirish maqsadida ijtimoiy ta'minot masalalariga oid maxsus xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish, ulardagi normalarni milliy qonunchiligidizga yaqinlashtirish vazifalari tobora dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rinni egallamoqda. Iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Davlat pensiya ta'minoti tizimining barqaror va oqilona tizimini shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan zamonaviy me'yordi ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda hayotga izchil joriy etilayotgan hamda alohida tayyorgarlik talab qiladigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko'nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalari mos kelishini ta'minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitni yaratishdan iborat.

Pensiya jamg'armasini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'lari hisobiga emas, balki davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lardan ajratmalar hisobiga shakllantirish mexanizmi va o'ziga xos xususiyatlari sust yorilmoqda. Aholi o'rtasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining afzalliklari to'g'risidagi tushuntirish ishlari yetarlicha olib borilishi kerak.

Respublikamizda “avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi bilan birga bosqichma-bosqich jamg‘ariladigan pensiya tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq ravishda hamda izchillik bilan amalga oshirish zarur. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘laridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy vazifalari takomillashtiriladi.

Mamlakatimizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti mablag‘lari ham muddatiga ko‘ra uzoq muddatli moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanadi, uni to‘lash bilan bir vaqtida jamg‘arma hisobiga tegishli summa o‘tkaziladi. Hozirda jamg‘armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarisiz salmoqqa ega, shu jihatidan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg‘armasi bilan shug‘ullanuvchi moliyaviy tashkilot faoliyatini tashkil etish mumkin.

Milliy innovatsion tizimni tashkil etish va rivojlantirishda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy sohaning innovatsion faoliyati funksiyasi bu – majmuali funksiyadir. Innovatsiya bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amalda qo‘llaniladigan yangi texnologiya va ijtimoiy xizmatga bo‘lgan yangicha yondashuvlarning yig‘indisidir.

Mamlakatning ijtimoiy ta’mnot sohasida bu funksiyani keng tarqalishi O‘zbekistonda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar bilan asoslanadi. Ijtimoiy sohaning innovatsion funksiyasi quyidagi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi: davlat, byudjet tashkilotlari, fuqarolar.

Ijtimoiy sohaning innovatsion funksiyasi jamiyatning har bir a’zosi ehtiyojlariga islohot jarayonlarining muvofiqligini ta’minlash, islohotlarni muvaffaaqiyatli borishini hamda ijobjiy natijalarini ta’minlovchi ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etishdan iborat.

Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash sharoitida boshqa sohalar bilan birgalikda pensiya ta’mnoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish zarur.

Jamg‘arib boriladigan pensiya sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish mazkur sohaning nafaqat milliy, balki, jahon miqyosidagi nufuzini ham oshiradi.

Tayanch so‘z va iboralar

Mehnat shartnomasi; ijtimoiy sohada innovatsiya; Xalq banki; xo‘jalik yurituvchi subyektlar; soliq organlari; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘larini shakllantirish; jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘lovlarini.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini texnika bilan jihozlash jarayonlarini tushuntiring.

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti mablag‘laridan foydalanishdagi dolzarb muammolar va ularning hal qilish yo‘llarini ko‘rsating.

3. Pensiya jamg‘armasi tizimida davlat interaktiv xizmatlarini takomillashtirish yo‘llarini ayting.

4. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini tushuntiring.

5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti byudjetining balans-liligini ta‘minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotining qonuniy asoslarini mustahkamlash to‘g‘risidagi fikrlaringizni ayting.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotini takomillashtirish istiqbollari” mavzusida esse yozing.

2. “Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti” mavzusida referat yozing va slaydlar tayyorlang.

Test savollari

1. Xalq banki filiallari ... qadar tegishli hududiy davlat soliq xizmati organiga ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi.

- A. Hisobot yilidan keyingi yilining 15 fevraliga.
- B. Hisobot yilidan keyingi yilining 25 fevraliga.
- C. Hisobot yilidan keyingi yilining 5 fevraliga.
- D. Hisobot yilidan keyingi yilining 1 fevraliga.

2. Xalq banki uchun kompyuter texnikasi xarid qilish xarajatlarning ... O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soydasi hisobiga moliyalashtirildi.

- A. 49 foizi.
- B. 50 foizi.
- C. 51 foizi.
- D. 39 foizi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniqabul qilindi.

- A. 2009-yil 30-dekabrda.
- B. 2005-yil 30-dekabrda.
- C. 2004-yil 31-dekabrda.
- D. 2010-yil 31-dekabrda.

4. ... qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom 2010-yil 3 mayda tasdiqlandi.

- A. Moliya vazirligi va Xalq bankining.
- B. Markaziy bank va Moliya vazirligining.

- C. Markaziy bank va Xalq bankining.
- D. Davlat Soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligining.

5. shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag‘larni ixtiyoriy ravishda o‘tkazgan jismoniy shaxslarga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘g‘risida ma’lumotlarni soliq xizmati organiga taqdim etadi.

- A. Xalq banki.
- B. Markaziy bank.
- C. Ish beruvchi.
- D. Jismoniy shaxs.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki ... qadar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

- A. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 30-kuniga.
- B. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 20-kuniga.
- C. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kuniga.
- D. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kuniga.

7. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini ochish hamda jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini rasmiylashtirish va yuritish tartibitomonidan belgilanadi.

- A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank.

8. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida kompyuter texnikasi bilan jihozlash va dasturlari bilan ta’minalash bo‘yicha tadbirlar Dasturini amalga oshirish uchuntarkibi tasdiqlandi.

- A. Idoralararo komissiya.

- B. Muvofiqlashtiruvchi Kengash.
- C. Direktorlar Kengashi.
- D. Ijro Direktori.

9. “Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” provodkasi quyidagicha beriladi.

- A. 190 -
- B. 100 -
- C. 180 -
- D. 173 -

10. Xalq bankining kompyuter texnikasi xarid qilish xarajatlarning ... byudjet ssudasi hisobiga moliyalashtirildi.

- A. 51 foizi
- B. 50 foizi
- C. 30 foizi
- D. 70 foizi

11. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonuni ... qabul qilindi.

- A. 1997-yil 24 aprelda.
- B. 1993 yil 24 aprelda.
- C. 1991 yil 17 aprelda.
- D. 1995 yil 17 aprelda.

12. JBPT o‘z investitsion siyosatini ... asosan takomillashtirib boradi

A. Fuqarolik kodeksi, Byudjet kodeksi, «Investitsion faoliyat to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining mexanizmi to‘g‘risida»gi qonunlarga.

- B. Fuqarolik kodeksi, Byudjet kodeksi.
- C. «Investitsion faoliyat to‘g‘risida»gi qonunga.

D. «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasи to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining mexanizmi to‘g‘risida»gi, qonunlarga «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonunlarga.

13. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar JBPT mablag‘larini joylashtirish to‘g‘risidagi ariza berishdan oldingi ... uchun foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etishi lozim.

- A. Uch yil.
- B. To‘rt yil.
- C. Besh yil.
- D. Ikki yil.

14. Innovatsiya:

A. Fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnat tashkil etishdagi yangiliklarni turli sohalar va faoliyatda qo‘llash.

B. Fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish.

C. Yangiliklarni turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llash.

D. Ilg‘or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya asosida boshqarish va xizmatni tashkil etish.

15. Respublikamizda ...boshlаб birinchi marta ishga joylashtilgan xodimlarga qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchalari berilishinito‘xtatiladi.

- A. 2019-yilning 1-yanvaridan.
- B. 2018-yilning 1-yanvaridan.
- C. 2019-yilning 10 martdan.
- D. 2018-yilning 31-dekabrdan.

GLOSSARIY

(ASOSIY TUSHUNCHA VA IZOHLAR)

A

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi – axborotlar yig‘indisi, axborotlarni ishslash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yo‘naltirilgan matematik-iqtisodiy usullar, modellar, dasturlar, mexanizmlar, texnologik vositalar va mutaxassislar yig‘indisidir.

Avtomatlashtirilgan ish joylari (ARM) – mutaxasislarning bajaradigan funksiyalarini avtomatlashtirish uchun kerakli axborotlar, dasturlar va axborot resurslarining yig‘indisi.

Avtomatlashtirilgan bank ma’lumotlari – avtomatlashtirilgan axborot tizimi, markazlashtirilgan holda saqlanadigan va birgalikda ishlataladigan ma’lumotlar.

Amaldagi ish haqi - pensiyani hisoblab chiqish uchun qo‘llaniladigan shaxsning amaldagi ish haqi.

Analitik hisob-kitob – hisob-kitobni aniqlashtirish va rivoj-lantirish maqsadida olib boriladigan xo‘jalik subyektlarining faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, hisobotlar tuzish uchun zarur bo‘lgan xo‘jalik jarayonlari va mablag‘lari aylanishining buxgalteriya hisob-kitobi.

Asosiy ish joyi - ish beruvchi mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi.

Axborot resurslari – tashkilot uchun qadr-qimmatga ega bo‘lgan moddiy zaxira sifatida qatnashadigan ma’lumotlar yig‘indisi tushuniladi, ular jumlasiga ma’lumotlar fayli, hujjatlar, matnlar, grafiklar, bilimlar, audio-video axborotlar kiradi.

Ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat.

Ariza beruvchi – davlat organiga so‘rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

B

Band shaxs - o‘zini ish bilan mustaqil ta’minlaydigan va ish vaqtini hisobga olish mumkin bo‘lmanan jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, bevosita qoramol o‘stiradigan hamda chovchilik mahsulotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotadigan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaligida band bo‘lgan shaxs, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyekti.

Bola – mehnatga layoqatli yoshda bo‘lmanan, ta’lim oluvchi hisoblanmaydigan jismoniy shaxs.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi – boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi mehnatda mayib bo‘lish yoki kasb kasalligi tufayli vafot etgan boquvchining mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolariga, uning mehnat faoliyatining muddatidan qat’i nazar tayinlanadi, agar u boshqa sabablar natijasida vafot etgan bo‘lsa, shunga muvofiq keladigan umumiylar mehnat stajiga qarab tayinlanadi, bunday mehnat stajining muddati sug‘urta qilingan xodimning vafot etgan kuniga qadar bo‘lgan yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – fuqarolarning davlat pensiya ta’minti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘nalti-riladigan majburiy to‘lovlar, badallar, boshqa manbalardan tushadigan mablag‘lar jamlangan jamg‘arma.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari – jamg‘arma daromadlari yagona ijtimoiy to‘loving belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning sug‘urta badallari, korxona va tashkilotlarning majburiy ajratmalarini va boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining xarajatlari – jamg‘armaning mablag‘laridan ishlayotgan va ishlamaydigan

pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'limgan keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniлади.

V

Valyuta bozori – chet el valyutasining oldi-sotdisini, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarni hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi markaz.

Verifikatsiya – hujjatning haqiqiyligini belgilash jarayoni.

D

Davlat soliq xizmati organlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

Davlat xizmati – ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi – barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozim. Davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek, sug'urta qilingan xodimlarning o'zлари badal to'laydilar.

Dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan shaxs – marhumning eri (xotini), ota-onasi, farzandlari va boshqa qarindoshlari yoki qonuniy vakili, bunday shaxslar bo'limga taqdirda esa – dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa jismoniy shaxs.

Dasturli ta'minlash – avtomatlashtirilgan axborot tizimi boshqaruvidagi hisoblash jarayonlarini samarali tashkil qilishda foydalaniладиган дастурларига тиг'инди.

Deponentlashtirish – pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar va boshqa boyliklarni kredit tashkilotlariga saqlash uchun topshirish; xodimlarning o‘z vaqtida olinmagan ish haqlarini pul mablag‘lari qoldig‘ini kredit muassasalariga topshirish.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi: mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to‘lov manbayida soliq solinmagan bo‘lsa; fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingen daromadlar; asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingen moddiy naf tarzidagi daromadlar; ikki yoki undan ko‘p manbadan olingen soliq solinadigan daromadlar; O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingen daromadlar; soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingen daromadlar.

Dividendlar – aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a’zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingen, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a’zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a’zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish uchun yo‘naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a’zosining) qo‘sishcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingen daromadlari.

Yo

Yoshga doir pensiya – yoshga doir pensiya sug‘urta qilingan xodimlarga umumiy asoslarda: erkaklar – oltmis yoshga to‘lgan bo‘lib, umumiy mehnat staji yigirma besh yildan kam bo‘lmagan

taqdirda, ayollar – elliq besh yoshga to‘lgan bo‘lib, umumiy mehnat stoji yigirma yildan kam bo‘lмаган тақдирда таинланади. Pensiya sug‘urta qilingan xodimlarning ayrim toifalariga pensiya yoshi kam bo‘lganda, tegishli hollarda esa – mehnat stoji kam bo‘lganda ham таинланади.

J

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlaridagi mablag‘lardan davlat pensiyasiga qo‘sishimcha ravishda pul mablag‘lari bilan ta’minlash.

Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag‘lari.

Jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag‘lari.

Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi – jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs;

Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi – fuqaroning jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqini tasdiqlovchi daftarcha fuqaroga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i ochilganidan keyin Xalq banki tomonidan beriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni hisobga olish – majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi – Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to‘lovlarini oluvchi sifatida davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish huquqi to‘g‘risidagi **guvohnoma** – Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchining yashash joyidagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan shaklda beriladi.

Jamoa shartnomasi – bir tarafdan, xodimlar tomonidan kasaba uyushmalari yoki o‘zлari vakolat bergen boshqa vakillik organlari orqali, ikkinchi tarafdan - bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergen vakillar tomonidan tuziladi.

Jismoniy shaxs – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnoma tuzgan shaxs.

Jismoniy shaxslar – yuridik shaxslar maqomini olmasdan faoliyat ko‘rsatayotgan yoki har xil sabablarga ko‘ra ishlamayotgan pensionerlar, nafaqaxo‘rlar va boshqalardir. Bunda shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi: mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar; mulkiy daromadlar; moddiy naf tarzidagi daromadlar; boshqa daromadlar. Jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari – Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslardir. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq Kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo‘yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish – soliq stavkasini qo‘llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini, shuningdek, eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1-yanvaridagi holati inobatga olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha har oyda jismoniy shaxsnинг asosiy ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari – jumlasiga quyidagilar kiradi: pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar; stipendiyalar; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, hayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; hayvonlarni tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar; jismoniy shaxslardan tekin olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati; musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan, chet davlatlar grantlari bo‘yicha olingan summalar; yaratilgan fan, adabiyot va san’at asarlari uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar; O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga

sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti; xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinnarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti; xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar; moddiy yordam tariqasida: vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to‘lovlar; xodimga mehnatda mayib bo‘lganlik, kasb kasalligi yoxud sog‘liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog‘liq to‘lovlar; favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to‘lovlar; maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog‘liq bo‘lmagan to‘lovlar; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzidagi to‘lovlar; qonun hujjatlariga muvofiq uyjoy-kommunal xizmatlari haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlar; ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar; sug‘urta tovoni summalar; ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pul to‘lovlar; jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlar.

I

Idoralararo elektron hamkorlik qilish–davlat organlari o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma’lumotlar almashish.

Identifikatsiya raqami – tizim ichidagi obyektni aniqlaydigan kod yoki nom berilishidir. Ajratma, soliqlar va pensiya to‘lovlar

bo‘yicha axborotlarni markazlashtirish uchun individual ijtimoiy kodlarga ehtiyoj tug‘iladi. Moliyaviy hujjatlashtirish bo‘yicha moliyaviy axborotlar ishonchliligi va doimiyligi ta’minlash uchun, xalqaro andozalarga mos keluvchi buxgalteriya hisobining yangi andozalari qo‘llanilishi uchun individual ijtimoiy kodlarni qabul qilinishi taqozo etiladi.

Ijtimoiy sug‘urta - ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash munosabatlari tizimi bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobiga maxsus sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va mehnat daromadlarini qoplash yoki saqlash uchun foydalanishdan iborat.

Indeksatsiya (lotin tilida *index* - ro‘yxat, reyestr, ko‘rsatkich ma’nosida ishlataladi). Indeksatsiya iqtisodiyotda iste’mol narxlariga bog‘lagan holda kredit, ish haqi, pensiya, nafaqa, jamg‘arma, shartnomalarini infliyatsiyadan himoyalash vositasidir. Pensiyani indeksatsiyalash - birinchi navbatda, aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida pensiya miqdorini oshirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Investitsiya – foya (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, yuridik va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foylangan holda, cheklangan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma’lum muddatga sarflangan barcha turdag'i boyliklardir.

Investitorlar – qimmatli qog‘ozlarni sotib oladigan va bu bilan boshqalarning bo‘sh moliyaviy resurslarini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar.

Investitsiya loyihasi – investitsiyaning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruva qarorlari va chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin.

Inflyatsiya – muomalda keragidan ortiqcha pul paydo bo‘lib, narx-navo o‘sib, pulning qadr-qiymati, ya’ni xarid qobiliyatining pasayishi, pulning obro‘sizlanishidir.

Inflyatsion soliq – hukumatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishi uchun zarur mablag‘larni to‘plash, byudjet taqchilligini moliyalashtirish uchun, pul taklifini oshirish yo‘li bilan aholining pul mablag‘larini bilvosita olishi.

Innovatsion faoliyat – boshqarish va moliyalashtirishda yangi shakllarni qo‘llanilishiga asoslangan faoliyatdir.

Indossament – qimmatli qog‘oz ustidagi ushbu hujjat bo‘yicha huquqlarning boshqa shaxsga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi o‘tkazma yozuv.

Islohot – isloh qilish, tubdan o‘zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish. Mustaqillik munosabati bilan davlatimizda boshlangan tub o‘zgarishlarga nisbatan lotinchadan olingan “reforma” so‘zi o‘rniga qadimiy arabchadan kirib kelgan “islohot” so‘zi keng qo‘llanila boshlandi.

Iste’mol savatchasi – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar va xizmatlarning eng kam to‘plamidir.

Ish haqi – bu yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shaklidir.

Ish staji – mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o‘qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo‘yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat’i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiyligi.

Ish beruvchi – jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnomaga tuzgan va qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik shaxs.

Ish bilan ta’milanish - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan

bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Ishsizlar – o‘n olti yoshdan to pensiya bilan ta’minlanish huquqini olishgacha bo‘lgan yoshdagi, haq to‘lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg‘ulotga ega bo‘lмаган, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo‘lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o‘tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan mehnatga layoqatli shaxslar.

Ishsizlik – iqtisodiyotdagi turg‘unlik (davriy), tarkibiy o‘zgarishlar (tarkibiy), tabiiy omillar (mavsumiy), ijtimoiy omillar (friksiyali) kabi sabablar ta’sirida vujudga keladi. Umuman ishsizlikning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi. Friksiyali ishsizlik – turli sabablarga ko‘ra (yangi istiqomat qiladigan joyga ko‘chish, kasbini o‘zgartirish, farzandini parvarish qilish, yangi ish tanlash) vaqt–vaqt bilan ishsiz qolishdir. Bu ixtiyoriy ishsizlik, deb ham ataladi, odatda, bir oydan ortiqqa cho‘zilmaydi. Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish tuzilmasi o‘zgartirilgan sharoitda iqtisodiyotning eski tarmoqlarida ish bilan band bo‘lganlarning yangi tarmoqlar talab etayotgan yangi kasb va ixtisosliklarni egallamagan davridagi ishsizlikdir. Mavsumiy ishsizlik – mavsumiy ish bilan band bo‘lganlarning mavsum tugashi bilan ishsiz qolishidir. Davriy ishsizlik – iqtisodiy tanglik bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib ketishi oqibatida ro‘y beradigan ishsizlikdir, bu majburiy ishsizlik deb ataladi. Yashirin ishsizlik – rasman ish bilan band hisoblanganlarning qisman ish bilan bandligidir. Bu turdagи ishsizlikda xodim qisqartirilgan ish kunida ishlaydi yoki haq to‘lanmaydigan ta’tilda bo‘ladi. Yoshlar (ayollar) ishsizligi – yoshlarning ta’lim muassasalarini tugallaganlaridan so‘ng, ayollarning o‘z farzandlarini parvarish qilishlari va boshqa turli sabablarga ko‘ra ish bilan band bo‘lmasligidir.

Ishsizlik nafaqasi - Qonunga muvofiq ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarga tayinlanadi. Qaramog‘ida uchtagacha kishi bo‘lgan, o‘ttiz besh yoshga to‘lмаган ishsiz erkaklarga ishsizlik nafaqasi ular haq to‘lanadigan jamoat ishlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi.

Ish bilan bandlik darajasi – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq daromad keltiradigan faoliyatga ega bo‘lishidir.

Ish bilan band shaxs – o‘zini mustaqil ravishda ish bilan ta’milagan jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan, yordamchi va dehqon xo‘jaligida ish bilan band bo‘lgan, bevosita mol o‘stirish, chorvachilik hamda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va sotishni amalga oshiradigan tadbirkor, ko‘rsatib o‘tilgan toifadagi fuqarolarning ishlab chiqarishda qatnashuvchi oila a‘zosi, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik subyekti va hunarmand.

Ish bilan band bo‘lмаган shaxs – qonun hujjatlariga muvofiq ishsiz sifatida rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgan mehnatga layoqatli yoshdagи jismoniy shaxs, shuningdek, haq to‘lanadigan ishga yoki mashg‘ulotga ega bo‘lмаган vaqtincha ish bilan band bo‘lмаган mehnatga layoqatli shaxs.

Ish vaqtি – xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o‘z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo‘lgan vaqt ish vaqtি hisoblanadi.

Ishonchnoma – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

E

Yetkazib berish uchastkasi - shaharlar, shaharchalar, qishloqlar yoki ovullar hududining bitta pochталон tomonidan xizmat ko‘rsatilishi mo‘ljallangan qismi.

Yetkazib berish (topshirish) davri - pensiyalar va nafaqalarni yetkazib berish (topshirish) amalga oshiriladigan joriy to‘lov oyining 4-dan 28-sanasigacha bo‘lgan davr.

K

Kameral nazorat – soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir. Kameral nazorat soliq to‘lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan erda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to‘ldirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma’lumotlar o‘rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to‘lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi. Soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda taqdim etishi shart. Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida o‘tkazilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.

Konsepsiya – (lotincha tushuncha, tizim) ma’lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan bosh g‘oya va ularning mohiyatini yoritib beradigan asosiy fikrni yoritishda qo‘llaniladi.

Kommunikatsiya – aniq territoriyada axborotlarning distansion almashuvি jarayonlarini tashkil etish qoidalari va texnika vositalarining yig‘indisi.

Kompyuter virusi – hisoblash tizimi yoki tarmoq ishiga salbiy ta’sir qilish maqsadida tuzilgan maxsus dastur.

Kredit – bir shaxs tomonidan, masalan, davlat yoki korxonadan, vaqtinchalik foydalanish uchun, lekin qaytib berish va foiz to‘lash sharti bilan berilgan moliyaviy mablag‘lar.

Kredit beruvchi – xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo‘lgan xorijiy davlat yoki nerezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar nerezidentlar bir nechta bo‘lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasiii bajaruvchi nerezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

Kurs bo‘yicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobi, salbiy) farq. Kursdagi ijobi farq -valyuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek, chet el valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi ijobi farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi: chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda; chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda; chet el valyutasi kursidagi o‘zgarish munosabati bilan balansning valyutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

L

Lokal hisoblash tarmog‘i – maxsus mutaxassislar o‘rtasida almashish uchun ma’lum territoriya chegarasida tashkil etilgan va kanallar bilan birlashtirilgan dasturlash va axborot uzatish resurslari.

M

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat iqtisodiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va xodisalarni o‘lchash va baholash

imkoniyatini beradigan ko'rsatkichlar. Masalan, YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya va boshqalar.

Majburiy to'lovlar – Soliq Kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Majburiyat – fuqarolik huquqiy munosabati bo‘lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa — qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Maxsus ish stoji - xalq xo‘jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya ta’motini huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi.

Ma'lumotlar — fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga hisoblangan sug‘urta badallari to‘g‘risida ma'lumot;

Ma'lumotlar bazasi – tartiblashning umumiy tamoyillari ko‘zda tutilgan holda aniq qonun-qoidalar asosida tuzilgan hamda himoya qilinadigan va saqlanadigan ma'lumotlar yig‘indisi.

Mehnat shartnomasi - xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo‘yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda taraflar kelishushi, shuningdek, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo‘srimcha holatlar (tanlovdan o‘tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo‘lishi mumkin.

Mehnat staji - ish, xizmat, o‘qish joyidan yoki ish stajiga ko‘shib hisoblanadigan boshqa faoliyat amalga oshirilgan joydan, yoxud arxiv muassasalari tomonidan berilgan hujjatlar asosida aniqlanadi. Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasa (ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan xodimlar bundan mustasno) ish davri guvoxlarning ko‘rsatmasi asosida aniklanadi.

Mehnat daftarchasi - sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlovchi ma’lumotnomalar va ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Mehnat uchun rag‘batlantirish – ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishi mumkin. Rag‘batlantirish nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishi mumkin. Rag‘batlantirish turlarini qo‘llanish tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to‘g‘risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo‘yiladi.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar – ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi: mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi; ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo‘srimcha to‘lovlar; rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar; ishlanmagan vaqt uchun haq; kompensatsiya to‘lovları. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi: predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lovlar; yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar; O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy

xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar.

Milliy valyuta—O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqillikka erishgach, oradan 3 yil o‘tib muomalaga kiritilgan va ayni paytgacha o‘zgarmay kelayotgan milliy valyuta so‘m respublikaning barcha hududida yagona to‘lov vositasi sifatida amal qiladi.

Moliyaviy tranzaksiya – mablag‘larni elektron ko‘rinishdagi harakati tushuniladi.

Moliyaviy hisobotni tayyorlash – o‘z vaqtida g‘azna axborot tizimiga kiritilgan, byudjet tashkilotlariga yetkazilgan tovarlar va xizmatlar hajmini tasdiqlovchi hujjalari, to‘lov hujjalari va hududiy g‘azna bo‘limlariga topshirilgan byudjet tashkilotlarining oylik hisobotlari asosida barcha hududiy g‘azna bo‘limlari mahalliy byudjetlarni boshqarish uchun va ularning ijrosini nazorat qilish uchun kerakli hisobotlarni g‘aznachilikda o‘rnatalgan maxsus kompyuter dasturi orqali tezda umumlashtirish.

Monitoring – fuqarolarga atrof-muhitda noxush o‘zgarishlar bo‘lishi to‘g‘risida o‘z vaqtida axborot berish va boshqarish. Byudjet amaliyotida monotoring o‘tkazish - byudjetdan ajratilgan pul mablag‘lari ishlatalishining oxirgi bosqichigacha nazorat qilishdir.

Mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo‘la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar hamda nomoddiy obyektlar. Obyektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjalariга muvofiq amalga oshiriladi.

Mulkiy daromadlar – (jismoniy shaxslarning) tarkibiga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, sanoat mulki obyektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad,

royalti, qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi kiradi.

O

Oila a'zolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar.

Operatsiya kuni – moliya-kredit tashkilotlarining ish kunini bir qismi yoki mijozlarga xizmat ko'rsatish va mijozlar bilash ishlash vaqtisi.

N

Nafaqa oluvchi – doimiy ravishda ijtimoiy nafaqa va boshqa nafaqa to'lovlarini oluvchi, qonuniy vakil yoki qonun hujjatlariga muvofiq nafaqa summalarini olish huquqiga (vakolatiga) ega boshqa jismoniy shaxs.

Nogironlik pensiyasi – nogironlik pensiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan, sug'urta qilingan xodimlarga: mehnatda mayib bo'lganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli – mehnat faoliyatining muddatidan qat'i nazar; boshqa sabablar tufayli-muddati sug'urta qilingan xodimning nogironlik ro'y bergan vaqtdagi yoshiga bog'liq tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

P

Pensiya - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya

yoshiga to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi.

Pensioner - pensiya yoshiga yetgan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi tufayli doimiy ravishda pensiya to‘lovlarini oluvchi jismoni shaxs.

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi - ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi turadigan joy – pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi.

Pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etish – pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, shuningdek, ilgari to‘xtatib qo‘yilgan (to‘xtatilgan) pensiya to‘lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga ariza berish.

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi - ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

Pochta aloqasi obyektlari – "O‘zbekiston pochtasi" OAJning alohida bo‘linmalari (pochtamlar, pochta aloqasi bog‘lamalari, bo‘limlari, punktlari, shuningdek, boshqa bo‘linmalar).

Pochta aloqasi bo‘limi – foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlari, pochtaga ishlov berish va pochta almashinuvini amalgalashuvchi boshqa xizmat turlarini ko‘rsatuvchi pochta aloqasi obyekti.

Pul mablag‘larining pochta o‘tkazmasi – "O‘zbekiston pochtasi" OAJning pochta aloqasi va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda pul mablag‘larini jo‘natish va yetkazib berish (topshirish) bo‘yicha xizmati.

Pochta aloqasining mintaqaviy tashkiloti – "O'zbekiston pochtasi" OAJning, biriktirilgan hududdagi pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari va punktlarining, shuningdek, boshqa bo'linmalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qiluvchi hududiy tarkibiy bo'linmasi.

R

Rezident– O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

S

Soliqqa tortish tizimi – qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisiga aytildi.

Soliq munosabatlарining subyektlari — soliq to'lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlарining subyektlaridir.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari – soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiysi prinsiplariga asoslanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar – Soliq Kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib

berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim turdag'i boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha byudjetga tushumlarni hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi – soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar – Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan to‘lash majburiyatini yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir. Soliq to‘lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo‘yiladi: yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari o‘zлari joylashgan eridagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxsning soliq majburiyatini Soliq Kodeksida mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo‘linmalari - alohida bo‘linmaning joylashgan eridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari - doimiy muassasaning joylashgan eridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; Kodeksga muvofiq mol-mulk solig‘i va er solig‘i to‘lovchilar bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari - soliq solish obyekti joylashgan eridagi davlat soliq xizmati organida.

Soliq to‘lovchilar huquqi – davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida axborot olish. Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining, shuningdek, penya va jarimalarning hisoblangan hamda to‘langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining har bir turi bo‘yicha ochiladi. Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati – soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash, shuningdek, Soliq Kodeksida nazarda tutilgan holatlар bo‘lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar — Soliq Kodeksida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyatidir.

Soliq majburiyati - Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e‘tirof etiladi. Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to‘lovchi Kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi shart.

Soliq agentlari — Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat

organlari hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi. Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdar shaxslari tekshirilayotgan soliq to‘lovchidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarни hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq, tekshiruv maqsadlariga tegishli va tekshirilayotgan davrga taalluqqoli hujjatlarni talab qilib olishga haqli. Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalarini va turlari haqida, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolning summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnomasi berishlari shart. Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘limgan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi

Soliq mexanizmi – soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan soliqlarning tashkil qilishning barcha elementlari, usullar va tamoyillar yig‘indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekti, subyekti, manbayi, stavkasi, to‘lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi.

Soliq siyosati – davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejaliashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minalash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Soliq huquqi – soliqlarni belgilash, amalga oshirish, undirish va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ixtisoslashgan maxsus davlat nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyidir.

Soliq to‘lovchining vakillari qonunga yoki ta’sis hujjatiga muvofiq soliq to‘lovchining vakili bo‘lishga vakolatli shaxslardir.

Soliq qarzi - soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, Soliq Kodeksida belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

Soliq davri — soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo‘linishi mumkin bo‘lib, ularning yakunlari bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarini to‘lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to‘lovlarни to‘lash bo‘yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo‘lmaydi.

Soliq nazorati - soliq nazorati quyidagi shakkarda amalga oshiriladi: soliq to‘lovchilarни hisobga olish; soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarни hisobga olish; byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish; kameral nazorat; naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji; soliq tekshiruvlari; fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash; aksiz to‘lanadigan ayrim turdagи tovarlarni markalash, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag‘lari davlat daromadiga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish; boshqa majburiy to‘lovlarни undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish. Soliq nazorati amalga oshirilayotganda Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda soliq to‘lovchi to‘g‘risida axborot to‘plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatish, soliq sirini oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvi - davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir. Soliq tekshiruvi soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to‘lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilaridir. Soliq tekshiruvlarida soliq

to‘lovchining vakili ishtirok etishi mumkin. Soliq tekshiruvlari turlari: rejali soliq tekshiruvi; rejadan tashqari soliq tekshiruvi; muqobil tekshiruv.

Soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvi – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to‘lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslashdir. Qisqa muddatli tekshiruv soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

Stavka – soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodelaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining stavkalari Soliq Kodeksida nazarda tutilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

T

Tadbirkorlik yoki biznes – (ingliz tilida – *business*) deb har qanday qonuniy tijorat faoliyatiga aytildi, tadbirkorlik bilan shug‘ul-lanuvchi shaxs tadbirkor deyiladi.

Tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuzadigan subyekt.

Ta’lim oluvchi – qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy yoki oliy ta’limdan keyingi ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida ta’lim muassasasida o‘qiyotgan, ishlovchi hisoblanmaydigan jismoniy shaxs.

TMEK – hayot faoliyati cheklanganligini ekspertizadan o‘tkazish, nogironlik guruhi, sabablari, boshlangan vaqt va muddatlarini aniqlash bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum - realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo‘lgan) mablag‘lar summasi, shu jumladan, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

To‘lov manbayi - soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalgalashiruvchi yuridik shaxs;

To‘lov toshiriqnomasi – muassasani boshqa shaxsning hisobraqamiga pul o‘tkazishi ko‘rsatiladigan va ushbu muassasaga xizmat ko‘rsatadigan bankka bergen topshirig‘i mazmuniga ko‘ra tayyorlangan hisob-kitob hujjati.

To‘lov manbayi – soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalgalashiruvchi yuridik shaxs.

U

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da’vo qilish muddati o‘tishi oqibatida uzish mumkin bo‘lmagan qarz.

E

Elektron pochta – elektron hujjatlarni masofaga uzatish shakli.

Elektron hujjatlarning aylanishi – avtomatlashtirilgan axborot tizimida elektron hujjatlarning shakllantirilishi va uzatilishining tashkil qilish sxemasi.

Emissiya – pullarni va qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish.

Emitentlar – qimmatli qog‘ozlarni chiqaradigan va moliya resurslarini jaib qiladigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Elektron davlat xizmati – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Elektron davlat xizmatining reglamenti – elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

Elektron hukumatning yagona identifikatorlari – har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk obektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiya imkonini beruvchi noyob kodlar.

Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatni, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik kilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoraliqni ta'minlash, fuqarolar ehtiyojlarini hisobga olgan holda davlat xizmatlari ko'rsatishga qaratilgan davlat boshqaruvining tashkiliy shaklidir.

Elektron hukumat – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotni elektron raqamli imzoning yopik kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Elektron mehnat daftari – elektron mehnat daftaridagi yozuvlar mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotnomaga tenglashtiriladi. Elektron mehnat daftarlari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: xodimning pasport ma'lumotlari; STIR (INN) va Shaxsiy jamg'arma nafaqa hisobraqami (INPS); tahsil to'g'risidagi ma'lumotlar; ishga qabul va mehnat shartnomasi bekor qilingani sanalar (ish joyi va mutaxassisligini ko'rsatgan holda). O'zbekistonda mehnat staji va ijtimoiy sug'urta badallari elektron hisobini yuritishga o'tilishi munosabati bilan 2019-yil 1-yanvardan boshlab birinchi bor ishga

joylashayotgan xodimlarga «qog‘oz» mehnat daftarchalari berilishi to‘xtatiladi.

F

Fiskal siyosat – davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosat. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi – iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul jamg‘armalarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdir.

Favqulodda holatlar — taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘limgan, tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chkilar, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko‘zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar bo‘lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

Foizlar — har qanday turdagи qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, depozit qo‘yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Fuqarolarning ayrim toifalari – qonun hujjaligiga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat ta’minotidagi «Mehribonlik», «Saxovat», «Muruvvat» uylaridagi, jazoni o‘tash joylaridagi jismoniy shaxslar.

X

Xalqaro hisob-kitoblar – turli mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlar yuzasidan to‘lovlarni amalga oshirish tizimi. Hozirgi kunda mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari

tomonidan keng xalqaro hisob-kitoblarning turli shakllari qo'llaniladi.

Hujjatlar aylanishi – xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisob-kitob ma'lumotlarini ishlashda hujjatlarning belgilangan ketma-ketlikda o'tishi.

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtiropchilarini identifikasiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

Sh

Shaxs - pensiya va/yoki nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan va belgilangan tartibda istiqomat uchun berilgan guvohnoma olgan xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

Shaxsiy kartochka — Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining pensiya tayinlash bo'yicha komissiyasiqarori asosida shaxsga tayinlangan pensiya va nafaqa to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladigan va belgilangan shaklda rasmiylashtiriladigan hujjat.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqami – fuqarolarning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobraqami bo'lib, badal kirituvchilarining jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqam-laridagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobraqamga kelib tushadi va unda hisobga olinadi.

Shaxsiy hisobraqam – korxonalarning hisob-kitob operatsiyalari ko'rsatishga mo'ljallangan alohida ta'minotchilar, sotuvchilar va javobgar shaxslar bilan, shuningdek, kredit muassasalarining mijozlar, moliyaviy organlar va soliq to'lovchilar bilan analitik hisob-kitob yuritish bo'yicha hisobraqami.

Shikoyat – buzilgan huquklarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat.

X

Xalq banki – ish beruvchi to‘lov topshirig‘i va xodimlarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar reyestri taqdim etilgandan keyin besh ish kuni mobaynida to‘lov topshirig‘ida ko‘rsatilgan summani va reyestrda ko‘rsatilgan badallarning yakuniy summasini solishtiradi hamda yil choragida kamida bir marta fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga badallar summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritadi, bir vaqtning o‘zida ma‘lumotlarni shaxsiy hisobga olish yagona ma‘lumotlar elektron bazasiga joylashtiradi. Shaxsiy ma‘lumotlarda xatolar yoki tafovutlar aniqlangan taqdirda belgilangan muddatlarda ish beruvchilarga aniqlangan xatolar va tafovutlarni tuzatish uchun solishtirish dalolatnomalarini yuboradi. Ixtiyoriy tartibda jamg‘arib boriladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolardan tushgan shaxsiy hisobga olish ma‘lumotlari tekshiriladi va Xalq banki filialiga murojaat qilingan kunda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga kiritiladi.

Kodim – ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan mehnat munosabatlari subyekti, shu jumladan, ishlaydigan pensioner yoki davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi ishlovchi.

Xodimning qaramog‘idagi oila a’zosi – «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasida tilga olingan xodimning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga layoqatsiz oila a’zosi.

Yu

Yuridik shaxs – deb o‘zining ixtiyorida, qaramog‘ida, foydalani-shida mulkka ega bo‘lgan, o‘zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisobraqamiga ega bo‘lgan shaxslarga aytildi. O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to‘lanadigan soliq va yig‘imlarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa to‘lovlari tashkil etadi. Statistika organlarida ularning o‘z faoliyat kodlari ko‘rsatiladi. Yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjalariiga muvofiq tashkil

etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.

Ya

Yakka tartibdagi tadbirkor – tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda qo‘llaniladi. Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to‘langan taqdirda tadbirkorlik subyekti - soliq to‘lovchi o‘ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaganligi uchun jarimalar qo‘llanilishidan ozod qilinadi.

Yakka tartibdagi hisobga olish — davlat ijtimoiy sug‘urtasi, shu jumladan, davlat pensiya ta’minoti maqsadlari uchun ish beruvchi tomonidan har bir jismoniy shaxs bo‘yicha taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida elektron hisobni yuritish.

Yashash joyi - turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uyilar (yotoqxona, pansionat, yolg‘iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek, pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijaraga olish shartnomasi, ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro‘yxatdan o‘tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mayjud bo‘lmagan (doimiy ro‘yxatdan o‘tmagan) taqdirda - vaqtincha yashash (vaqtincha ro‘yxatdan o‘tish)

joyi. Soliq to‘lovchilar daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etadi. Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

Yaqin qarindoshlar – er, xotin, ota-onा, bolalar, tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar.

Q

Qaydнома — pensioner va nafaqa oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash joyi, pasport ma’lumotlari, pensiya va nafaqa to‘lov muddati hamda summasiga doir ma’lumotlar aks ettirilgan, pensiya va nafaqa to‘lovi uchun tijorat banki filiali va pochta aloqasi obyektiga taqdim etiladigan hujjat.

Qarzli moliyalashtirish — davlat tomonidan olinayotgan qarzlar davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini moliya bozoridan qarz olish yo‘li bilan mablag‘ jalb qilishdagи davlat faoliyatidir.

Qarz oluvchi — xorijdan mablag‘ jalb qilgan yohud xorijdan mablag‘ jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘rvuchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident.

Qonuniy vakil — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shunday deb e’tirof etilgan farzandlikka oluvchi, vasisy yoki homiylik qiluvchi.

O‘

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi — soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

**O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona
reyestri – soliq to‘lovchilarga oid davlat ma’lumotlar bazasi tizimi.**

H

Hisob hujjatlari – soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni aniqlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iborat.

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. 2014-yil. <http://www.lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-yil. 27 dekabr. <http://www.lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni. 1993 yil. <http://www.lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi qonuni. <http://www.lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni. 2004-yil. 2 dekabr. <http://www.lex.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1998-yil. 24 dekabr. <http://www.lex.uz/>
7. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2010-yil. 26 noyabr.
8. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuni. 2014-yil 29 oktabr. <http://www.lex.uz/>
9. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni. 2016. 16 sentabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30 maydag'i «2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va

nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1542-son qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 595-sonli qarori. 2004-yil. 21-dekabr.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 110-sonli qarori. 2005-yil. 28-iyun.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi 2302-sonli qarori. 2015-yil. 18 fevral. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 8-son, 91-modda).

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4760-son Farmoni. 2016-yil. 17 dekabr.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2455- son qarori. 2015-yil. 22 dekabr.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4760-son Farmoni. 2016-yil. 17 dekabr.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 3454-sonli qarori. 2017-yil. 29 dekabr.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2753-sonli qarori. 2017-yil. 2 fevral.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublika-sini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // Xalq so‘zi. 2017-yil. 7 fevral.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga sharh.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2826-sonli qarori. 2017-yil. 13 mart.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoyishi. 2017-yil. 28 fevral. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-y. 8-son. 119-modda.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 3231-sonli qarori. 2017-yil. 21 avgust.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2909-sonli qarori. 2017-yil. 20 aprel.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 177-sonli qarori. 2009-yil. 24 iyun.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 30-sonli qarori. 2010-yil. 19 fevral. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2010-yil. 8-son. 62-modda.).

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 252-sonli qarori. 2011-yil. 8 sentabr. (O‘zbekiston Respublikasi

qonun hujjatlari to‘plami. 2011-y., 37-son. 377-modda; 2012-y., 26-
27-son, 294-modda; 2013-y., 34-son, 458-modda; 2014-y., 20-son.,
227-modda. 2015-y. 1-son. 4-modda).

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ulug‘arolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 595-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 250-sonli qarori. 2015-yil. 29 avgust.

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida»gi nizomni tasdiqlash haqidagi 870-sonli qarori. 2017-yil. 24 oktabr.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ulug‘arolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazilgan sug‘urta badallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yakka tartibda hisobga olishning joriy etish chora-tadbirlari haqida»gi 90-sonli qarori. 2015-yil. 14 aprel. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 15-son, 179-modda).

31. «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 6-son buyrug‘i. 2015-yil. 30 yanvar. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 9-son, 105-modda)

32. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat kilish – eng oliv saodatdir. –Toshkent.: O‘zbekiston. NMIU. 2015. -304 b.

33. Karimov I. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning

mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2016-yil.

34. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olidianob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -488 b.

35. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

36. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -56 b.

37. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

38. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, New York, Random House. 1937. -R.326.

39. Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”. 2013. - 418 s.

40. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Mehnat. 2013. -418 b.

41. Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta’minoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2014. - 251b.

42. Barton Waring, C. Robert Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover.2011. 978-1-118-10636-5. -287 r.

43. Bruce S. Jansson. Social Welfare Policy and Advocacy Advancing Social Justice through 8 Policy Sectors. SAGE Publications, English. USA, 2015. 978-1483377889.

44. Dan McGill, Kyle N. Brown, John J. Haley, Sylvester Schieber, Mark J. Warshawsky. Fundamentals of Private Pensions

9th Edition. Pension Reseach Council. Oxford University Press. UK, 2010. 978-0199544516.

45. Diana M. Dinitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015. 978-0205959136.

46. William Meyer, William Reichenstein. Social Security Strategies: How to Optimize Retirement Benefits, 2nd Edition. Second edition. USA, 2015. 978-0615457536.

47. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management –USA.: «Auerbach Publications». 978-0849305481. 2008. -288 r.

48. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: «Вузовский учебник». 2011. -224 с.

49. Kasimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 472 b.

50. Martin Neil Baily, Jacob Funk Kirkegaard. US Pension Reform: Lessons from Other Countries. Peterson Institute for International Economics; 1 New edition USA, 2009. 978-0881324259.

51. Ortiqov O.A., Yakubov U.K., Ortiqov U.D., Baymuratov T.M. Magistrlik dissertasiyasini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilishni tashkil etish tartibi. Uslubiy qo‘llanma. (Oliy ta’limning 5A23000 - «Iqtisod» ta’lim sohasi ta’lim yo‘nalishlari negizida tayyorlanayotgan barcha magistratura mutaxassisliklari uchun) – T.: IQTISOD-MOLIYa. 2016-yil.–B.26.

52. Orlov S., Shemetov A. Pensionnoe obespechenie v Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. – M.: «LAP Lambert Academic Publishing. 2014. -132s.

53. Nicholas Barr, Peter Diamond. Reforming Pensions: A Short Guide 1st Edition. Oxford University Press; 1 edition, UK (November 30, 2009). 978-0812235784.

54. Непп А. Реформирование системы пенсионного обеспечения Германии и России. Учебник. – М.: «ЛАП Lambert Academic Publishing», 2012. -268с.

55. Pensions at a Glance 2013. OECD AND G20 INDICATORS.
56. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce .Public budgeting systems / Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. 978-1449627904by.-687r.
57. Robert D. Ebel, John E. Petersen. The Oxford Handbook of State and Local Government Finance. Oxford University Press. UK, 2012. 978-0199765362
58. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: «Юрайт». 2012. – 396 с.

II. Monografiya, risola, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

59. Abdullaev Z. O‘zbekistonning 2015-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari kelgusi taraqqiyoti mustahkam zamindir. // Moliya. -Toshkent. 2016. -№1. – B.5-12.
60. Abdullaev Z. Pensiya ta’mnoti tizimi va uning dolzarb muammolari. // «Xalqaro moliya va hisob» elektron jurnali. - Toshkent. 2016. -№2. oktabr. – B.1-11.
61. Abdullaev Z.A. Yoshga doir ijtimoiy nafaqaning mazmun mohiyati va uning O‘zbekistondagi pensiya ta’mnoti tizimida tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart -B.22-24.
62. Ageing Report / European Commission. 2013; Social Programs throughout the World / Social Security Administration and International Social Security Association.2013.
63. Allayorov Sh.Mirzamaxmudov M. Pensiya jamg‘armasi faoliyatining jahon amaliyotidagi taraqqiyot bosqichlari. // Moliya. - Toshkent. 2012. №4. – B.134-139.
64. Achilov U.U. Jahon mamlakatlarida pensiya ta’mnoti tizimi: omillar, indikatorlar va istiqbollar. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik

miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart. -B.181-183.

65. Baev X.I. Aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etish va boshqarish muammolari. Monografiya. «Iqtisodiyot». –Toshkent. 2012. -252 b.

66. Begalov B. Pensiya tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tiziminining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart -B.3-5.

67. «Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir». O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola. Toshkent. Ma’naviyat. 2016. – B.292.

68. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetare Fund Fiscal Attairs Department Technical Guidance Note. 2010. -201 p.

69. Vaxabov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. T.: Sharq. 2003. -320 b.

70. Voxabov A. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. Monografiya. -T.: Moliya. 2002. -293b.

71. Vahabov A.V., Muxamedova S.A. O‘zbekistonda pensiya tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari. Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2015-yil. 24 aprel. -B.506-509.

72. Disney R. Public pension reform in Europe: policies, prospects and evaluation // The World Economy. 2003. Vol 26. № 10. P. 1425–1445.
73. Djo‘raev A. 2016-yil yanvar oyi uchun jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq va majburiy to‘lovlar va badallar hisob-kitobi. // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2016. №1. -B.111-16.
74. Kasimova G.A.Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari. Monografiya. «Iqtisod-moliya». T., 2008. -113 b.
75. Kasimova G.A., Botirov A.A.Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. -108 b.
76. Kasimova G.A., Botirov A.A. Ijtimoiy soha:boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. Tamaddun nashriyoti. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. T., 2016. -216 b.
77. Kasimova G.A., Sholdarov D.A. Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. “STAR POLIGRAF” MCHJ nashriyoti. T.: 2017. -225 b.
78. Kasimova G.A., Ruxitdinov B. Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirish masalalari. // Iqtisod va moliya. 2015-yil. 9-soni. –B.23-31.
79. Kasimova G.A. Pensiya ta’minoti xavfsizligi va ijtimoiy risklar. // Iqtisod va moliya. 2016-yil. №11. –B.61-70.
80. Kasimova G.A. Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish asosida aholi bandligini ta’minalash. // Moliya. 2016. №1. 86-92.
81. Kasimova G.A.,Tursunov J. P. Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larini boshqarishning dolzarb muammolari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2016-yil. 29 aprel. -B.74-77.
82. Kasimova G.A., Djoraev X.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarishda soliq idoralarining faoliyati. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda soliq

siyosatining o‘rni. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2016-yil. 20 aprel. -B.75-76.

83. Kasimova G.A., Djoraev X.M. Pensiya ta’minotida ijtimoiy sug‘urta tizimining ahamiyati. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya va sug‘urta faoliyatini rivojlantirish strategiyasi: birinchi natijalar, muammolari va istiqbollari” mavzusidagi oliv o‘quv yurtlariaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi tezis. Toshkent moliya instituti . Toshkent. 2016-yil 21 may. B.225-227.

84. Kasimova G.A. G‘aznachilik sharoitida Davlat byudjetini samarali boshqarish. www.interfinance.uz.\\ «Xalqaro moliya va hisob» elektron jurnalı. -Toshkent. 2016. -№3. dekabr. – B.1-11.

85. Kasimova G.A. Bandlik ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishidir. \\ mailto:e-jurnal_tdiu@mail.ru «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» elektron jurnalı. -Toshkent. 2016. -№6. Noyabr- dekabr. – B.1-10.

86. Kasimova G.A., Muxitdinov A. O‘zbekiston pensiya ta’minotining huquqiy asoslari. Pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart -B.126-128.

87. Kasimova G.A., Isroilova D. Badallarni yakka tartibda hisobga olish – pensiya tizimining samaradorligini oshirishdir. Pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart -B.116-118.

88. Kasimova G.A. O‘zbekistonda pensiya ta’minotini takomillashtirish. \\ Moliya. 2017-yil. №1. –B.108-117.

89. Kasimova G.A., Ametova F.R. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya xarjatlarini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. \\ Iqtisod va moliya. 2017-yil. №2. –B.48-58.

90. Kasimova G.A., Sholdarov D.A., Muxitdinov A. Pensiya sug‘urtasida aktuar ekspertizadan foydalanishning xorij tajribalari. \\ Biznes-Ekspert. 2017-yil. №.3. –B.68-74.

91. Kasimova G.A., Sholdorov D.A. “Ijtimoiy sug‘urta” fanidan mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. – T.: 2017 -10 b.

92. Kasimova G.A., Sa’dullaeva Sh. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti tizimini rivojlantirish masalalari. \ Iqtisod va moliya. 2017-yil. №10 –B.51-57.

93. Kasimova G.A. O‘zbekistonda xorijiy davlatlar pensiya jamg‘armalari faoliyatining tajribasidan foydalanish. www.interfinance.uz.\\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnalı. - Toshkent. 2017. -№6. dekabr. – B.1-8.

94. Kasimova G.A.“Ijtimoiy himoya tizimida pensiya ta’mnoti” fanidan kurs ishini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish tartibi yuzasidan uslubiy ko‘llanma. – T.: 2018 -37 b.

95. Kasimova G.A. Pensiya jamg‘armasi daromadlarini yangi ish o‘rinlari hisobiga oshirish yo‘llari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 15 noyabr. -B.120-122.

96. Kasimova G.A., Raxmonova L. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’mnotinini takomillashtirish yo‘nalishlari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 15 noyabr. -B.176-178.

97. Kasimova G.A. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida ijtimoiy ta’mnotinning o‘rni va ahamiyati. \\ Biznes-Ekspert. 2017-yil. №.12. – B.30-33.

98. Kasimova G.A. Pensiya ta’mnotinida elektron mehnat daftalarini joriy qilish masalalari. www.interfinance.uz. \\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnalı. -Toshkent. 2018. -№2. fevral. – B.21-29.

99. Kasimova G.A.“Ijtimoiy himoya tizimida pensiya ta’mnoti” fanidan kurs ishini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish tartibi yuzasidan uslubiy ko‘llanma. – T.: 2018 -37 b.

100. Mamatov B., Xo'jamqulov D. Pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. // «Xalqaro moliya va hisob» elektron jurnali. -Toshkent. 2016. -№2. oktabr. – B.1-11.
101. Majidov N., Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/45269--pnsiya-tizimini-tartibga-solishning-xorij-tajribasi->
102. Mamadjonov I., Mirzamahmudov M. Davlat pensiya ta'minotini rivojlantirish masalalari. // Iqtisod va moliya. 2014. №5. – B.57.
103. Mahkamova Sh., Pozilova U. Qariyalarni ijtimoiy himoya qilishning xorijiy tajribasi.// Moliyachi. - Toshkent.2015.№ 7-8.
104. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
105. Nurmuxamedova B.I. Pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirishning zarurligi va yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’moti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2017-yil. 24 mart -B.66.
106. Raximov M., Qalandarova N. Ish haqi, mehnat unumдорлиги va to‘lovlar salmog‘ining qiyosiyl tahlili (O‘zbekiston va dunyo mamlakatlari misolida). // Moliya. 2017. №4. –B.83.
107. Rustamov D. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash yo‘nalishlari. Monografiya. T.: TMI. IQTISOD – MOLIYA. 2013. -152 b.
108. Соловьев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. //Журнал НЭА, №3(15), 2012.
109. Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). Р. 92–111.
110. Табах А. Внедрение накопи-тельных пенсионных систем: зарубежный опыт.
111. Umurzakov B.X. Problemi pensionnogo obespecheniya v usloviyakh rinochnix otnosheniy. Monografiya. – T.: Fan. 2005. 173 s.

112. Xaydarov A. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tahlili. // Moliya. – Toshkent. 2014. № 2.– B. 95-99.

113. YaTT sug‘urta badallarini to‘laydi! ShJBPX ga esa badallar to‘lash ixtiyoriy. \\ -T.: Soliq va bojxona xabarlari. 2013. 26 mart. 12 (972)-son.

III. Internet-sayti ma'lumotlari

114. www.lex.uzO‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

115. <http://pfru.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

116. huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi.

117. www.treasury.uz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi.

118. www.mf.uz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

119. <http://www.soliq.uz/uz> O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq

120. Qo‘mitasi.

121. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistikasi Qo‘mitasi.

122. <http://www.xb.uz> Xalq banki

123. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tiziminining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta’minlash. Development Focus/ Social reforms. 2014. №9.

http://www.cer.uz/upload/iblk/b41/bwmnvfyccrmvrtubhpx_uz.pdf

124. Axoli daromadlari va xarajatlari

125. www.uzbearingpoint.com/files/1/a2006_2_9.pdf

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	9
1.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari.....	9
1.2. Davlat pensiya tizimini isloh qilishda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining o'rni va ahamiyati.....	16
1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqligi.....	22
1.4. Davlat pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	23
Qisqacha xulosalar.....	29
Tayanch so'z va iboralar	31
Takrorlash uchun savollar	32
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar	32
Test savollar.....	32
II BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTINING MOHIYATI, AHAMIYATI VA AHOLINI IJTIMOIY QO'LLAB- QUVVATLASHDAGI ROLI	35
2.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining mohiyati va mazmuni.....	35
2.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining davlat pensiya ta'minotidagi ahamiyati	45
2.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga o'tishning zarurligi	51
2.4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi	56
2.5. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining moliya tizimi bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari	65
2.6. Aholini ijtimoiy-qo'llab-quvvatlashda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining tutgan o'rni	70
Qisqacha xulosalar.....	78
Tayanch so'z va iboralar	80
Takrorlash uchun savollar	80
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar	81

Test savollari	81
----------------------	----

III BOB. JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTI FAOLIYATINING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI 84

3.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining qonuniy asoslari	84
3.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – pensiya ta’minotining huquqiy asosi sifatida.....	90
3.3. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi va vazifalari, ijtimoiy ta’minot munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati	99
3.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotida pensiyalarни tayinlash, hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar	103
3.5. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti qonunchiligidagi so‘nggi o‘zgarishlar va rivojlanish istiqbollari	108
3.6. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotidagi o‘ziga xos muammolar va ushbu tizim taraqqiyoti masalalari.....	114
3.7. Davlat tomonidan ish bilan bandlikni tartibga solish asosida jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini ko‘paytirish	121
Qisqacha xulosalar	133
Tayanch so‘z va iboralar	135
Takrorlash uchun savollar	136
Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar	136
Test savollari	136

IV BOB JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA’MINOTINING FAOLIYAT MEXANIZMI..... 140

4.1. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti – davlat pensiya ta’minotining tarkibiy qismi sifatida	140
4.2. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining siyosati, taktikasi va strategiyasi	144
4.3. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari	153
4.4. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini boshqarish va tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ...	166
Qisqacha xulosalar	173

Tayanch so'z va iboralar	175
Takrorlash uchun savollar	176
Mustaqil o'rGANISH uchun topshiriqlar	176
Test savollari.....	176
V BOB JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARISH	180
5.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarish to'g'risida tushuncha.....	180
5.2. Boshqarish subyektlari, ularning guruhlanishi va asosiy vazifalari	183
5.3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining boshqaruv organlari, ularning vakolatlari, huquq va majburiyatlari.....	188
5.4. O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimining jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarishdagi o'rni, ahamiyati, funksiyalari va vazifalari	199
Qisqacha xulosalar.....	215
Tayanch so'z va iboralar	218
Takrorlash uchun savollar	218
Mustaqil o'rGANISH uchun topshiriqlar	219
Test savollari.....	219
VI BOB JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI MABLAG'LARINING SHAKLLANISHI	222
6.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining mazmuni va manbalari	222
6.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining tarkibi, tuzilishi va dinamikasi.....	230
6.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larini shakllantirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining ishtiropi hamda soliq idolarining ahamiyati.....	239
6.4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining shakllanishi jarayonidagi o'ziga xos muammolar	251
Qisqacha xulosalar.....	260
Tayanch so'z va iboralar	263
Takrorlash uchun savollar	263
Mustaqil o'rGANISH uchun topshiriqlar	264
Test savollari.....	264

VII BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI MABLAG'LARINING SARFLANISHI.....	268
7.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xaratjatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi	268
7.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida pensiyalarni hisoblash va to'lash tartibi.....	274
7.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida amalga oshiriladigan pensiyalar va boshqa to'lovlar	278
7.4. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laring shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash	287
7.5. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan samarali foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari	294
Tayanch so'z va iboralar	304
Takrorlash uchun savollar	304
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar	304
Test savollari	304
VIII BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI NAZORATI.....	308
8.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatini nazorat qilishning mazmuni, vazifalari va ahamiyati	308
8.2. Nazoratning turlari, shakllari va usullari.....	319
8.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti nazoratida dastlabki nazorat, joriy nazorat va so'nggi nazoratni amalga oshirishning vazifalari.....	325
8.4. Xalq banki tizimida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi nazoratini amalga oshirilishi	336
Qisqacha xulosalar	345
Tayanch so'z va iboralar	347
Takrorlash uchun savollar	348
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar	348
Test savollari	348
IX BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	351
9.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlash.....	351
9.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari barqarorligini ta'minlash.....	363
9.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan oqilona foydalanish	369

9.4. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti byudjetining balanslilagini ta'minlash	377
9.5. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash	385
9.6. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatini takomillashtirish...	392
9.7. Pensiya jamg'armasi tizimida joriy qilingan davlat interaktiv xizmatlarini yanada takomillashtirish	402
Qisqacha xulosalar.....	409
Tayanch so'z va iboralar	412
Takrorlash uchun savollar	412
Mustaqil o'rGANISH uchun topshiriqlar	412
Test savollar.....	413
GLOSSARIY	417
ADABIYOTLAR RO'YXATI	450

Qaydlar uchun

**KASIMOVA GULYAR AXMATOVNA
BOTIROV AZAMAT AXMEDOVICH
SHOLDAROV DILSHOD AZIMIDDINOVICH**

**JAMG‘ARIB BORILADIGAN
PENSIYA TA’MINOTI**

DARSLIK

*Muharrir N. Artikova
Badiy muharrir K.Boyxo‘jayev
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova*

Nashr. lits. AI № 305. 18.12.2018.
Bosishga ruxsat 19.11.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozи №2.
“Times New Roman” garniturasи.
Shartli b.t. 27,0. Nashr hisob t. 28,0.
Adadi 50 dona. 45-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

ISBN 978-9943-13-862-9

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-13-862-9.

9 789943 138629